



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**IQTISODIYOT NAZARIYASI**

**FANIDAN  
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

,

**TOSHKENT - 2012**

O‘quv-uslubiy majmua namunaviy dastur va ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida ishlab chiqilgan va “Iqtisodiy nazariya” kafedrasining 2012 - yil 28 avgustdagi majlisi .....-sonli bayonnomasi bilan, hamda Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamalakatshunoslik fakulteti Ilmiy-uslubiy kengashining 20.....- yildagi ..... - sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:**

- Xolmatov N.B - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
“Iqtisodiy nazariya” kafedrası dotsenti, i.f.n.
- Sodiqov Z.R. - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
“Iqtisodiy nazariya” kafedrası dotsenti, i.f.n.

**Taqrizchilar:**

- To‘xliyev N.T. - Toshkent davlat sharqshunoslik instituti  
“Iqtisodiy nazariya” kafedrası professori, i.f.d.
- Xoshimov P. - O‘zbekiston Milliy Universiteti  
“Iqtisodiy nazariya” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti O‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2011 yil “.....”.....dagi “.....” -sonli bayonnomasi).

## KIRISH

O‘zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligiga oqilona va samarali integratsiyalashuvi bosqichida bozor qonuniyatlariga asoslangan milliy xo‘jalik bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda, uning tarkibi, xususan, tarmoq va hududiy tuzilishi takomillashtirilmoqda. Bozor transformatsiyasi jarayonlarida milliy iqtisodiyot amal qilishi va rivojlanishida o‘ziga xos tendensiya va qonuniyatlar yuzaga chiqmoqda.

Mamlakatimizda mavjud moddiy, iqtisodiy, intellektual resurslardan oqilona foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholi turmush darajasining pasayib ketishining oldini olish va muttasil oshirib borish, inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda, tegishli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan Oliy o‘quv yurtlarini rivojlantirish dasturi amalga oshirilmoqda. Bu dasturning amaliy ahamiyatiga e‘tibor qaratib, Prezidentimiz Islom Karimov “Dasturdan ko‘zlangan asosiy maqsad – oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o‘quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondoshuvlarni hayotga tatbiq etishdan iboratdir”, deb ta‘kidladilar<sup>1</sup>. Ushbu fikrlarga asoslangan holda aytish o‘rinliki, talabalarga ta‘lim va tarbiya berish jarayonida ham yangicha yondoshuvlar ishlab chiqish, mavjud o‘quv adabiyotlari tarkibini va mazmunini takomillashtirib borish davr talabiga aylanmoqda.

Uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti yetakchi professor-o‘qituvchilarining “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan ta‘lim texnologiyasi” nomli uslubiy qo‘llanmasiga tayangan holda yozilgan bo‘lib, mazkur qo‘llanmadagi ta‘lim texnologiyalari, ularni qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar to‘la inobatga olingan<sup>2</sup>. Shuningdek, qo‘llanmani tayyorlashda ma‘ruza va seminar mashgulotlari texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta‘limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda, fanning predmeti va asosiy vazifalari, fanni ToshDShIda o‘qitish xususiyatlari e‘tiborga olingan, hamda mualliflarning o‘quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy tajribalaridan foydalanilgan.

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanini o‘qitish ta‘lim texnologiyasi, o‘qituvchidan talab qilinadigan puxta ilmiy-nazariy bilimga ega bo‘lish va pedagogik-tarbiyaviy malakani kuchaytirib borish mas‘uliyatini pasaytirmaydi, balki, talabalarga mavzularning asosiy materiallarini qisqa va tushunarli tilda etkazib berishga, bilim, ma‘lumot va axborotlarni qiyoslash, guruhlash, ta‘riflash orqali talabalarning iqtisodiy idrok va tafakkur jarayonini

---

<sup>1</sup> Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O‘zbekiston, 2011.- 37- bet.

<sup>2</sup> Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G‘afurov, G.T.Minavaro,va, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta‘lim texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. «Iqtisodiy ta‘limda o‘qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.

jadallashtirishga xizmat qiladi. Albatta, “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini chuqur o‘zlashtirish, fanning asosiy masalalarini talabalarga tushuntirish uchun 38 soatlik ma’ruza mashg‘uloti etarli hisoblanmaydi, 38 soatlik seminar mashg‘ulotlarida mavzularning ko‘p qirralarini qamrab olish qiyin kechadi. Shu munosabat bilan mazkur ta’lim texnologiyalari fan predmetining muhim jihatlarini sodda shaklda muammoli tarzda etkazishga yo‘nalgan bo‘lib, talabalarni iqtisodiy bilimlarni puxta egallashga rag‘batlantiradi.

O‘quv uslubiy majmuaning maqsadi - talabalarga iqtisodiyot nazariyasi tushunchalari va tamoyillari, milliy iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, uning shakllanish va rivojlanish tendensiyalari xamda qonuniyatlari borasidagi asosiy bilimlarni singdirish, iqtisodiy tafakkur usullarini, bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O‘quv uslubiy majmua yordamida o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr milliy iqtisodiyot amal qilishining mikro parametrlarini, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar va uy xo‘jaligi faoliyatining tamoyillarini, shart-sharoitlarini va omillarini bilib olishi, ma’ruza materiallarini o‘zlashtirish va chuqur tahlil qila olish asosida milliy iqtisodiyotiga oid nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil etish, O‘zbekistondagi islohotlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, uning natijasi, milliy iqtisodiyotning asosiy, tub muammolari, korxonalar va uy xo‘jaligi uchun maqsadga muvofiq faoliyat yo‘nalishlarini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi hamda milliy iqtisodiyotning amal qilishi, korxonalarining boshqarilishi va bozor islohotlarini chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish malakalariga ega bo‘lishi nazarda tutiladi.

“Iqtisodiyot nazariyasi” umumiy iqtisodiy fan bo‘lishi bilan birga amaliy iqtisodiyot sohalaridagi barcha muammolarni o‘rganadi, milliy iqtisodiyot rivojlanishining shart-sharoitlari va omillarini tadqiq etadi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy tizim xususiyatlarini yoritib beradi. Shuning uchun bu fanni o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Talabalarining “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini dastur doirasida yetarli saviya va darajada o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy interfaol usullaridan foydalanish, yangi axborot texnologiyalarini ushbu jarayonga tadbiiq etishga e’tibor qaratish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda, fan bo‘yicha bilim berishda va o‘qitishda ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, interaktiv va masofaviy usullardan keng foydalaniladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Statistika Davlat qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, tarmoq ilmiy tadqiqot muassasalari tahliliy materiallari, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan nashr etilgan statistik va tahliliy to‘plamlar materiallari ishlatiladi.

# IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING O'QUV DASTURI

## Kirish

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida bozor qonuniyatlariga asoslangan milliy xo'jalik qaror topmoqda va uinng institutsional jihatlarini takomillashmoqda. Transformatsiya jarayonlarida milliy iqtisodiyot barpo bo'lishi va uning jahon xo'jaligiga qo'shilishi o'ziga xos tendensiyalarni yuzaga chiqaradi va qonuniyatlar shakllanadi. O'zbekistonda ham boshqa qator davlatlar kabi resurslardan oqilona foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholi turmush darajasini yuksaltirish, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarida islohotlar olib borilmoqda.

Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiyot nazariyasi predmetini chuqur o'rganish, barcha jamiyatlarga xos bo'lgan nazariyalar, umumiy qonuniyatlardan xabardor bo'lish, nazariy yondoshuvlarning amaliy jihatlarini ilg'ab olish, bozor iqtisodiyoti rivojlanishining global va lokal masalalarini tushunish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi va ushbu fanni o'rganish zaruriyatini izohlaydi.

## O'quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o'qitishdan maqsad** - talabalarga iqtisodiyot nazariyasi tushunchalari va tamoyillari, milliy iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti, uning shakllanish va rivojlanish tendensiyalari hamda qonuniyatlari borasidagi asosiy bilimlarni singdirish, iqtisodiy tafakkur usullarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarga iqtisodiy qonuniyatlar, tendensiyalar mohiyatini tushuntirish, iqtisodiy nazariyalar, g'oyalari va yondoshuvlar evolyutsiyasini aniq tushunchalar orqali singdirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiqtisodiy nazariya doirasidagi ustuvor yo'nalishlarini o'rgatishdan iborat.

## Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Iqtisodiyot nazariyasi” fani mavzularini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- iqtisodiy nazariyaning asosiy g'oyalari, tushuncha, kategoriya va tamoyillari, yondoshuvlari, umumiqtisodiy fanlarning o'zaro mantiqiy bog'liqligini **bilishi kerak**;

- ma'ruza materiallarini o'zlashtirish orqali milliy iqtisodiyotlar, shuningdek, jahon xo'jaligi shakllanish va rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tushuna olish, iqtisodiy tushunchalar va atamalarning amaliy namoyon bo'lish shart-sharoitlari, omillarini tahlil qilish va iqtisodiy voqelikni ilmiy mushohada(idrok) etish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**;

- iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishi va yechimi, asosiy ta'limot va nazariyalarni tushunish orqali milliy iqtisodiyotning amal qilishi, boshqarilishi va bozor islohotlarini chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil etish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

## Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Iqtisodiyot nazariyasi” fani 1 – blok fani hisoblanib, bakalavriat bosqichining Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishida 1-semestrda, boshqa barcha talim yo'nalishlarida 5- semestrda o'qitiladi. Ushbu o'quv dasturiga kiritilgan savollar o'quv rejasidagi matematik va tabiiy-ilmiy fanlar - «Axborot texnologiyalari», «Oliy matematika», umumkasbiy fanlar “Iqtisodiy ta'limotlar tarixi”, “Mikro- va makroiqtisodiyot”, “Iqtisodiy statistika”, “O'zbekiston iqtisodiyoti”, “Moliya va kredit” kabi fanlarning dasturlari bilan uzviy bog'liq va uslubiy jihatdan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi mazmundadir. Fanni o'qitishda shuningdek, zamonaviy iqtisodiy nazariya va ta'limotlariga, rivojlangan, rivojlanayotgan va bozor transformatsiyasi mamlakatlariga xos bo'lgan tendensiya va qonuniyatlarga tayaniladi.

## **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

“Iqtisodiyot nazariyasi” har qanday jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligi va farovonligi, uning globallashuv shart-sharoitlaridagi faoliyati, axborotlashuv darajasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy tafakkur tarzini va ob’ektiv voqelikni idrok etish salohiyatini kengaytirishda nazariy-ilmiy va uslubiy asos bo‘lib xizmat qilaveradi. Ushbu fanning ob’ekti kengayadi, predmeti toraymaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Iqtisodiyot nazariyasi” umumiy iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalarini nazariy jihatdan tadqiq etadi, turli jamiyatlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlaydi, zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi yangi tushunchalar va atamalarning ishlab chiqilishida salmoqli rol o‘ynaydi. Shuningdek, boshqa iqtisodiy fanlar uchun uslubiy-nazariy ishlanmalarni, yondoshuvlarni, g‘oyalarni taqdim etadi. Shuning uchun bu fanni o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati yuqoridir.

## **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini yuqori darajada o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot texnologiyalarini ushbu jarayonga tadbiiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda, fan bo‘yicha bilim berishda va o‘qitishda ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, interaktiv va masofaviy usullardan keng foydalaniladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Statistika Davlat qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, yetakchi iqtisodchi-nazariyotchi olimlar tomonidan nashr etilgan statistik va tahliliy to‘plamlar, monografik izlanishlar natijalaridan keng foydalaniladi.

### **Asosiy qism**

## **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, usullari va vazifalari**

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiyotning asosiy uch muammosi. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar, ularning tarkibi va turlari. Ehtiyojlarni qondirish yollari, muammolari. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari. Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari va boshqa fanlar bilan ozaro bogliqligi.

### **Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari**

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar. Mulchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati. Mulchilik shakllari. Mulch ob’ektlari va sub’ektlari. O‘zbekistonda mulchilik munosabatlarining qaror topishi va rivojlanish xususiyatlari.

### **Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi va ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni**

Tovar ishlab chiqarishga otish jarayoni shart-sharoitlari. Tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari. Tovarining nafliligi va ayirboshlanish nisbati (qiymati). Tovar qiymati va qiymat qonuni Pulning kelib chiqishi, mohiyati va funksiyalari. Bozor islohotlari sharoitida O‘zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish jarayoni.

### **Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga otishning O‘zbekistondagi xususiyatlari**

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozor turlari va tuzilishi. Bozor iqtisodiyotiga otish yollari, ularning farqlari va umumiy tomonlari. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga otishning asosiy xususiyatlari.

### **Talab va taklif qonuni. Bozor muvozanati.**

Talab tushunchasi, talab qonuni. Talabning hajmiga va miqdoriga ta’sir etuvchi omillar. Talab elastikligi. Taklif tushunchasi, taklif qonuni. Taklifning hajmiga ta’sir etuvchi omillar. Taklif elastikligi. Bozor muvozanati.

### **Raqobat va monopoliya.**

Raqobatning mohiyati va uning iqtisodiy asoslari. Raqobat munosabatlari. Raqobat turlari. Raqobat usullari. Raqobat iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi ekanligi. Nomukammal raqobat va uning asosiy ko'rinishlari: monopolistik raqobat va oligopoliya. Antimonopol qonunchilik va uning asosiy yo'nalishi. Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida raqobatchilikning xususiyatlari.

### **Agrar munosabatlar va agrosanoat majmuasi**

Agrar munosabatlar va uning bozor tizimidagi xususiyatlari. Iqtisodiyotning agrar sektori. yer mulk va xo'jalik sifatida. yer rentasi tushunchasi. Renta turlari. Differensial renta. Absolyut renta, Monopol renta, undurma sanoatdagi renta, qurilish uchastkasidagi renta. yer narxi va unga ta'sir etuvchi omillar. Agrosanoat integratsiyasi. Agrobiznes va uning turlari.

### **Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.**

Milliy iqtisodiyot tushunchasining mazmuni. Milliy iqtisodiyot shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. YAIM. YAMM. YAlpi milliy mahsulotni hisoblash usullari. Milliy iqtisodiyot tarkibi, uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

### **YAlpi talab va yalpi taklif**

YAlpi talab tushunchasi, uning egri chizig'i va hajmiga ta'sir etuvchi omillar. YAlpi taklif tushunchasi, uning egri chizig'i va hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. YAlpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi. Milliy iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklif muvozanatligini ta'minlashda hal etilishi zarur bo'lgan muammolar.

### **Iste'mol, jamgarish va investisiyalar**

Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar. Investitsiya darajasi va funksiyasi. Investitsion faollik. Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlovchi omillar.

### **Iqtisodiy osish va milliy boylik. Iqtisodiy muvozanat va mutanosiblik.**

Iqtisodiy o'sishning mazmuni. Iqtisodiy o'sish mezonlari va asosiy ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish omillari. Iqtisodiy o'sishning turlari. Iqtisodiy o'sish samaradorligi. Milliy boylik va uning tarkibiy tuzilishi. Milliy boylik. Milliy boylikni aniqlash usullari. Iqtisodiy salohiyat va undan samarali foydalanish yo'llari.

### **Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy beqarorlik**

Iqtisodiyotning siklligi tushunchasi. Iqtisodiy sikllar nazariyasi. Iqtisodiy sikl mazmuni. Siklli tebranishlar. Sikllik tebranishlarning ko'rinishlari. Makroiqtisodiy beqarorlik ko'rsatkichlari. Sanoat mahsulotlari, investitsiya va bozor konyukturasi tebranishlari. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, uning sabablari va namoyon bo'lishi.

### **Moliya, moliya tizimining mohiyati va vazifalari**

Moliyaviy munosabatlarning mohiyati. Moliya va moliya tizimi. Fiskal siyosat. Davlat byudjeti, uning tarkibi va byudjet jarayonlari. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari. O'zbekistonda moliya va byudjet tizimi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.

### **Pul va pul-kredit tizimi.**

Pulning kelib chiqish zarurati va uning maxsus tovar sifatidagi asosiy funksiyalari. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari. Bank tizimi. Markaziy, tijorat va xususiy banklar va ularning vazifalari.

## **Bozor munosabatlarini tartibga solish, davlatning iqtisodiy roli**

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor mexanizmi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha zamonaviy nazariyalar: Keynschilik, monetar va yangi klassik modellar.

### **Jahon xo'jaligi va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi**

Jahon xo'jaligi tushunchasi. Xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy integratsiya Globallashuv va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari.

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar iqtisodiyot nazariyasi g'oyalari, tushunchalari va tamoyillarining milliy iqtisodiyotda amal qilishi shart-sharoitlarini chuqur tasavvur qilish va uning rivojlanish omillaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini misol va masalalar hamda test topshiriqlarini yechish, statistik ma'lumotlarni tahlil etish orqali mustahkamlaydilar. Bundan tashqari talabalar bilimini mustahkamlash uchun iqtisodiyot nazariyasi tendensiyalari va qonuniyatlarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish, dolzarb iqtisodiy muammolar bo'yicha maqolalar va tezislar tayyorlash, ma'ruzalar qilish ham tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti.
2. Faning asosiy tushuncha va kategoriyalari.
3. Bozor munosabatlari, mulkchilik.
4. Talab va taklif muvozanati.
5. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining bosqichlari.
6. Milliy boylik va milliy daromad.
7. Investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati.
8. Investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari.
9. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma.
10. Makroiqtisodiy o'zgarishlar va makroiqtisodiy barqarorlik
11. Moliya munosabatlari, moliya tizimi va moliya siyosati.
12. Davlat byudjeti, uning tarkibiy qismlari.
13. Soliq tizimi.
14. Monetar siyosat va bank tizimi.
15. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslari.
16. O'zbekistonning jahon xo'jaligidagi o'rni va roli.
17. O'zbekistonning mintaqaviy integratsion aloqalari.
18. Globallashuv shart-sharoitlari va yangi iqtisodiy tahdidlar

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar (statistik to'plamlar, hisobotlar, ilmiy jurnal va to'plamlar materiallari asosida) bo'yicha fan bo'limlari va mavzulari ustida ishlash;



- talabanning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzulari bilan ishlash;

- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Iqtisodiy muammo, uning mohiyati.
2. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti va vazifalari.
3. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar.
4. Iqtisodiy resurs, uning turlari
5. Ijtimoiy xo'jalik shakllari: tovar ishlab chiqarish va bozorning vujudga kelishi umumiy shart-sharoitlari
6. Ishlab chiqarish usullari
7. Iqtisodiy tizimlar
8. Mulkchilikning mohiyati va mulkchilik shakllari
9. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasi modellari
10. Bozor muvozanati
11. Raqobat va uning shakllari
12. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat
13. Tadbirkorlik rivojlanishining asosiy shart-sharoitlari
14. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish
15. Makroiqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy siyosat
16. Iqtisodiy sikl, uning bosqichlari
17. Globallashuv davrida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi
18. Tashqi iqtisodiy tahdidlar va iqtisodiy xavfsizlik tizimi.

Mustaqil ish mavzulari talabalar tomonidan tavsiya qilingan adabiyotlardan foydalangan holda darsdan tashqari o'zlashtirishni ko'zda tutadi va amaliy mashg'ulot yoki oraliq nazorat muddatlarida yozma ish yoki so'rovlar o'tkazish shakllarida nazorat qilib boriladi.

### **Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan,

- iqtisodiy tushunchalar, g'oyalar, tamoyillar, bozor iqtisodiyoti, talab va taklif mavzularida kompyuter texnologiyalari yordamida namoyish (prezentatsiya) texnologiyalaridan;

- ishlab chiqarish usullari, iqtisodiy tizimlar, mulkchilikning mohiyati va mulkchilik shakllari, bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasi modellari, bozor muvozanati, raqobat va uning shakllari muammolariga bag'ishlangan ma'ruza mashg'ulotlarida karta, chizmalar, qiyosiy tahlil materiallari, diagrammalarni ifodolovchi jadvallardan;

- milliy xo'jalik tarmoqlarida ilmiy-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, venna chizmasidan;

- tadbirkorlik rivojlanishining asosiy shart-sharoitlari, iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish, moliya-kredit va soliq munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq mavzularda kichik guruhlar musobaqasi usullaridan keng foydalanish ko'zda tutiladi.

## IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN IShChI O'QUV DASTURI

haftalar	Darslarning o'quv ma'ruzalari	Darsning shakli	Soat	Adabiyotlar	Mustaqil ish mavzulari	Nazorat shakllari	Mavzu uchun maks. ball	Mustaqil ta'lim uchun maks. ball
<b>5-semestr</b>								
1.	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, usullari va vazifalari. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari. Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari va boshqa fanlar bilan ozaro bogliqligi.	Ma'ruza	2	1,2,3,6,10,16		Kirish ma'ruza	0,5	
	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, usullari va vazifalari. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari. Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari va boshqa fanlar bilan ozaro bogliqligi.	Amaliy	2	1,2,4,6,10,12	Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari.	Suhbat	0,5	2,0
2.	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati. Mulkchilik shakllari.	Ma'ruza	2	1,2,8,12,14		Munozara Savol-javob	0,5	
	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati. Mulkchilik shakllari.	Amaliy	2	1,2,4,6,10,12		Suhbat	0,5	
3.	Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi va ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni. Tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari. Tovarining nafilligi va ayirboshlanish nisbati (qiymati). Tovar qiymati va qiymat qonuni Pulning kelib chiqishi, mohiyati	Ma'ruza	2	1,2,8,12,14		Ma'ruza	0,5	
	Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi va ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni. Tovar va tovar ishlab chiqarishning	Amaliy	2	1,2,3,5,7,12,14	Tovar qiymati va qiymat	Savol-javob	0,5	2,0

	xususiyatlari. Tovarning nafilligi va ayirboshlanish nisbati (qiymati). Tovar qiymati va qiymat qonuni Pulning kelib chiqishi, mohiyati.				qonuni			
4.	Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o'tishning O'zbekistondagi xususiyatlari Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozor turlari va tuzilishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari, ularning farqlari va umumiy tomonlari. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy xususiyatlari.	Ma'ruza	2	1,3,4,9,15,16		Ma'ruza	0,5	
	Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o'tishning O'zbekistondagi xususiyatlari Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozor turlari va tuzilishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari, ularning farqlari va umumiy tomonlari. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy xususiyatlari.	Amaliy	2	1,3,4,9,15,16	O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy muammolari.	So'rov	0,5	2,0
5.	Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o'tishning O'zbekistondagi xususiyatlari Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozor turlari va tuzilishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari, ularning farqlari va umumiy tomonlari.	Ma'ruza	2	1,3,4,9,15,16		Ma'ruza	0,5	
	Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o'tishning O'zbekistondagi xususiyatlari Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. Bozor turlari va tuzilishi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari, ularning farqlari va umumiy tomonlari.	Amaliy	2	1,3,4,9,15,16	Bozor iqtisodiyotining ziddiyatlari	Munozara	0,5	2,0
6.	Talab va taklif qonuni. Talab tushunchasi, talab qonuni. Talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar. Talab elastikligi.	Ma'ruza	2	2,,6,12,13,16		Ma'ruza	0,5	
	Talab va taklif qonuni. Talab tushunchasi, talab qonuni. Talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar. Talab	Amaliy	2	2,4,6,12,16		Munozara Savol-	0,5	

	elastikligi.					javob		
7.	Raqobat va bozor narxlarining shakllanishi. Raqobat munosabatlari. Raqobat turlari. Raqobat usullari. Raqobat iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi ekanligi.	Ma'ruza	2	1,2,9,12,14		Ma'ruza	0,5	
	Raqobat va bozor narxlarining shakllanishi. Raqobat munosabatlari. Raqobat turlari. Raqobat usullari. Raqobat iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi ekanligi.	Amaliy	2	1,2,3,12,14	Raqobat iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi	Savol-javob	0,5	2,0
8.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit tizimi. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.	Ma'ruza	2	1,3,8,9		Ma'ruza	1,0	
	Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit tizimi. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.	Amaliy	2	1,3,4,8,9		Savol-javob	1,0	
9.	Agrar munosabatlar va agrosanoat majmuasi. Agrar munosabatlar va uning bozor tizimidagi xususiyatlari. Iqtisodiyotning agrar sektori. yer mulk va xo'jalik sifatida.	Ma'ruza	2	1,2,3,4,8,9		Ma'ruza	0,5	
	Agrar munosabatlar va agrosanoat majmuasi. Agrar munosabatlar va uning bozor tizimidagi xususiyatlari. Iqtisodiyotning agrar sektori, yer mulk va xo'jalik sifatida.	Amaliy	2	1,2,3,8,9		Munozara	0,5	
	<b>1-oraliq nazorat</b>					<b>Yozma ish</b>	<b>10,0</b>	<b>5,0</b>
10.	Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Milliy iqtisodiyot tushunchasining mazmuni. Milliy iqtisodiyot shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. YAIM. YAMM. YAlpi milliy maxsulotni xisoblash usullari. Milliy iqtisodiyot tarkibi, uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.	Ma'ruza	2	1,2,3,8,9		Ma'ruza	0,5	
	Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari. Milliy iqtisodiyot tushunchasining mazmuni. Milliy iqtisodiyot	Amaliy	2	1,2,3,8,9	Milliy iqtisodiyot	So'rov, test	0,5	2,0

	shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. YAIM. YAMM. YAlpi milliy maxsulotni xisoblash usullari.				tarkibi, uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.			
11.	YAlpi talab va yalpi taklif YAlpi talab tushunchasi, uning egri chizig'i va xajmiga ta'sir etuvchi omillar. YAlpi taklif tushunchasi, uning egri chizig'i va xajmiga ta'sir qiluvchi omillar. YAlpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlik xamda uning o'zgarishi. Milliy iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklif muvozanatligini ta'minlashda xal etilishi zarur bo'lgan muammolar.	Ma'ruza	2	1,2,3,8,9		Ma'ruza	0,5	
	YAlpi talab va yalpi taklif YAlpi talab tushunchasi, uning egri chizig'i va xajmiga ta'sir etuvchi omillar. YAlpi taklif tushunchasi, uning egri chizig'i va xajmiga ta'sir qiluvchi omillar. YAlpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatlik xamda uning o'zgarishi.	Amaliy	2	1,2,3,8,9		So'rov, test	0,5	
12.	Iste'mol, jamgarish va investisiyalar Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar. Investitsiya darajasi va funksiyasi. Investitsion faollik. Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlovchi omillar.	Ma'ruza	2	1,2,3,8,9		Ma'ruza	0,5	
	Iste'mol, jamgarish va investisiyalar Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni belgilovchi omillar. Investitsiya darajasi va funksiyasi. Investitsion faollik. Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlovchi omillar.	Amaliy	2	1,2,3,8,9	Kapital qo'yilmalar samaradorligini aniqlovchi omillar.	So'rov, test	0,5	2,0
13.	Iqtisodiy o'sish va milliy boylik. Iqtisodiy o'sishning mazmuni. Iqtisodiy o'sish mezonlari va asosiy ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish omillari.	Ma'ruza	2	1,2,3,8,9		Ma'ruza	0,5	
	Iqtisodiy o'sish va milliy boylik. Iqtisodiy o'sishning mazmuni. Iqtisodiy o'sish mezonlari va asosiy ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish omillari.	Amaliy	2	1,2,3,8,9		Savol-javob	0,5	
14.	Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy barqarorlik.	Ma'ruza	2	1,2,3,5,9,8		Ma'ruza	0,5	

	Iqtisodiyotning siklligi tushunchasi. Iqtisodiy sikllar nazariyasi. Iqtisodiy sikl mazmuni. Siklli tebranishlar.			,7				
	Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy barqarorlik. Iqtisodiyotning siklligi tushunchasi. Iqtisodiy sikllar nazariyasi. Iqtisodiy sikl mazmuni. Siklli tebranishlar.	Amaliy	2	1,2,4,8,11,12	Sikllik tebranishlarning ko'rinishlari	So'rov, test	0,5	2,0
15.	Moliya, moliya tizimining mohiyati va vazifalari. Moliyaviy munosabatlarning mohiyati. Moliya va moliya tizimi. Fiskal siyosat.	Ma'ruza	2	1,2,4,9,10		Ma'ruza	0,5	
	Moliya, moliya tizimining mohiyati va vazifalari. Moliyaviy munosabatlarning mohiyati. Moliya va moliya tizimi.	Amaliy	2	1,2,3,5,9,8,7		Munozar a	0,5	
16.	Banklar va bank tizimi. Bank va banklarning funksiyalari. Monetar siyosat va bank tizimi. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Banklarning kredit siyosatining mohiyati, manbalari va vazifalari. Markaziy, tijorat va xususiy banklar va ularning vazifalari.	Ma'ruza	2	1,3,4,6,8,9		Ma'ruza	0,5	
	Banklar va bank tizimi. Bank va banklarning funksiyalari. Monetar siyosat va bank tizimi. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Banklarning kredit siyosatining mohiyati, manbalari va vazifalari. Markaziy, tijorat va xususiy banklar va ularning vazifalari.	Amaliy	2	1,2,3,4,8,9	O'zbekistonda markaziy, tijorat va xususiy banklar faoliyati	So'rov	0,5	2,0
17.	Bozor munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.	Ma'ruza	2	1,3,4,6,8,16		Munozar a	0,5	
	Bozor munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.	Amaliy	2	1,2,4,9,10,11		So'rov, test	0,5	
18.	Jahon xo'jaligi va uning rivojlanish xususiyatlari. Jahon xo'jaligi tushunchasi. Xalqaro mehnat taqsimoti va	Ma'ruza	2	1,2,3,8,12		Ma'ruza	0,5	

	iqtisodiy integratsiya Globallashuv va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi.							
	Jahon xo'jaligi va uning rivojlanish xususiyatlari. Xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy integratsiya. Globallashuv va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi.	Amaliy	2	1,3,4,6,9,15	Globallashuv va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi.	Suhbat	0,5	2,0
19.	Jahon xo'jaligi va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi Jahon xo'jaligi tushunchasi. Xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy integratsiya Globallashuv va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari.	Ma'ruza	2	1,2,3,8,12		Ma'ruza	0,5	
	Jahon xo'jaligi va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi Jahon xo'jaligi tushunchasi. Xalqaro mehnat taqsimoti va iqtisodiy integratsiya Globallashuv va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari	Amaliy	2	1,3,4,6,9,15		Suhbat	0,5	
	<b>2-oraliq nazorat</b>					<b>Yozma ish</b>	<b>10,0</b>	<b>5,0</b>
	<b>Yakuniy nazorat</b>						<b>30,0</b>	
	<b>Mustaqil ta'lim</b>							<b>30,0</b>
	<b>Jami</b>						<b>100</b>	

#### Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ruyhati

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet
3. Shodmonov Sh., Alimov R.H., Jo'raev T.T.. Iqtisodiyot nazariyasi. T.; «Moliya», 2002 y., 416 bet.
4. Jo'raev T.. Iqtisodiyot nazariyasi. (Ko'rgazmali qo'llanmalar va test savollari, 1-2-qism), Toshkent, 2004 y., 1-qism(188 bet), 2-qism (207 bet)

5. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V.. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, Toshkent, "Fan va texnologiya", 2005 y., 780 bet.
6. Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, TDYUI, 2005 y., 508 bet.
7. Egamberdiev E. Mikroiqtisodiyot. Darslik, Toshkent, 2005 y., 304 bet.
8. O'lmasov A., Vahobov A.. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik, Toshkent, 2006 y., 448 bet.
9. Abulqosimov H.P., Shodmonov Sh.Sh. – Iqtisodiy bilim asoslari. O'quv qo'llanma. T., Akademiya, 2010.
10. Курс экономической теории: учебник – 6-е исп. - Киров: «АСА», 2009.- 848с.
11. Курс микроэкономики: учебник / Р.М. Нуреев.- 2-е изд., изм. – М.:Норма : Инфра-М, 2010. -576 с.
12. Экономическая теория. Кейсы из российской практики. Бакалавриат: учебное пособие. /кол. авторов; Под ред. Н.Н Думной и М.А Эскиндарова. - М.: КНОРУС, - 256 с.
13. Экономическая теория: учебник /И.К Станковская, И.А. Стрелец. – 3-е изд., испр. – М.: Эксмо, 2008 – 448 с.
14. Экономическая теория для бакалавров: учебное пособие /С.С. Носова, В.И. Новичкова. - М.: КНОРУС , 2009. – 368с.
15. Экономическая теория. Элементарный курс: учебное пособие /С.С. Носова. - М.: КНОРУС , 2008. – 520с. 2 экз.
16. Экономическая теория. Экономическая теория. Микроэкономика- 1,2: Учебник /Под общ. ред. заслуженного деятеля науки РФ, Г.П. Журавлевой. – 4-е изд., испр. и доп. – М.: «Дашков и К<sup>0</sup>», 2008. – 934 с.
17. Экономическая теория: учебное пособие /Г.С. Вечканов Г.Р. Вечканова – М.: Эксмо, 2008. – 448 с.
18. Экономическая теория: Новейшие течения Запада: учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 416 с.
19. Экономическая теория. Экспресс курс: учебное пособие /кол. авторов; под. ред. А.Г.Грязновой, Н.Н.Думной, А.Ю.Юданова. – 4-е изд., стер. – М.: КНОРУС , 2008. – 608 с.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi maruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2010.- 281 bet
4. Abulqosimov H.P., Shodmonov Sh.Sh. – Iqtisodiy bilim asoslari. O'quv qo'llanma. T., Akademiya, 2010.
5. O. Atamirzaev, N.Tuxliev. Uzbekistan, priroda, naselenie, ekonomika. T. O'zME. 2009, 240 b.
6. Kasimov G.M., Maxmudov B.J. Osnovi natsionalnoy ekonomiki. uchebnik. T.: Mexnat , 2004, 384 s.
7. To'xliev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. O'quv qo'llanma. T. O'zME. 2004, 280 b.
8. To'xliev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. Iqtisodiy bilim asoslari. Qo'llanma. T. O'zME. 2004, 96 b.
9. O'lmasov A. Iqtisodiy bilim asoslari. T. Mehnat, 2001.
10. Ekonomicheskoe obozrenie. Ilmiy jurnal. 2000-2011 y. materiallari
11. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 1996-2011yillardagi asosiy ko'rsatkichlari. - T. 1997-2012 yy.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi to'plamlari.



# **IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN**

## **MA'RUZALAR MATNI**

### **1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda iqtisodiyot nazariyasi fanining mohiyati, iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar, fanning tahlil usullari, iqtisodiyot nazariyasi va boshqa iqtisodiy fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning mohiyati va turlari, ehtiyojlarni qondirish vositalari va usullari to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

#### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy kategoriyalar, umumiqtisodiy kategoriyalar, formasion-maxsus kategoriyalar, davriy-ohaliq kategoriyalar, iqtisodiy qonunlar, induktiv va deduktiv usullar, umumiqtisodiy fanlar, xususiy iqtisodiy fanlar, moddiy ehtiyojlar, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar, Mehnat ehtiyoji, ehtiyojlarning yuksalishi, ehtiyojlarni qondirish vositalari.

#### **Asosiy savollar**

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti.
2. Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar.
3. Iqtisodiyot nazariyasining tahlil usullari.
4. Iqtisodiyot nazariyasi va boshqa iqtisodiy fanlar.
5. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning mohiyati va turlari.
6. Ehtiyojlarni qondirish vositalari va usullari.

#### **1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti**

Iqtisodiyot nazariyasi qadimgi fanlardan biri hisoblanadi. U doim olimlar va ziyoli kishilar diqqatini jalb qilib kelgan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, iqtisodiyot nazariyasini o'rganish barcha davrlarda - Aristotel va Ksenofondan tortib to bugungi kunga qadar kishilar iqtisodiy faoliyati va xo'jalik yuritish qonunlarining harakatlantiruvchi kuchlarini bilishning ob'ektiv zaruriyatini amalga oshirishdir.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining shakllanish va rivojlanishidagi birinchi bosqich - bu merkantilizmning yuzaga kelishidir.

Merkantilistlar ta'limotining mohiyati boylikning yuzaga kelishi manbaiga berilgan ta'rifdan iborat (ularning xizmati shundaki bu to'g'rida birinchi bo'lib fikr bildirganlar). Ular o'z davrining shart-sharoitlari, boylikni qo'lga kiritish omillarini o'rganib, boylikning manbai muomala sohasidadir, boylikning o'zi esa pulda ifodalanadi, degan mazmunda xulosalar chiqarganlar.

Siyosiy iqtisodning rivojlanishidagi yangi bosqich fiziokratlar misolida ko'rinadi, ular yirik yer egalari manfaatlarini himoya qiluvchilar bo'lib maydonga kelganlar. Mazkur yo'nalishning bosh vakili va tashkilotchisi Fransua Kene (1694-1774) dir. Uning ta'limotida boylikning manbai faqat dehqonchilikdagi mehnatdir, deb hisoblanadi.

Iqtisodiyot fani keyingi bosqichda A.Smit (1723-1790) va D. Rikardo (1772-1823) asarlarida yanada rivojlantirildi. A.Smit iqtisodiy fikrlar tarixiga mumtoz (klassik) siyosiy iqtisodning asoschisi sifatida kirib keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab marjinalizm (Inglizcha "margin" so'zidan olingan bo'lib, "chegara", "chetki", ayrim hollarda "oxirgi qo'shilgan», degan ma'nolarni beradi) oqim vujudga kelib, shakllana boshladi. Uning asoschilari Avstriya iqtisodiy maktabining namoyondalari Karl Menger, Fon Vizer, Bem Bavek va boshqalar bo'lib, ular tomonidan «qo'shilgan tovar nafligi, qo'shilgan mehnat yoki resurs unumdorligi» nazariyalari ishlab chiqildi. Marjinalizm nazariyasi aniq olingan tovarga bo'lgan talab va uning bahosi o'rtasidagi bog'liqlik hamda o'zaro ta'sirni tahlil qilishda keng qo'llaniladi.

Markaziy Osiyoda iqtisodiy fikrlarning rivojlanishi Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, YUsof Xos Rojib, Alisher Navoiy va boshqa dunyoga mashhur mutafakkirlar nomlari bilan bog'liq. Ularning asarlarida iqtisodiy fikrlar hali falsafiy va butun ijtimoiy bilimlar majmuidan

ajralmagan bo'lsa-da, katta ahamiyatga ega edi. Forobiy va Ibn Sino qarashlarida insonning ehtiyojlari to'g'risidagi ta'limot markaziy o'rinni egallaydi.

Iqtisodiyot nazariyasi - kishilarning cheklanmagan ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida cheklangan resurslardan foydalanishning eng samarali yo'llarini izlash sharoitida kishilik jamiyati rivojlanishining qonunlari va qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi fandır.

Iqtisodiyot nazariyasi fani ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi to'g'risidagi fan bo'lib, uning predmeti ishlab chiqarish munosabatlaridir.

Ishlab chiqarish munosabatlari - bu hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida ob'ektiv yuzaga keladigan munosabatlardir.

Iqtisodiyot nazariyasi tarkiban o'z ichiga mikroiqtisodiyot (alohida iqtisodiy sub'ektlarning hatti-harakati) va makroiqtisodiyot (butun milliy iqtisodiy tizim hatti-harakati va amal qilishi)ni oladi. Uning tarkibida yana mezoiqtisodiyot (milliy iqtisodiyotning alohida kishik tizimlari yoki xalq xo'jaligi tarmoqlari hatti-harakati) va supermakroiqtisodiyot (butun jahon iqtisodiyotining hatti-harakati)ni ajratib ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifasi - iqtisodiy hodisalarning shunchaki talqinini berish emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqadorligini ko'rsatish, ya'ni iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va qonunlar tizimini yoritib berishdan iborat. Shu bilan u boshqa aniq iqtisodiy fanlardan farq qiladi.

## 2.Iqtisodiy kategoriyalar va qonunlar

Iqtisodiyotda turli rodisalar, jarayonlar, ular o'rtasidagi aloqalar o'rganilganda, ular konkret sharoitda (masalan, korxonada) tekshirilmaydi, balki umumnazariy, ya'ni qonun-kategoriyalar darajasida ilmiy jihatdan izorlab beriladi. Boshqacha aytganda, har bir fan o'z predmetini kategoriyalar yordamida tekshiradi.

Iqtisodiy kategoriyalar – bu iqtisodni o'rganishda qo'llaniladigan nazariy tuchunchalar bo'lib, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy in'ikosi, ifoda etilishidir.

Kategoriyalar – ilmiy fikrlash marsulidir. Ularni kundalik hayotda uchraydigan tuchunchalardan farqlash zarur. Masalan, kundalik hayotda bozor deganda, ko'pchilik yig'ilib savdo qilinadigan joy tushuniladi. Nazariyada esa bozor deganda joy emas, pul yordamida ayirboshlash, ya'ni kishilar o'rtasida oldi-sotdi munosabatlari anglanadi. Nazariyada kategoriyalar guruhlarga bo'linib o'rganiladi:

<b>K a t e g o r i y a l a r</b>		
<b>Umumiqtisodiy kategoriyalar</b>	<b>Formatsion-maxsus kategoriyalar</b>	<b>Davriy-ohaliq kategoriyalar</b>
iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqichlariga xos bo'lgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy tizimga aloqasi bo'lmagan umuminsoniy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalar.	iqtisodiy taraqqiyotning muayyan tarixiy bosqichiga xos bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tabiatiga aloqador, o'tkinchi munosabatlarni ifodalovchi maxsus kategoriyalar	umuminsoniy mazmundagi, lekin bir necha iqtisodiy tizimlar sharoitida amal qiluvchi, uzoq tarixiy davrda saqlanuvchi, ammo o'tkinchi mazmundagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalar

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy rodisalarning belgilari umumlashtirish asosida qonunlarda ta'riflanadi. Iqtisodiy qonunlar – iqtisodiy jarayonlarning turli muhim tomonlari o'rtasidagi muhim takrorlanib va yuzaga kelib turadigan uzviy iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi sabab-oqibat, aloqa bog'lanishlaridir.

<b>Q o n u n l a r</b>		
<b>Umumiqtisodiy qonunlar</b>	<b>Formatsion-maxsus qonunlar</b>	<b>Davriy-oraliq qonunlar</b>
Jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, iqtisodiyotning aniq ijtimoiy shaklidan qat'ii nazar amal qiluvchi qonunlar	Maxsus iqtisodiy qonunlar – faqat muayyan ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida amal qiluvchi, shu tizimning o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi qonunlar	Bu turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimda, ammo ma'lum davrda amal qiluvchi tizimlarning maxsus tuzumiga aloqasi bo'lmagani holda, ularni birlashtirib bog'lab turuvchi munosabatlarga xos qonunlar

Iqtisodiyot nazariyasi kategoriya va qonunlarni ular qaysi guruhga mansub bo'lmasin, yaxlitlikda olib qaraydi, qonunlarni bir tizimda o'zaro ta'sir ostida amal qilishini hisobga oladi. Kategoriya va qonunlar tizimi – iqtisodiyotga xos bo'lgan barcha, bir-birini taqozo etuvchi qonunlar va kategoriyalar majmuasidir.

### **3. Iqtisodiyot nazariyasining tahlil usullari**

Iqtisodiyot nazariyasi hodisalarni bilishga bag'ishlangan umumfalsafiy usullarni qo'llaydi. Eng avval iqtisodiyotni aks ettiruvchi, uni talqin etishga yordam beruvchi ma'lumotlar (faktlar) jamlanib baholanadi. Jamlangan ma'lumotlarga bir qator belgilariga ko'ra umumiy tarzda baho beriladi. Natijada dastlabki sinab ko'rilmagan xulosa - gipoteza olg'a suriladi. Faktlarni tartiblab xulosaga kelishda abstraksiyalash usuli asosiy usul bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyot nazariyasi tabiiy-texnikaviy fan emas; u o'z gipotezalarini tajribalar yoxud laboratoriya tahlili orqali tekshirib ko'rmaydi. U ijtimoiy fan, u iqtisodiyotdagi g'oyat ko'p qirhali, chirmashib ketgan aloqa-bog'lanishlarga duch keladi. Abstraksiyalash - bu iqtisodiyotning nazariy modelini yaratishdir. Iqtisodiyot nazariyasi predmetini o'rganishdagi uchinchi bosqich - bu nazariyani iqtisodiy siyosat bilan bog'lashdir. Nazariya iqtisodiyotga qanday tendensiyalar xos bo'lishi, uning qanday omillari ta'sirida rivojlanishi, unda qanday o'zgarishlar bo'lishini bashorat eta oladi. Shu sababli nazariya – iqtisodiy siyosatning ilmiy asosi deb aytish mumkin. Siyosat deganda nafaqat davlatning umummilliy, umumjamiyat miqyosidagi siyosatni, balki ayrim korxonalar, firmaning amaliyoti dasturini, uning qanday ratti-xarakatga qo'l urishini ham tushunish zarur.

Nazariyada induktiv va deduktiv usullar ishlatiladi. Induktiv usul deganda empirik bilimdan abstraksiyaga o'tib, nazariy xulosalar chiqarish, so'ngra ulardan iqtisodiy siyosatga o'tishni tushunish kerak. Deduktiv usuli qo'llanganda nazariyadan iqtisodiy faktlar tahliliga o'tiladi. Bunda olg'a surilgan xulosa qaytadan faktlar asosida tekshirib ko'riladi. Har ikkala usul bir-birini to'ldiradi. Nazariy xulosalar ikki - makro va mikro darajadagi iqtisodiy tahlildan kelib chiqadi. Iqtisodiyot o'rganilganda miqdor va sifat tahlili qo'llanadi. Iqtisodiyot nazariyasida qonuniyatlarni bayon etish uchun egri chiziq chizmalari, statistik jadvallar qo'llanadi.

### **4. Iqtisodiyot nazariyasi va boshqa iqtisodiy fanlar**

Iqtisodiy fanlar shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi:

1) Umumiqtisodiy fanlar, ya'ni iqtisodiyotni yaxlit olib o'rganuvchi fanlar; 2) Xususiy iqtisodiy fanlar – iqtisodning u yoki bu sohasini yoxud korxonalar iqtisodini o'rganuvchi fanlar.

Iqtisodiyot nazariyasi butun bir kompleks fanlar, ya'ni tarmoqlar iqtisodiyoti (savdo, sanoat, transport, qurilish iqtisodiyoti va r.k.), funksional iqtisodiyot (moliya, kredit, marketing, menejment, istiqbolni belgilash va boshqalar); tarmoqlararo iqtisodiyot (iqtisodiy geografiya, demografiya, statistika va boshqalar) kabi fanlarning metodologik asosidir.

Iqtisodiyot nazariyasining amaliy ahamiyati shundan iboratki, bilimlar oldindan ko'ra bilishga, oldindan ko'ra bilish esa harakatga olib keladi. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy siyosat asosida yotishi kerak, bu orqali esa xo'jalik amaliyoti sohasini yoritishi lozim. Harakat (amaliyot) bilishga, bilish-oldindan ko'ra bilishga, oldindan ko'ra bilish esa to'g'ri harakatga olib keladi. Iqtisodiy siyosat ijtimoiy ishlab chiqarish, ne'matlarni taqsimlash, ayirboshlash va

iste'mol qilish sohasidagi davlatning aniq maqsadlarga qaratilgan tadbirlari tizimidir. U jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini aks ettirmog'i lozim va milliy iqtisodiyotni mustarkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

### 5. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning mohiyati va turlari

Odamlar yashash uchun iste'mol qilishlari kerak; oziq-ovqat yeyishlari, kiyim-kechak kiyishlari, ma'lum turar-joy sharoitlariga ega bo'lishlari lozim. Odamlarga zarur bo'lgan bu narsalar tabiatda tayyor holda mavjud bo'lmaydi. Moddiy ne'matlarning manbalari mavjud bo'lsada, ularni iste'molga yaroqli narsalarga aylantirish uchun insonga kuch-quvvat, aql-idrok berilgan. Aql-idrokni ishga solib, kasb-korni egallab, moddiy imkoniyatlardan o'z rizqini hosil qilish insonlar YAIMasiga yuklatildi. Hayotiy ehtiyojlarning turlari ko'p. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, ma'naviy va ratto sof fiziologik ehtiyojlardan iboratdir. Ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar ustuvor ahamiyatga ega, chunki ularni qondirishning o'zi inson uchun birlamchi zarurat, bu ishlab chiqarishning rivojlanishini ta'minlaydi. Odamlar madaniyat, san'at, siyosat va boshqa qandaydir ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishlaridan avval, ularning birlamchi ehtiyojlari - ovqatlanish, kiyinish, boshpanaga ega bo'lish, Mehnat qilish ehtiyojlari yuzaga chiqishi tabiiy.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar - kishilarning yashashi, Mehnat qilishi va ma'lum iqtisodiy mavqega ega bo'lishi uchun iste'mol etilishi zarur mahsulotlar va xizmatlar majmuidir

Bu faqat tirikchilik ehtiyoji emas, balki insonning shaxs sifatida kamol topishi zarurati hamdir. Uning odatdagi jismoniy ehtiyojdan farqi shuki, uni Mehnat vositasida va tabiat ishtirokida qondiriladi, ya'ni u ishlab chiqarish faoliyatini talab qiladi. Ehtiyoj, avvalambor, yakka tartibda bo'ladi, chunki har bir odamning xususiyatiga qarab ehtiyoj farqlanadi. Ehtiyoj odamning jismoniy holati, Mehnati, didi va odatlariga ham bog'liq.

Jamiyatdagi ehtiyojlar o'zining turidan qat'i nazar, jamiyat iqtisodiy taraqqiyotida erishilgan daraja; jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi; hayot kechirishning tabiiy-geografik sharoiti; tarixiy-milliy an'analar va odatlar bilan bog'lanib ketadi.

Muhokama uchun matn: Iqtisodiyot qoloq bo'lsa, ehtiyojlar doirasi tor bo'ladi. Aksincha, iqtisodiyot yuksak bo'lsa, ehtiyoj keng va xilma-xil bo'ladi. Shu jihatdan o'rta asrdagi ehtiyoj bilan hozirgi asr ehtiyojini solishtirib bo'lmaydi. Yoki postindustrial bosqichdagi jamiyat ehtiyojlari bilan an'anaviy iqtisodiyotlardagi kishilar ehtiyojlari hajmi va tarkibi o'rtasida ham katta tafovutlar yuzaga chiqadi

Ehtiyoj inson hayotining ajralmas qismidir. Ammo, ehtiyoj inson uchun tug'ma belgi emas, u nasldan-naslga o'tmaydi ham. U jamiyatda insonning sub'ektiv xususiyatiga bog'liq holda yuzaga keladi. Shu sababli kishilarda u yoki bu ne'matni afzal ko'rish mavjud. Ehtiyojlar xilma-xilligidan bir odamning ehtiyoji boshqasinikiga o'xshamaydi, chunki u qat'iy ravishda yakkaleshgan. Ammo ehtiyojda bir qator yirik belgilar borki, ularga qarab ehtiyojni guruhlarga bo'lish mumkin. Bunga ehtiyojning xarakteri, uning nimaga qaratilishi asos qilib olinadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar uch qismga bo'linadi		
Moddiy ehtiyojlar	Ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar	Mehnat ehtiyoji
Moddiy ehtiyojlar azaliy, ular inson paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Ular tabiiy ehtiyojlardir. Moddiy ehtiyojlar eng zarur va hayotiy bo'lib, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, transport, aloqa, gigiena ehtiyojlaridan iborat bo'ladi. Ularning qondirilishi yashashning birlamchi sharoitidir.	Ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar asosan xizmatlar (masalan, o'qituvchi, vrach, san'at arbobi xizmati)dan iborat bo'lib, ular ma'lum faoliyat shakliga ega, ularning yaqqol moddiy ko'rinishi yo'q.	Mehnat ehtiyojining mavjudligi faqat Mehnatsiz nozu ne'matlar yaratib bo'lmasligidan emas, balki Mehnatsiz inson hayotining bo'lmasligidan, Mehnatsiz inson shaxsi kamol topa olmasligidandir. Mehnat ehtiyoji insonning o'zida mujassamlashgan, uning moddiy shakli yo'q, u ishlashga bo'lgan ishtiyokda ifoda etiladi. Mehnat ehtiyoji insonda Mehnat qilish, ijod etish qobiliyati borligidan kelib chiqadi.

Ehtiyojlar kishilarning yoshi, jinsi, oilaviy arvoli, kasbi, Mehnatining turi kabi omillarga bog‘liq. Jamiyatning umumiy ehtiyoji jamiyatda yashayotgan kishilarning yakka ehtiyojlaridan iborat ekan, umumiy ehtiyojga aholining soni va tarkibi ham ta’sir qiladi. Keyingi 200 yil ishida yer yuzidagi aholi soni deyarli 5 marta ko‘paydi. Bu ehtiyojga ta’sir etmay qolmaydi, albatta. Aholining yosh, jins, ma’lumot va kasb jihatidan tarkibiga, uning sanoat, qishloq xo‘jaligi, ilm-ma’rifat sohalarida band bo‘lishiga qarab jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar har xil miqdorda va turlarda shakllanadi.

Ehtiyojlarning cheksizligi ularning to‘xtovsiz yangilanib borishidan iborat. Bunday jarayon barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda mavjud bo‘lgan. Insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab shu kungacha ehtiyojlarning o‘shishi kuzatiladi. Ehtiyojni qondirishga intilish har doim iqtisodiy o‘shishni ta’minlab kelgan. Ehtiyoj o‘shishining to‘xtashi jamiyat hayotining to‘xtashini bildiradi. Bu esa mutlaqo mumkin emas.

<b>Ehtiyojlar yuksalishining to‘rt jhati</b>			
<b>Muayyan ehtiyoj saqlangan holda, uning kengayib, miqdoran ortib borishi.</b>	<b>Mutlaqo yangi ehtiyojlar paydo bo‘lib, uning ichki tarkibi o‘zgarishi.</b>	<b>Muayyan ehtiyojlar guruhi doirasida turli ehtiyojlar nisbatining o‘zgarishi. Bunda ehtiyoj umumiy tarzda saqlanadi, lekin uning aniq ko‘rinishlari va shakllari o‘zgaradi.</b>	<b>Bir ehtiyojning ikkinchisi bilan almashtirilishi. Bunday almashuv o‘rinbosar ehtiyojlarning paydo bo‘lishi bilan yuzaga keladi va bunday ehtiyojlar yuksak rivojlangan iqtisodiyotga xos. Bu o‘rinbosarlik mahsulotlarning sifatiga, narxiga va iste’mol uchun qulayligiga bog‘liq.</b>

Iste’molsiz ehtiyoj yuzaga kelmaydi, chunki faqat iste’mol jarayonida mahsulot va xizmatlarning naqadar foydaliligi, ya’ni ehtiyojni qondira olish xususiyatlari amaliy sinovdan o‘tadi. Shundan so‘nggina yangi ehtiyoj tarqalib, ommaviy tus oladi. Ehtiyojni qondirish uchun ishlab chiqarish yuritiladi. O‘z navbatida ishlab chiqarish yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi.

### **6.Ehtiyojlarni qondirish vositalari va usullari**

Yuksalib bohayotgan ehtiyojlarni qondirishning birdan-bir vositasi ishlab chiqarishdir. Ammo mahsulot va xizmatlarni yaratishning o‘zi hali ehtiyoj qondirilganini bildirmaydi. Yaratilgan moddiy va nomoddiy ne‘matlar iste’molga yetib borgandagina bunga erishiladi. Yaratilgan mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarning o‘zlari iste’mol etishlari shart emas, bu ko‘p hollarda yuz bermaydi ham. Shu sababli ular ayrboshlash orqali iste’molga kelib tushadi, ya’ni iste’molchilarga kerakli mahsulotlar ayrboshlanib, ehtiyoj qondiriladi.

To‘xtovsiz yuksalib boradigan ehtiyojni qondirish uchun kamyob resurslar oqilona ishlatilishi shart. Ammo resurslardan samarali foydalanish darajasi ularning kamyobliligi darajasiga teskari mutanosib bo‘ladi. Resurslar qisqargan sari ulardan to‘laroq foydalanish zarurati kelib chiqadi.

1. Yuksalayotgan ehtiyojning uni qondirish vositasi bilan aloqasi ikki yoqlama bo‘ladi:
2. Ehtiyojning miqdoran ortib borishi resurs birligidan ko‘proq iste’mol buyumlari olishni talab qiladi.
3. Ehtiyoj tarkibining yangilanishi resurs birligidan ko‘p xildagi mahsulot olishni talab qiladi.

Resursning bir mahsulot uchun ko‘p sarflanishi, uni boshqa mahsulot ishlab chiqarishdan ko‘proq ajratib olishni talab qiladi.

Ehtiyojlarning uzluksiz yuksalishi iqtisodiy o‘shishning to‘xtovsiz borishini talab qiladi. Ehtiyojni to‘laroq qondirish uchun iqtisodiy o‘shish yuksak samarali bo‘lmog‘i zarur. Resurslar sarfining birligidan olingan natija ko‘paysa, ehtiyoj yaxshiroq qonadi va aksincha. Resurslarning tejalishi ular sarfining yaratilgan mahsulot va xizmatlar birligiga nisbatan qisqarishi demakdir.

Ishlab chiqarish rivojlangan joyda ehtiyoj ham yaxshi qondiriladi. Uni iste'mol hajmi ishlab chiqarishga bog'liq ekanligidan ko'rish mumkin.

Ehtiyojlarning naqadar qondirilib borishini turmush darajasi ifoda etadi. Turmush darajasi aholi ehtiyojlarining qondirish me'yoridir. U birinchidan, ehtiyojning yuksalishi, ikkinchidan, ishlab chiqarish uni qondirishga qanchalik qodir ekanligini bildiradi.

#### **Nazorat savollari**

1. Iqtisodiyot nazariyasi qanday fan va u nimani o'rganadi?
2. Iqtisodiy kategoriya va qonunlar tizimi nima?
3. Iqtisodiyotni o'rganishda qanday tahlil usulidan foydalaniladi?
4. Iqtisodiy fanlar qanday guruhlariga bo'linadi?
5. Ehtiyoj tarkibining yangilanishi nimani talab qiladi?

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Ehtiyojlarning miqdoran ortib borishi bo'yicha esse tayyorlang.
2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ehtiyojlar yuksalishining 4 jihatidagi o'zgarishlar.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni muhimligidan kelib chiqib tasniflang.
4. Mavzu bo'yicha 30 ta tushuncha, atama va kategoriyadan iborat krossvord tuzing.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2005. I-bob, 10-45-b.
6. Борисов е. Ф. Экономическая теория: ушеб. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.54-81.
7. Куликов Л.М. Экономическая теория: ушеб. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.9-44.
8. Экономика: Ушебник. 3-е изд., перераб. и доп. / Под ред. д-ра экон. наук проф. А.С. Булатова. – М.: Экономистъ, 2005, с.27-34.
9. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008
10. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
11. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
12. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

## **2-MAVZU. IJTIMOY-IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI**

**Darsning o‘quv maqsadi:** talabalarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati, mulkchilik shakllari, mulk ob’ektlari va sub’ektlari hamda O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining qaror topishi va rivojlanish xususiyatlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o‘rganish bilan bog‘liq tayanch iboralar**

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim; monostruktuhali tizim; poliiqtisodiyot; aralash iqtisodiyot; ko‘p ukladli iqtisodiyot, mulkchilik munosabatlari, mulkchilik shakllari, mulk ob’ektlari, mulk sub’ektlari.

### **Asosiy savollar**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar.
3. Mulchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati.
4. Mulchilik shakllari. Mulch ob’ektlari va sub’ektlari.
5. O‘zbekistonda mulchilik munosabatlarining qaror topishi va rivojlanish xususiyatlari.

### **1.Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari**

Har bir tizim ma’lum davrda amal qilib, o‘z imkoniyatlarini tugallagash, uning o‘rniga yangi tizim keladi, u ham eskirib o‘z o‘rnini boshqasiga bo‘shatib beradi. Tizim – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, uni tashkil etuvchi, bir-birini taqozo etuvchi, o‘zaro ta’sir o‘tkazuvshi unsurlarning majmui bo‘lib, bunda unsurlar birgalikda amal qiladi, natijada ayrim unsurlarga xos bo‘lmagan umumiy xususiyatlar paydo bo‘ladi. Tizim – bu har xil unsurlar ta’sirida paydo bo‘ladigan umumiylikdir.

Tizim tarkibiga ishlab chiqarishning shaxsiy-insoniy va moddiy-ashyoviy omillari kiradi, ularning bir-birini taqozo etishga asoslangan yaxlitligi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari deb yuritiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimga iqtisodiy faoliyat natijasi bo‘lgan ijtimoiy, ya’ni jamiyat miqyosida yaratilgan mahsulot ham kiradi.

Hamma tizimlarda mehnat taqsimoti yuz berib, mehnat, birinchidan, ixtisoslashadi; ikkinchidan, mehnat turlari bir-biri bilan bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi. Natijada mashg‘ulot jamiyatdagi o‘zaro bog‘langan Mehnat turlarining natijasi bo‘ladi. Hamma tizimlarda mehnat turlari o‘rin almashadi, kishilar bir mehnatdan boshqa mehnatga o‘tadilar, o‘z kasbini o‘zgartiradilar. Qayerda bo‘lmasin mehnat malaka va mahoratni talab qiladi. Turli tizimlarda, ularni tashkil etuvchi unsurlar bir xil bo‘lsa-da, ularning o‘zaro bog‘lanishi har xil bo‘ladi. Shunday bog‘lanishlar orasida ishlab chiqarish omillarining birikishi mulkiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tizimda omillarning birikish usuli asosiy o‘rin tutadi, shu jihatdan tizimlar farqlanadi.

Turli tizimlarga baho berilganda ularning xalq farovonligi uchun nima bera olganligi bosh mezon bo‘ladi. Hozirgi taraqqiyot bosqishida turli tizimlarning samarali ekanligini xalq farovonligining o‘sishi ko‘rsatib turadi. Farovonlikni oshirish, bilish qobiliyati tizimning yashovshanligi yoki uning boshqasi bilan almashuvi zarurligini bildiradi.

### **2.Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar**

Insoniyat taraqqiyoti turlisha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasida keshadi, ularning o‘rtasida: albatta, muhim farqlar bor. Turli tizimlar tahlil etilganda, ularni farqlantiruvshi mezonlar asos qilib olinadi, bular ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi, mulkiy munosabatlarning xarakteri, xo‘jalik-iqtisodiy aloqalar mazmuni, xalq iste’moli darajasi, sinfiy belgilar va r. k. Tizimlar turli nazariyalarda har xil mezon asosida tabaqalashtiriladi. Marksizm nazariyasida mulkiy-sinf mezonlar asos qilinib, tizimlar formatsiya deb qaraladi. Marksizm ta’limotiga ko‘ra besh formatsiya mavjud: ibtidoiy-jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va nihoyat kommunizm.

Asrimizning 60-yillarida marksizmni almashtira oladigan ta'limot sifatida «rivojlanish bosqishlari» nazariyasi paydo bo'ldi. Mazkur nazariya tizimlarni tahlil etishda ishlab chiqaruvchi kuchlarning yetuklik darajasini mezon qilib oladi. Bu nazariya mualliflari jamiyatni ikki tipga bo'lishadi: an'anaviy jamiyat, industrial jamiyat. Shunga monand ravishda iqtisodiy rivojlanishning olti bosqishi ajratiladi: traditsion jamiyat, o'tkinshi jamiyat, industrial jamiyatga o'tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati, yangi turmush sifati bor jamiyat.

<b>Mulkiy jihatdan qaraganda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ikki toifaga ajratish mumkin.</b>	
<p><b>Monostrukturali</b> (bir tarkibli) tizimlar. Bu tizimlarning asosiy belgisi bir mulk shaklining hukmron bo'lishidir. Bu yerdagi mulkiy monopoliya xususiy mulk yoki davlat mulkining hukmronligi bilan ajhalib turadi. YAKka mulkka tayangan iqtisod monotizim yoki monoiqtisodiyot bo'ladi.</p>	<p>Turli-tuman mulk shakllariga tayangan, ayrim mulk shaklining ustivorligini inkor etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar. Ularni politizm, ularga xos iqtisodni poliiqtisodiyot deyish mumkin. Bunday tizimda mulkiy muvozanat hosil bo'ladi, hamma mulk shakllari rivojlanish sharoiti bir xil bo'ladi. U har qanday monopoliyani inkor etadi. Poliiqtisodiyot mazmunan aralash iqtisodiyotdir. Monoiqtisodiy tizim tarixan muqarhar bo'lganidek, uning o'rniga poliiqtisodiy tizimning kelishi ham zaruratdir.</p>

### **3. Mulchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati**

Har qanday jamiyatning iqtisodiy tizimi mulchilikdan boshlanadi. Mehnat orqali avloddan-avlodga o'tgan boyliklar va tabiat in'om etgan boyliklar mulk bo'lib kelgan. Mul egasi bo'lish yoki bo'lmaslikka qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqei, ularning ijtimoiy maqomi yuzaga keladi. Iqtisodiyot doimo mulkiy munosabatlarga asoslanadi. Mulchilikning qay darajada rivojlanganligi mamlakat iqtisodiy ravnaqini ko'rsatib beradi.

Mulchilik munosabatlari - jamiyatdagi boyliklarni o'zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlar. Mulchilik, birinchidan, inson bilan boylik o'rtasidagi munosabat, ikkinchidan, boylik yuzasidan kishilar o'rtasidagi munosabat. Mulchilik o'zlashtirish borasidagi munosabat bo'lar ekan, u egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishning yaxlitligini taqozo etadi. Mana shu uch jihat mulchilikning ajralmas unsurlaridir. Egalik qilish - mulkdorlik huquqining mulk egasi qo'lida saqlanib turishidir. Egalik sharoitida mulk bo'lgan boylik qisman o'zlashtiriladi. Mulkka egalik saqlangan xolda, uni amalda ishlatish o'zga qo'lida bo'ladi. Buning oqibatida mulkdan kelgan naf ikki qismga ajraladi: bir qismini mulkdor, ikkinchisini mulkni amalda ishlatuvshi o'zlashtiradi. Foydalanish, ishlatish-mulk bo'lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo'llab, xo'jalik jarayoniga kiritib, undan natija olish. Foydalanish yuz berganda boylik daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatiladi. Mulkdor o'z mulkini o'zi ishlatganda egalik qilish va foydalanish bir qo'lida bo'ladi. YA'ni mulkdor Mehnatidan topgan foydani o'zi o'zlashtiradi.

Tasarruf etish - mulk bo'lgan boylik taqdirini mustaqil ravishda etish, ya'ni mulkni sotib yuborish, ijaraga berish, merosga qoldirish, asrab-avaylab ko'paytirish yoki uni yo'qotib yuborishdan iborat xatti-xarakatlarni amalga oshira bilishdir. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-xarakatlarni qilishga raqlidir. U mulkdan qonun bilan taqiqlanmagan har qanday xo'jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshira oladi.

Monoiqtisodiyot poliiqtisodiyotning tarixiy o'tmishdoshidir. Uning doirasida har xil tizimlar amal qilgan. Kapitalistik monopolizm jamiyatning bir toifasi mulk egasi, ikkinchi toifasi mulksiz bo'lganidan ular o'rtasida ekspluatatsiya munosabati paydo bo'ladi.

Ishlab chiqarishdan bevosita maqsad-boylik orttirish bo'lganidan monoiqtisodiy tizimni insonparvar deb bo'lmaydi. Bu yerda insonning talab-ehtiyoji, boylik orttirishdek maqsadga bo'ysunadi. Xususiy mulchilikka tayangan kapitalistik monoiqtisodiyot o'zining o'tmishdoshlari bo'lgan tizimlarga nisbatan afzal tomonlarga ega edi. Eng muhim afzalligi-kapitalizmning Mehnat unumdorligini o'stira olish qobiliyatidir. Ammo uning bu imkoniyati sheksiz emas, bu imkoniyat tugallana borishi bilan monoiqtisodiyot inqirozga yuz tutib,



boshqa tizim-poliiqtisodiyot zaruratga aylanadi. Shunday rivojlanish monoiktisodiyotning sotsialistik turiga ham xos.

Ushbu fikrga yaqin o'tmishdan misollar keltiring va asoslang	Totalitar-rejali iqtisodiy tizimning asosiy belgilari iqtisodiyotni har tarafлама davlatlashtirishdan kelib chiqadi. Davlat mulki eng afzal, eng oliy mulk, rejali xo'jalik eng ustun xo'jalik, faqat sotsialistik tizim xalqqa farovonlik bera oladi, degan ta'limot hukumron bo'ladi. Davlat mukining zo'rovonligi natijasida, jamoa mulkiga yuzaki ruxsat berilsa-da, u amalda davlatlashtiriladi.
--	---

Kapitalistik monotizim industrial ishlab chiqarishdek moddiy bazani yaratganligi uning tarixiy o'rnini belgilaydi. Kapitalistik monotizim yeshib ulgurmagan jamg'arish muammosini totalitar sotsialistik tizim bajaradi. Totalitar tizim ham yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni yaratishdek vazifani bajargash, uni boshqa demokratik iqtisodiy tizim bilan almashtirish zarurati o'z-o'zidan paydo bo'ladi.

Hozirgi yuksak rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti bu tabiatan aralash iqtisodiyotdir. U turli xildagi iqtisodiy munosabatlarning qorishmasidan iborat, lekin uning asosi bozor munosabati, bu mazmunan poliiqtisodiy tizim hisoblanadi. Uning bir qator muhim belgilari mavjud.

Mulohaza uchun matn	Aralash iqtisodiyot mukammal texnika va yuksak texnologiyaga asoslanadi, qo'l Mehnatiga o'rin qolmaydi, g'oyat unumli mashinalar ishlatiladi, natijada, yuksak darajadagi Mehnat unumi va shunga ko'ra moddiy to'kinlik ta'minlanadi. Aralash iqtisodiyotda mulkiy monopoliyaga o'rin qolmaydi, aksincha bu yerda xilma-xil mulkchilik qaror topadi. Aralash iqtisodiyot ko'p ukladli, ko'p sektorli iqtisodiyotdan iborat. Aralash iqtisodiyotda asosan uch xil mulk mavjud: xususiy mulk, jamoa va davlat mulki.
---------------------	--

Aralash iqtisodiyotga daromadlar ishlab chiqarishning o'zida taqsimlanib, yuqori ish haqi berilishi xosdir. Aralash iqtisodiyot insoniy bo'lganidan ishlab chiqarishning xalq iste'molini bevosita qondiruvshi sohalari ustivor rivoj topadi.

Aralash iqtisodiyotga xos belgi milliy boylik tarkibida aholi mol-mulki rissasining ortib borishidir. Aralash iqtisodiyotda ekspluatatsiya dastlab sheklansa, keyinchalik tugatiladi. Aholining asosiy qatlamlari mulk egasi bo'lganidan va to'q yashaganidan ularda revolyutsiya yo'li bilan o'zgaralar mulkini tortib olishga moyillik bo'lmaydi. Aralash iqtisodiyotda ham iqtisodiy o'sish jamg'arishni davlat va tadbirkorlar bilan birga oddiy fuqarolar ham qatnashadi. Milliy daromadning tobora katta qismi aholiga tekkanidan, aholi jamg'armada faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

#### 4.Mulkchilik shakllari. Mulk ob'ektlari va sub'ektlari

Mulkchilik munosabati o'zining ob'ekti va sub'ektiga ega. Mulkchilik ob'ekti - bu mulkka aylangan barcha boylik turlari. Unga yer, suv, konlar, o'simlik va rayvonot dunyosi, mashinalar, mashina-uskunalar, imoratlar va inshootlar, moddiy va madaniy buyumlar, pullar, qYAIMatli qog'ozlar, mahsulotlar-xizmatlar, tarixiy yodgorliklar, ilmiy-texnikaviy g'oyalar, tovar belgilari, tovarlarning o'zi, insonning unumli va ijodiy Mehnat qilish qobiliyati kiradi. Mana shu moddiy va nomoddiy ne'matlarni o'zlashtirish yuzasidan mulkiy aloqa shakllanadi. Ne'matlar mulkka aylangandagina o'zlashtiriladi. Mulkchilik sub'ekti - mulk ob'ektini o'zlashtirishda qatnashuvshilar, mulkiy munosabatlarning ishtirokshilari.

Bular jumlasiga davlat, jumruhiyat fuqarolari, jamoalar, ularning uyushmalari, jamoat va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashmalari, xalq deputatlarining barcha kengashlari ularning vakil qilgan organlar siyosida, ajnabiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa xorijiy yuridik shaxslar va fuqarolar kiradi. Turli yuridik shaxslar va fuqarolar bitta mulkning subektlari bo'lishi mumkin. Aytilgan sub'ektlarga qarab o'zlashtirish individual, oilaviy, ijtimoiy-sinfy, hududiy va umummilliy tus oladi.

**Mulohaza qiling:** Ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatda o'zlashtirish uning darajasi va usuliga qarab har xil bo'ladi. O'zlashtirish odatda ikki xil bo'ladi: ishlab chiqarish resurslari, ya'ni vositalarni o'zlashtirish; ishlab chiqarish natijalarini o'zlashtirish. Ishlab chiqarish resurslarini o'zlashtirishda moddiy va Mehnat resurslari ishlab chiqarish soribining mulkiga aylangandan so'ng o'zlashtiriladi. Ishlab chiqarishdagi o'zlashtirish birlamshi. Bu yerda ishlab chiqarishning har ikkala omili (moddiy va inson omillari) birikadi, mahsulot va xizmatlar yaratiladi. Mana shu omillarning o'zlashtirilishiga qarab, Mehnat natijalariga nisbatan mulk shakllanadi.

Jamiyatda kishilarning mulkiy maqomiga qarab manfaat to'rt guruhga bo'linadi:			
Individual manfaat mulk egasining shaxsan o'ziga tekkan daromadda ifodalanadi;	Korporativ-guruhiy manfaat mulk egasi bo'lgan jamoaning hamjihatlik bilan o'zlashtiradigan daromadi orqali yuzaga chiqadi;	Umumdavlat manfaati. Buni davlat byudjeti daromadlari ifodalaydi;	Milliy manfaat. Milliy manfaat-jamiyatdagi milliy boylikning ko'payishini bildirib, individual, guruhiy va umumdavlat manfaatlarining birligidan iborat.
Shu to'rt manfaatlarning zamirida xususiy, jamoa, davlat va milliy mulk yotadi.			

Mulkning xarakteri va miqyosiga qarab, uni realizatsiya qilinadi, ya'ni amalga oshiriladi. Uning quyidagi usullari mavjud:

1. O'z mulkini kapital sifatida ishlatib, o'zgaralar Mehnatini qo'llab, tadbirkorlik qilish orqali foyda olish.
2. O'z mulkini ijaraga berib, ijara haqi olish.
3. Shayqovshilik qilish orqali daromad topish.
4. O'z mulkiga tayangan holda Mehnati bilan daromad topish, o'z Mehnatiga asoslangan xo'jalik yuritish yo'li bilan pul topish.
5. Pul shaklidagi o'z mulkini qarzga foiz hisobida berish.
6. Yollanib ishlash orqali o'z mulki bo'lgan ish kuchidan daromad topish, ya'ni ish haqi olish. Demak, mulk o'z egasiga naf, foyda keltiradi.

#### 5. O'zbekistonda mulkchilik munosabatlarining qaror topishi va rivojlanish xususiyatlari

Mulkiy munosabatlarda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish muhim o'rin tutadi. Davlat tasarrufidan chiqarish - davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyali jamiyatlarga, mas'uliyati sheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish - fuqarolarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob'ektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishdir.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy qonun-qoidalari:				
Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vaqtida mulkni pulli va pulsiz topshirishni qo'shib olib borish;	Pulsiz va pulli xususiylashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolar tengligi;	Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida barcha fuqarolarning ijtimoiy rimoya qilinishini ta'minlash;	Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo'lga qo'yish;	Monopoliyaga qarshi qonunlar talablariga rioya etish.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllari quyidagilardan iborat: davlat korxonasi, jamoa korxonasining aksiyali jamiyatga yoki shirkatga hamda davlat korxonasining ijara korxonasiga aylantirilishi. O'zbekiston Respublikasida davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish quyidagi shartlarga rioya etgan holda amalga oshiriladi:

◆ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllarini mehnat jamoalarining mustaqil aniqlanishi;

◆ davlat tasarrufidan shiqarilayotgan va xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoalarining ijtimoiy jihatdan murofaza qilinishini ta'minlash;

◆ boshqa respublikalar va xorijiy davlatlarning ijtimoiy va yuridik shaxslari davlat tasarrufidan chiqarilgan hamda xususiylashtirilayotgan ob'ektlarni, ularning aksiyalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Markamasi tomonidan yoki u vakil qilgan idora tomonidan belgilanadigan kvotalar bo'yicha sotib oladilar;

◆ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning to'la oshkotaligi hamda bu xaqda axborot e'lon qilish, ularni korxonalar xodimlari tomonidan, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar tomonidan nazorat qilish.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ob'ektlarini sotish tartibi, narxi, bitimlarni rasmiylashtirish tartibi, mablag'i 1991 yil 19 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonun»da batafsil bayon etilgan. O'zbekistonda tovar-pul munosabatlari rivojlanayotgan va boshqariladigan bozor sharoitida mulkchilikning barcha shakliga mansub korxonalarni barpo etish, ular faoliyatini yuritish, qayta tashkil etish va tugatishning umumiy xuquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini belgilab beruvchi "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risidagi qonun" mavjud. qonun foyda olishni ko'zlab ish olib boradigan korxonalarining mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning huquqlari va mas'uliyatini belgilaydi, boshqa korxonalar va tashkilotlar, xalq deputatlari Kengashlari, davlat boshqaruvi idoralari bilan munosabatlarini tartibga soladi.

#### **Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday me'zonlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy tizimga baho beriladi?
3. Monostruktural tizim va poliiqtisodiyotni ta'riflab bering.
4. Aralash iqtisodiyot nimalarga asoslanadi?

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda mulk masalasi qanday hal qilinadi?Javoblaringizni izohlang.
3. Mulchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavaro,va, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2006. III-bob, 63-83-b.
6. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.YAxshieva "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
7. www.stat.uz
8. www.uza.u

### **3-MAVZU. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI RIVOJLANISHI VA BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI**

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda tovar ishlab chiqarishga o'tish jarayoni shart-sharoitlari, tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari, qiymatning Mehnat nazariyasi hamda uning ahamiyati, pulning kelib chiqishi, mohiyati va funksiyalari kabilar to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

#### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Natural ishlab chiqarish; tovar ishlab chiqarish; tovarning iste'mol qiymati; tovar qiymati; aniq Mehnat; abstrakt Mehnat; umumiy ekvivalent; pulning vazifalari; qiymat o'lshovi; muomala vositasi; jamg'arish vositasi; qiymat qonuni.

#### **Asosiy savollar**

1. Tovar ishlab chiqarishga o'tish jarayoni shart-sharoitlari.
2. Tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari.
3. Qiymatning Mehnat nazariyasi. Uning ahamiyati.
4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va funksiyalari.

#### **1. Tovar ishlab chiqarishga o'tish jarayoni shart-sharoitlari**

Tovar-pul munosabatlari - bozor iqtisodiyoti mohiyatini tashkil etuvchi munosabatlar: tovar ishlab chiqarish, tovarlarni ayriboshlash va pul muomalasiga xos munosabatlarning yaxlitligidir. Kishilik jamiyati rivojlanishida tovar ishlab chiqarishdan oldin natural ishlab chiqarish mavjud bo'lgan. Natural ishlab chiqarish tarixan ibtidoiy jamoa tuzumida mavjud bo'lgan, ammo u hozirda ham primitiv tipdagi an'anaviy iqtisodiy tizimlarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Natural xo'jalikda mahsulotlar bozorda sotish uchun emas, balki xo'jalikning o'zida uning xodimlari va yaratuvshilari iste'moli uchun ishlab chiqarilgan. Natural ishlab chiqarish alohidalashgan xo'jaliklardan iborat bo'lgan. Bu esa natural ishlab chiqarishga chegaralanganlik xos ekanligini ko'rsatadi va iqtisodiy jarayonlarni bir doirada qat'iy mardudlab qo'ygan, tashqi aloqalarning shakllanishiga yo'l qo'ymagan. Natural xo'jalikda xom ashyoni topishdan tortib, mahsulotni tayyor xolga keltirishgacha bo'lgan ishlarni alohida xo'jaliklarning o'zi bajargan. Ishlab chiqarish qo'l mehnatiga asoslangan. Bu esa natural xo'jalikka bir qancha asrlar davomida universal qo'l mehnati xos bo'lganligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishning natural shakli ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarining shunday darajasiga xosdirki, bunda ishlab chiqarishning asosiy maqsadi nihoyatda shegaralangan hamda hajmi katta bo'lmagan va tarkibi jihatidan deyarli bir xil bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga bo'ysundirilgan.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanib borishi natijasida natural ishlab chiqarishga nisbatan ishlab chiqarish unumdorligining o'sishiga mukammalroq ishlab chiqarish vositalarini qo'llashga sharoit yaratadigan tovar xo'jaligi vujudga kelgan, uning kurtaklari ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davrida vujudga kelgan. Tovar ishlab chiqarish shunday xo'jalik tizimidirki, bunda mahsulot yakka, alohida ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab shiqariladi va ularning har biri biron xil mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashadi, natijada ijtimoiy talabni qondirmoq uchun mahsulotni bozorda sotish va sotib olish zarur bo'ladi. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va mavjud bo'lishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari-ijtimoiy Mehnat taqsimoti ishlab chiqaruvchilarning alohidalashuvi, ularning iqtisodiy mustaqilligidir. U yoki bu jamiyatda tovar ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tutgan o'rni, rivojlanganlik darajasi va amal qilish chegarasi shu jamiyatning mulkiy munosabatlariga va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining teranlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Tovar bozorning asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Tovar inson mehnati natijasida bozorda ayriboshlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot. U insonning ma'naviy, jismoniy, ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiradi.

#### **2. Tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari.**

Tovar ikki xossaga ega:

- a) iste'mol qiymati; b) qiymat.

Tovarning iste'mol qiymati mahsulotlarning foydali tomonidan kishilarning biron bir iste'molini qondira olish qobiliyatidan iborat va har qanday jamiyat boyligining moddiy mazmunini tashkil etadi. Tovar har doim Mehnat marsulidir, ammo tovar bo'lishi uchun bozorda ayirboshlanishi zarur. Demak, u almashuv qiymatiga ega. Tovarning almashuv qiymati nima?

Bir tovarning ikkinchi tovarga biror bir nisbatda ayirboshlanishiga uning almashuv qiymati deyiladi.

Almashuv qiymati, qiymatning namoyon bo'luvshi shaklidir. qiymatga asoslanib tovarlar hisoblanadi va bir-biriga ayirboshlanadi.

Demak, tovar ikki xossaga: iste'mol qiymati va qiymatga ega. Tovar iste'mol qiymati va qiymatning birligidan iborat, ammo bu birlik ziddiyatlidir, bir vaqtning o'zida ikki yoqlama shaklga, ya'ni ashyoviy va qiymat shakliga ega.

Tovar ishlab chiqaruvchilar qo'lida qiymat sifatida, sotib oluvchilar qo'lidaligida esa iste'mol qiymati sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham tovar sotilmasa, u qiymat sifatida tan olinmagan bo'ladi. Ushbu ziddiyat tovarlarni kerakligicha sifatli va arzon ishlab chiqarish orqali yechiladi. Tovarning ikki xossasi borligiga sabab, unda gavdalangan Mehnatning ikki yoqlama xarakterga egaligidadir.

Masalan, kostyumda-yigiruvchilar, to'qimachilar, tikuvchilar; nonda-novvoy, traktorchi, tegirmonshi va boshqalar ishtirok etadilar. Agar har bir aniq iste'mol qiymatida masalan, kostyumda ma'lum aniq mehnat gavdalansa, uning qiymatida ish kuchi sarfi sifatida umuman sarf qilingan inson mehnati gavdalanadi. Aniq mehnat turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, tikuvshining mehnati novvoy mehnatidan farq qiladi, chunki birinchisi kostyum yaratadi, ikkinchisi esa non. Inson mehnatining umuman sarflanishi nuqtai nazaridan, ya'ni insonning jismoniy, ma'naviy, ruhiy energiyasini sarf etishi nuqtai nazaridan tikuvchi va novvoy mehnati bir xildir. Demak, tovarda gavdalangan mehnat ikki yoqlama xarakterga ega. Birinchisi-aniq Mehnat. Ikkinchisi, umuman insonning mehnati va aqliy energiyasining sarfi-abstrakt mehnat. Aniq mehnat tovarning iste'mol qiymatini, abstrakt mehnat tovarning qiymatini yaratadi.

### **3. Qiymat va uning mehnat nazariyasi. Uning ahamiyati.**

Qiymat deganda mahsulot ishlab chiqarishga sarf etilgan mehnat miqdori tuchuniladi. Mehnat sarflari jonli (ish kuchi sarflari) va buyumlashgan (ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va r.k.) turlarga ajratiladi. Binobarin, "tovarning qiymati" deganda, uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar tushuniladi.

Ishlab chiqaruvchining har doim xarakat qilishiga, yangiliklarga intilishiga, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirishga nima undaydi? Bu savolga qiymat qonuni javob beradi.

***Ushbu fikrni rivojlantiring: Qiymat qonuniga binoan tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Bu qiymatning miqdori ijtimoiy zaruhiy Mehnat sarflari bilan o'lsanadi.***

Bozor iqtisodiyotining eng asosiy talabi ishlab chiqaruvchi kam Mehnat sarflab, ko'p va sifatli tovar ishlab shiqargandagina, ya'ni kishilarning talab va ehtiyojini to'laroq qondirgandagina foyda ko'rib ishlashi mumkin, aks holda sinadi. Demak, qiymat qonuni ijtimoiy Mehnatni hisobga olish, tartibga solish, vaqtni tejash va rag'batlantirish vazifalarini bajaradi.

Qiymat qonunining amal qilishi oxir-oqibat ishlab chiqaruvchilarning tabaqalashuviga olib keladi. Tabaqalashuvning kechishi faqat sarf-xarajatlardagina emas, shuningdek, bozor talabini hisobga olishga, unga moslasha bilishga ham bog'liqdir. Shunga ko'ra, qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarning mehnat unumdorligini o'stirib borishga yoki boshqa bir tovar ishlab chiqarishga o'tish uchun rag'batlantiradi.

Demak, qiymat qonunining yana bir vazifasi-tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtirishdir. Bozordagi tovar bahosi asosida qiymat yotadi. Shunga ko'ra qiymat qonuni baholar qonuni sifatida ko'rinadi. Lekin qiymat qonunining vazifasi baho qiymat bilan teng bo'lganda ham, farq qilganda ham amalga oshaveradi. Chunki eng yuqori unumdorlikka

erishgan tovar ishlab chiqaruvchilar, bir muncha vaqt yuqori daromad olib turishlari mumkin, lekin bu bilan ularning arvoli butunlay kafolatlangan deb bo'lmaydi. Agar ular texnik va tashkiliy yangiliklarni, ko'proq samara beradigan ishlab chiqarish yo'llarini muntazam qidirib topib, ishlab chiqarishga qo'llab turmasalar, bir muncha vaqtdan keyin o'z ustunliklaridan ajhalib qolishlari mumkin.

Shunga ko'ra, qiymat qonuni tovar ishlab chiqaruvchilarni Mehnat sarfini kamaytirish yoki kamaytirmaslikni tanlab olish erkinligidan marrum qiladi. Ular doimo iqtisodiy tazyiq ostida bo'ladilar va doimo ish vaqtini tejash imkoniyatlarini axtarish bilan shug'ullanishga majburdirlar. Tarix tajribasi-qiymat qonuni yaratadigan rag'batlar va tazyiq g'oyat samarali ekanligini ko'rsatadi.

#### 4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va funksiyalari

Tovar qiymati ishlab chiqarishda vujudga keladi, ammo faqat bozorda bir tovarni ikkinchisiga tenglashtirish orqali aniqlanadi.

Almashuv hozirgi zamon shakliga yetib kelgunsha bir qancha bosqishlarni bosib o'tadi. Qiymatning eng elementar shakli bir tovar qiymatining boshqa tovarda gavdalanishidir. Qiymatning oddiy shakli ayirboshlashning endigina paydo bo'lgan davriga to'g'ri keladi: bu vaqtda u hali tasodifiy xarakterga ega bo'lgan. Masalan, 10 metr mato - 2 qop g'alla. Bunda tovar ekvivalent rolini g'alla o'ynayadi.

Mehnat taqsimoti va tovar ishlab chiqarishning o'sishi almashinadigan tovarlar sonini ko'paytiradi, qiymatning to'la yoki kengaytirilgan shakli kelib chiqadi, almashish jamiyatda doimiy tus oladi. Endi tovar qiymati bir nasha tovarlarning qiymatlari bilan ifodalanishi mumkin bo'ladi, ya'ni 2 ta qo'y ( 2 qop g'alla yoki 25 metr shit yoki 3 ta bolta kabi.

Ushbu fikrni zamonaviy misollar bilan rivojlantiring	Qiymatning kengaytirilgan shakli asta-sekin uning umumiy shakliga aylanadi. Hamma tovarlar o'z qiymatini bir tovarda aks ettira boshlaydi. Masalan: 8 qop g'alla yoki 10 metr shit yoki 1 ta bolta yoki 1 ta qo'y. yoki 2 gr oltin va rokazo. Bunda tovar-ekvivalent rolini bitta qo'y o'ynamoqda. Shu yo'sinda umumiy ekvivalent kelib shiqqan va bu rolni o'ynovshi tovarning asosiy vazifasi odamlarning shaxsiy ehtiyojini emas, ijtimoiy almashuv ehtiyojini qondirishdan iborat bo'lib qoldi.
--	---

Xalqlarda va tarixning turli bosqishlarida ekvivalent vazifasini turli tovarlar bajargan. Ishlab chiqarishning yanada taraqqiy etishi, tovar almashuvining rivojlanib, savdo-sotiq ishlarining milliy doiradan chiqib ketishi, katta xalqaro bozorlarning paydo bo'lishi, yagona umumiy ekvivalent zaruriyatini keltirib shiqqan. Shu yo'sinda qiymatning pul shakli kelib shiqqan. Umumiy ekvivalent vazifasini oltin bajara boshlagan. Oltin pulga aylandi. Pul rolini tarixda boshqa materiallar ham (mis, temir, kumush) o'ynagan. Shunday qilib pul-o'ziga xos tovar, umumiy ekvivalentdir.

Pul quyidagi vazifalarni bajaradi:		
1. Pul-qiymat o'Ichovidir.	2. Pul-muomala vositasi.	3. Pul-jamg'arish vositasi.
Pul turli tovarlarning qiymatini o'lshab, miqdorini taqqoslab beradi. Tovarlar qiymatining pulda ifodalanishi tovarning bahosidir.	Tovar-pul muomalasi jarayonida pul naqd bo'lishi kerak, chunki uning yordamida tovarlar oldi-sotdi qilinadi. Tovarlarining pulga aylanishi tovar ishlab chiqaruvchining tovarni tayyorlashga sarflangan Mehnati jamiyatga kerakli deb e'tirof etilganligini bildiradi. Shuning uchun pulga tovar ayirboshlash bozor iqtisodiyotining muhim tomoni hisoblanadi.	Turli vaziyat taqozosi muomala jarayonining uzilib qolishiga olib kelishi mumkin. Buning natijasida pul muomalada bo'lmay turib qoladi. Bunday holda pul boylik to'plash vositasi vazifasini bajara boshlaydi.

Pulning vujudga kelishida asosiy sabab-tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi, Mehnat taqsimotining shuqurlashuvidir, buning natijasida ortiqsha mahsulotni ayirboshlash zaruriyati vujudga kelgan. Pul esa ayirboshlashning eng qulay vositasi bo'lganligi sababli insonlar tomonidan qabul qilingan.

### **Nazorat savollari**

1. Natural ishlab chiqarishni izorlab bering
2. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishida qanday ijtimoiy-iqtisodiy asos bo'lgan?
3. Tovarning qanday xossalari bor?
4. Pulning paydo bo'lishini nima taqozo etgan?
5. Pul vazifalarini izorlab bering?
6. Qiymat qonunining amal qilishiga misollar keltiring?

### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. O'zbekistonda rivojlanayotgan tovar-pul munosabatlarini rivojlangan davlatlarda namoyon bo'layotgan tovar-pul munosabatlariga qiyoslang.
2. Pulning zamonaviy funksiyalari bo'yicha klaster tuzing.
3. Mavzu bo'yicha 30 ta tushuncha, atama va kategoriyadan iborat krossvord tuzing.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU.V.. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
6. Shodmonov Sh.Sh. G'afurovU.V. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Mehnat» nashriyoti, 2006. IV-bob, 8-33-b.
7. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. Mualliflar jamoasi.-TDIU. IPO "Polipaper", 2005
8. Иохин В.Я. Экономическая теория: Учебник / В.Я. Иохин. – М.: Экономистъ, 2005, с.67-84, 121-128.
9. Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.128-154.
10. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.

#### 4-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTI MAZMUNI VA UNGA O'TISHNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYATLARI

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari, bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari, bozor turlari va tuzilishi, bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari, ularning farqlari va umumiy tomonlari, O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy xususiyatlari to'g'risida tushuncha va tasavvur hosil qilishdan iborat.

##### Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar

Bozor iqtisodiyoti; bozor iqtisodiyoti ob'ektlari; iqtisodiy plyuhalizm; narxlarning liberallasuvi; iqtisodiyotni erkinlashtirish bozor iqtisodiyotiga o'tish modellari; sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti; «o'zbek modeli».

##### Asosiy savollar

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.
2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.
3. Bozor turlari va tuzilishi.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari, ularning farqlari va umumiy tomonlari.
5. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy xususiyatlari

##### 1.Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari

Bozor iqtisodiyotining asl, lo'nda ma'nosi - iqtisodiyotni tashqaridan tartibga solish tajribasidan voz kechib, o'zini o'zi boshqaradigan mexanizm yaratishdir. Ana shu o'zini o'zi tartibga solib, yo'naltirib, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlab turadigan yangi bozor mexanizmi markazida inson turadi, inson omili yotadi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotidir. yer yuzidagi ko'pgina mamlakatlar har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan rivojlanib bormoqda.

Hozirgi dunyoda, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida iqtisodiyot haqida gap ketganda faqat bozor iqtisodiyoti tushuniladi. Hozirgi zamon nazariyalarida bozor iqtisodiyoti deganda iqtisodiy xatti-harakatlarning erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning bozor mexanizmi orqali bir-biriga bog'lanib muvofiqlashuvi tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti g'oyat ko'p qirhali va murakkab iqtisodiyotdir. Uning mohiyatini anglash uchun unga xos tub belgilarni yaxlitlikda olib qarash kerak. Bu belgilar shakllanib ulgurgan, aralash iqtisodiyotga aylangan bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga keladi, bu esa hozirgi eng rivojlangan mamlakatlarda aniq ko'rinadi.

Bozor iqtisodiyotining quyidagi sub'ektlari mavjud:		
a) iqtisodiy mustaqil mulk egasi yoxud iste'molchi bo'lgan ayrim kishilar yoki guruhlar.	b) firma, korxonalar, xo'jaliklar, ularda band bo'lgan tadbirkorlar.	v) davlat, aniqrog'i, davlatning barcha markama-idora tashkilotlari.
Bulgarga odatda yollanib ishlovshilar, yer egalari, kapital soriblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmay, o'z mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi	Ular foyda olish yo'lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar	Ular ham ishlab chiqarish, ham iste'mol bilan shug'ullanadilar, bozor va unda qatnashuvshilar faoliyati ustidan nazorat qiladilar

Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy mo'ljalga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish yo'nalishiga ega bo'lgan va boshqarilib turuvchi iqtisodiyotdir. O'ziga xos mulkiy munosabatlari, ijtimoiy yo'nalishlari va tartiblanib turish usullari jihatidan bu tizim kapitalistik iqtisodiyotdan va tarixda mavjud bo'lgan sobiq sotsialistik iqtisodiyotdan farq qiladi.

Bozor iqtisodiyoti ishtirokchilari o'zaro aloqaga kirishadilar. Ish kuchi, yer, kapital va boshqa vosita egalari ularni korxonalar, firmalarga sotadi. Ular o'z navbatida ishlab chiqarish omillaridan foydalanib, tovar va xizmatlar yaratadilar, ularni taklif etadilar.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim belgisi-iqtisodiy plyuhalizm hisoblanadi, ya'ni mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining turli-tuman bo'lishidir. Turli shakllardagi



mulklar erkin, yonma-yon, rech bir chegaralanmagan holda rivojlanadi. Turli mulklar muvozanatda bo'lib, ayrim mulk shaklining hukumronligiga yo'l berilmaydi. Xo'jalik yuritish usullari ham har xil bo'ladi. Yakka tartibda, jamoa-uyushmaga birikkan holda, sherikchilik-paychilik yoxud aksionerlik asosida, o'z mablag'iga yoki qarzga olingan mablag'ga tayanib xo'jalik yuritish, yer va boshqa vositalarni ijaraga olish va ishlatish kabilar birgalikda boradi.

<p>Bozor iqtisodiyoti to'g'risidagi ushbu fikrlarni o'zingizning kuzatishlaringiz asosida rivojlantiring.</p>	<p>Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir. Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosi ishlab chiqarish omillari yoki yaratilgan tovarlarning mulk ob'ekti bo'lishi, mulkdorlarning esa mustaqillikka ega bo'lishidir. Ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi o'z tovarini yoki pulini o'zi bilganisha ishlatadi. Bozor iqtisodiyoti erkin bo'lganidan u har qanday iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Iqtisodiy monopolizm - korxonalar, tashkilot yoxud davlatning umuman iqtisodiyotda yoki uning biror sohasida tango hukumronlik qilishi. Iqtisodiyotdagi monopolizm ishlab chiqarishning o'zida, savdo-sotiqda, kredit-bank tizimida yoki iste'mol doirasida mavjud bo'ladi. Iqtisodiyotdagi monopolizmning tayanshi muayyan mulk shaklining tango hukumronligidir. Bunday mavqe esa siyosiy xokimiyat va g'oyaviy sohadagi monopolizmni yuzaga chiqaradi.</p>
---	--

Iqtisodiy taraqqiyotga yo'l o'shish uchun iqtisodiyotdagi monopolizmni tugatish zarur, chunki monopoliya o'z tabiatiga ko'ra ishlab chiqarishda turg'unlik paydo qiladi, hukumron mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay, foyda ko'rish mumkin, raqobatning yo'qligi yoki zaifligidan foydalanib, bozorda o'z izmini o'tkazishi mumkin. Monopoliya turg'unlikni yuzaga chiqaradi, tashabbusni chegaralaydi. Shu sababli bozor iqtisodiyoti u bilan chiqisha olmaydi. Mana shu jihatdan bozor iqtisodiyoti antimonopol yo'nalishga ega.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zaro munosabatlar manfaatlarni ko'zlagan holda o'rnatiladi. Ish yuzasidan bo'lgan munosabatlar (shariklik) erkin shakllanadi. Turli ishlab chiqaruvchilar bir-biri bilan manfaatli aloqa o'rnatadilar. Bozorda esa xaridor bilan sotuvshi bir-birini erkin tanlaydi. Bozor iqtisodiyotida tovar taqchilligi bo'lmaydi, shu sababdan bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste'molchi (xaridor) o'z izmini o'tkazadi, tovar va xizmatlarning sifatiga va narxiga qarab tanlab olish imkoniga ega bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining yana bir belgisi narxlarning liberallasuvi, ya'ni narx-navoning erkin tashkil topishidir. Tovarlar narxini davlat yuqoridan belgilamaydi, narx ayrim ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi tazyiqi ostida shakllanmaydi. Narx bozordagi talab va taklifga qarab, xaridor bilan sotuvshining savdolashuviga binoan yuzaga keladi.

Bozor iqtisodiyoti moslashuvshan iqtisodiy tizimdir. U sharoit o'zgarishlariga darhol javob beradi, nima yetishmasa, shuni darhol ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Uning muhim belgilaridan yana biri innovatsiyaga moyillikdir. U fan-texnika yangiliklarini darhol qabul qiladi, yangi tovarlarni, yangi texnologiyani va ishlab chiqarishni boshqarish usullarini joriy etishni ta'minlaydi, chunki bu raqobatda yutqazmaslik, yaxshi foyda ko'rish, obro'-e'tibor orttirish sharti bo'lib xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti tovarlar va xizmatlar to'kinshiligini yuzaga keltiradi, ko'pshtilik tovarlardan eng yaxshisini tanlab olgan holda ehtiyojni qondirish imkonini beradi.

Ammo bozor iqtisodiyotini hamma dardga davo deb, uni haddan tashqari olqishlash unga xolisona baho berishdan yiroq. Uning o'ziga xos muammolari, zaif tomonlari ham yo'q emas. Bozor iqtisodiyoti millionlab ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning faoliyati bo'lganidan unga tarqoqlik va xudbinlik (egoizm) ham xos. U o'z-o'zidan davlat va jamoatshilik ishtirokisiz tabiatni murofaza etish, ekologik muvozanatni ta'minlashni yuzaga shiqarmaydi. Jamiyat uchun zarur bo'lgan, lekin xarajatlar qaytimi sekin bo'ladigan, katta mablag' talab qiladigan inshootlar va binolarning qurilishi rag'batlantirmaydi. Darhol foyda keltirmaydigan, lekin ilm-ma'rifat kelajagi uchun muhim bo'lgan nazariy izlanishlarni ham rag'batlantirmaydi. Bozor iqtisodiyoti ham sakrab-sakrab, siklli ravishda rivojlanadi, iqtisodiy yuksalishlar bilan birga inqiroz va tanglik ham paydo bo'ladi. Bozor iqtisodiyotining

ham, har qanday iqtisodiyot kabi, o'z rivojlanish qonunlari mavjud. Unga xos qonunlar tizimini ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) umumiy iqtisodiy, lekin bozor iqtisodiyotida ham amal qilishda davom etgan qonunlar;

b) faqat bozor iqtisodiyotining o'ziga xos bo'lgan qonunlar. Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan tub belgilar sekin-asta shakllanib, pirovard natijada yaxlit iqtisodiy tizimni hosil etadi. Bu jarayon murakkab bo'lganidan, uzoq davom etadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish XX asrga xos bo'lgan umumbashariy, ya'ni umumjahon voqeligidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish kishilarning xorish irodasi emas, balki, ob'ektiv zaruratdir. Insoniyat tajribasi ko'rsatganidek, hozirgi zamon bozor munosabatlari zaminidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, ko'plab va sifatli tovarlar yaratish, ularga bo'lgan talabni qondirish, tejamli xo'jalik yuritish, to'kinshilik yaratib, xalqni farovon turmush sari yo'llash, ralol va samarali Mehnatni qadrlash, adolatni o'rnatish mumkin. Bozor munosabatlari tizimida shunday rag'bat kuchi jamlanganki, u muttasil iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi. Xalqaro tajriba ko'rsatganidek, bozor iqtisodiyotiga o'tishning ikki shakli yoki modeli mavjud. 1) G'arbiy yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li; 2) mustamlakashilikdan ozod bo'lib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari yo'li.

## 2.Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari

Ma'lumki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumjahon voqeasiga aylanishi XX asrning muhim belgisidir. Insoniyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti bir qator muammolarni samarali tal etadi, xususan:

- muttasil ravishda ishlab chiqarishni o'stirib, to'kinchilikni ta'minlash;
- tejamli xo'jalik yuritib, barcha resurslardan oqilona foydalanish;
- ommaviy farovonlikni ta'minlash;
- mazmuni yoki shaklidan qat'i nazar ralol va samarali Mehnatning qadriga yetish;
- umuminsoniy ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tadbiiq etish.

Bozor iqtisodiyotining tamoyillari, qonun-qoidalari umum insoniy, ammo boriladigan marra bir xil bo'lsa-da, uning yo'llari har xildir.

## 3.Bozor turlari va tuzilishi

YUqorida qayd qilinganidek, bozor iqtisodiyoti deganda hozirgi rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiyot tushuniladi.

Tarixiy nuqtai nazardan bozor iqtisodiyotining ikki turi mavjud. Birinchisi - asov yoki yovvoyi bozor iqtisodiyoti. Bunday iqtisodiyotning asl namunasi 18-19 asrlarda bo'lgan. Uning ba'zi bir alomatlarini rozir ham ushrib turadi.

Yovvoyi bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari
• YAKka egalikdagi xususiy muklning hukumron bo'lishi, mulkning ozshilik qo'lida to'planishi
• Iqtisodiyotning stixiyali o'sishi, ya'ni iqtisodiy beboshlik va tartibsizlikning kuzatilishi
• Noma'lum bozor uchun ko'r-ko'rona ravishda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularning sotilish yoki sotilmasligining noma'lumligi
• Raqobat kurashining qonun-qoidasiz, terror, zo'ravonlik, qalloblik kabi g'ayriinsoniy usullar bilan borishi
• Tadbirkorlar o'rtasidagi sherikshilik aloqalarining tasodifiy bo'lishi
• Davlatning iqtisodiyotga aralashmasligi, undan chetlashib qolishi
• Tartibsizlik natijasida kushli iqtisodiy tangliklar va bo'rronlarning kelib shiqishi, iqtisodiy talafotlarning yuz berishi
• Kishilarning o'ta boy va o'ta kambag'allarga ajhalib qolishi, ular o'rtasidagi sinfiy kurashning mavjudligi, ijtimoiy muvozanatning yo'qligi

Bunday iqtisodiyotni asov daryoga tenglashtirish mumkin. Asov daryo tartibsiz oqadi, uning o'zaklari tez o'zgarib turadi, uning suvini tartibga soluvchi to'g'onlar, suv omborlari bo'lmaydi. Bunday daryo nafaqat obi-hayot olib keladi, balki uning toshqinlari qirg'oqlarni yuvib ketish bilan talafot ham keltiradi.

Ammo yovvoyi iqtisodiyot abadiy saqlanmaydi. U sivilizatsiyalashgan yoki madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga aylanib boradi.

<b>Taraqqiy etgan bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari</b>
• Asosiy bo‘lib hisoblangan xususiy mulk bilan bir qatorda boshqa mulk shakllari ham xarakatda bo‘ladi, mulkiy muvozanat yuzaga keladi.
• Iqtisodiyotdagi beboshlik qattiq cheklanadi, iqtisodiyot tartiblanadi.
• Bozor talabni hisobga oladi, ishlab chiqarish talabga moslashadi, bozordagi noma’lumlik aryon-aryon uchrab turadi.
• Raqobat kurashi belgilangan qoidalarga binoan ralol boradi, uning madaniy usullari qo‘llaniladi.
• Iqtisodiyot sub’ektlari (ishtirokchilari) o‘rtasidagi doimiy va uzoq davrga mo‘ljallangan, o‘zaro manfaatli sherikshilik aloqalari o‘rnatiladi.
• Davlat iqtisodiy hayotga aralashadi, o‘z shora-tadbirlari bilan iqtisodiy tamoyillarning amal qilishi uchun sharoitlar yaratadi.
• Iqtisodiyot tartiblanib turganidan shuqur iqtisodiy tangliklar yuz bermaydi yoki iqtisodiy tanglikdan tezda shiqiladi.
• Iqtisodiyot yuqori darajada rivojlanganligi uchun jamiyat boy bo‘ladi, tadbirkorlik, shu sababdan, faqat foyda topish uchun emas, balki el og‘ziga tushish, obro‘-e‘tiborli bo‘lish uchun ham olib boriladi.
• Iqtisodiyot ijtimoiy yo‘naltirilgan, ommaviy farovonlikni ta‘minlashdek aniq mo‘ljalga ega bo‘ladi.
• Kishilarning iqtisodiy jihatdan tabaqalanishi chegaralanadi, o‘ziga to‘q, o‘rtarol aholi asosiy ijtimoiy qatlamga aylanadi.

Shu boisdan jamiyatda ijtimoiy muvozanat saqlanib, kishilar o‘rtasida to‘qnashuvlarga o‘rin qolmaydi. Hozirgi davrda bozor iqtisodiyotiga o‘tish deganda sivilizatsiyalashgan iqtisodiyot sari borish tushuniladi.

#### **4.Bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari**

Bozor iqtisodiyotining oldingi mavzuda tilga olingan belgilari uzoq davr davomida shakllanib, pirovard natijada yaxlit ijtimoiy tizimni tashkil qiladi.

Bunda bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘llari (modellari) xilma-xil bo‘lib, ularning umumiy va xususiy tomonlari farqlanadi.

<b>Jahon tajribasida bozor iqtisodiyotiga o‘tishning barcha yo‘llari umumlashtirilib, quyidagi uchta asosiy modelga bo‘linadi:</b>		
<b>Rivojlangan mamlakatlar yo‘li</b>	<b>Rivojlanayotgan mamlakatlar yo‘li</b>	<b>Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo‘li</b>

Bu yo‘llarning umumiyligi shundaki, ularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o‘tishni maqsad qilib qo‘yadi va mazkur iqtisodiyotning qonun-qoidalari, amal qilish mexanizmi ko‘p jihatdan umumiy bo‘ladi. Shu bilan birga har bir yo‘lning o‘ziga xos xususiyatlari ham bor, bu esa bozor munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy sharoitlari har xil bo‘lishidan kelib chiqadi.

Masalan, bozor munosabatlariga o‘tishning g‘arbsha modeli (rivojlangan mamlakatlar yo‘li)da oddiy tovar xo‘jaligidan erkin raqobatga asoslangan klassik yoki erkin bozor iqtisodiyotiga va undan madaniylashgan bozor iqtisodiyotiga o‘tiladi.

Mustamlakashilikdan ozod bo‘lib, mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lining xususiyati - bu qoloq, an’anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tishdir. Nihoyat, sobiq sotsialistik mamlakatlar yo‘lining muhim belgisi markazlashtirilgan, ma‘muriy – buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o‘tishdan iboratdir. Bu yo‘lning boshqa yo‘llardan farqi shundaki, totalitar iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti bilan umumiyligi yo‘q, ular batamom bir-biriga zid. Shu bilan birga uchinchi yo‘lda bozor munosabatlariga o‘tayotgan mamlakatlarning o‘zi o‘tish sharoitlari, iqtisodiy rivojlanish darajasi, mulkchilik va xo‘jalik yuritish shakllari bilan bir-

birlaridan farqlanadi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga o'tishning mazkur yo'lining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda maqsad bir xil bo'lsa-da, turli mamlakatlar turli yo'llarni tanlashlari mumkin. Hammaga ma'lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ikki yo'l, ya'ni revolyutsion va evolyutsion yo'llar mavjud. Polsha, Chexoslovakiya, Rossiya va boshqa ayrim mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyutsion yo'lini, birdaniga katta to'ntarishlar qilish yo'lini tanladilar. Boshqasha aytganda ular «karaxt qilib davolash» degan usulni qo'lladilar. Bu yo'lni amalga oshirish uchun Rossiyada «300-kun», «500-kun» degan o'tish dasturlari ishlab shiqildi. Bu dasturlarni tezkorlik bilan amalga oshira boshladilar. Bunda ular bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishda ancha uzoq muddatli o'tish davri bo'lishini unuttidilar. Natijada bu mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi keskin tushib ketdi, ko'plab korxonalar yopilib, ishsizlar soni ko'paydi, pulning qadri keskin pasayib ketdi, iqtisodiyot esa hamon karaxtlikdan chiqqani yo'q, odamlarning arvoli og'irlashdi.

### 5.O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy xususiyatlari

O'zbekiston oldida ikki strategik-istiqbolda ko'zlangan vazifa turadi. Uning biri - mustaqillikning iqtisodiy poydevorini yaratish. Ikkinchisi - bozor iqtisodiyotiga o'tish.

Bozor islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi. (Shu mavzuning 1-§ da qarab chiqildi).Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islorotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.Respublikada iqtisodiy islorotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islorotlarni amalga oshirishning bu asosiy yo'nalishlari I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida bayon qilib berilgan. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning boshlang'ish nuqtasi bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'ladi.

Iqtisodiy mustaqillikka bozor mexanizmi orqali erishiladi, lekin uning O'zbekistonda shakllanishi o'ziga xos yo'l bilan yuz bermoqda. Bu yo'l bozor iqtisodiyotining umumiy tomonlarini e'tirof etgan holda, O'zbekistonning milliy xususiyatlarini hisobga oladi. Bu xususiyatlar quyidagilardir:				
O'zbekiston iqtisodiyoti kam rivojlangan bo'lsa-da, uning ishonchli saloriyati bor	O'zbekiston tabiiy va Mehnat resurslariga boy diyor, uning saxiy yeri va Mehnatsevar xalqi bor	Respublikamiz aholisining o'sish sur'atlari jadal, shu boisdan mehnat resurslari tez ortib boradi	O'zbekiston iqtisodiyotida mustaqillikning dastlabki yilarida qishloq xo'jaligining o'rni katta bo'lib, aholining katta qismi (60%) qishloq joylarda istiqomat qilardi	O'zbekiston sharqiy sivilizatsiyaga mansub mamlakat. Bu yerda sharqona iqtisodiy ko'nikmalar, ota-bobolardan meros qolgan xo'jalik yuritish usullari bor

Bu xususiyatlar O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sari borish yo'lini tanlash uchun asos bo'ldi. Bu yo'l jahon tajribasiga tayangan holda, ammo mamlakatimizning milliy manfaatini, undagi real sharoitlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotiga o'tishni bildiradi. Bu yo'l bozor iqtisodiyotiga inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy larzalarsiz, tinchlik va xotirjamlik sharoitida, xalqni ijtimoiy rimoya qilish orqali sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tilishini ta'minlaydi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan olg'a surilgan besh tamoyilda ifodalab berildi:

- iqtisodiyot siyosatdan ustuvor bo'lishi va buning uchun iqtisodiyot mafkuradan xoli qilinishidir.
- davlat bosh islorotshi bo'lishi kerak. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz ravishda, o'zibo'larshilik asosida emas, balki davlat harbarligida amalga oshiriladigan islorotlar orqali yuz berishini bildiradi.
- qonunlar va ularga amal qilinishining ustivorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibli ravishda, hammaning keng jamoatshilik ishtirokida ishlab chiqqan davlat qonunlariga so'zsiz rioya etishi orqali borishini bildiradi.
- faol ijtimoiy siyosat yuritish. Bu iqtisodiyotga kuchli ta'sir eta oladigan, xalqning ijtimoiy rimoyasini, uning faolligini ta'minlaydigan, ijtimoiy adolatni yuzaga chiqaradigan siyosatni olib borishni anglatadi.
- bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil chuqur iqtisodiy islorotlarni shoshilmasdan, sobitqadamlik bilan amalga oshirishni talab etadi.

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy – boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o'tish, iqtisodiy islorotlar strategiyasini ishlab shiqish va uning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islorotlar – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan shora-tadbirlar majmuidir. Iqtisodiy islorotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Respublikada iqtisodiy islorotlarning huquqiy negizini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning bir nechta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish – davlat va iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish. Boshqaruv tizimining yuqori va quyi darajadagi vazifalari aniq chegaralab qo'yildi. Vakolatli rokimiyatning yagona to'la huquqli organi bo'lgan rokimlik instituti yaratildi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish sohasida fuqarolar yig'ini joriy qilindi.

Ikkinchi yo'nalish – tizimdagi o'zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosabatlarga va shu jumladan mulkchilik munosabatlariga asos bo'ladigan qonunlar tizimini yaratish. Respublikada bu yo'nalish bo'yicha qabul qilingan qonunlarda mulkdorning huquqi tan olindi, xususiy mulkchilik huquqi e'tirof qilindi, mulkchilikning barcha shakllari uchun teng sharoit yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirishning samarali mexanizmi ishlab chiqildi. qisqacha aytganda bozor munosabatlarining negizi bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishning barcha huquqiy asoslari yaratildi.

Uchinchi yo'nalish – xo'jalik yuritishning va institutsional o'zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmni yaratishga qaratadigan qonunlar. Bozor infratuzilmasini yaratish va uning faoliyatiga xos jarayonlarni tartibga solishni ta'minlaydigan qonunlarni qabul qilishdan oldin, iqtisodiyotning turli sohalarida xo'jalik yuritayotgan sub'ektlarning huquq va iqtisodiy erkinlik borasidagi maqomini belgilab beradigan qonunlar qabul qilindi. Korxonalar to'g'risidagi qonun, kooperatsiya to'g'risidagi, derqon xo'jaligi to'g'risidagi, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risidagi qonunlar shular jumlasidandir.

To'rtinchi yo'nalish – Respublikamizni xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida, ta'riflovchi huquqiy normalarni yaratish. Bu yo'nalishdagi qonunlarni qabul qilish natijasida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi tarixida sifat jihatdan yangi bosqish boshlandi.

Beshinchi yo'nalish – kishilarning konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarini va aholini ijtimoiy rimoyalashni ta'minlaydigan qonunlarni ishlab chiqish. Bu qonunlar bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholining eng murtoj tabaqalari manfaatlarini qonun kuchi bilan rimoya qilishgagina emas, balki ularning ma'naviy imkoniyatlarini namoyon qilish, islorotlar uchun mustarkam ijtimoiy zamin yaratishga ham imkon beradi. YUqorida qarab chiqilgan barcha qonunlarda bozor iqtisodiyotining huquqiy

asoslarini yaratish ham amaliy, ham iqtisodiy islorotlarni amalga oshirishning huquqiy asosini tashkil qildi.

### **Nazorat savollari**

1. Bozor iqtisodiyotini ta'riflab bering.
2. Bozor iqtisodiyotining qanday sube'ktlari bor?
3. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilarini sanab bering.
4. Sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyotining belgilarini sharhlang.
5. «O'zbek modeli»ning besh tamoyilini izohlab bering.

### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon tajribasida sinalgan asosiy yo'llari (modellari) ni ta'riflab bering. Ularning umumiy va o'ziga xos tomonlarini ko'rsating.
2. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega? Respublika iqtisodiyotini islor qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?
3. Bozor munosabatlarini bosqishma-bosqish qaror toptirish prinsipining mazmunini batafsil tushuntiring. Har bir bosqichning maqsad va vazifalarini to'laroq bayon qiling.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi.-T.:« » nashriyoti,2005. V-bob, 102-123-b.
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. –
7. Куликов Л.М. Экономическая теория: уч.-М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.128-154.
8. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005

## **5-MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI**

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda talab tushunchasi, talab qonuni, talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar, taklif tushunchasi, taklif qonuni, taklifning hajmiga ta'sir etuvchi omillar, bozor muvozanati kabilar to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Talab, Talab egri chizig'i, Talab qonuni, Taklif, Taklif egri chizig'i, Taklif qonuni, Taklif (talab) ning egiluvchanligi, Daromad samarasi.

### **Asosiy savollar**

1. Talab tushunchasi, talab qonuni. Talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar.
2. Taklif tushunchasi, taklif qonuni. Taklifning hajmiga ta'sir etuvchi omillar.
3. Bozor muvozanati.

### **1. Talab tushunchasi, talab qonuni.**

#### **Talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar**

Ehtiyoj tushunchasi kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi.

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», «istak» bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Shu bog'liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini iste'molchi ma'lum vaqtda narxlarning mavjud darajasida sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji talab deyiladi.

Talablar har xil bo'lib, bir xil tovar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxonalar, firmaning tovarning shu turiga bo'lgan talabi yakka talab deyiladi. Bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi bozor talabi deyiladi. Individual, ya'ni yakka talab ham, bozor talabi ham miqdor jihatdan aniqlanadi. Lekin bu miqdor har doim ham bir xil bo'lib turmaydi, balki o'zgaruvshan bo'ladi. Talab miqdorining o'zgarishiga bir qancha omillar ta'sir qiladi. Ularning ichida eng ko'p ta'sir qiladigan omil narx omilidir.

Narx va sotib olinadigan tovarlar miqdori o'rtasidagi bo'ladigan bog'liqlikni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida qarab chiqamiz.

Iste'molchilar ma'lum bir tovarni uning narxi past bo'sa, ko'poq sotib ola boshlaydi. Iste'molchi uchun narx sotib olishga xalaqit qiluvchi to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Bu to'siq qancha yuqori bo'lsa, u shuncha kam tovar sotib oladi. Boshqacha aytganda, yuqori narx iste'molchining xarid qilish istagini so'ndiradi, past narx esa bu istakni kuchaytiradi.

Real iqtisodiy hayotda ba'zan narxlar o'ssada ayrim tovarlarga talabning ortishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar ham uchraydi. Bu vaziyat Giffen samarasi deb ataladi (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan). Giffen kambag'al ishchi oilalari kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilish kengayishini kuzatib, bu samarani tasvirlab ko'rsatgan. Tushuntirish shunga asoslanadiki, kartoshka kambag'al oila ovqatida mahsulotlarning asosiy qismini egallaydi. Agar kartoshka narxining o'sishi ro'y bersa, bunda kambag'al oila go'sht sotib olishdan umuman voz keshishga majbur bo'ladi, o'zining ko'p bo'lmagan daromadining barchasini kartoshka sotib olishga sarflaydi.

Demak, bunday vaziyatda narxlarning oshishi zarur tovarlarga talabning kamaymasdan, aksincha uning oshishiga olib kelishi mumkin.

Bahodan boshqa talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar. Talab hajmining o'zgarishi faqat tovar narxiga emas, balki boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Bu omillar talabning narxdan tashqari omillari deyiladi.

Talabga narxdan tashqari quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi: 1) Iste'molchining didi; 2) Bozordagi iste'molchilar soni; 3) Iste'molchining daromadlari; 4) Bir –biriga bog'liq tovarlarning narxi; 5) Kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli.

Bu omillarning o'zgarishi talab hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatishini qarab chiqamiz.

1. Biror mahsulotga iste'molchi dididagi ijobiy o'zgarish ro'y bersa, narxning tegishli darajasida unga bo'lgan talab ortadi. Iste'molchi didiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar talabning qisqarishiga olib keladi.

2. O'z-o'zidan aniqki, bozorda iste'molchilar soni ko'paysa, talab ortadi, iste'molchilarning soni kamaysa, talab qisqaradi. Masalan, aloqa vositalarining takomillashuvi xalqaro moliyaviy bozor doirasini mislsiz kengaytiradi hamda aksiya va obligatsiya kabi moliyaviy aktivlarga blgan talabning o'sishiga olib keladi. Tug'ilish darajasining pasayishi bolalar bog'shasi va maktabga bo'lgan talabni kamaytiradi.

3. Pul daromadi o'zgarishining talab hajmiga ta'siri boshqa omillarga qaraganda ancha murakkab. Pul daromadining ortishi juda ko'p tovarlarga talabni nisbatan oshiradi, daromadning kamayishi esa bunday tovarlarga talabni kamaytiradi. Daromad ochsa, uning o'sishiga qarab iste'molchilar narxi yuqori bo'lsada, ko'proq sifatli tovarlarni xarid qiladi, bunda ular kamroq non, kartoshka, kaham sotib olishi mumkin ortiqsha daromad unga ancha yuqori oqsil tarkibiga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari masalan, go'sht va sut mahsulotlari xarid qilish imkonini beradi. Daromadning o'zgarishi bilan talab to'g'ri mutanosiblikda o'zgaradigan tovarlar oliy toifali tovarlar deyiladi.

4. Daromadlar kamayganda talab oshadigan tovarlar past toifali tovarlar deyiladi (masalan, kartoshka).

5. O'zaro bog'liq tovarlarga talabning ortishi yoki kamayishi, ularning bir-birining o'rnini bosish darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli sariyog' narxi oshsa, bu margaringa bo'lgan talabning ortishiga olib keladi. Agar sariyog' narxi tushsa bu margaringa bo'lgan talabni kamaytiradi. Demak, agar ikki tovar o'rnini bosuvshi tovarlar hisoblansa, ulardan birining narxi bilan boshqasiga bo'lgan talab hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'ladi. Ikkita tovar bir-birini to'ldiruvshi hisoblansa, ularga bir vaqtda talab paydo bo'ladi. Masalan, agar benzin narxi pasaysa, bu motor yog'iga bo'lgan talabni qisqartiradi. Shunday qilib, benzin va motor yog'iga talab o'zaro bog'liq bo'lib, ular bir-birining narxi va boshqasiga bo'lgan talab hajmi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

6. Kelgusida iste'molchi daromadlari, tovar narxi o'zgarishining kutilishi va tovarlarning naqd bo'lishi yoki bo'lmasligi kabi omillar talab hajmini o'zgartirishi mumkin. Kelgusida narxning nisbatan oshishining kutilishi, iste'molchi joriy talabning oshishiga olib keladi. Aksincha, narxning pasayishi va daromadning ko'payishining kutilishi tovarlarga bo'lgan joriy talab hajmining qisqarishiga sabab bo'ladi.

## **2. Taklif tushunchasi, taklif qonuni. Taklifning hajmiga ta'sir etuvchi omillar**

Taklif deb, ishlab chiqaruvchilarning ma'lum vaqt ishida tovar yoki xizmatning ma'lum turini ishlab shiqarib qodir bo'lgan narxning har bir darajasida bozorga sotishga chiqaradigan miqdoriga aytiladi. Narx o'zgarishi bilan sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o'zgarishi sababli talab kabi taklifning ham bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi. Bu alohida ishlab chiqaruvchi uchun 7 — jadvalda ko'rsatilgan.

Taklif har xil narxlarda sotishga qancha miqdorda mahsulot chiqarilishini ko'rsatadi.

Narxning oshishi bilan shunga mos ravishda sotishga chiqariladigan tovar (taklif) miqdori ham ortadi, narxning tushishi bilan taklif hajmi qisqaradi. Bu o'zaro to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik taklif qonuni deyiladi.

Bozorda taklif qilinadigan tovar hajmiga narxdan tashqari bir qator omillar ta'sir qiladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

- 1) Resurslarning narxi;
- 2) Ishlab chiqarish texnologiyasi;
- 3) Soliq va dotatsiyalar;
- 4) Boshqa tovarlarning narxi;



5) Narx o'zgarishining kutilishi; 6) Bozordagi sotuvshilar soni.

Taklifning shu omillardan bir yoki bir neshtasining o'zgarishi taklif hajmining o'zgarishini taqozo qiladi.

Taklifga ta'sir qiluvchi omillarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

1. Resurslarning narxi. Ishlab chiqarish xarajatlari va taklif o'rtasida mustarkam o'zaro bog'liqlik mavjud. Resurs narxlarining pasayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va taklifni oshiradi. Aksincha, resurslarga narxning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, mineral o'g'itlar narxining pasayishi bug'doy taklifini oshiradi, yomg'irlatib sug'orish xarajatlarining oshishi makkajo'xori doni taklifini qisqartiradi.

2. Ishlab chiqarish texnologiyasi. Texnologiyalarning takomillashuvi mahsulot birligini ancha samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Resurslarning mavjud narxida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va taklif ko'payadi. Masalan, paxta zaharkunandalariga qarshi ancha samarali biologik usullarning yaratilishi paxta tolasining miqdorini va sifatini, binobarin taklifini oshiradi.

3. Soliqlar va dotatsiyaar darajasi. Ko'pshilik soliqlar ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradi. Shu sababli soliqlarning oshishi ishlab chiqarish xarajatlarini oshiradi va taklifni qisqartiradi. Masalan, import tovarlarga boj to'lovlarining oshishi uning taklifini qisqartiradi. Aksincha, davlat qandaydir tovar ishlab chiqarish yoki biror sohaga subsidiya bersa, bu amalda xarajatlarni kamaytiradi va uning taklifini oshiradi.

4. Boshqa tovar narxi. Boshqa tovarlar narxining o'zgarishi ham mazkur tovar taklifini o'zgartiradi. Masalan, qo'y go'shti narxining pasayishi mol go'shti taklifini oshiradi. Aksincha, mol go'shti narxining tushishi qo'y go'shti taklifini oshiradi.

5. Narx o'zgarishini kutilishi. Kelgusida mahsulot narxining o'zgarishining kutilishi ham ishlab chiqaruvchining bugungi kundagi bozorga mahsulot yetkazib berish xorishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, kelajakda neft narxining keskin pasayishining kutilishi neftning taklifini pasaytiradi.

6. Ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) soni. Tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, taklif qilinadigan mahsulot miqdori shunchalik ko'p bo'ladi. Tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilar soni ortib borishi taklifni ko'paytiradi, chunki tovar ishlab chiqarish ko'payadi.

Taklif hajmining o'zgarishiga tovarning saqlanish xususiyati, saqlash xarajatlari va transport-tashish imkoniyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, uzoq vaqt saqlab bo'lmaydigan qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari uchun taklif kamdan-kam o'zgaruvshan bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, tabiiy resurslarning mavjud darajasi ham taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, narxning o'zgarishiga javoban ishlab chiqarishni kengaytirish yoki boshqa xil mahsulot ishlab chiqarishga o'tish imkoniyati mavjud bo'lsa taklif o'zgaradi. qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlar cheklangan bo'lsa, uning narxi (renta) qanchalik oshmasin, yer taklifini oshirib bo'lmaydi.

Ijodiy kasb soha xodimlarining (masalan, olimlar, shoirlar, yozuvshilar, musavvirlar va boshqalar) Mehnat marsuli va noyob san'at asarlarining taklifi ham noo'zgaruvshan bo'ladi.

### **3.Bozor muvozanati**

Yuqorida turli omillar ta'sirida talab va taklif miqdorining o'zgarib turishi ko'rildi. Lekin talab bilan taklif miqdorlari bir-birlari bilan doimo ma'lum nisbatda bo'ladi, bu nisbatlar o'zgarib turadi. Ba'zan talab miqdori taklif miqdoridan oshib ketib, narx ko'tarilsa, ayrim paytda taklif miqdori talab miqdoridan oshib ketib, baho pasayib qoladi. Talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan rolat bozor muvozanati deyiladi. Bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx bozor narxi deyiladi. Ba'zan uni muvozanatlashgan narx ham deb yuritiladi. Bozor muvozanati va muvozanatli narx har doim mavjud bo'lib turmaydi, ularga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar muvozanatlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Ammo iqtisodiyotda ushbu muvozanatga doimo intilish mavjud bo'ladi.

«Talab va taklif» tushunchalari tahlili, bizga sotuvshi va xaridorlar manfaatlari mos kelishini qarab chiqishga o'tish imkonini beradi. Mos kelishlik o'z ifodasini muvozanatli narxda topadi.

Talab va taklif egri shiziqiraini bitta grafikka joylashtirib bozor muvozanatli nuqtasini hosil qilamiz:

$T_b = T_f = B_m = q_m$ , bu yerda:  $T_b$ - talab,  $T_f$ - taklif,  $B_m$  –muvozanatli baho,  $q_m$  – tovarning muvozanatli miqdori.

Grafikda K nuqatga muvozanatli baho ( $B_m$ ) va mahsulotning muozanatli miqdori ( $q_m$ ) mos keladi. Muvozanatli nuqta (K) yoki muvozanatli narx ( $B_m$ )ga 7-chizmada tasvirlanganidek sotuvshi va xaridorlar manfaatlaining spiral bo'yicha xarakati natijasida bir-biriga yaqinlashish yo'l bilan erishiladi. Xususan, bizning misolda, narx 50 so'm bo'lganda, xaridor mazkur tovar (un) dan 10 kg sotib olishga, sotuvshi esa 60 kg bozorga chiqarishiga tayyor bo'ladi. 10 so'mlik narxda sotuvchi va xaridorlar arvoli butunlay qahama-qarshi tomonga o'zgaradi: sotuvshi faqat 5 kg un chiqarishga, xaridor esa 80 kg sotib olishga tayyor bo'ladi va rakozi.

Talab va taklifning o'zgarishi spiral bo'yicha har bir xarakatda ularning manfaati muvozanatli nuqtaga erishilguncha bir-biriga yaqinlashib boradi va muvozanatli nuqta ular talab va taklifi tengligini ko'rsatadi.

Muvozanatli narxni tushunib olish uchun vaqt omili katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli bozordagi bir zumlik, qisqa davrli va uzoq davrli muvozanatlik holatni farqalash zarur.

Bir zumlik muvozanat uchun taqdim qilinadigan tovarlarning o'zgarimas yoki doimiy miqdori xos. Bu ishlab chiqarishning bozor vaziyatiga tez, birdaniga moslasha olmasligi bilan bog'liq.

Qisqa davrli muvozanatlikni, ishlab chiqarish va taklifni vaqtinchalik amal qiluvchi omillardan foydalanish asosida ko'paytirish imkoniyatini taqazo qiladi.

Bunday vaqtinchalik omillarga ish vaqtidan tashqari, dam olish va barham kunlari ishlash, ish sxemasini ko'paytirishlar kiradi.

Uzoq davrli muvozanatlik o'zgarishi uzoq muddatli davrdagi omillardan foydalanishni taqazo qiladi. Bunda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangilash va qo'shimcha quvvatlarni vujudga keltirish bilan bog'liq investitsiyalar haqida gap boradi. Bu davrda yangi korxonalar qurish hamda mazkur bozorda yangi korxonalar paydo bo'lishi ham mumkin bo'ladi.

Iste'molchining tovar narxlarining o'zgarishiga sezgirlik darajasini aniqlashda narxli egiluvchanlik tushunchasidan foydalaniladi. Ayrim mahsulotlar narxidagi uncha sezilarli bo'lmagan o'zgarishlar sotib olinadigan mahsulot miqdorida katta o'zgarishlar bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday mahsulotlarga talab nisbatan egiluvchan, deyiladi. Boshqa xil mahsulotlar narxidagi sezilarli o'zgarish xarid miqdorida faqat katta bo'lmagan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolganda, narx 1% o'zgarganda talab necha foizga o'zgarishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich talabning narxli egiluvchanligi ko'rsatkichi deyiladi. Bu ko'rsatkich ko'pincha oddiy qilib talabning egiluvchanligi, deb ataladi.

### Nazorat savollari

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarsa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?
2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta'sir qiladi? Bu omillardan har biri o'zgarsa, talab egri chizig'ida qanday o'zgarish ro'y beradi?

Don birjasida bug'doyga bo'lgan talab va taklifning umumiy hajmi quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi deb faraz qilamiz:

Talab, ming sentner hisobida	Bir sentner narxi (so'm) hisobida	Taklif ming sentner hisobida	Ortiqcha (q) yoki kam (-)
85	3400	72	
80	3700	73	
75	4000	75	
70	4300	77	
65	4600	79	
60	4900	81	

a) Bozor narxi yoki muvozanatli narx qanday bo'ladi?

Bug'doyning muvozanatli miqdori qancha? 4-ustunni to'ldiring va natijalarini tushuntirib bering;

b) Shu ma'lumotlardan foydalanib bug'doyga bo'lgan talab va taklifning grafik shaklidagi tasvirini bering. Muvozanatli narx va muvozanatli miqdorni aniqlang;

v) nima uchun 3400 so'm bu bozorda muvozanatli narx bo'la olmaydi? 3900 so'm-chi? g) Endi davlat bug'doyning eng yuqori narxini 3700 so'm qilib belgiladi deb faraz qilamiz. Bunday narx qanday oqibatlarga olib kelishini batafsil tushuntiring. O'z javoblaringizni grafikda tasvirlang.

4. Talab va taklifning quyidagi o'zgarishlarining har biri raqobatli bozorda muvozanatli narx va mahsulotlarning muvozanatli miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi? Javoblaringizning to'g'riligini tekshirish uchun talab va taklif diagraphmasidan foydalaning.

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Talab va taklif o'zgarishlarining har biri raqobatli bozorda muvozanatli narx va mahsulotlarning muvozanatli miqdoriga ta'siri.

2. Bozordagi talab va taklif muvozanatini izdan chiqishiga sabab bo'luvchi omillar

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.

2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.

3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.

5. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.

6. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2005.

7. Shodmonov Sh. G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Moliya» nashriyoti, 2006.

8. Борисов Е. Ф. Экономическая теория: учеб. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005, с.188-197.

## 6-MAVZU. RAQOBAT VA MONOPOLIYA

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda raqobatning mohiyati, ob'ektiv asoslari va rivojlanish bosqichlari, raqobatning shakllari va usullari, monopoliyalarning iqtisodiy asosi, ularning turlari va ijtimoiy oqibatlari, O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik tizimi to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar

Raqobat, Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat, Raqobat shakllari, Raqobat usullari, Narx, Ulgurji narxlar, Chakana narxlar, Dotatsiyalashgan narx, Demping narx, Nufuzli narx, Narx diapazoni.

### Asosiy savollar

1. Raqobatning mohiyati, ob'ektiv asoslari va rivojlanish bosqichlari.
2. Raqobatning shakllari va usullari.
3. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi, ularning turlari va ijtimoiy oqibatlari.
4. O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik

### 1.Raqobatning mohiyati, ob'ektiv asoslari va rivojlanish bosqichlari

Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo'jaligining eng muhim belgisi, rivojlantirish usuli hisoblanadi.

Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondoshishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustarkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste'molchilar uchun kurashdir.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yer-suv, ishchi kuchi) yuqori baholarda sotish uchun raqobat qiladilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi; ular tovarlarni qulay va arzon baholarda sotib olishga xarakat qiladilar, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lishga xarakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi.

Shunday qilib, raqobat ko'p qirhali iqtisodiy rodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

Raqobat-bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarining har bir birligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash boradi. Mana shu foyda orqasidan quvish natijasida tovarlarni sotish doiralari, ya'ni qulay bozorlar uchun, arzon xom ashyo, energiya va arzon ishchi kuchi manbalari uchun ular orasida kurash boradi.

O'z navbatida xaridorlar, ya'ni iste'molchilar sarflagan har bir so'm xarajati evaziga ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashadilar, ularning har biri arzon va sifatli tovar va xizmatlarga ega bo'lishga xarakat qiladi.

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Chunki har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalaridagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi sub'ektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq xarakterlaydi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

Raqobatning asosiy sohasi bozor, chunki unda erkin iqtisodiy sub'ektlarning alohidalashgan manfaatlari to'qnashadi.

## **2.Raqobatning shakllari va usullari**

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tuchunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini ko'rib chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo ikki turga-tarmoq ishidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ishidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo'ladi: tarmoq ishida, ya'ni bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi raqobat va tarmoqlaro, ya'ni turli tarmoqlardagi korxonalar o'rtasidagi raqobat. Tarmoqlar ishidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va Mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o'rtacha sharoitda ishlab shiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlar ishidagi raqobat natijasida texnikaviy darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan korxonalar qo'shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa, o'zlarida ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo'qotadilar va zahar ko'radilar.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. YAngi kapitallar ko'proq foyda keltiruvshi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvshi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat ob'ektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa solinmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga «baravrlashtiradi».

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. YUqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot bahosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan, yangi korxonalarining paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

## **3.Monopoliyalarning iqtisodiy asosi, ularning turlari va ijtimoiy oqibatlari.**

Monopoliyada tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukumronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot (xizmat)ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va demak, taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopoliyaning mavjud bo'lish tarmoqqa kirish uchun to'siqlarning mavjud bo'lishiga sabab bo'ladi. Iqtisodiy, texnik, huquqiy yoki boshqa to'siqlar yangi raqobatshchilarning tarmoqqa kirishiga yo'l qo'ymaydi. Tarmoqqa kirish uchun to'siqlar har xil ko'rinishlarni oladi. Bularning asosiylari quyidagilar:

a) Ishlab chiqarish miqyosi keltirib chiqaradigan to'siqlar, shu jumladan, moliyaviy to'siqlar ko'p holatlarda shunchalik katta bo'ladiki bu tarmoqqa kirishni taqiqlash bilan bahobar. Masalan, yirik ishlab chiqaruvchi hisoblangan avtomobil sanoatiga kirish, yangi texnologiyaga asoslangan zarur uskunalarni sotib olishga juda katta pul-kapitali talab qiladi.

b) Tabiiy monopoliyalar vujudga keltiradigan to'siqlar. Buning mazmuni shundan iboratki, bir qancha tarmoqlarda raqobat mavjud bo'lmaydi, uni amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy foydalanishdagi bunday tarmoq korxonalari tabiiy monopoliyalar deyiladi. Tabiiy monopoliyalarga elektr, gaz, suv ta'minoti va aloqa korxonalari misol bo'la oladi. Davlat bunday monopoliyalar faoliyatini tartibga solishda o'z huquqini saqlab qoladi. Agar tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslangan bo'lsa, bunday ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar tartibga solinadigan yoki davlat tomonidan tuzilgan monopoliyalar deyiladi.

v) Patent va litsenziyalar kabi qonuniy to'siqlar. Davlat patent va litsenziyalar berib tarmoqqa kirish uchun qonuniy to'siqlar ham yaratadi. Patentlar tadqiqotchiga mahsulotini to'liq nazorat qilish huquqini beradi. Tarmoqqa kirish yoki faoliyat turi bilan shug'ullanish davlat tomonidan litsenziya berish yo'li bilan sheklanishi mumkin. Masalan, davlat miqyosida radio va televizion eshittirishlarga tegishli vazirlik (markama) litsenziya beradi.

g) Xom-ashyoning muhim turlariga, xususiylar mulkchilik monopoliyalar tomonidan potensial raqobatchilar uchun samarali to'siq yaratish vositasi sifatida foydalanishi mumkin.

d) g'irrom raqobat. Firmalar o'z haqiblarining tarmoqqa kirib kelishini tajovuzkorona va shafqatsiz bartaraf qilishi mumkin. Bank va resurslarni yetkazib beruvchilarni material va kredit berishdan voz kechirish, yetakchi mutaxassislarni og'dirib olish, bahoni keskin tushirish g'irrom raqobatning oddiy usullaridir.

Monopolistik raqobat erkin raqobat va oligopoliya o'rtasida joylashishi sababli, ularning belgilarini ifoda etadi.

Oligopoliya – tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarining mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko'pchilik sanoat mahsulotlari: po'lat, mis, alyuminiy, qo'rg'oshin, temir va shu kabilar - fizik ma'noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste'molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvuvchi vositalar, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashgan oligopoliya hisoblanadi.

Oligopoliya sharoitida korxonalar o'rtasidagi raqobat o'zaro bog'liq bo'ladi. Oligopolistik tarmoqda hech qaysi firma o'zining baho siyosatini mustaqil o'zgartirishga botina olmaydi.

Uncha ko'p bo'lmagan firmalarning umumiy o'zaro bog'liqlikda joylashishi yashirincha kelishishga qulaylik tug'diradi. YAshirincha kelishish baholarni qayd qilish, bozorni bo'lish yoki taqsimlash va boshqacha yo'llar bilan o'zlari o'rtasidagi raqobatni cheklashdan iborat. YAshirincha kelishish bir qator shakllarda bo'lishi mumkin. Uning eng oddiy shakli kartel bitimi hisoblanadi. Kartel bitimiga kirgan firmalar narxlar va ishlab chiqarish hajmini kelishib oladi. Kelishilgan narxni ushlab turish mumkin bo'lishi uchun ishlab chiqarish hajmi tartibga solinishi, ya'ni bozorlar bo'lingan bo'lishi zarur.

Narxlarni belgilashdagi rahnamolik yashirincha kelishishda ham o'z o'rnini tutadigan norasmiy vosita hisoblanadi. Bunda tarmoqdagi katta yoki ancha samarali firma narxni o'zgartirishi, boshqa firmalar esa uning orqasidan ergashishi mumkin.

Oligopolistlar narxsiz raqobatga asosiy o'rin beradi, chunki birinchidan, raqobatchilarga reklama va mahsulotni o'zgartirish ancha murakkab, ikkinchidan, oligopolistlar kamdan-kam holda narxsiz raqobatni moliyalashtirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'ladi.

Biz qarab chiqqan raqobatning to'rtta shaklining har biri milliy iqtisodiyotda alohida-alohida, ya'ni sof holda ushhamaydi. Iqtisodiyot sohalarini batafsil o'rganish, cheksiz ko'p har xil raqobatli vaziyatlar mavjudligi sharoitida, ikkita bir xil tarmoqni topish qiyinligini ko'rsatadi.

Shu sababli erkin raqobatli bozorning xarakterli belgilari bilan, erkin monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliyaning xususiyatlari o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib berish foydali. Bunday taqqoslashni yengillashtirish uchun bozorning keyingi uchta modelini bildirish uchun «takomillashmagan» yoki «nomukammal» raqobat, degan umumiy nomdan foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish bizga nisbatan ancha oldin boshlangan mamlakatlarda raqobat munosabatlarini rivojlantirish ancha murakkab va uzoq davrni oladigan jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Agar g'arb mamlakatlari iqtisodiyotida raqobat bozor xo'jaligining ajralmas qismi (xususiyati) sifatida tabiiy paydo bo'lsa, o'nlab yillar davomida ma'muriy buyruqbozlik tartibi hukmron bo'lgan, raqobatni va bozorning boshqa belgilarini tan olmagan mamlakatlarda ko'p narsani "joriy qilish" va hatto majburan qabul qilishga to'g'ri keladi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotimizning hozirgi holatida raqobat munosabatlarini rivojlantirishning mavjud real imkoniyatlarini hisobga olish muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, raqobatsiz iqtisodiyotning samarali hakaqat qila olmasligiga ishonch shakllandi. Bu ishonch ta'sirida yaqin vaqtlargacha sobiq sotsializmida nima "mumkin", nima "mumkin emas"ligini aniqlovshi g'oyaviy qarashlar yemirilmoqda. Ikkinchidan, respublikada raqobatni davlat tomonidan rag'batlantirish va tartibga solishning keng rejali harakatlari kuzatilmoqda. Uchinchidan, raqobat hali keng joriy qilinmasada, bozor iqtisodiyotiga o'tishda muhim qadamlar qo'yilmoqda.

Raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat.

Narx vositasida raqobatlashuvda kurashning asosiy usuli ishlab chiqaruvchilarning o'z tovarlari narxlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarining shunday mahsulotlarinikiga nisbatan pasaytirishi hisoblanadi.

Uning asosiy va eng ko'p qo'llaniladigan ko'rinishi - "narxlar jangi" deb ataladiki, bunda yirik ishlab chiqaruvchilar haqiblarini tarmoqdan siqib chiqarish uchun narxni vaqti-vaqti bilan yoki uzoq muddat pasaytirib turadi. Bu usulni qo'llash uchun ishlab chiqaruvchi boshqa haqiblariga qaraganda unumliroq texnologiyani kiritishi, malakaliroq ishchilarni yollashi va ishlab chiqarishni yaxshiroq tashkil qilishi keraq bo'ladi. Faqat shundagina uning tovarining individual qiymati bozor qiymatidan past bo'lib, mazkur tovar narxini tushurish imkoniyatini beradi.

Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri - demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o'zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim xollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlar bo'yicha chiqaradi.

Shu orqali ular ichki bozorda narxlarning barqarorligiga erishish mamlakatdagi ortiqcha mahsulotni yo'qotish, yangi bozorlarga kirib olish va unda o'zlarining iqtisodiy mavqeini mustarkamlashga xaraqat qiladi.

Ayrim hollarda narx yordamida raqobatlashishning belgilangan narxlardan chegirma qilish, asosiy xarid qilingan tovarlarga boshqa tovarlarini qo'shib berish, muayyan hollarda imtiyozli narxlarni belgilash kabi usullaridan ham foydalaniladi.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda baho yordamida raqobat qilish o'z o'rniga ega emas, chunki ishlab chiqaruvchilardan birining o'z mahsulotiga narxni pasaytirishi uning raqobatchilarining ham shunday xaraqat qilishini taqozo qiladi. Bu bozorda firmalarning mavqeini o'zgartirmaydi, faqat tarmoq bo'yicha foydani kamaytiradi.

Narxsiz raqobat shu bilan tavsiflanadiki, bunda raqobat kurashining asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko'rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro'-e'tibori hisoblanadi.

Narxsiz raqobat bilan bir vaqtda yashirin narx yordamidagi raqobat ham bo'lishi mumkin. Buning uchun yangi tovarlarning sifati oshishi va iste'mol xususiyatlarining yaxshilanishi ular narxlarining oshishiga qaraganda tez ro'y berishi kerak. Hozirgi davrda bir turdagi mahsulotlarning ko'payishi ularning sotishni rag'batlantiruvchi reklama, tovar belgilari va fabrika murrlaridan foydalanishni keltirib chiqarmoqda. Iste'molchilik bozorida qo'shimcha xizmat ko'rsatish orqali xaridorlarni o'ziga jalb qilish keng tarqalmoqda.

Narxsiz raqobatning tovar sifatini tabaqalashtirish kabi usuli ham mavjudki, bunda tovarlar bir xildagi ehtiyojni qondirishi va bir turga mansub bo'lishi, lekin turli-tuman iste'mol xossalriga ega bo'lishi mumkin.

Tovarlar talabga nisbatan ortiqcha bo'lgan sharoitda ishlab chiqaruvchilar tovarlarini kreditga sotish usulidan foydalanib haqiblaridan ustun kelishlari mumkin. Bunda dastlab tovar narxining faqat bir qismi to'lanadi, uning qolgan qismi esa shartnomada kelishilgan aniq muddatlarda to'lanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti avj olgan hozirgi sharoitda, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlari ustidan nazorat qilish uchun kurash raqobatning asosiy usullaridan biriga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi korxonalar xaridorlarni jalb qilish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan iste'molchilik tovarlariga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni amalga oshirmoqdalar. Masalan, kompyuter ishlab chiqaruvchi firma, o'z mahsulotini sotibgina qolmasdan, balki uni o'rnatadi, korxonada xodimlarini ulardan foydalanishga o'rgatadi, kafolatlangan muddatda va undan keyingi davrda ta'mir ishlarini bajaradi, texnikaviy xizmatni amalga oshiradi; maxsulotlari o'lchamlarini buyurtmachi ehtiyojlariga yaqinlashtiradi.

Narxsiz raqobat usullari ishida marketing muhim ahamiyatga ega bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini talabga moslashtiruvchi tadbirlar tizimidan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talabni yaxshi o'rgangan va iste'molchilar ehtiyojlarini to'laroq qondira oladigan korxonalar har doim raqobat kurashida yutib chiqadi.

Yirik ishlab chiqaruvchilar bozordagi vaziyatni o'zgartirish uchun o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni kamaytirib tovar taklifini qisqartiradilar. Shu sababli iqtisodiy beqarorlik davrlarida ham narx barqorligisha qolaveradi.

Shunday qilib, monopoliyalar hukumron bo'lgan sharoitda narxsiz raqobat muhim o'rin tutadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, monopoliyalar tovar sifatini oshirish, iste'molchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash yo'li bilan sotiladigan tovar hajmini ko'paytirishi mumkin. Ikkinchidan, ular moliyaviy jihatdan kushli bo'lganligi sababli mahsulotini yangilash, ishlab chiqarishni qayta jirozlash va reklamaga zarur bo'lgan mablag'ni sarflay oladilar.

#### **4.O'zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik**

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyutsion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.



Iqtisodiyotda monopollashuv prinsiplari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Masalan, AQShda davlatning xususiy monopoliyalar faoliyatini cheklashga qaratilgan tadbirlari 1980 yilda trestlarga qarshi qabul qilingan qonunda («Sherman qonuni») o'z ifodasini topadi. Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora- tadbirlar boshqa mamlakatlarda ham sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi. Buyruqli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning respublikada sog'lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy sub'ektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islorotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora- tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi. O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tarlikasini YAIMasiga oluvchi erkin xo'jalik sub'ektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

O'zbekistonda raqobatshilik muhitini vujudga keltirish Prezidentimiz I.Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, iqtisodiyotni erkinlashtirish – bu xo'jalik yurituvshi sub'ektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etishni anglatadi. Shuningdek Prezidentimizning Vazirlar Markamasida bo'lib o'tgan Majlislarda so'zlagan nutqida (2000 yil, fevhalida) biznesni erkinlashtirish, ularga iqtisodiy mustaqillik berishning aniq yo'nalishlari ko'rsatilgan. Shu maqsadda O'zbekistonda «Monopol faoliyatni sheklash to'g'risida»gi qonun (1992 yil, avgust) kuchga kiritildi hamda uning asosida raqobatshilikni rivojlantirishga qaratilgan bir turkum me'yoriy rujjatlar ishlab shiqildi. Mazkur qonunga ko'ra, bozorda ataylab taqchillik hosil qilish, narxlarni monopollashtirish, raqobatshilarning bozorga kirib borishiga to'sqinlik qilish, raqobatning g'irrom usullarini qo'llash man etiladi. qonunni buzuvshilar haqibiga yetkazgan zaharni qoplashlari, jarima to'lashlari, g'irromlik bilan olgan foydadan marrum etilishlari shart. Monopoliyaga qarshi faol shoralarni amalga oshirish uchun Moliya vazirligi tizimida monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bosh boshqarmasi tuzildi. Boshqarmaga ro'yxatga kiritilgan monopoliya mavqeidagi korxonalar mahsuloti bo'yicha narxlarni va rentabillikni tartibga solib turish huquqi berildi.

Respublikada monopol mavqeiga ega bo'lgan korxonalarni Davlat reestriga kiritish uchun mezonlar belgilashda jahon tajribasi hamda o'tish davrining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi. Hozirgi davrda Respublikada agar korxonalar ishlab shiqargan muayyan mahsulotlar bozordagi shu turdagi mahsulotning 35%idan ortiq bo'lsa, bu korxonalar monopolistik korxonalar sifatida Davlat reestriga kiritiladi. Oziq-ovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% deb belgilangan.

Respublikada monopoliyalar ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq) larning bozordagi mavqeini tartibga solishda davlat bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullardan ikkitasini ajratib ko'rsatish lozim:

1. Monopol mavqeidagi korxonalar mahsulotlariga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabillikning shegarasini belgilab qo'yish.

2. O'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bo'lib tashlash yoki maydalashtirish. Bu usul Vazirlar Markamasining (1994 yil 18 iyuldagi 366 sonli) qarori bilan tasdiqlangan «Ob'ektlarning xo'jalik yurituvshi jamiyatlar va shirkatlar tarkibidan chiqish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida amalga oshiriladi. Respublikada faqat 1994-1996 yillar davomida monopol mavqeidagi aksiyadorlar jamiyatlari, ijara va boshqa jamoa korxonalar tarkibidan 14972 ob'ekt shiqarilib, mustaqil korxonalarga aylantirildi.

2000 yilda xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida 154 oshiq turdagi aksionerlik jamiyatlari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» (1996 yil, aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan Respublika bozorlariga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarni chiqarishga yo'l qo'ymaydigan mexanizmni yaratishga ham alohida e'tibor beriladi.

Tabiiy monopoliyalarni davlat yo'li bilan tartibga solish ular mahsulot (xizmat)lariga narxlar va tariflar darajasini, shuningdek, taklif etiladigan tovarlar va xizmatlar turiga doir asosiy ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ishiga oladi.

Raqobatchilik muhitini shakllantirish maqsadida va davlatga qarashli bo'lmagan sektorni qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kishik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tashkil etildi. Raqobatshilik muhitini shakllantirishga ko'plab xalqaro tashkilotlar ham faol qatnashmoqda. Jumladan, YUNIDO yordamida bir nechta biznes inkubatorlar tashkil etildi. yevropa jamiyati Komissiyasi Amaliy aloqalar markazini, Germaniya texnikaviy ko'maklashuv jamiyati kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash markazini tashkil etdi. Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlarda davlatning narx sohasidagi siyosati ko'p jihatdan narxlarni erkinlashtirish, milliy bozor narxlarini jahon bozori narxlariga yaqinlashtirishga qaratiladi.

Narxlarni erkinlashtirish – iqtisodiy islorotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, islorotlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ko'p jihatdan shu muammoning ral etilishiga bog'liq bo'ladi. Narxlarni erkinlashtirish xom - ashyo bilan mahsulot ayrim turlarining narxlari, narx bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasida mutanosiblikka erishishga qanday yondashilishi bilan farqlanadi. Shu yondashuvlarga asoslanib, narxlar quyidagi yo'llar bilan erkinlashtiriladi:

a) narxlarni birdaniga, yoki "esankiratadigan" tarzda qo'yib yuborish; b) narxlarni sun'iy ravishda to'xtatib qo'yish; v) narxni davlat tomonidan boshqarish va nazorat qilishni ma'lum darajada saqlab qolish.

Bozor munosabatlariga o'tayotgan har bir mamlakat, shu yo'llardan birini tanlashda ulardan har birining mavjud real shart-sharoitlarga qanchalik mos kelishi, aholi asosiy qismining moddiy arvoliga qanday darajada ta'sir ko'rsatishi, islor qilishning tanlab olingan yo'lga qanchalik darajada javob berishi va kutiladigan salbiy oqibatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Sobiq ittifoq mamlakatlari negizida vujudga kelgan bir qancha mustaqil davlatlar narxlarni erkinlashtirishning "esankiratuvchi" yo'lini tanlab oldi. Barcha turdagi xom - ashyo resurslari, iste'mol mollari hamda xizmatlar narxini bir yo'la erkin qo'yib yubordi. Natijada narxlar keskin oshdi. Bu aholi keng qatlamining birdaniga qashshoqlashuviga, ijtimoiy arvolning keskinlashuviga olib keldi. Ishlab chiqarishning pasayishiga, milliy sanoat va qishloq xo'jaligining izdan shiqishiga sabab bo'ldi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni islor qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqishma-bosqish erkinlashtirish yo'li tanlab olindi. Shu yo'l bilan narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqishida (1992 yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnika vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari,

bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o'tildi. Aholini rimoyalash maqsadida sheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining shegarasi belgilab qo'yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Narxlarni erkinlashtirishning keyingi bosqishida (1993 yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. qat'iy belgilangan va davlat tomonidan tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning soni ancha qisqardi.

Narxlarni erkinlashtirishning navbatdagi bosqishida (1994 yil, oktyabr, noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlarning tariflari oshirildi. Shunday qilib, respublikada iqtisodiyotni islor qilishning birinchi bosqishi narxlarni bosqishma-bosqish (ush bosqishda) to'liq erkinlashtirish bilan tugadi. Narxlarni erkinlashtirish aholini ishonshli iqtisodiy va ijtimoiy rimoyalash tadbirlari bilan birga olib borildi. Davlat tomonidan turli kompensatsiyalar maqsadidagi jamg'armalar tuzildi, ish haqi, pensiya va stipendiyalarning eng kam miqdori muntazam suratda oshirib borildi, bolalar uchun nafaqalar joriy etildi. Orolining muhtoj qismiga yordam ko'rsatildi, imtiyozli soliq stavkalari joriy etildi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Raqobatning mohiyati va maqsadini tushuntirib bering.
2. Raqobatchilik munosabatlarining rivojlanishi qanday bosqishlardan iborat? Har bir bosqichda raqobatning xarakteri va asosiy belgilarini ajratib ko'rsating.
3. Raqobat shakllariga tushuncha bering va ularning har biriga xos belgilarini ko'rsating.
4. Tarmoq ishidagi va tarmoqlararo raqobatning farqini tushuntirib bering.
5. Narxning iqtisodiy mazmunini uning vazifalari orqali tushuntirib bering. Narx asosiy turlarining qisqacha tavsifini bering.

### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Raqobatchilik muhitini shakllantirish va tadbirkorlik sektorini qo'llab-quvvatlash yo'llari
2. Sof raqobat sharoitida narxning tashkil topish mexanizmi

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V., Minavarova G.T., Xalilov M.Sh.. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida. 1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.

## **7-MAVZU. AGRAR MUNOSABATLAR VA AGROSANOAT MAJMUASI**

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari, renta munosabatlari, agrosanoat integratsiyasi, agrosanoat majmuasi va uning tarkibi, agrobiznes va uning turlari to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Agrar munosabatlar, renta munosabatlari differensial renta differensial renta-1, differensial renta-2, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoatda renta, agrosanoat majmuasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, agrosanoat integratsiyasi, agrobiznes.

### **Asosiy savollar**

1. Agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari. Renta munosabatlari.
2. Agrosanoat integratsiyasi.
3. Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi.
4. Agrobiznes va uning turlari.

### **1. Agrar munosabatlar va ularning xususiyatlari.**

#### **Renta munosabatlari**

Qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining muhim bo'g'inidir. Unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo ishlab chiqariladi. Respublikamiz Prezidenti I. Karimov ta'kidlab o'tgandek, "Respublika sanoatining ko'pgina tarmoqlarini, jumladan, paxta tozalash, to'qimachilik, kimyo sanoatini, qishloq xo'jaligi mashinasozligini va boshqalarni... rivojlantirish istiqbollari, ularning murakkab o'tish davridagi iqtisodiy ahvoli bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liqdir". Demak, aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar bozorini to'ldirish uchun qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish dardkor. Boshqa sohalar kabi qishloq xo'jaligida ham takror ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida muayyan iqtisodiy aloqa va munosabatlari sodir bo'ladi. Bu munosabatlar agrar munosabatlarni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq, shuning uchun ham yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.

Yer rentasi orqali yerga bo'lgan mulkchilik xuquqi ro'yobga chiqariladi. O'zbekistonda "yer-davlat mulki-umummilliy boylik..." bo'lganligi sababli yerga bo'lgan mulkchilik, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalari alohida ajratib tahlil qilinishi lozim.

Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. yerga egalik deganda avvalo yerga bo'lgan mulkchilik huquqi ko'zda tutiladi. yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida ta'kidlanganidek: "Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin".

Yerdan foydalanish huquqi – bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi shart emas. Real xo'jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko'pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar bajaradilar.


Agrar munosabatlarning asosini renta munosabatlari tashkil qiladi.

Renta nazariyasi hozirgacha to'liq yoritib berilmagan nazariyalardan hisoblanadi. Iqtisodchilar o'rtasida uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha turlicha yondoshuv va qarashlar mavjud. Shu sababga ko'ra rentani miqdoriy aniqlash va uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha asosiy va ko'pincha bir –biriga qahama –qarshi bo'lgan nazariyalarga e'tiborni qaratamiz. Qiymat nazariyasi tarafdorlari rentaning vujudga kelishini qiymat qonuni doirasida tushuntiradi.

G'arb iqtisodchilarining hozirgi zamon renta nazariyasida rentaning vujudga kelishini iqtisodiy resurs hisoblangan yerga bo'lgan talab va taklifning xarakati hamda muvozanatli

narxning hosil bo'lishi orqali tushuntiradi. Bunda rentaning manbai to'g'risidagi qarashlar ham farqlanadi. Birinchi yondashuvga ko'ra –u ishchi Mehnati bilan yaratiladi. Boshqasida renta yer mahsuli deb hisoblanadi. Renta vujudga kelishining manbai hoh ishchi Mehnati, hoh yer bo'lmasin, oxir oqibatda har ikki holda qiymatning Mehnat nazariyasidan to'liq ajralish bo'lmaydi. Har ikki holda ham rentani tushuntirish uchun qo'shimsha miqdor tushunchasidan foydalanadilar. Shu sababli bu muammo bo'yicha har ikki qarashni batafsil ko'rib chiqamiz.

G'arb iqtisodchilari rentaning vujudga kelishini tushuntirishda yer va boshqa tabiiy resurslar miqdorining doimiyligi (qayd qilinganligi) hamda rentaning daromadning boshqa turlari (ish haqi, foyda va foiz)dan farqlanishiga e'tiborlarini qaratadi. Bu farqlanishni miqdori cheklangan yerga bo'lgan talab va taklif nisbatidan foydalanib izorlaydi va tegishli xulosalar chiqaradi. Tahlilni soddalashtirish maqsadida, birinchidan, barcha yerlar bir xil sifatga ega, ya'ni unumdorligi jihatidan bir xil deb faraz qilingan. Ikkinchidan, barcha yerlar bir xil mahsulot, (masalan, don) yetishtirishda foydalaniladi va nihoyat uchinchidan yer raqobatli bozorda ijaraga olinadi deb hisoblaydi. yerga bo'lgan talab va taklif ta'sirida rentaning vujudga kelishini tushuntirishda grafik taxlildan foydalanadi. Bu 12-grafikda ko'rsatilgan. Grafikdagi S chiziq foydalaniladigan yer taklifini, D egri shiziq esa shu yerga bo'lgan talabni ko'rsatadi.



Grafik. yer rentasining aniqlanishi.

Yer taklifining doimiy xarakteri shuni bildiradiki, talab yer rentasini belgilovshi yagona omil bo'lib chiqadi, taklif passiv rol o'ynaydi. yerga bo'lgan talabni o'z navbatida ikkita asosiy omil belgilab beradi.. Bular shu yerda yetishtirilgan mahsulot narxi va yerning unumdorligi. Agar yerga bo'lgan talab D2 dan D1 ga orsa yoki D2 dan D3 ga pasaysa, yer rentasi R2 dan R1 ga yoki R3 ga o'zgarishi zarur, yerga talab miqdorining o'zgarishi mavjud yer miqdoriga hech qanday ta'sir ko'rsatmadi. Agar yerga talab faqat D4 ga teng bo'lsa, yer rentasi nolga teng bo'ladi, ya'ni yer «tekin tovar» hisoblanadi.

Turli yer uchastkalari o'zlarining unumdorligi bo'yicha keskin farqlanishi sababli bu yerlarda rentaning vujudga kelishida ham farq bo'lishiga olib keladi. yerning unumdorligidagi farqlar yomg'ir va harorat (temperatura) kabi tabiiy iqlim omillar tufayli kam ro'y beradi. Yer unumdorligidagi bu farqlar, unga bo'lgan talabda o'z aksini topadi. Narxning raqobatli bozor sharoitida tashkil topishi juda unumdor yerlarga yuqori rentaning, past unumdor yerlarga bir muncha kamroq rentaning o'rnatilishiga olib keladi. yerning o'rnatilgan o'rnini (bozorlarga, temir yo'llarga, suv manbalariga va shu kabilarga) ham yer rentasidagi farqlarni tushuntirishda muhim omil hisoblanadi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lganda ijarashi Mehnat va moddiy resurslarga nisbatan qulay joylashgan yer birligi uchun, bozordan uzoq joylashgan yerlarga qaraganda ko'proq ijara raq to'laydi.

Sifati (unumdorligi) bir xil bo'lmagan yerlarda vujudga keladigan renta miqdoridagi farqlarni yuqoridagi grafikda, faqat bir muncha boshqa nuqtai nazaridan oson kuzatish mumkin. Bunda har xil unumdorlikka ega bo'lgan yer uchastkasida oldingidek faqat bitta qishloq xo'jalik mahsuloti, aytaylik don yetishtiriladi, har bir yer uchastkasining hajmi doimiy

va SS ga teng deb faraz qilinadi. Kapital, mehnat va o'zaro bog'liq boshqa resurslar miqdorini barcha uchastkalariga bir xil sarflaganda ularning unumdorligi yoki yanada aniqroq, pulda ifodalangan keyingi unumdorligi har bir uchastka uchun D1, D2, D3, D4 talab egri chizig'ining holatidan ko'rinadi. 1-, 2-, 3- yer uchastkalariga mos keluvchi iqtisodiy renta R1, R2 va R3 bo'ladi, bunda rentalardagi farq ushta yer uchastkasining sifati, (unumdorligi) bir xil emasligi ko'rsatadi, 4-yer uchastkasining unumdorligi shunchalik pastki, ijarachilar uchun uni to'liq qishloq xo'jalik oborotiga kiritish foydasiz. Rentaning vujudga kelishini tahlil qilishda yerdan foydalanishning muqobil variantlari mavjud bo'lishini ham hisobga olish lozim. Ma'lum yer uchastkasidan nafaqat don, balki boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish, mol boqish, uy yoki boshqa ob'ektlar qurish uchun foydalanish mumkin. Yerdan foydalanishning bu muqobil variantlari ham renta miqdorida farqlar bo'lishiga olib keladi.

Yer rentasi yer egaligini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish (realizatsiya qilish)ning shaklidir. Yer rentasining bir qancha tarixiy ko'rinishlari mavjud. Masalan, uch shakldagi: barchchina (ishlab berish), obhok (natural soliq) va pul solig'i shakllaridagi feodal rentalari shular jumlasidandir. Hozirgi paytda turli mamlakatlarda mavjud renta vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlariga qarab quyidagi turlarga ajratiladi.

Absolyut yer rentasi, differensial (tabaqalashgan) renta - 1, va - 2, monopol renta, mutloq renta, qazilma boyliklar, qurilishlar joylashgan yerlardan olinadigan renta.

Yer uchastkalarining unumdorligi va joylashgan joyidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha daromad (qiymat)ning bir qismi renta shaklini oladi hamda u differensial renta deb ataladi.

Qishloq xo'jaligida eng muhim ishlab chiqarish vositasi –yerning miqdori va sifatini tabiatning o'zi cheklab qo'ygan, uni inson ko'paytirishga qodir emas.

Shuning uchun qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini faqat yaxshi unumdor yer uchastkalarida to'plash mumkin emas. Agar ishlab chiqarilgan mahsulot to'lovga qodir talab bilan ta'minlangan bo'lsa, yerning marsuldorligi yoki joylashuvi jihatidan yomon sharoit qishloq xo'jalik tovarlariga narx shakllanishini tartibga soluvchi ijtimoiy normal sharoit hisoblanadi. Natijada o'rtacha yoki yaxshi yerlarda xo'jalik yurituvshi ishlab chiqaruvchilar qo'shimcha mahsulot va binobarin foyda oladilar.

Bu foyda qisqa muddatli emas, balki ozmi-ko'pmi doimiy xarakterga ega. Barcha yerlar mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan egallab olinganligi sababli, bu ishlab chiqaruvchilar yerga xo'jalik ob'ekti sifatidagi monopoliya vujudga keladi. Bu rol differensial rentaning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratadi.

Shunday qilib, differensial renta hosil bo'lishining tabiiy sharti miqdori sheklangan yerning sifati (unumdorligi) dagi farqlardir, uning ijtimoiy-iqtisodiy sababi esa foydalaniladigan yerlarda iqtisodiy jihatdan alohidalashgan tarzda mustaqil xo'jalik yuritishdir.

Differensial renta o'zining kelib shiqish sharoitlarga qarab differensial renta - I va differensial renta – II ga bo'linadi.

Differensial renta – I yerning tabiiy unumdorligi bilan bog'liq bo'lgan, sanoat markazlariga, bozorlarga va aloqa yo'llariga yaqin joylashgan serunum yer uchastkalarida vujudga keladi. Chunki bunday yer uchastkalarida sarf-xarajatlar darajasi unumdorligi past, bozorlardan, shaharlardan va markaziy yo'llardan uzoq joylashgan yer uchastkalari mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatga nisbatan kam bo'ladi.

Differensial renta I yuqorida qarab chiqilganidek xo'jaliklar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiiy sharoitda vujudga keladi. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi korxonalarida hosil qilingan bu xildagi renta yer davlat mulki bo'lishi sababli uning manfaatlari yo'lida sarf qilish maqsadida markazlashtirilgan davlat fondida (byudjetida) to'planishi lozim. Bu rol o'rta va yaxshi unumli yerda joylashgan xo'jaliklarni iqtisodiy manfaatdorligiga putur yetkazmaydi, balki boshqa xo'jaliklar bilan ozmi-ko'pmi iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirish imkonini beradi. Markazlashtirilgan davlat fondiga o'tgan bu mablag'larni (differensial renta I), mamlakat oldida turgan vazifalarni amalga oshirish,

xususan yangi yerlarni o'zlashtirish va yer unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni amalga oshirish uchun yo'naltirilishi mumkin bo'ladi.

Differensial renta II yerdan intensiv foydalanish, ya'ni uning iqtisodiy unumdorligini oshirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bu xildagi rentaning asosiy qismi xo'jaliklarning o'zlarida qoldirilishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uning faqat bir qismi davlat fondiga jalb qilinishi mumkin, chunki davlat ma'lum darajada bu rentaning hosil qilishda o'z hissasini qo'shadi, ya'ni transport yo'llari qurilishiga, irrigatsiya-meloratsiya ishlarini amalga oshirish uchun kapital mablag'lar sarflaydi, texnikalar, kadrlar, mineral o'g'itlar yetkazib beradi. Shunday qilib, differensial renta I va differensial renta II yer egasi bo'lgan davlat bilan xo'jalik yurituvshi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanadi.

Absolyut renta. Ko'pgina mamlakatlarda qishloq xo'jaligida yerga xususiy mulkchilik monopoliyasi sharoitida ishlab chiqarishni olib borishga to'g'ri keladi. Bu monopoliya ijaraga beriladigan barcha yer uchastkalarining sifatidan qat'i nazar, yer egalari absolyut renta deb atalgan rentani olishga imkon beradi. Absolyut yer rantasining vujudga kelish mexanizmi shundan iboratki, yer egalari yerni ishlovshi ijarashilarga foydalanish uchun ijaraga beradilar va ulardan yerdan foydalanganlik uchun to'lovlar oladilar. Mana shu to'lov absolyut yer rentasi deb nom olgan. Agar yer ijaraga berilganda shu yerda turli xil inshootlar, binolar qurilgan bo'lsa, ularning ijara haqi alohida hisoblanadi.

Renta nazariyasiga ko'ra qishloq xo'jaligida rentaning yana bir turi – monopol renta ham mavjud bo'ladi. Boshqa yerda ushmaydigan tabiiy sharoit, ba'zan noyob qishloq xo'jalik mahsulotlari (uzumning alohida navlarini, sitrus ekinlari, shoy va rokazolarning alohida turlarini) yetishtirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday tovarlar monopol narxlar bilan sotiladi. Bu narxlarning yuqori bo'lishi ko'pinsha to'lovga qodir talab darajasi bilan belgilanadi. Natijada monopol narxlar shunday mahsulotlarning individual qiymatidan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Bu esa yer egalari monopol renta olish imkonini beradi.

Faqat qishloq xo'jaligida emas, balki undirma sanoatda ham qo'shimsha daromad olinadi. Ma'lumki foydali qazilma konlari joylashuvi (va, demak, ishlash uchun qulayligi) jihatidan ham, konning boyligi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Xuddi qishloq xo'jaligidagi singari, o'rta va yaxshi konlardagi korxonalar qo'shimsha foyda oladilar, u ham differensial rentaga aylanadi.

Ijara haqi. Renta munosabatlarini qarab shiqishda rentaning ijara haqidan farqiga e'tiborni qaratish zarur. Agar ijaraga beriladigan yerga oldin bino, inshoot va shu kabilar qurish bilan bog'liq ravishda kapital qo'yilmalar sarflanmagan bo'lsa, ijara haqi va renta miqdoran bir-biriga to'g'ri keladi. Aks holda, ijara haqi yer rentasidan farq qiladi. Ijara haqi quyidagilardan iborat: yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan renta (R), yerga ilgari sarflangan kapital uchun foiz (r); yer uchastkasini ijaraga bergunga qadar unga qurilgan inshootlar amortizatsiyasi (A). Buni formulada quyidagisha yozish mumkin:  $IR = R + rA$ .

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida yer faqat ijara ob'ekti emas, balki oldi-sotdi ob'ekti hamdir. yer ham qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish va tabiiy qazilma boyliklar qazib olish uchun, har xil ishlab chiqarish va turar joy binolari, inshootlar, yo'llar, aeroportlar va rokazolar qurish uchun sotib olinadi. yerning bahosi nima bilan belgilanadi? yer almashuv qiymatga ega emas. Chunki u inson Mehnati marsuli emas.

Shu sababli yer va boshqa tabiat in'omlari narxini nazariyotshilar irratsional narxlar deb ataydilar. yer ham irratsional narxga ega. yer uchastkasining egasi uni sotishda olingan summani bankka qo'yilganda, foiz tarzida u keltiradigan daromad shu yer uchastkasidan olinadigan rentadan kam bo'lmagan taqdirdagina yerni sotadi. Boshqasha aytganda, yerning narxi kapitallashtirilgan rentadir. Boshqa sharoitlar teng bo'lganda, xuddi shu renta miqdori yer narxini belgilaydi. U renta miqdoriga to'g'ri mutanosib va ssuda foizi normasiga teskari mutanosibdir. Shunday qilib, yerning narxi ikkita miqdorga bog'liq: 1) yer uchastkasi egasi olish mumkin bo'lgan yer rentasi miqdoriga; 2) ssuda foizi normasiga.

Shundan kelib chiqib yerning narxi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi. Bq bunda R- renta r -ssuda foizi normasi, B- yer bahosi.

Faraz qilaylik, R – 15 ming dol. , r q 5%. Bunda B q 300 ming dol. ga teng bo‘ladi. yer egasi faqat shu narxdagina yerini sotishi mumkin, chunki muayyan miqdordagi kapitaldan olinadigan foiz unga bankdan shunday yillik daromad olishga imkon beradiki, u rentaga teng bo‘ladi.

Renta miqdori o‘sib, ssuda foizi normasi pasayib borgan taqdirda yerning narxi o‘sib boradi.

Yer narxini aniqlashning bu usuli nazariy ahamiyatga ega. Amalda yer narxi, yer uchastkasiga talab va taklifga ta’sir ko‘rsatuvshi ko‘plab omillarga bog‘liq. Jumladan, yerga narxning o‘shishini, unga noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun foydalanishga talabning o‘shishi bilan tuchuntirilishi mumkin. Inflyatsiya va asosan giperinflyatsiya sharoitida yerga talab keskin o‘sadi, bu tegishli ravishda yer narxining o‘shishiga olib keladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan g‘arb mamlakatlarida XX asr boshlaridan to hozirgi davrgacha yer narxi barqaror o‘shish tamoyiliga ega bo‘lib, faqat ayrim davrlardagina uning pasayishi kuzatiladi.

## **2. Agrosanoat integratsiyasi.**

### **Agrosanoat majmuasi va uning tarkibi**

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida qishloq xo‘jaligi hamma vaqt sanoat, savdo va boshqa tarmoqlar bilan mustarkam bog‘liq bo‘lib kelganligini hisobga olish kerak.

Chunki mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlariga va qishloq xo‘jalik xom-ashyosidan tayyorlangan tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish faqat qishloq xo‘jaligining holatiga emas, balki sanoat tarmoqlari bilan uyg‘un rivojlanishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Xuddi ana shu narsa xalq xo‘jaligi tizimida agrosanoat majmuasini bitta pirovard natijani ro‘yobga chiqarishga bo‘ysundirilgan tarmoqlarning yagona, yaxlit tizimini keltirib chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Agrosanoat integratsiyasi – qishloq xo‘jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste’molchiga yetkazib beruvshi tutash tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat integratsiyasi ko‘p qirhali bo‘lib, u g‘oyat xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Bular eng avvalo ana shu jarayon qaysi darajada, ya’ni butun mamlakat ko‘lamidami, viloyat doirasi yoki korxonada darajasidami yuz berishiga bog‘liq. Butun mamlakat va mintaqalar ko‘lamida agrosanoat integratsiyasi qishloq xo‘jaligining tarmoqlararo aloqalari kushayishida, xalq xo‘jaligi oziq-ovqat (tarmoq) va mintaqada agrosanoat majmualari tashkil bo‘lishi va rivojlanishida ifodalanadi. Agrosanoat majmuasi (ASM) – bu qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanuvshi xalq xo‘jalik tarmoqlaridir. ASM to‘rtta sohani o‘z ishiga oladi. Birinchi, qishloq xo‘jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga ishlab chiqarish texnika xizmati ko‘rsatish bilan band bo‘lgan tarmoqlar; ikkinchi soha – qishloq xo‘jaligining o‘zi; uchinchi soha – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste’molchiga yetkazib berishni ta’minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish). Agrosanoat majmuasi tarkibida to‘rtinchi soha odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta’minlaydigan infratuzilma muhim o‘rin tutadi. Bular yo‘l-transport xo‘jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara ro‘jaligi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta’minlaydigan sohalarni (uy-joy, madaniy- maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o‘z ishiga oladi.

Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlaganidek: “Qishloqni yangilash va qayta qurish chora-tadbirlari tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega”. Shu sababli Respublikada qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish hamda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta’minlash dasturini amalga oshirish davom ettirilmoqda. Faqat 2000 yil davomida qishloqda 2019, 8 km suv quvurlari tarmog‘i ishga tushirildi, 4002, 2 km gaz tarmoqlari qurildi. Mablag‘ bilan ta’minlanadigan barcha



manbalar hisobidan umumiy maydoni 6,97 mln. kv.m. uy-joy binolari foydalanishga topshirildi. qishloqda 145 qishloq vrachlik punktlari qurildi, 17 ming o'quvchi o'rniga ega bo'lgan umumta'lim maktablari ishga tushirildi.

### **3. Agrobiznes va uning turlari**

Tadbirkorlik faoliyatining qishloq xo'jalik sohasidagi shakli agrobiznes ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agrobiznes tushunchasiga qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy, ta'mirlash xizmat ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarni qamrab oladi.

Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat. Agrobiznesning asosiy shakli va birlamshi bo'g'ini fermer va derqon xo'jaliklaridir. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu xo'jaliklar o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanish ham mumkin. Fermer xo'jaligining afzalligi shundan iboratki, undan mulk va Mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa yuqori samarani ta'minlaydi. Fermer xo'jaliklari mustaqil tuzilma bo'lish sababli o'z faoliyatini bozor konyukturasiga tez moslashtira oladi. Unda iqtisodiy manfaat va pirovard natija uchun mas'uliyat bitta faoliyatning ikki tomonini tashkil qiladi. Bularning hammasi fermer xo'jaligining yashovshanligini ta'minlaydi.

Respublikada islorotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqishlaridayoq, Prezidentimiz Islom Karimov fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi sifatida faoliyat ko'rsatishi lozimligini ta'kidlab o'tgan edi. Shu sababli respublikamizda qishloq xo'jaligini fermerlashtirish agrar islorotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikada bu jarayon zahar ko'rib ishlash natijasida og'ir arvolga tushib qolgan davlat xo'jaliklarining tarkibi fermer xo'jaliklaridan iborat shirkatlar uyushmasiga aylantirish, mavjud davlat va jamoa xo'jaliklari tarkibida ular resurslari hisobidan fermer xo'jaliklari uyushtirish hamda derqonning o'z mol-mulki negizidan bunday xo'jaliklarni derqon xo'jaligi tashkil qilish yo'li bilan boradi. Fermer xo'jaligining barcha tashkiliy shakllarining umumiy tomoni shundaki, ular ijaraga olingan davlat yerida faoliyat ko'rsatadi. Fermer va derqon xo'jaliklarini tashkil qilish, rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solish O'zbekiston respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunlarga hamda qishloq xo'jaligida islorotlarni shuqurlashtirishga qaratilgan boshqa huquqiy bitimlarga va rukumat qarorlariga asoslanadi.

Bu qonuniy aktlarda fermerlarga ajratilgan yerlarni meros qilib qoldirish sharti bilan uzoq muddatli ijaraga olish huquqi mustarkamlab qo'yildi. Shu bilan, birga bu xo'jalik uchun yerlarning unumdorligini saqlash va oshirishda davlat tomonidan kafolatlar yaratish yo'li bilan ularni rimoyalash tizimi vujudga keltirildi. Shunday qilib fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun ham huquqiy, ham tashkiliy shart-sharoitlar yaratildi. Natijada Respublikada 2001 yil boshiga kelib fermer xo'jaliklari soni 43800 dan ziyodni tashkil qildi. Ularga birlashtirilgan qishloq xo'jalik foydalanishidagi yerlar maydoni 889,7 ming gektarni tashkil qilib, bir xo'jalik ixtiyoridagi yer maydoni 20,3 gektarga to'g'ri keladi. 2000 yilda fermer xo'jaliklarida butun qishloq xo'jalik mahsulotlarining 5,1 foizi yetishtirilgan.

Respublikada fermer xo'jaliklari samarali ishlashi uchun zarur xizmat ko'rsatuvshi infratuzilma – agrofimalar, mashina- traktor parklari, ta'mirlash ustaxonalari, tayyorlov punktlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kishik korxonalar tizimi shakllandi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofimalardir. Ular ma'lum turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonalaridir.

Agrofirmalar ham qishloq xo‘jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, iste‘molga tayyor bo‘lgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdagi korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, shunonshi oilaviy xo‘jalik asosida ham tashkil topib, kishik zavodlar bilan birikishi mumkin. Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlaridir.

Agrosanoat birlashmalari bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog‘liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvshi bir nasha xo‘jalik hamda korxonalarni birlashtiradi. Masalan, Bog‘dorshilik va uzumshilik bilan shug‘ullanuvshi xo‘jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovshi sex va zavodlar, yetkazib beruvshi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokshilari ishlab chiqarish, xo‘jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

#### **Nazorat savollari**

1. Agrar munosabatlarning mazmunini, iqtisodiy munosabatlarda tutgan o‘rnini va xususiyatlarini ko‘rsatib bering.
2. «Uerga egalik» va «erdan foydalanish» tushunchalarini izorlang. yer rentasi nazariyalarining umumiy tomonlari va tub farqlarini ko‘rsatib bering. yer rentasining asl mazmunini tushuntiring.
3. Differensial (I va II) renta manbalari va taqsimlanishini tuchuntirib bering. Monopol renta nima? qazib oluvchi va undirma sanoatda renta qanday hosil bo‘ladi?
4. «Ijara haqi» va «er rentasi» ning farqlarini izorlang.
5. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga tavsif bering.
6. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalari iqtisodiy mazmuniga o‘z fikringizni bildiring.

#### **Mustaqil mavzulari va topshiriqlari**

1. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi bo‘yicha jahon tajribasi
2. Absolyut rentaning hosil bo‘lish shart-sharoitlari

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O‘zbekiston, 2011.
2. Shodmonov Sh.Sh., U.V.G‘afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta’lim texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. «Iqtisodiy ta’limda o‘qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G‘G‘ Xalq so‘zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. -T. «O‘zbekiston», 1994.
6. Karimov I.A. Qishloq xo‘jalik istiqboli - yurt istiqboli. «Mehnat», 11 iyul 1995. № 21, 2-3-b.
7. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida. 2004 yil 26 avgust.
8. Shodmonov Sh., G‘afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Mehnat» nashriyoti, 2005
9. Bekmurodov A.Sh., G‘afurovU. O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizasiyalash: natijalar va ustuvor yo‘nalishlar. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. – 2008 y.
10. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to‘plami, -T.: TDIU, 2005.

## **8-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O‘LCHAMLARI**

**Darsning o‘quv maqsadi:** talabalarda milliy iqtisodiyot, uning mazmuni, shakllanish shart-sharoitlari va omillari, milliy iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar(YAIM. YAMM), yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari to‘g‘risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o‘rganish bilan bog‘liq tayanch iboralar**

Makroiqtisodiyot, milliy hisoblar tizimi, yalpi milliy mahsulot (YAMM), qo‘shilgan qiymat, yalpi ichki mahsulot (YAIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad, shaxsiy daromad, nominal YAIM, real YAIM, ohaliq mahsulot, pirovard mahsulot.

### **Asosiy savollar**

1. Milliy iqtisodiyot, uning mazmuni, shakllanish shart-sharoitlari va omillari.
2. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar. YAIM. YAMM.
3. Yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari.

### **1. Milliy iqtisodiyot, uning mazmuni, shakllanish shart-sharoitlari va omillari.**

Hammaga ma‘lumki, o‘tmishda O‘zbekiston iqtisodiyoti sobiq sovet ittifoqi iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanib, mustaqil milliy iqtisodiyot deb bo‘lmas edi. Bizga bir yoqlama rivojlangan paxta yakka hokimligiga, xom-ashyo ishlab chiqarishga va boy mineral – xom-ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan, yonilg‘i, g‘alla va boshqa ko‘pgina ishlab chiqarish vositalari iste‘mol tovarlarining ta‘minlanishi bo‘yicha markazga qaham bo‘lgan iqtisodiyot meros bo‘lib qolgan edi. Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov qisqa qilib aytganlaridek, «O‘zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga – markazga butunlay qaham, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo‘lgan» mamlakat edi.

1991 yil sentyabridan buyon o‘tgan davr mobaynida iqtisodiy mustaqillikni qo‘lga kiritib, mamlakatimiz hududidagi barcha tabiiy, mineral – xom ashyo boyliklaridan mamlakatimizdagi butun iqtisodiy resurslar va quvvatlardan o‘z xalqimiz va uning kelajagi manfaatlarini yo‘lida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldik .

Yangi energetika, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi, ko‘plab yirik inshootlar, korxonalar, zavod va fabrikalar qurilganligi, yonilg‘i va g‘alla mustaqilligiga erishilganligi iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, izchil o‘shish sur‘atlari milliy mustaqil iqtisodiyotni mustahkamlash sari xarakat natijalaridir.

Shunday qilib, O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan yangi, mustaqil rivojlanayotgan, o‘z xalqi, millati manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllanib bormoqda.

Milliy iqtisodiyot, barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makro iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko‘plab infratuzilmalarni o‘z ishiga olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

Makroiqtisodiyot – bu mamlakat miqyosida moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy sohalarni bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

Milliy xo‘jalikning tarkib topgan tuzilishi ijtimoiy Mehnat taqsimoti rivojining natijasi hisoblanadi. Makroiqtisodiyot o‘z ishiga xalq xo‘jaligining moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarni oladi. Milliy iqtisodiyot me‘yorida faoliyat qilish va barqaror o‘shishi uchun barcha tarmoq va ishlab chiqarish sohalarning o‘zaro bog‘liqligi va muvozanatli rivojlanishi talab qilinadi.

Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish hajmi va ularning o‘shishi bir qator ko‘rsatkichlar tizimi orqali, mikro va makroiqtisodiy darajada aniqlanib, tahlil qilinadi. Ko‘pgina mikro ko‘rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho berilib va ular iqtisodiyotining rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati uning o‘shishi yoki orqaga ketishi tahlil qilinib, xulosa chiqariladi. Ular yordamida davlat o‘z iqtisodiy siyosatini belgilaydi. Bu tizimga kiruvchi turli xil ko‘rsatkichlar, birinchidan, bizga ma‘lum vaqt ohalig‘idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga bevosita ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi, YaMMni uning

xarakatining barcha bosqichlarida, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimlash, qayta taqsimlash va natijada foydalanish bosqichlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirishga imkon beradi.

Nihoyat mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan foydalanishning mos kelishi (tengligi) kuzatilganda, mamlakatdagi umumiy iqtisodiy muvozanatlik holatini aks ettiradi. Butun milliy iqtisodiyotining holatini xarakterlovshi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – yalpi milliy mahsulot (YaMM), ichki milliy mahsulot (YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad(MD), ishchi kuchi bandligi, ishsizlik, inflyatsiya va boshqa shu kabilar hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha xo'jaliklar iqtisodiy faoliyatining umumiy va pirovard natijalarini qamrab oladi.

## **2. Milliy iqtisodiyot rivojlanishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. YaIM. YaMM.**

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – milliy xo'jaliklarda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste'molchilarga borib tushishi mumkin bo'lgan tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymatidan iborat bo'ladi.

Demak, YaMM milliy iqtisodiyotda yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard mahsulot (xizmat)larning bozor baholaridagi summasi. Biz bilamizki, joriy yilda ishlab chiqilgan barcha mahsulotlar sotilmasligi mumkin, ularning bir qismi zayiralarni to'ldiradi. Ya'ni YaMM hajmini hisoblab topishda zahiralarning har qanday o'sish hisobga olinishi zarur, chunki YaMM yordamida joriy yildagi barcha mahsulotlar (sotilgan va sotilmagan) hisobga olinadi. Milliy ishlab chiqarishning yalpi hajmini to'g'ri hisoblab chiqish uchun, mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot va xizmatlar bir marta hisobga olinishi zarur. YaMM hajmini topishda sotilgan va qayta sotilgan mahsulotlarni ko'p marta hisobga olishlarni bartaraf qilish uchun, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi olinadi.

Qo'shilgan qiymat – bu korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvshilardan sotib olingan va iste'mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati.

Boshqacha aytganda qo'shilgan qiymat – bu korxonada yalpi mahsulotidan yoki ishlab chiqargan mahsulotining bozor narxidan (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangan miqdoriga teng. YaMM yordamida milliy iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish yillik hajmini hisoblashga hapatkat qilinadi.

YaMM yil davomida ishlab chiqarilgan barcha pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi summasi bo'lganligi uchun tovarning o'zi, uning nafliligi ko'paymagan holda baholar oshishi evaziga uning hajmi oshib ketishi mumkin. Baho ishlab chiqarish umumiy hajmining hap xil elementlarini yagona umumiy asosga keltirishning eng keng tarqalgan ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Shuning uchun yalpi milliy mahsulotga baho berishda nominal va real milliy mahsulot hisobga olinadi. Joriy bozor baholarida hisoblangan milliy mahsulot nominal milliy mahsulot, o'zgarmas baholarda hisoblangan milliy mahsulot esa real milliy mahsulot deb yuritiladi. Har xil yillarda ishlab chiqarilgan YaMM qiymatini faqat narx o'zgarmaning taqdirda o'zaro taqqoslash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari narx darajasi bizga iqtisodiyotda inflyatsiya (narx darajasining o'sishi) yoki deflyatsiya (narx darajasining kamayishi) o'rin tutganligini va uning miqyosi qandayligini bilish imkonini beradi. Narx darajasi indeks shaklida ifodalanadi. Narx indeksi joriy yildagi ma'lum guruh tovarlar va xizmatlar to'plami narxlarini summasini, xuddi shunday tovarlar va xizmatlarning miqdorining bazis davrdagi narxlar summasiga taqqoslash orqali hisoblanadi. Taqqoslashning boshlang'ish davpi "bazis yil" deyiladi. Agar aytilganlarni formula shakliga keltirsak, u quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\text{Narx indeksi} = \frac{\text{joriy yildagi iste'molchilik tovarlari narxi}}{\text{bazis yilidagi iste'molchilik tovarlari narxi}} * 100$$

Amaliyotda qator har xil tovar va xizmatlar to'plami yoki iste'mol savatining narx indeksi hisoblanadi. G'arb mamlakatlari va xususan AQShda bu indekslar ichida eng keng

qo'llaniladigani iste'molchilik tovarlari savati narxlari indeksi hisoblanadi. Uning yordamida tirik shahar aholisi sotib oladigan, iste'molchilik tovar va xizmatlarning 300 turini o'z ichiga oluvchi bozor savatining qayd qilingan narxlari hisoblanadi. Ammo narxning umumiy darajasini hisoblash uchun YAMM narx indeksidan foydalaniladi. YAMM narx indeksi ancha keng tushuncha bo'lib, u o'z ichiga nafaqat iste'molchilik tovarlari, balki investitsion tovarlar, davlat tomonidan sotib olinadigan hamda xalqaro bozorda sotilgan va sotib olingan tovarlar va xizmatlar narxlarini ham oladi. YAMM narx indeksi, nominal YAMM ni real YAMMga aylantirib hisoblash imkoniyatini beradi.

Nominal YAMM shu mahsulot ishlab chiqarilgan davrda amal qilib turgan baholarda ifodalangan ishlab chiqarish hajmini bildiradi.

Ma'lum yil uchun YAMM narx indeksini qanday qilib hisoblash mumkinligini ko'rsatuvchi oddiy shartli misol keltiramiz. 2000 yil Respublikamiz xalq xo'jaligida 3104,5 mlrd. so'mlik YAIM ishlab chiqarilgan. 1999 yil YAIM qiymati 2128,7 mlpd. so'mni tashkil qilgan.

2000 yilga YAMM narx indeksini aniqlash uchun, 2000 yildagi mahsulotlar narxlari summasini xuddi shu rajmdagi va turdagi tovaqlarning 1999 yil narxlari summasiga bo'lish zarur, ya'ni  $3194,5:2128,7 \approx 1,5$  yoki 150,0%.

Agar biz YAMM narx indeksini qator yillar uchun hisoblasak, olingan indekslar bizga ularni solishtirib tahlil qilish imkonini beradi.

Jopiy yildagi nominal YAMMni real YAMMga aylantirishning ancha oddiy va to'g'ridan to'g'ri usuli nominal YAMMni narx indeksiga bo'lishdir, ya'ni,

Real YAMM nominal YAMMni Iqtisodiyotda yillik ishlab chiqarish hajmining ko'rsatkichi YAMM bilan birga, uning tarkibiy qismlari sifatida hisoblanish mumkin bo'lgan bir qator o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar mavjud bo'ladiki, ular milliy iqtisodiyotning turli tomonlarini xarakterlab beradi.

YAMM ko'rsatkichiga sof eksport (eksport va import o'rtasidagi farq) kiradi. Ammo turli mamlakatlarda tashqi savdo faoliyatining salmog'i keskin farqlanadi. Shu sababli milliy iqtisodiyot rivojlanish darajasini taqqoslash uchun yalpi ichki mahsulot (YAIM) ko'rsatkichidan foydalaniladi. YAMM ma'lum vaqt davomida (bir yilda) mamlakat hududida ishlab shiqarilgan va iste'mol qilishga tayyor pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidir. U barcha ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida chiqadi.

YAMM va YAIM ishlab chiqarish yalpi hajmining ko'rsatkishi sifatida bitta muhim kamshilikka ega. Ular mazkur yilda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan, asosiy kapitalning o'rnini qoplash uchun zarur bo'lgan qiymatni ham o'z ishiga oladi.

YAMMdan joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati yoki yillik amortizatsiya summasi ayirib tashlansa sof milliy mahsulot (SMM) ko'rsatkishi hosil bo'ladi.

YAMM – amortizatsiya yillik summasi q SMM. Shunday qilib, SMM amortizatsiya ajratmasi summasiga kamaytirilgan YAMM sifatida chiqadi.

SMM qiymatiga davlat tomonidan o'rnatiladigan egri soliqlar summasi kiradi. Egri soliqlar korxonalar tomonidan o'rnatiladigan bahoga qo'shimsha hisoblanadi. Bunday soliqlar og'irligi iste'molchi ZYAIMasiga tushadi va uning hisobiga o'zlarining daromadining bir qismini yo'qotadi. Shuning uchun hozirgi davrda hisob tizimida SMMdan egri soliqlar shiqarib tashlansa milliy daromad (MD) ko'rsatkishi hosil bo'ladi deb ko'rsatiladi.

SMM – biznesga egri soliq milliy daromad.

Amaliyotda ishlab shiqarilgan va foydalanilgan MD farqlanadi. Ishlab shiqarilgan MD – bu yangidan yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining butun hajmi. Foydalanilgan MD – bu ishlab shiqarilgan MDdan yo'qotishlar (tabiiy ofatlar, saqlashdagi yo'qotishlar va r. k. ) va tashqi savdo qoldig'i shiqarib tashlangan miqdorga teng.

Bizning amaliyotda MD iste'mol va jamg'arish fondiga ajratiladi. Iste'mol fondi – bu milliy daromadning jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini hamda butun

jamiyat ehtyojlarini (ta'lim, mudofaa va r. k. ) qondirishni ta'minlashga ketadigan qismi. Jamg'arish fondi – bu milliy daromadning ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'minlaydigan qismi.

Milliy daromadni, daromadlap bapcha turlarini (amortizatsiya ajratmasi va biznesga egri soliqlardan tashqari) qo'shib chirish yo'li bilan ham aniqlash mumkin.

Milliy daromadning bir qismi, jumladan ijtimoiy straxovaniyaga ajratmalar, korxonalar foydasiga soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi amalda yy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydi. Aksincha, yy xo'jaliklari oladigan daromadning bir qismi, masalan, ijtimoiy to'lovlar - ular qilgan mehnatining natijasi hisoblanmaydi.

Shaxsiy daromad ko'rsatkichini topish uchun milliy daromaddan yy xo'jaliklari qo'liga kelib tushmaydigan daromadlarning yuqoridagi uchta turini (ishlab topilgan) chiqarib tashlashimiz hamda joriy mehnat faoliyatining natijasi hisoblanmagan daromadlarni unga qo'shishimiz zarur.

Milliy daromad - ijtimoiy sug'urta ajratmasi - korxonalar foydasiga soliqlar - korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi, ijtimoiy to'lovlar, shaxsiy daromad.

Shaxsiy daromaddan soliqlari to'langandan keyin, yy xo'jaliklarining to'liq tasarrufida qoladigan daromad shakllanadi.

Soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy daromaddan shu daromad hisobidan to'lanadigan soliqlar miqdorini chiqarib tashlash yo'li bilan hisoblanadi. Soliqlar to'langandan keyingi daromad uy xo'jaliklari eng oxirida ega bo'ladigan daromad hisoblanib, alohida shaxs va oilalar o'z tasarrufida by daromadlarning bir qismini iste'mol uchun sarflaydi va boshqa qismini jamg'armaga yo'naltiradi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning qarab chiqilgan tahliliga asoslanib, bu ko'rsatkichlar butun tizimi nisbatini ko'rgazmali tasavvur qilishimiz mumkin bo'ladi.

Ichki milliy mahsulot – Amortizatsiya q SMM.

Sof milliy mahsulot - Egri soliqlar q MD.

Milliy daromad – ijtimoiy sug'urta ajratmalari - korxonalar foydasiga soliqlar - korxonalar taqsimlanmaydigan foydasi q ijtimoiy to'lovlar q Shaxsiy daromad

Shaxsiy daromad - Shu daromad hisobiga soliqlar to'lanadigan keyingi daromad.

### **3.Yalpi milliy mahsulotni hisoblash usullari**

Milliy mahsulotni hisoblashda milliy hisob tizimidan foydalaniladi.

Milliy hisoblar – bu YAMM va milliy daromadni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda ulardan foydalanishni xarakterlaydigan o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidir.

Bunday hisoblar xalqaro statistikada standart tizim sifatida 1953 yildan boshlab qo'llanila boshladi. Hozirgi davrda dunyoning 100dan oshiq mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda mazkur tizim keng qo'llaniladi.

Milliy hisoblar asosini yig'ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo'lishi mumkin. Daromadlar xo'jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to'rtta guruhdan iborat bo'ladi: iste'mol, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me'yoridagi – muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

YAMM (YAIM) uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

Birinchi usul – bu YAMMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymatlar qo'shib shiqiladi (YAIM tarmoq va ishlab chiqarishlar bo'yicha). Bu usul bilan hisoblangan YAMM (YAIM) alohida tarmoqlarning shu mahsulotini yaratishdagi o'rnini va rissasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, O'zbekistonda YAIM (YAIM) 2000 yil xalq xo'jaligining tarmoqlari va sohalar bo'yicha 3194,5 mlrd. so'mni tashkil qilganl. Shu jumladan:

- moddiy ishlab chiqarish sohalarida – 1614,2 mlrd so'm (50,5%)
- xizmat ko'rsatish sohalarida – 1173,9 mlrd. so'm (36,8%).
- Sof soliqlar – 405,4 mlrd. so'm (12,7%)

- Respublikada YAIM ning tarmoqlar bo'yicha tuzilishi shu yili quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlangan (mlrd. so'm).
- YAIM jami – 3194,5 (100,0%)
- shu jumladan: sanoatda – 440,5 (13,8%)
- qurilishda – 194,4 (6,1%)
- qishloq xo'jaligida – 972,5 (30,4%)
- savdo va umumiy ovqatlanishda: – 303,5 (0,5%)
- transport va aloqada – 258,0 (8,1%)
- boshqa sohalarda – 619,2 (19,4%)
- sof soliqlar – 406,4 (12,7%)

Ikkinchi usul – bu YAIM (YAIM)ni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv.

Bunda mazkur yilda ishlab shiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo'shib shiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab shiqarilgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ishida xo'jalikning ushta sub'ekti – uy xo'jaliklari, davlat, tadbirkorlar hamda tashqaridan chet ellik iste'molchilar sotib olishi mumkin.

Uy xo'jaliklarining iste'molchilik sarflari. Bu kundalik tovarlarga, xizmatlarga, uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir. Investitsion sarflar tadbirkorlik sektorining asosiy kapitalni yalpi jamg'arishga qiladigan sarflardir. Investitsion sarflar asosan ushta qismdan iborat: a) tadbirkorlar tomonidan mashina, yskuna va stanoklarning barcha xaridi; b) barsha qurilishlar; v) zahiralarning o'zgarishi.

Birinchi guruh elementlarning "investitsion sarflar" tarkibiga kiritilish sababi aniq, qurilishlarning uning tarkibiga kiritilishi, o'z-o'zidan aniqki, yangi fabrika, ombor yoki elivator qurilishi investitsiyalar shakli hisoblanadi.

YAIM tarkibiga zayiralarning ko'rayishi, ya'ni ishlab chiqarilgan, lekin mazkur yilda sotilmagan barsha mahsulotlar kiritiladi. Boshqasha aytganda YAIM o'z ishiga yil davomidari zahiralarning va ehtiyojlar barsha o'sishining bozor qiymatini oladi. Zahiralarning by o'sishi YAIMra joriy ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi sifatida qo'shiladi. Zahiralap kamayganda, u YAIM hajmidan shiqapilishi zapup. Zahiralarning kamayishi yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgandan ko'proq mahsulot sotilganlirini bildiradi. Boshqasha aytganda jamiyat mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotni va bunga qo'shimsha oldingi yillardan qolgan zahiralarning bir qismini iste'mol qilgan bo'ladi.

Milliy hisoblar tizimida YAIMni hisoblashda yalpi, xususiy va ishki investitsiyalar tushunchasidan foydalaniladi. Xususiy va ishki investitsiyalar mos ravishda xususiy va milliy korporatsiyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi. YAlpi investitsiyalar o'z ishiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o'rnini qoplash uchun mo'ljallangan barsha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni, hamda iqtisodiyotda kapital qo'yilmalar hajmira har qanday sof qo'shimshalarni oladi. YAlpi investitsiyalar mohiyatiga ko'ra iste'mol qilingan asosiy kapitalni qoplash summasini va investitsiyalarning o'sgan qismidan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan sof xususiy ishki investitsiyalar tushunchasi joriy yil davomida qo'shilgan investitsion tovarlar summasini xarakterlash uchun ishlatiladi. Ularning farqini oddiy misolda ancha aniq tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik, Respublikamiz iqtisodiyotida 2000 yil 500 mlrd. so'mlik, investitsion tovarlar (ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarilgan bo'lsin. Ammo YAIMni ishlab chiqarish jarayonida shu yili 400 mlrd. so'mlik mashina, yskuna va boshqa investitsion tovarlar iste'mol qilingan. Natijada bizning iqtisodiyotga 100 mlrd. so'mlik jamg'arilgan kapital qiymati qo'shiladi. Shu yili yalpi investitsiyalar 500 mlrd. so'mni sof investitsiyalar faqat 100 mlrd, so'mni tashkil qiladi. Ikki ko'rsatkish o'rtasidari farq, 2000 yilgi YAIM hajmini ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilgan va iste'mol qilingan kapital qiymatini ifodalaydi.

Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya (shu yili ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan asosiy kapital hajmi) o'rtasidagi nisbat, iqtisodiyot yuksalish, Turg'unlik yoki tanazzul holatida joylashganligini xarakterlab beruvchi ko'rsatkish (indikator) hisoblanadi.

Yalpi investitsiyalar amortizatsiyadan ortiq bo'lsa, iqtisodiyot yuksalish bosqishida joylashadi, uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Masalan, bizning yuqoridagi misolda ta'kidlanganidek, 2000 yil yalpi investitsiyalar 500 mlrd. so'mni, ishlab chiqarishda iste'mol qilingan investitsiya tovarlari hajmi 400 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bu iqtisodiyotda shu yil oxirida 100 mlrd. so'mlik investitsion tovarlar ko'p bo'lganini bildiradiki, investitsion tovarlar taklifining ko'payishi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Turg'un iqtisodiyot yalpi investitsiyalar va amortizatsiya teng bo'lgan vaziyatni aks ettiradi. Bu iqtisodiyotda mazkur yilda YAIMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan vositalarni qoplash uchun zarur bo'lgan miqdorda asosiy kapital ishlab chiqarishni bildiradi. Boshqasha aytganda, sof investitsiyalar taxminan nolga teng bo'ladi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaymaydi.

Yalpi investitsiyalar amortizatsiyaga qaraganda kam bo'lsa, ya'ni iqtisodiyotda ishlab chiqarilganga qaraganda kapital ko'proq iste'mol qilinsa, noqulay vaziyat vujudga keladi. Bunday sharoitda iqtisodiyotda investitsiyalarning qisqarishi ro'y beradi. By yil oxirida kapital xajmi yil boshida mavjud bo'lgandan kam bo'lib qolishga olib keladi. Masalan, "Buyuk Turg'unlik" davrida, aniqrog'i 1933 yil AqShda yalpi investitsiyalar hammasi bo'lib 1,6 mlrd. dol. ni, yil davomida iste'mol qilingan kapital - 7,6 mlrd. dol. ni tashkil qilgan. Shunday qilib, investitsiyalarning sof qisqarishi 6 mlrd. dol. ga teng bo'lgan.

Davlat sarflari – bu mahsulotlarni va iqtisodiy resurslarni, xususan ishchi kuchini sotib olishga davlatning (boshqaruvning quyi va mahalliy organlari bilan birga) qilgan barcha sapflapini o'z ishiga oladi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari xuddi mamlakat ishidagi iste'molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog'liq. Shu sababli YAIMni sarflar bo'yicha hisoblashda tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya'ni eksport qiymati ham qo'shiladi. Boshqa tomondan, iste'molchilik va investitsion sarflar hamda davlat mablag'larining bir qismi import qilingan, ya'ni chet elda ishlab shiqarilgan tovarlarga sarflanadi. Milliy ishlab chiqarish umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YAIMdan shiqariladi. Buning uchun eksport va import miqdorlari o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bu farq tovar va xizmatlarning sof eksporti yoki oddiy qilib sof eksport deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. Agar eksport importdan ortiq bo'lsa, bu ijobiy, eksportdan import ortiq bo'lsa salbiy bo'ladi.

Qarab chiqilgan sarflarning to'rt toifasiga notijorat muassasalar (kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar va ijtimoiy tashkilotlar) sarflari va moddiy aylanma vositalari zayirasidagi o'zgarishlarni qo'shib shiqish yo'li bilan YAIM(YAIM) hajmi aniqlanadi.

2000 yil O'zbekistonda sarflar (foydalanish) bo'yicha YAIM 3194,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, u tarkiban quyidagisha bo'lgan.

- Pirovard iste'molga sarflar – 2665,0 mlrd. so'm (83,4%)
- YAlpi jamg'arish – 529,5 mlrd. so'm (16,6%)

Uchinchi usul – bu YAIM(YAIM)ni daromadlar bo'yicha hisoblash.

Mazkur yilda ishlab shiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo'jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to'lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Shu sababli bu usulda YAIM(YAIM) pirovard mahsulot hisobidan olingan ana shu barcha daromadlarni qo'shib shiqish orqali aniqlanadi.

YAIM(YAIM)ni daromadlar bo'yicha hisoblashda uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat muassasalarining dastlabki, ya'ni taqsimlangan daromadlarini Mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va r. k. ) ajratish mumkin. YAIM(YAIM)ni mazkur usul bo'yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga iste'mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar summasi ham qo'shiladi. Agar YAIMni hisoblashning oxirgi ikki usulini oddiy tenglik shaklida tasvirlasak:



Mazkur yilda ishlab shiqarilgan YAIMni sotib olishga sarflar hajmi q Mazkur yilda ishlab shiqarilgan YAMMDan olingan pul daromadlari summasi.

Mahsulotni ishlab chiqarishga nima sarflangan bo'lsa, bu mazkur mahsulotni ishlab chiqarishga o'zining ishchi kuchi va moddiy resurslarini bozorda sotishga qo'yganlari uchun daromad hisoblanadi.

YAMM (YAIM)ni hisoblashda uning tarkibiga kirgan daromadlar va daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarflar (amortizatsiya va egri soliqlar) ning alohida turlarini to'laroq qarab chiqamiz.

*jadval*

YAMM (YAMM)ni hisoblashga sarflar va daromadlar  
bo'yicha yondoshuv

Milliy mahsulot hajmini sarflar summasi bo'yicha hisoblash	Milliy mahsulot hajmini daromadlar summasi bo'yicha hisoblash
1. Uy xo'jaliklarining iste'mol-shilik sarflari =	1. Daromad bilan bog'liq bo'lmagan sarf va to'lovlar a) amortizatsiya, b) egri soliqlar =
2. Tadbirkorlarning investitsion sarflari =	2. Ish haqi =
3. Tovar va xizmatlarni davlat xarid qilish q	3. Renta to'lovlari =
4. Chet elliklar sarfi =	4. Foiz =
5. Notijorat muassasalari sarfi =	5. Foyda
6. Moddiy aylanma vositalar zayirasidagi o'zgarishlar	
YAMM (YAIM)	YAMM (YAIM)

Asosiy kapitalning ko'pshilik turlarining foydali xizmat muddati uzoq davrni tashkil qiladi. Investitsion to'vaplarni sotib olishga qilinadigan sapflap va ulapning unumli xizmat muddati amalda bir davpga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli kopxonalap investitsion tovarlapning foydali xizmat muddatini hisoblaydi va ulapning ymumiy qiymatini butun xizmat muddatiga teng taqsimlaydi. Asosiy kapitalning yil davomida ishlab chiqarish japayonida iste'mol qilingan va yapatilayotgan mahsulotga ko'shgan qiymati amoptizatsiya ajratmasi deyiladi. Amortizatsiya ajratmasi asosiy kapital tuplapi bo'yicha rap yili ajpatib bopiladi. Masalan, to'quv dastgorining qiymati 5 mln. so'm, xizmat muddati 10 yilga teng. Yillik amortizatsiya ajpatmasi 0,5 mln. so'mni (5:10) tashkil qiladi.

Amortizatsiya ajpatmasi shu yil ishlab shiqapilgan mahsulot (YAMM) qiymati tapkibiga ishlab chiqarish xapajatlapi sifatida kipib, mahsulot sotilishi natijasida pul shaklida qaytib keladi va amortizatsiya fondi hisobida to'planib bopadi. By fond mablag'lapidan iste'mol qilingan asosiy kapitalni qayta tiklash, ya'ni yangi investitsion tovarlap sotib olish va amal qilib tupganlarini kapital remont qilish va ta'mirlash uchun foydalaniladi. U ishlab chiqarishni kengaytipish va kredit pesupslapining manbai ham hisoblanadi.

Daromad to'lash bilan bog'liq bo'lmagan xapajatlapning boshqa tyri egpi soliqlap kopxonalap uchun ishlab chiqarish xapajatlapi sifatida chiqadi va shu sababli mahsulot narxiga qo'shiladi.

Bunday soliqlap o'z ishiga aksiz to'lovlapi, sotishdan olinadiran soliqlap, mulk solig'i, litsenziya va bojxona to'lovlapini oladi.

Daromadlapning eng muhim tyri ish haqi tadbirkorlar va davlat tomonidan ishchi kuchini taqdim qilganlapga to'lanadi. U ish haqiga ko'plab qo'shimshalap, ijtimoiy sug'urta to'lovlapi va nafaqa ta'minotining rap xil xususiy fondlapi, ishsizlik nafaqalari va boshqa har xil mukofot hamda imtiyozlarlarni o'z ishiga oladi. Ish haqiga by qo'shimshalap ish kuchini yollash bilan bog'liq bo'lgan xapajatining bir qismi sifatida chiqadi va shu sababli kopxonaning ish haqi to'lashga ymumiy sapflapining tarkibiy qismi sifatida qapaladi.

Renta to'lovlabi iqtisodiyotni pesupslap (kapital, ep) bilan ta'minlovshi yy xo'jaliklapining oladigan daromadi hisoblanib, kopxona xapajatlapi tapkibiga kipadi.

Foiz pul kapitali egalapiga pul daromadi to'lovlapidan ibopat. Bunda davlat tomonidan amalga oshipiladigan foizli to'lovlap, foizli daromadlap tarkibidan shiqapiladi.

Mulkdan olinadiran daromadlap ikki turga bo'linadi: bir qismi mulkga daromad va boshqa qismi esa korrorsiyalar foydasi deyiladi.

#### **Nazorat savollari**

1. Milliy iqtisodiyotning makrotarkibi nimalar kiradi?
2. Asosiy makroiqtisodiy proporsiyalar qanday shakllanadi?
3. Iqtisodiy o'sish va uning omillari nimalardan iborat?
4. Makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish yo'llari qanday?

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nimalar va ular milliy iqtisodiyotda qanday rol o'ynaydi?
2. YAMM va SMM bir-biridan nima bilan farqlanadi? SMM va milliy daromad-chi?
3. YAMM xarakter shakllari tavsifini bering.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009.–56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.YAxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.

## 9-MAVZU. YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda yalpi talab tushunchasi, uning egri chizig'i va hajmiga ta'sir qiluvchi omillar, yalpi taklif tushunchasi, uning egri chizig'i va unga ta'sir qiluvchi omillar, yalpi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar

Yalpi talab, yalpi taklif, talab egri chizig'i, taklif egri chizig'i xraopovik samarasi, unumdorlik.

### Asosiy savollar

1. YAlpi talab tushunchasi, uning egri chizig'i va hajmiga ta'sir qiluvchi omillar.
2. YAlpi taklif tushunchasi, uning egri chizig'i va unga ta'sir qiluvchi omillar.
3. YAlpi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatlik hamda uning o'zgarishi.


### 1.YAlpi talab tushunchasi, uning egri chizig'i va hajmiga ta'sir qiluvchi omillar

YAlpi talab - bu barcha iste'molchilar, ya'ni aholi, korxonalar va davlat narxlarning o'rtacha darajasida sotib olishi mumkin bo'lgan turli tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmini, yoki milliy iqtisodiyotdagi real pul daromadlari hajmini bildiradi. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, narx darajasi qancha past bo'lsa, iste'molchilar (mamlakat ishida hamda chet eldagi) milliy ishlab chiqarish real hajmining shunsha katta qismini va aksincha, narx darajasi qancha yuqori bo'lsa, shuncha kam qismini sotib oladi. Shunday qilib, narx darajasining oshishi, boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda ishlab chiqarishning real hajmiga yalpi talab hajmining kamayishiga sabab bo'ladi. Aksincha, narx darajasining pasayishi ishlab chiqarish hajmi yalpi talabning oshishiga olib keladi. YAlpi talabga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi ham milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga olib keladi. Narx darajasi va talab bildirgan milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bu teskari bog'liqlik 1-chizmada aniq ifodalangan.

Bu yalpi talab hajmiga ta'sir etuvchi narxdan tashqari omillar quyidagilardir:

1. Iste'molchilik sarflaridagi o'zgarishlar. Narx darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda, narxdan tashqari bir yoki bir nechta omillar ta'sirida iste'molchilar xaridi hajmida o'zgarish ro'y berishi mumkin. Bu iste'molchi farovonligi, iste'molchining kutishi, iste'molchining qarzlari va soliqlarning o'zgarishi natijasi hisoblanadi.

Iste'molchining farovonligi iste'molchi ega bo'lgan barcha moliyaviy aktivlarga (aksiya va obligatsiya) hamda uy va yer kabi ko'chmas mulklarga egaligiga bog'liq bo'ladi. Ularning real qiymatining keskin kamayishi tovar xarid qilishining kamayishiga olib keladi. Iste'molchilik sarflarining qisqarishi natijasida yalpi talab kamayadi. Aksincha moddiy va moliyaviy YAIM qiymatliklar real qiymatining oshishi natijasida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilik sarflari o'sadi. Bunga, aksiya kursining keskin oshishi, xatto narxlar darajasi o'zgarmay qolganda iste'molchi farovonligining o'sishiga olib kelishini misol qilib keltirish mumkin. Uy va yer real qiymatining keskin kamayishi, narx umumiy darajasining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan holda iste'molchi farovonligining pasayishiga olib keladi.



Grafik. YAlpi talab egri chizig'i.

Iste'molchining kutishi. Iste'molchilik sarflari hajmidagi o'zgarish, iste'molchining narxlar va daromadlar darajasidagi kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan bilishiga bog'liq. Masalan, agar odamlar kelajakda o'zlarining real daromadi ko'payadi, deb hisoblasa, ular joriy daromadlarining ko'proq qismini sarflashga tayyor bo'ladi. Natijada bu davrda iste'molchilik sarflari ko'payadi, jamg'arish esa kamayadi va yalpi talab ortadi. Aksincha, agar odamlar kelajakda o'zlarining real daromadlari kamayadi deb hisoblasa, ularning iste'molchilik sarflari va demak, yalpi talabi qisqaradi. Xuddi shunday inflyatsiyaning kutilishi bugungi yalpi talabni oshiradi. Chunki iste'molchilar narxlar oshguncha tovarlarni xarid qilib qolishga xarakat qiladi. Aksincha, yaqin kelajakda narxlar pasayishining kutilishi, bugungi iste'mol miqdorining kamayishiga olib keladi. Iste'molchi qarzlari. Iste'molchi qarzlari ko'p bo'lganda, u joriy daromadini qarzlarga to'lab, o'zlarining bugungi sarflarini qisqartirish mumkin. Aksincha, iste'molchi qarzdor bo'lmasa, ular bugungi sarflarini ko'paytirishga tayyor bo'ladi.

Soliq. Daromad solig'i stavkasining kamayishi, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilik sarflarini ko'paytiradi, soliqlarning oshishi iste'molchilik sarflarini kamaytiradi.

2. Investitsion sarflar. Investitsion sarflar, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish, yalpi talabning narxdan tashqari muhim omili hisoblanadi. Narxlarning mavjud darajasida korxonalar sotib olishi mumkin bo'lgan yangi ishlab chiqarish vositalarining kamayishi yalpi talabning kamayishiga, aksincha korxonalar sotib oladigan investitsion tovarlar hajmining ko'payishi yalpi talabning ko'payishiga olib keladi. Investitsion sarflarni o'zgartirish mumkin bo'lgan narxdan tashqari omillarni alohida - alohida qarab chiqamiz.

Foiz stavkalari. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, foiz stavkasining oshishi, investitsion sarflarning kamayishiga va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Bu yerda gap mamlakatda pul massasi hajmining o'zgarishi oqibatida foiz stavkalarining o'zgarishi haqida gap ketadi. Pul massasining ko'payishi foiz stavkasini kamaytiradi va shu orqali kapital qo'yilmalar hajmini ko'paytiradi. Aksincha, pul massasining kamayishi foiz stavkasining oshishiga va investitsiyalarning qisqarishiga olib keladi.

Investitsiyalardan kutiladigan foyda. Kapital qo'yilmalardan yuqori foyda olishning kutilishi investitsion tovarlarga talabni oshiradi va aksincha, istiqbolda investitsion dasturlardan foyda olish noaniq bo'lsa, investitsiyalarga sarflar kamayish tamoyiliga ega bo'ladi, demak, yalpi talab ham kamayadi. Soliqlar. Korxonadan olinadigan soliqlarning ko'payishi kapital qo'yilmalardan olinadigan foydaning kamayishiga va demak, investitsion sarflar va yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Aksincha, soliqlarning qisqarishi bunday foydani va investitsion sarflarni ko'paytiradi. Texnologiya. Yangi va takomillashgan texnologiya investitsion sarflarni va shu orqali yalpi talabni rag'batlantirish tamoyiliga ega bo'ladi.

Ortiqsha quvvatlar. Ortiqsha quvvatlar, ya'ni mavjud foydalanilmaydigan asosiy kapitalning ko'payishi, yangi investitsion tovarlarga talabni va natijada yalpi talabni kamaytiradi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilganda tadbirkorlar ko'proq mashina va uskunalar sotib olishga tayyor bo'ladi, demak investitsion sarflari ko'payadi.

3. Davlat sarflari. Narxlarning mavjud darajasida, milliy mahsulotda davlat xaridining ko'payishi yalpi talabning o'sishiga olib keladi. Bunga davlatning o'z armiyamizni tuzish to'g'risidagi qarori misol bo'la oladi. Davlat sarflarining kamayishi yalpi talabning qisqarishiga olib keladi. Masalan, yangi avtomobil yo'li qurishga davlat sarflarining qisqarishi shunday natijaga olib keladi.

4. Sof eksportdagi o'zgarish. Sof eksportning ko'payishi yalpi talabni ham ko'paytiradi. Birinchidan, eksportning yuqori darajasi, chet ellarda bizning tovarlarga bo'lgan talabni oshiradi. Ikkinchidan, importning qisqarishi o'z tovarlarimizga ishki talabning ko'payishini taqozo qiladi. Sof eksport hajmini avvalo chet davlatlardagi milliy daromad va valyuta kurslari o'zgartiradi. Chet mamlakatlarda daromadlar darajasi oshganda, ularning fuqarolari ham o'zlarining tovarlarini va ham chet ellarda ishlab shiqarilgan tovarlarni

ko'proq miqdorda sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Chet ellarda milliy daromadning kamayishi esa qahama-qarshi natija beradi: bizning eksportning sof hajmi qisqaradi.


Valyuta kurslari. Boshqa valyutalarga nisbatan milliy pul kursining o'zgarishi sof eksportga va demak yalpi talabga ta'sir ko'rsatadi. Faraz qilaylik, ienaning dollardagi narxi o'sadi. Bu shuni bildiradiki, dollar ienaga nisbatan qadrsizlanadi va iena kursi ko'tariladi. Dollar va iena o'rtasidagi yangi nisbat natijasida yaponiyalik iste'molchilar ienaning ma'lum summasiga ko'proq dollar olishi mumkin. Demak, yaponiyalik iste'molchilar uchun amerika tovarlari yaponiyalikiga qaraganda arzongoq bo'ladi. Shu bilan birga amerikalik iste'molchilar dollarning ma'lum summasiga kamroq yaponiya tovarlarini sotib olishi mumkin. Bunday holda kutish mumkinki, Amerika eksporti o'sadi, importi kamayadi. Sof eksportning ko'payishi o'z navbatida AqSh yalpi talabining ko'payishiga olib kelishini bildiradi.

## 2.YAlpi taklif tuchunchasi, uning egri chizig'i va unga ta'sir qiluvchi omillar

YAlpi taklif – mavjud narx darajasida sotish mumkin bo'lgan, sotishga shiqarilgan va tayyorlangan turli-tuman tovarlar va xizmatlarning hajmidir. Bu narxlarning har xil mumkin bo'lgan o'rtacha darajasida milliy ishlab chiqarishning mavjud real hajmini ko'rsatadi. Ancha yuqori narxlar qo'shimsha tovarlar ishlab chiqarish uchun rag'bat yaratadi. Narxlarning past darajasi tovar ishlab chiqarishning qisqarishiga olib keladi. Shu sababli narxlar va milliy ishlab chiqarish hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Bu bog'liqlik taklif egri chizig'ida aniq aks etadi. YAlpi taklif egri chizig'i ushta kesmalardan iborat.

Narx darajasi



Ishlab chiqarish real hajmi. Taklif egri chizig'i. 5-chizma.

I. Yotiq kesma. Rasmdagi  $q_t$  nuqta to'liq bandlilik sharoitida milliy ishlab chiqarish hajmining potensial darajasini ko'rsatadi. YOtq kesma milliy ishlab chiqarish potensial hajmidan ancha kam bo'lgan ishlab chiqarishning real hajmini o'z ishiga oladi. Bu kesma iqtisodiyot shuqur tanazzul yoki depressiya holatida ekanligini, ko'plab mashina, uskuna va ishchi kuchi foydalanilmayotganligidan guvorlik beradi. Foydalanilmayotgan resurslar xarakatga kelishi mumkin, lekin bu narx darajasiga rech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Bu kesma yana ishlab chiqarish real hajmi qisqarganda ham tovarlar va resurslarga narx eski darajada qolishini bildiradi. Shunday qilib yotiq kesma milliy ishlab chiqarish hajmi o'zgarganda ham narx darajasi doimiy qolishini ko'rsatadi.

II. Q va  $Q_t$  nuqta o'rtasidagi ohaliq kesma milliy ishlab chiqarishning real hajmining ko'payishi, narx darajasining o'sishi bilan birga borishini ko'rsatadi. Bu ishlab chiqarishning to'liq quvvat bilan ishlay boshlaganidan, korxonalarining ancha eski va kam samarali uskunalardan foydalana boshlaganligidan guvorlik beradi. Ishlab chiqarish hajmining kengayib borishi bilan qo'shimsha ishchilar ham ishga jalb qilinadi. Shu barcha sabablarga ko'ra mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlar ortadi, korxonalar ishlab chiqarishining rentabelli bo'lishi uchun tovarlarga ancha yuqori narx belgilaydi. Shu sababli ohaliq kesmada milliy mahsulot real hajmining ko'payishi narxlarning o'sishi bilan birga boradi.

III. Tik kesma iqtisodiyot o'zining to'liq yoki tabiiy darajasiga erishganligini ko'rsatadi. Bunda iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatining shunday nuqtasida joylashadiki, bunda qisqa muddatda ishlab chiqarish hajmini yanada kengaytirishga erishish mumkin emas. Narxning to'xtovsiz oshib borishi xam ishlab chiqarish real hajmining ko'payishiga olib

kelmaydi, chunki iqtisodiyot to'liq quvvat bilan ishlay boshlaydi. Qisqacha aytganda, bu kesma milliy ishlab chiqarish hajmi doimiy bo'lib qolishi, narx darajasi esa o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi. Yalpi taklif hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. Yalpi taklifga narxdan tashqari bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillardan bir yoki bir neshtasining o'zgarishi yalpi taklifning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Yalpi taklifning narxdan tashqari bu omillari bitta umumiy rususiyatga ega: agar ular o'zgarsa, mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlari ham o'zgaradi. Natijada yalpi taklif egri chizig'i joyini o'zgartiradi.

Yalpi taklifga narxdan tashqari ta'sir qiluvchi omillar.

1. Resurslar narxining o'zgarishi. Resurslar narxi - tayyor mahsulot narxidan farq qilib, yalpi taklifning muhim omili hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, resurslar narxining oshishi mahsulot birligiga xarajatlarning ko'payishiga, resurs narxlarining pasayishi esa xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Resurs narxlariga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Resurslar taklifining ko'payishi ular narxini pasaytiradi va natijada mahsulot birligiga xarajatlar kamayadi. Resurslar taklifining kamayishi esa qahama-qarshi natijaga olib keladi. Endi alohida resurslar taklifi o'zgarishining yalpi taklifga ta'sirini qarab chiqamiz.

Yer resurslari – yangi yerlarning oshilishi, sug'orish, yangi texnik takomillashuvlar tufayli ko'payish mumkin. yer resurslari taklifining ko'payishi yerga bo'lgan sarflarning kamayishiga olib keladi va shu orqali mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlarni pasaytiradi. Irrigatsiya qurilmalari sharobshalarining kengayishi, intensiv derqonshilikni qo'llash tufayli yer resurslarining kamayishi qahama-qarshi natijaga olib keladi. Ishchi kuchi (Mehnat) resurslari. Korxonalar xarajatlarning asosiy qismi ishchi va xizmatshilarga ish haqi to'lash uchun ketadigan xarajatlar hisoblanadi. Boshqa sharoitlar o'zgarmay qolganda, ish haqining o'zgarishi mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mavjud ishchi kuchi (Mehnat) resurslarining ko'payishi ish haqining pasayishiga, ularning kamayishi esa ish haqining oshishiga olib keladi. Kapital. Agar jamiyat asosiy kapital zayirasini o'stirib borsa, yalpi taklif o'sish tamoyiliga ega bo'ladi. Masalan, agar jamiyat o'z daromadining asosiy qismini tejab, uni investitsion tovarlar sotib olishga yo'naltirsa, yalpi taklif o'sadi. Xuddi shunday asosiy kapital sifati yaxshilanganda ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va yalpi taklif ko'payadi. Korxonalar o'zining eski, sifati past bo'lgan qurilmalarini, yangi va ancha takomillashgan qurilmalar bilan almashtirishi bunga misol bo'la oladi. Agar mamlakat asosiy kapitalining miqdori kamaysa va sifati yomonlashsa, yalpi taklif qisqaradi.

Tadbirkorlik layoqati. Vaqt o'tishi bilan mamlakatda tadbirkor kishilar soni ko'payadi va bu yalpi taklifga ta'sir ko'rsatadi. Masalan keyingi vaqtda Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratilishi bunday faoliyat bilan shug'ullanishga xarakat qiluvchi kishilar sonining ko'payishiga olib kelishi muqarhar va bu o'z navbatida yalpi taklifni oshiradi. Import resurslar narxlari. Chet ellardan resurslar importi milliy iqtisodiyotda yalpi taklifning ko'payishiga olib keladi. Import resurslariga narxlarning pasayishi milliy iqtisodiyotda yalpi taklifni oshiradi, narxning oshishi esa yalpi taklifni kamaytiradi. Keyingi davrda import resurslarga narxning o'zgarishiga olib kelayotgan asosiy omillardan biri - valyuta kurslarining o'zgarib turishi hisoblanadi. Bu qanday ro'y berishini tushunib olish uchun chet el valyutalarining so'mga nisbatan narxi tushadi, ya'ni so'mning qiymati ko'tariladi deb faraz qilamiz. Bunda korxonalar har bir so'm uchun ko'proq chet el valyutalari olish imkoniyati vujudga keldi va bu milliy ishlab chiqaruvchilar uchun chet el resurslarining so'mda ifodalangan narxi tushganligini bildiradi. Bunday sharoitda milliy korxonalar chet el resurslari importini ko'paytiradi va ishlab chiqarishning mavjud darajasida mahsulot birligiga xarajatlarning kamaytirishiga erishadi. Aksincha, chet el valyutalarining so'mga nisbatan narxlari oshgan taqdirda, ya'ni so'm qadrsizlanganda import resurslari narxlari ko'tariladi. Natijada bu resurslarning importi kamayadi, mahsulot birligiga xarajatlar ortadi.

Bozordagi hukmronlik. Resurslarni yetkazib beruvshilarning bozordagi hukmronligining susayishi yoki kushayishi ham resurs narxlariga va yalpi taklifga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bozordagi hukmronlik - narxlarni raqobat mavjud bo'lgan

sharoitdagidan ancha yuqori o'rnatish imkoniyatidir. Keyingi 20 yil davomida OPEK mamlakatlari bozor monopoliyasining vujudga kelishi va ralokatga ushrashi buning ishonshli misoli bo'lib xizmat qilishi mumkin. 70-yillarda OPEK mamlakatlari neft narxini o'n martalab oshirishga erishdi, bu mahsulot birligiga xarajatlarni keskin ko'paytirdi. 80-yil o'rtalarida OPEK mamlakatlarining bozordagi hukumronligining sezilarli susayishi, aksincha ishlab chiqarish qiymatining kamayishiga olib keldi.

2. Unumdorlik - bu milliy ishlab chiqarish real hajmini foydalanilgan resurs miqdoriga nisbati, boshqasha aytganda, unumdorlik - bu xarajat birligiga ishlab chiqarishning o'rtacha hajmi yoki ishlab chiqarish real hajmi ko'rsatkishi:

$$\text{Unumdorlik} = \frac{\text{Ishlab chiqarishning real majmi}}{\text{xarajatlar}}$$

Boshqa sharoitlar o'zgaray qolganda bir ishchi hisobiga ko'proq miqdorda mashina va uskunalardan foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish; ancha bilimli va malakali ishchi kuchini qo'llash kabi omillarning o'zaro ta'siri unumdorlikning o'sishi va yalpi taklifning oshishiga olib keladi. Qisqacha qilib aytganda, mahsulot birligiga xarajatlarni kamayganda unumdorlikning oshishi yalpi taklifning oshishiga, aksincha, unumdorlikning kamayishi natijasida mahsulot birligiga xarajatlarning ko'payishi yalpi taklifning qisqarishiga olib keladi.

3. Huquqiy normalarning o'zgarishi. Korxonalar o'z faoliyatida amal qiladigan huquqiy normalarning o'zgarishi, mahsulot birligi to'g'ri keladigan xarajatlarni va yalpi taklifni o'zgartirishi mumkin.

Xuquqiy normalar o'zgarishining ikki turi mavjud.

a) soliq va subsidiyalarning o'zgarishi,

b) davlat tomonidan tartibga solish xarakteri va usullarining o'zgarishi.

Korxonalardan olinadigan soliklar (kuchilgan qiymat soligi, ish xaki fondidan olinadigan soliklar)ning kupayishi mahsulot birligiga xarajatlarni kupaytirishi va yalpi taklifni kiskartirishi mumkin. Korxonaga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalarning ortishi yoki soliq yukining kamayishi ishlab chiqarish xarajatlarni kamaytiradi va yalpi taklifni oshiradi. Davlat tomonidan tartibga solish xarakteri va usullarining o'zgarishi ham ko'p hollarda mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarni va shu orqali yalpi taklifni o'zgartiradi.

#### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. YaMM qanday usullarda hisoblanadi? Ularning farqi nimadan iborat.
2. Nominal va real YaMM tushunchalarini izohlang. Ularning farqini ko'rsating.
3. Yalpi talab nima? Nima uchun talab egri chizig'i o'zgaradi? Yalpi talabga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Yalpi taklif nima? Yalpi taklif egri chizig'idan uchta kesmani tasvirlang va ular nimani ko'rsatishini tushuntiring? YALpi taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning milliy iqtisodiyotdagi roli
2. Yalpi talab va yalpi taklifni tahlil qilish usullari

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavaro,va, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009.–56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: 2005

6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.

## **10-MAVZU. ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTITSIYALAR**

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda iste'mol va jamg'arishning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi, jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi, investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Iste'mol, shaxsiy iste'mol, unumli iste'mol, iste'molchilik sarflari, jamg'arish, iste'molga o'rtacha moyillik, jamg'armaga o'rtacha moyillik, iste'molga qo'shilgan moyillik, jamg'arishga qo'shilgan moyillik, iqtisodiy jamg'arish, jamg'arish normasi, kapital qo'yilmalar, investitsiyalar, investitsion faoliyat, investor, investitsiyalar samaradorligi.

### **Asosiy savollar**

1. Iste'mol va jamg'arishning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi
2. Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi
3. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar

### **1.Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi**

Milliy iqtisodiyotda yangidan vujudga keltirilgan qiymat, ya'ni milliy daromad iste'mol va iqtisodiy jamg'arish maqsadlarida ishlatiladi. Iste'mol keng ma'noda jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanishni, uni iste'mol qilishini bildiradi. Bunda unumli va shaxsiy iste'mol farqlanadi. Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va inson ishchi kuchining iste'mol qilinishini, ya'ni ulardan foydalanish jarayonini anglatadi. Shaxsiy iste'mol ishlab chiqarish sohasidan tashqarida ro'y berib, bunda iste'mol buyumlaridan bevosita foydalaniladi yoki ular to'liq iste'mol qilinadi.

Iste'mol jarayonida turli xil moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalaniladi. Iste'mol qilinadigan ne'mat turiga bog'liq ravishda moddiy ne'matlarni va xizmatlarni iste'mol qilish ajratiladi. Individual yoki jamoa bo'lib iste'mol qilish ham farqlanadi. Alohida oila yoki jamiyat a'zolarining ixtiyorida bo'lgan moddiy ne'matlarni iste'mol qilish individual iste'molga jamiyat a'zolarining guruhlarini moddiy ne'mat va xizmatlardan foydalanishi jamoa bo'lib iste'mol qilishga kiradi. Iste'mol fondi mablag'laridan butun iqtisodiyot doirasida band bo'lgan xodimlarning moddiy va madaniy ehtiyojlarini, shu jumladan boshqarish va mudofaa ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi. U butun aholining shaxsiy iste'molini, aholiga ijtimoiy xizmat qiladigan muassasalardagi, shuningdek, ilmiy muassasalar va boshqarishdagi moddiy sarflarni o'z ishiga oladi. Iste'mol fondining shaxsiy daromad shaklida xodimlar qo'lga kelib tushadigan qismi iste'molchilik sarflari maqsadida ishlatiladi. Iste'molchilik sarflari – bu aholi joriy daromadlarining tirikshilik ne'matlari va xizmatlar uchun ishlatiladigan qismi. Jamg'arma – bu aholi, korxonalar (firma) va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va foizli daromad olish maqsadlarida to'planib borilishi. Uning hajmi uy xo'jaliklari daromadidan iste'molchilik sarflarini ayirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Daromad fondida iste'molchilik sarflari ulushi qanchalik yuqori bo'lsa jamg'arma hajmi shunchalik kam bo'ladi. Jamg'armaning o'sishi esa iqtisodiy



ma'noda mablag'larning iste'mol buyumlari xarid qilishdan investitsion tovarlarga yo'naltirilishini bildiradi. Shu sababli daromadda iste'molchilik sarflari va jamg'arma nisbatining o'zgarishi bir qator, ba'zan qahama-qarshi oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, daromadlarning qandaydir qismini jamg'armaga qo'yish oqibatida u tovarlarda bo'lgan talabda o'z aksini topmaydi. Mahsulotning har qanday hajmini ishlab chiqarishdan olingan daromad to'liq sarflangandagina jami talabni ta'minlash uchun yetarli bo'ladi. Demak jamg'arma daromadlar - xarajatlar oqimida nomutanosiblik bo'lishiga olib keladi. Jamg'arma daromadlardan mablag'larni olib qo'yishni bildirib iste'molchilik sarflar barcha ishlab chiqarilgan mahsulotni sotib olish uchun yetarli bo'lmay qolishini bildiradi. Agar aholi o'z daromadining qandaydir, qismini jamg'arsa, o'zining xususiy talabini vujudga keltirmaydi. Buning natijasi sotilmay qolgan tovarlarning ko'payishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlik va daromadlarning pasayishi bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan jamg'arma talabning yetishmasligiga olib kelmasligi ham mumkin, chunki jamg'arilgan mablag'lar tadbirkorlar tomonidan investitsion maqsadlarda ishlatiladi. Bu iste'molchilik sarflarining har qanday yetishmasligini qoplaydi va jamg'arma keltirib chiqaradigan iste'moldagi har qanday yetishmaslikni to'ldiradi. Uchinchidan, korxonalar ham o'zining barcha mahsulotini iste'molchilarga sotishni ko'zda tutmaydi, balki uning bir qismidan ishlab chiqarish vositalari shaklida foydalanishi mumkin. Shunday qilib, agar tadbirkorlar aholining jamg'armalariga teng miqdordagi mablag'larni investitsiyalarga qo'yishni ko'zda tutsa, ishlab chiqarish darajasi doimiy bo'lib qoladi. Iste'mol va jamg'arma darajasini aniqlab beruvshi asosiy omil milliy daromad hisoblanadi. Lekin milliy daromad tarkibida to'g'ri soliqlar ham mavjud bo'ladi. Shu sababli soliqlar to'langandan keyin aholi qo'lida qoladigan daromad iste'molchilik sarflari va shaxsiy jamg'arma yig'indisiga teng bo'ladi. Iste'mol va shaxsiy jamg'armaning darajasi bevosita soliqlar to'langandan keyingi qolgan daromad bilan aniqlanadi. Demak bu daromad iste'molning ham, jamg'armaning ham umumiy omili hisoblanadi. Chunki jamg'arma daromadning iste'mol qilinmaydigan qismi hisoblansa, soliqlar to'langandan keyingi daromad shaxsiy jamg'armani aniqlab beradigan asosiy omil bo'lib chiqadi. Har yilgi haqiqiy iste'mol miqdori va soliqlar to'langandan keyingi daromad o'rtasidagi farq shu yildagi jamg'arma miqdorini aniqlaydi.

Qarab chiqilgan omil ta'sirida iste'mol va jamg'arma darajasining o'zgarishini quyidagi jadvalda tuchuntiramiz. Tahlil uchun shartli ma'lumotlardan foydalanamiz.

*jadval.*

Iste'mol va jamg'arma darajasi, mlrd., so'm  
(shartli ma'lumotlar)

Yillar	Daromad darajasi (D)	Iste'mol (I)	Jamg'arma (J)	IO'M	JO'M	IqM	JqM
2000	1500	1300	200	0,87	0,13	-	-
2005	1800	1500	300	0,83	0,17	0,67	0,33
2010	2200	1700	500	0,77	0,23	0,50	0,50
	1	2	3 (1-2)	4 (2:1)	5(3:1)	6(2:1)	7 (3:1)

Jadval ma'lumotlaridan xulosa shiqarib aytish mumkinki, birinchidan, aholi daromadining asosiy qismi iste'molga sarflanadi, qolgan qismi jamg'armaga ajratiladi. Ikkinchidan, iste'mol ham, jamg'arish ham daromadlar darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Aholi daromadining iste'molga ketadigan ulushi iste'molga o'rtacha moyillik deyiladi (IO'M).

Aholi daromadining jamg'armaga ketadigan ulushi esa jamg'armaga o'rtacha moyillik (JO'M) deyiladi. Ya'ni:

$$IO'M = \frac{\text{истеъмол}}{\text{даромад}} \times 100 \text{ va } JO'M = \frac{\text{жамгарма}}{\text{даромад}} \times 100$$

Jadvalda keltirilgan har bir daromad darajasi bo'yicha IO'M va JO'Mni hisoblab ko'ramizki daromad ko'payib borishi bilan IO'M tushadi, JO'M esa o'sadi. Haqiqatda soliqlar to'langandan keyin qolgan daromad yoxud iste'mol qilinadi va yoxud jamg'armaga

ketadi. Shu sababli daromadning iste'mol qilinadigan va jamg'armaga ketadigan qismlari daromad har qanday darajasining butun miqdorini qamrab oladi. qisqasi IO'MqJO'Mq1,0 yoki 100% bo'ladi.

Daromad o'simining iste'mol qilinadigan qismi yoki hisyasi iste'molga qo'shilgan moyillik deyiladi (IqM), yoki

$$IKM = \frac{\text{устъмолдаги тзгарии}}{\text{даромаддаги тзгарии}}$$

Daromad har qanday o'sishning jamg'armaga ketadigan rissasi, jamg'armaga qo'shilgan moyillik deyiladi (JqM), ya'ni JqM q jamg'armadagi o'zgarishG'daromaddagi o'zgarish. Masalan, agar 1500 mlrd. so'm ni tashkil qiluvchi soliqlar to'langandan keyingi daromad 300 mlrd. so'mga ko'payib 1800 mlrd. so'mga yesa (7-qator) daromadning shu o'sgan qismining 2G'3 qismi iste'mol qilinadi va 1G'3 qismi jamg'armaga ketadi. Boshqasha aytganda, IqM - 0,666 ni, JqM esa 0,333 ni tashkil qiladi. Daromaddagi har qanday o'zgarish uchun IqM va JqM yig'indisi har doim I ga teng bo'lishi zarur yoki IqM = JqM q I. Bizning misolda 0,666q0,333q I,0

Shaxsiy daromaddan tashqari iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka ta'sir ko'rsatuvshi boshqa bir qator omillar ham mavjud bo'ladi. Bu omillarning asosiylari quyidagilar:

- uy xo'jaliklari jamg'argan boylik darajasi;
- narxlar darajasi;
- narxlar, daromadlar va tovarlar taklifi o'zgarishining kutilishi;
- iste'molchi qarzlari;
- soliq stavkalari o'zgarishi.

## **2.Jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligi**

Jamg'arish iqtisodiyotdagi yalpi sarflarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, investitsion xarakterdagi tovarlarga talab darajasini belgilab beradi. Investitsiyalar jamg'arishning amalda namoyon bo'lish shakli bo'lganligi sababli dastlab tahlilni jamg'arishning mohiyati, omillari va samaradorligini nazariy jihatdan asoslash bilan boshlaymiz.

Jamg'arish deb, milliy daromadning bir qismi asosiy va aylanma kapitalarni, shuningdek, ertiyot zayiralarini ko'paytirish uchun sarflanishiga aytiladi.

Amalda jamg'arish kapital mablag'lar yoki investitsion sarflar shaklida yuzaga chiqib, u yangi asosiy kapitalni hosil qilish, ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash va yangilashga qilinadigan xarajatlarni ifodalaydi. "Jamg'arish" va "kapital mablag'" yoki "investitsion sarflar" tushunchalari bir xil mazmunga ega emas. Bir tomondan, kapital mablag' yoki investitsiyalarning shegaralari jamg'arish fondiga qaraganda kengroq, chunki renovatsiyaga (ya'ni eskirgan ob'ektlarni batamom almashtirishga) sarflanadigan amortizatsiya fondining bir qismi ham ularning manbai bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, "jamg'arish" tushunchasi investitsion sarflar doirasidan chiqib ketadi, chunki u faqat asosiy kapitalning emas, balki aylanma kapitalning, shuningdek, ertiyot zayiralarining kengayishini ham anglatadi.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish bir-biridan farqlanadi. Jamg'arilgan mablag'larning moddiy ishlab chiqarish sohasining asosiy kapitalarini va aylanma mablag'larini kengaytirishga ketadigan qismi ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arish fondini hosil qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi jamg'arish iqtisodiy o'sishning muhim omilidir. Ijtimoiy madaniy sohadagi jamg'arish (noishlab chiqarish jamg'arishi) uy-joy fondini, kasalxonalar, o'quv muassasalari, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport muassasalari, ya'ni nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi. Noishlab chiqarish sohasini kengaytirish ham ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur shartidir. Jamg'arish fondi, uning hajmi va tarkibi takror ishlab chiqarish sur'atlarini belgilab beradigan ral qiluvchi omillardir. Jamg'arish normasi bevosita jamg'arish fondining butun milliy daromad hajmiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$JN = (JFG \cdot MD) \times 100,$$

Bunda, JN-jamg'arish normasi, JF-jamg'arish fondi, MD-milliy daromad.

Jamg'arish normasining ham o'z shegarasi bo'lib, uni oshirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lib chiqishi va salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, uning haddan tashqari ortishi natijasida investitsion sarflar samaradorligi pasayib ketishi mumkin, chunki kapital mablag'lar hajmi bilan qurilish tashkilotlarining quvvatlari, materiallar va uskunalar yetkazib berish imkoniyatlari, infratuzilmaning rivojlanishi o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Mablag'larning soshilib ketishi, ob'ektlarni barpo etish muddatlarining sho'zilib ketish xavfi oshadi, oqibatda ular qYAIMatlashadi, barpo etish jarayonidayoq ma'naviy jihatdan eskiradi, tugallanmagan qurilishlar ko'payadi. Oqibatda iqtisodiy o'sish pasayib ketish tamoyiliga ega bo'ladi.

Shunday qilib, jamg'arish fondi iqtisodiy o'sish sur'atlari va sifatiga faqat o'zining miqdori bilangina ral qiluvchi ta'sir ko'rsatib qolmaydi. Fan-texnika revolyutsiyasi sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi birinchi o'ringa chiqadi.

Jamg'arish fondi milliy daromadning bir qismini tashkil etadi va shu sababli milliy daromad hajmi ko'payishini belgilaydigan omillar, jamg'arish miqdorini ham belgilab beradi. Bu omillardan asosiysi qo'llaniladigan resurslar massasi va ularning unumdorligidir. Jamg'arish miqdori ishlab chiqarish jarayonida xom-ashyo, materiallar, energiyani tejab-tergab sarflashga ham bog'liq. Mahsulot birligiga ularni sarflashni kamaytirish moddiy vositalarning o'sha miqdorida mahsulotlarni ko'proq rajmda ishlab chiqarishga imkon beradi.

Jamg'arishning miqdori milliy daromaddagi jamg'arish va iste'mol fondlari o'rtasidagi nisbatga ham bog'liq bo'ladi.

### **3. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar.**

Investitsiyalar sarflarning ikkinchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalar darajasi jamiyat milliy daromadi hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; milliy iqtisodiyotdagi ko'plab mutanosibliklar uning o'sish sur'atiga bog'liq bo'ladi. Investitsiyalar mamlakat miqyosida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ob'ektlari qurish, stanok, uskuna va shu kabi uzoq muddatli foydalaniladigan asosiy kapitalarni sotib olish, ishga tushirish bilan bog'liq sarflarni bildiradi.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga pul shaklidagi qo'yilmadir. U pul mablag'lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qYAIMatli qog'ozlar ko'rinishida amalga oshiriladi. Investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy xarakterli - investitsion faoliyat, investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs - investor deyiladi. Investitsiya faoliyati quyidagi manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin:

- investorlarning o'z moliyaviy resurslari (foйда, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va h.k.);
- qarz olingan moliyaviy mablag'lar (obligatsiya zayomlari, bank kreditlari);
- jalb qilingan moliyaviy mablag'lar (aksiyalarni sotishdan olingan mablag'lar, jismoniy va huquqiy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari);
- byudjetdan investitsiyalarni moliyalashtirish.

2000 yilda O'zbekistonda investitsion qo'yilmalarning 26,4% korxonalarining o'z moliyaviy mablag'lari hisobiga, 30,3% byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan.

Investitsiyalarning manbalaridan biri aholi keng qatlamlari (ishchilar, o'qituvshilar, vrashlar va boshqalar) jamg'armasi hisoblanadi. Muammo shundan iboratki, jamg'arma xo'jalik yurituvshi bir guruh tomonidan amalga oshiriladi, investitsiyalar esa shaxslar yoki xo'jalik yurituvshi sub'ektlarning butunlay boshqa guruhi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. O'z-o'zidan aniqki, investitsiyalar manbai bo'lib iqtisodiyotda faoliyat qiluvchi sanoat, qishloq xo'jalik va boshqa korxonalar foydasi ham hisoblanadi. Bu yerda "jamg'aruvchi" va "investor" bir-biriga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda kapital quyilmalarda nodavlat sektorining ulushi 1991 yildagi 24 % dan, 2000 yil 34,7% ga yetgan. Investitsiyalarga sarflar darajasini ikkita asosiy omil belgilab beradi:

1) Tadbirkorlar investitsiyalarga sarflardan olish ko'zda tutilgan, kutilayotgan sof foyda normasi va 2) foiz stavkasi.

I. Investitsiyalarga qilinadigan sarflarning xarakatlantiruvchi motivi foyda hisoblanadi. Tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini qachonki ular foyda keltiradigan bo'lsa, sotib oladi.

Investitsiyalar darajasini belgilaydigan ikkinchi omil foizning real stavkasi hisoblanadi. Foiz stavkasi bu - real asosiy kapitalni sotib olish uchun zarur bo'lgan band qilingan pul kapitaliga korxonaga to'lash zarur bo'lgan pul miqdori hisoblanadi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi (10 %) foiz stavkasi (7 %) dan ortiq bo'lsa investitsiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aksincha foiz stavkasi (aytalik, 12%) kutilayotgan sof foyda normasidan (10%) ortiq bo'lsa, investitsiyalash samarasiz hisoblanadi. Investitsiya darajasiga kutilayotgan sof foyda normasi va foiz stavkasidan tashqari boshqa quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

1. Mashina va uskunalarni xarid qilish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.
2. Tadbirkorlardan olinadigan soliq miqdori.
3. Texnologik o'zgarishlar.

#### **Nazorat savollari**

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarini sanab ko'rsating.
3. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Iste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilab beradi?

Ularning qisqacha tavsifini bering.

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillikni aniqlash yo'llari
2. Investitsiyalar darajasini belgilaydigan asosiy omillar

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavaro,va, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.

## **11-MAVZU. IQTISODIY O‘SISH VA MILLIY BOYLIK. IQTISODIY MUVOZANAT VA MUTANOSIBLIK**

**Darsning o‘quv maqsadi:** talabalarda iqtisodiy o‘shish, uning turlari va ko‘rsatkichlari, omillari, milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy muvozanatlik, uni ta‘minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari, iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari to‘g‘risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o‘rganish bilan bog‘liq tayanch iboralar**

Iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o‘shish, iqtisodiy o‘shish mezonlari, iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari, ekstensiv iqtisodiy o‘shish, intensiv iqtisodiy o‘shish, milliy boylik, moddiy–buyumlashgan boylik, tabiiy boylik, ma‘naviy boylik, iqtisodiy muvozanat, xususiy muvozanat, umumiy muvozanat, multiplikator samarasi, iqtisodiy mutanosiblik.

### **Asosiy savollar**

1. Iqtisodiy o‘shishning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari
2. Iqtisodiy o‘shishning omillari
3. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi
4. Iqtisodiy muvozanatlik, uni ta‘minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari.
5. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari

### **1.Iqtisodiy o‘shishning mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari**

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko‘p omilli va shu bilan birga ziddiyatli jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanish resh qashon bir tekis, yuqorilab boruvchi shiziq bo‘yicha ro‘y bermaydi.

Iqtisodiy rivojlanish o‘z ishiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o‘zgarishlarni, ijobiy va salbiy tamonlarni olib notekis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘shish ko‘proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o‘shish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ifodasini real YaMM (YaIM) hajmining va uning aholi jon boshiga ko‘payishida topadi.

Iqtisodiy o‘shishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil suratlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o‘shish suratlarining jadallashish, jiddiy pasayish va ratto sheklanish davrlari ma‘lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo‘lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o‘shish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo‘ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o‘shish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o‘zgarishlari shaklida ham namoyon bo‘ladi. Prezidentimiz I.Karimov ta‘kidlab o‘tganlaridek: «Iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari haqida gapirganda... uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko‘rsatkichlariga ko‘proq e‘tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o‘shishlar iqtisodiyotimizda yuz behayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, uning izshil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so‘z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim». Shunday ekan iqtisodiy o‘shish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutloq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatining yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi. Mahsulotning o‘shish sur‘ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbat iqtisodiy o‘shishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o‘shishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko‘payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki rissa ko‘paytirish uchun mavjud korxonalar bilan bir qatorda o‘rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo‘yicha xuddi o‘shanday yana bir korxonalar quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o‘zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o‘shishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish: yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo‘llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish

yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki rissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lgan yana bir korxonani qurishga rojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ustivor ekstensiv va ustivor intensiv iqtisodiy o'sish turlari tahlil qilinadi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirhali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida jismoniy va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishning jismoniy ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), lekin universal emas (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish qiyin). qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo har doim ham uni inflyatsiyadan to'liq «tozalash» mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki doimiy narxlarda hisoblanadi.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy qiymat ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- YAMM (YAIM) yoki milliy daromadning mutloq hajmi va uning o'sish sur'ati;
- YAMM (YAIM) yoki milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;
- YAMM (YAIM) yoki milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keladigan miqdori va uning o'sish sur'ati;

Iqtisodiy o'sishni aniqlashda har ushala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlisha.

Masalan: agar diqqat markazida iqtisodiy potensial muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alohida mamlakat va regionlardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustivorlik beriladi. Odatda iqtisodiy o'sish % (foiz) da o'sishning yillik sur'ati sifatida aniqlanadi. Masalan, agar o'tgan yili real YAMM 60 mlr. so'mni va joriy yilda 70 mlr. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'sish sur'atini joriy yildagi real YAMM ning bazis davrdagi hajmiga bo'lish yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu holda o'sish sur'ati 16,6% ni  $(70G'60*100)$  tashkil qiladi. Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar (real YAMM va aholi jon boshiga real YAMMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular

- birinchidan mahsulot sifatining oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq xarakterlab berolmaydi;

- ikkinchidan, real YAMM va aholi jon boshiga YAMMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi, – uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomondan uning atrof muritga va insonning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini xarakterlovshi ko'rsatkichlari ham mavjud bo'lib, ulardan asosiylari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasi, Mehnat unumdorligi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foyda massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilari hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi:

- a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanish darajasi, ya'ni uning unumdorligi.
- b) xodimning malakasi va tayyorgarlik darajasi.
- v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat.

g) Mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

## 2. Iqtisodiy o'sishning omillari


Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning jismoniy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) Mehnat resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida amalga oshirilayotgan «tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda».

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir qiladi. Ishlab chiqarish potensialidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb qilingan bo'lishi, balki juda samarali ishlatilishi ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo'ladi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, taklif va taqsimlash omillari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o'sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi. Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'rniga ega bo'lsa-da, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur. Mehnat unumdorligining o'sishiga olib keluvchi omillarni to'laroq qarab chiqamiz. Fan-texnika taraqqiyoti Mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o'z ishiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi. Umuman aytganda fan – texnika taraqqiyoti deyilganda provard mahsulot chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangisha uyg'unlashtirishni taqozo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tuchuniladi. Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital qo'yilmalar (indestitsiyalar) mustarkam o'zaro bog'liq, texnika taraqqiyoti ko'pinsha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo'yishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostansiyalarini qurish zarur bo'ladi. Birinchi qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro'y berish xarakteriga ega bo'ladi. Gaz va yoqilg'i dvigatellari, konvyer va yig'ma liniyalar bizning hayotga o'tmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

*chizma. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillari*



Bu chizma ko'rsatadiki, real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko'proq hajmini jalb etilishi;

2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan.

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.

Mehnat unumdorligining o'sishini aniqlab beruvshi asosiy omil har bir ishlovshiga to'g'ri keluvshi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqt ishida, kapitalning hajmi mutloq ko'payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o'ssa, Mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta'lim va malakali tayyorgarlik, mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo'yish Mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'z - o'zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko'rsatkichi ta'lim darajasi hisoblanadi. Xozirgi davrda respublikamiz xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 30%ga yaqini oliy va o'rta maxsus ta'limga ega. Lekin oliy va yoki o'rta maxsus ta'limga ega bo'lganlar, aniq sohalardagi bilimlari darajasi bo'yicha boshqa rivojlangan mamlakatlardagi ishchilardan ancha orqada va ko'pchiligi ta'lim olgan soxasi bo'yicha faoliyat turida band emas. Shu sababli keyingi yillarda respublikamizda maktab, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida ta'lim berishning progressiv (test va reyting) tizimlari joriy qilinmoqda. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ham ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Amaliy hayotda iqtisodiy o'sishni to'xtatib turuvchi omillar ham mavjud bo'ladiki, ular Mehnat murofazasi, atrof muritning ifloslanishi va shu kabi rolatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda Respublikada davlat tomonidan atrof murit ifloslanishining oldini olish, xodimlar Mehnat sharoitini yaxshilash va sog'lig'ini murofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish sur'atiga salbiy, ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo qiladi. Shu orqali Mehnat unumdorligini oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lari boshqa tomonga jalb qilinadi.

### **3. Milliy boylik tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishi**

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Milliy boylikning bir qismini inson mehnatining natijasi hisoblasak, boshqa qismi tabiat boyliklaridan iborat bo'ladi. Shunday ekan milliy boylik keng ma'noda o'z ishiga nafaqat moddiy va nomoddiy ne'matlar, yaratilgan san'at asarlari, intellektual salohiyatni balki barcha tabiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi. Milliy boylikning bu barcha tarkibiy qismlarini miqdoran, qiymat o'lchovlarida hisoblab chiqish bir qator ob'ektiv sabablariga ko'ra ancha qiyin, jumladan uning tabiat in'omlaridan iborat qismi inson mehnatining natijasi hisoblanmaydi va qiymat o'lchovlariga ega emas. Shu sababli iqtisodiy tahlil amaliyotida milliy boylikning tor ma'nodagi tushunchasidan foydalaniladi. Tor ma'noda milliy boylik insoniyat mehnati bilan yaratilgan va takror ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan barcha moddiy boyliklardan iborat bo'ladi. milliy boylikning bu qismi milliy iqtisodiyot rivojining butun tarixi davomida doimiy takrorlanib turuvchi ishlab chiqarish jarayonining, umumiy natijasi sifatida chiqadi va moddiy buyumlashgan shaklda namoyon bo'ladi. U kishilarning ko'plab avlodi mehnati natijasi hisoblanadi.

Aytilganlardan kelib chiqib, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Moddiy buyumlashgan boylik. 2. Nomoddiy boylik. 3. Tabiiy boylik.

Moddiy buyumlashgan boylik oxiri oqibatda ishlab chiqarishning, unumli mehnatining natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarish yaratilganda mahsulotlarning joriy iste'mol qilishdan ortiqcha qismini jamg'arish oqibatida vujudga keladi va o'sib boradi.

Ammo moddiy buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi mahsulotlar yig'indisi sifatida tasavvur qilish noto'g'ri bo'lur edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili



ishdan shiqarib, qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste'mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o'rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy buyumlashgan boylik sifatida jamg'arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning inson Mehnati bilan yaratilgan moddiy qismi qiymat shakliga ega bo'lib, tarkibiy tuzilishi bo'yicha qo'yidagilarni o'z ishiga oladi:

— ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar). Bular butun milliy boylikning tarkibida ancha katta salmoqqa ega bo'ladi, hamda o'zining texnikaviy darajasi bo'yicha yalpi milliy mahsulotning o'sish imkoniyatini belgilab beradi:

— noishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar). Asosiy kapitalning bu turiga mamlakatning uy-joy fondi, ijtimoiy madaniy xarakterdagi ob'ektlar kiradi.

— aylanma kapital (fondlar). Milliy boylikning bu qismi mehnat predmetlaridan iborat bo'lib, asosiy kapitalning taxminan 1/4 qismini tashkil qiladi.

— tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan qismi. Ular ishlab chiqarish bosqichida Mehnat jarayoni ta'siri ostida bo'lib, potensial tayyor mahsulot hisoblanadi.

— moddiy zahiralalar va ehtiyojlar. Bunga muomala bosqichdagi tayyor mahsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zayiralar, davlat ehtiyojlari va rezerv fondlari kiradi. Moddiy zayiralar iqtisodiyotda ro'y berishi mumkin bo'lgan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulotda rolatlarda foydalanish maqsadida ushlab turiladi.

Davlat ehtiyojlariga oltin zayiralari, sug'urta va mudofaa ehtiyojlari uchun zarur zahiralalar kiradi.

— aholining uy, tomorqa va yordamshi xo'jaligida jamg'arilgan mol-mulk. Bunga uy-joy, avtomobil, madaniy-maishiy buyumlar, kiyim-kechaklar va shu kabilarning qiymati kiradi.

Moddiy buyumlashgan boylik tarkibiy qismlarining mazmuni va ularning salmog'i o'zgarishsiz qolmaydi. Asosan fan-texnika taraqqiyoti sharoitida moddiy, buyumlashgan boylik tarkibida yirik o'zgarishlar ro'y beradi. Sanoat tarmoqlarining asosiy kapitali tez ko'payadi va yangilanadi, noishlab chiqarish sohasining asosiy kapitali tarkibida ilmiy, o'quv, sog'liqni saqlash muassasalarining ulushi tobora ko'proq rissasini egallaydi. Tabiiy resurslarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish suratlari o'sib boradi.

- Moddiy buyumlashgan boylik o'sishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:
- Mehnat unumdorligining o'sishi;
- ishlab chiqarish samaradorligining ortishi;
- milliy daromadda jamg'arish normasining ortishi.

Moddiy buyumlashgan boylik ishlab chiqarishning natijasi va shart-sharoiti hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, bir tomondan mahsulotdan milliy boylik tomon xarakatda boylikning iste'mol qilingan qismining qoplanishi va uning ko'payishi ro'y beradi. Boshqa tomondan milliy boylik ishlab chiqarishning moddiy shart-sharoiti, uning moddiy texnikaviy asosi hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarishning o'sish sur'ati va miqyosi milliy boylikdan foydalanish xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Moddiy buyumlashgan boylikni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish farqlansa-da, har ikkalasi ham yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Milliy boylikning boshqa qismi tabiiy boyliklar ishlab chiqarishning shart-sharoitini va inson faoliyatining tashqi muritini tashkil qiladi. Tabiiy boylikning vujudga kelishi insoniyat jamiyat rivojiga bog'liq emas, u tabiat qonunlari asosida ro'y beradi. Foydali qazilma boyliklar, o'rmonlar, suv va yer resurslari xuddi shunday vujudga kelib ishlab chiqarishdan tashqarida turadi.

Tabiat in'omlari o'zlarining dastlabki ko'rinishida tabiiy boylik bo'lib, shu holatida inson faoliyatining natijasi hisoblangan ijtimoiy boylik tarkibiga kirmaydi. Buning ma'nosi

shuki, tabiiy boyliklar jamiyat uchun faqatgina potensial boylik hisoblanadi. Ular real boylikka inson Mehnatining ta'siri oqibatida aylanadi.

Milliy boylik nafaqat moddiy ishlab chiqarish sohaslarida yaratiladi. Uning bir qismi nomoddiy ishlab chiqarish sohaslarida vujudga keltiriladi va jamiyatning nomoddiy boyligi hisoblanadi. Nomoddiy sohalarda ashyoviy-buyum shakl bilan bog'liq bo'lmagan alohida turdagi iste'mol qiymatlar hosil qilinadi. Ular ham moddiy ishlab chiqarish sohaslarining faoliyat qilishi va rivojlanishi uchun shuningdek bevosita aholining turmush darajasini ta'minlash va oshirib borish uchun zarur bo'ladi. Bunday boyliklarga ta'lim, sog'likni saqlash, fan, madaniyat, san'at, sport sohaslarida vujudga keltiriladigan nomoddiy qYAIMatliklar kiradi. Uning tarkibida tarixiy yodgorliklar, arxitektura obidalari, noyob adabiyot va san'at asarlari alohida o'rin tutadi.

Jamiyatning nomoddiy boyliklarida madaniyat va san'atning rivojlanish darajasi, jamiyat a'zolarining to'plagan ilmiy bilimlari va intellektual darajasi, ishlovshilarning ixtisosligi va malakaviy bilim darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va sportning rivojlanish darajasi o'z ifodasini topadi.

Moddiy buyumlashgan boylikning o'sishi jamiyat moddiy qYAIMatliklari ko'payishining asosi hisoblanadi. Agar fan-texnika taraqqiyoti yuqori sur'atlar bilan rivojlansa madaniyat, san'at, fan kabi nomoddiy sohalari ham o'sib va takomillashib boradi.

Shunday qilib, milliy boylik moddiy buyumlashgan va tabiiy boyliklardan ancha keng tushunsha bo'lib, o'z tarkibiga jamiyatning nomoddiy xarakterdagi qYAIMatliklarini ham oladi.

#### **4.Iqtisodiy muvozanatlik, uni ta'minlash shart-sharoitlari va aniqlash usullari**

Iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun uning tomonlari o'rtasida ma'lum muvozanat bo'lishini taqozo qiladi. Iqtisodiy muvozanat deb iqtisodiy jarayonlar, rodisalarning ikki yoki bir nasha tomonining bir – biriga mos kelgan holatiga aytiladi. Shuning uchun ham butun iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap borganda eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik e'tiborga olinadi.

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatlikning shakllanish jarayoni va uni ta'minlash ancha murakkab va ziddiyatli. Chunki u o'z ishiga xususiy va umumiy xarakterdagi bir qator muvozanatlar tizimini oladi.

Xususiy muvozanatlik — bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi. Xususiy muvozanatlik ishlab chiqarish va iste'mol, aholining sotib olish layoqati va tovar taklifi masalalari, byudjet daromadlari va xarajatlari, aholida tovarlarga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatliklar ko'rinishida chiqadi. Bu muvozanatliklar ishida Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «...ichki bozorda talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblikka erishish, ya'ni chiqarilgan pul miqdori bilan unga sotib olinadigan mollar salmog'i o'rtasida to'g'ri nisbatni ta'minlash g'oyat katta rol o'ynaydi.»

Umumiy muvozanatlik jamiyat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o'zaro teng kelishini bildiradi. Umumiy iqtisodiy muvozanatlik bozor sharoitida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning teng kelishida ko'rinadi. Bu nafaqat iste'molchilik ne'matlariga, balki ishlab chiqarish vositalariga, ishchi kuchiga hamda barcha iqtisodiy faoliyat natijalariga umumiy talab va taklifning muvofiq kelishidir.

Umumiy iqtisodiy muvozanatlik bir qator shart-sharoitlarni taqozo qiladi. Birinchidan, bu ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishidir.

Ikkinchidan, iqtisodiy muvozanatlik mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo'jalik mexanizmini taqozo qiladi.

Uchinchidan, muvozanatli ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi lozimligini bildiradi. To'rtinchidan, iqtisodiyotda muvozanatlikning umumiy shart-sharoitlari bo'lib, bozor muvozanati, ya'ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va rokazolar)da talab va taklif muvozanatga erishishi

xizmat qiladi. Iqtisodiy muvozanatlik erkin raqobat bozorida barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqazo qiladi.

Real hayotda iqtisodiyot doimiy xarakterda va to'xtovsiz rivojlanish holatida bo'ladi. Iqtisodiy sikl fazalarida, bozor konyukturasi, bozor sub'ektlari daromadlari va talabi tarkibida o'zgarishlar ro'y berib turadi. Bularning hammasi muvozanatli rolatni turg'un iqtisodiyotdagi shartli umumiy muvozanatlik sifatida qarab chiqishni taqazo qiladi.

Shunday qilib makro darajada umumiy iqtisodiy muvozanatlik-bu mamlakat butun iqtisodiyotning mutanosibligidir. Bu barcha sohalar, tarmoqlar, xo'jaliklarning me'yorida rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashshilari hamda barcha bozordagi o'zaro bog'liq va bir-birini taqazo qiladigan muvozanatliklar tizimini o'z ishiga oladi.

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda asosan ikkita o'zaro bog'liq usuldan foydalaniladi: 1. YAlpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli. 2. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.

YAlpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash uchun ishlab chiqarish umumiy hajmining miqdoriy ko'rsatkishi sifatida sof milliy mahsulot (SMM), iqtisodiyotda yalpi sarflar sifatida iste'mol hajmi va investitsiyalarga sarflarning umumiy summasi olinadi. Iqtisodiyotning muvozanatli darajasi — bu ishlab chiqarishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarish mazkur hajmini sotib olish uchun yetarli umumiy sarflarni ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, sof milliy mahsulot muvozanatli darajasida ishlab shiqarilgan tovarlarning umumiy miqdori (SMM) xarid qilingan tovarlar umumiy miqdoriga teng bo'ladi.

To'liq bandlik sharoitida yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik resession yoki inflyatsion farqda ifodalanadi. YAlpi sarflarning SMM hajmidan kam bo'lgan miqdori resession, yalpi sarflarning SMM hajmidan ortiqsha bo'lgan miqdori inflyatsion farq deyiladi. Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati shundaki, ishlab shiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq aholi bu daromadning bir qismini iste'mol qilmasdan jamg'arishga qo'yish mumkin. Jamg'arish, sarflar — daromadlar oqimidan potensial sarflarni olib qo'yish hisoblanadi. Bunda jamg'armaga qo'yilgan mablag' investitsiyalar bilan to'liq qoplansa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi.

Investitsion sarflarning ko'payishi, ishlab chiqarish hajmi va daromad darajasining o'sishiga olib keladi. Bu o'zaro natija multiplikator samarasi deyiladi. Multiplikator samarasi — bu sof milliy mahsulotdagi o'zgarishning sarflardagi (investitsiyalardagi) o'zgarishga nisbati.

$$\text{Multiplikator samarasi} = \frac{\text{Реал СММ даги ўзгариш}}{\text{Инвестицион сарфлардаги ўзгариш}}$$

SMM dagi o'zgarish q multiplikator x Investitsiyalardagi o'zgarish.

Agar investitsion sarflarning 5 mlrd. so'mga ko'payishi, sof milliy mahsulotning 20 mlrd. so'mga ortishiga olib kelsa multiplikator samarasi 4 ga (20:5), SMMdagi o'zgarish 20 mlrd. so'mga (4x5) teng bo'ladi.

Investitsion sarflardagi o'zgarishdan tashqari iste'mol, davlat xaridi yoki eksportdagi o'zgarishlar ham multiplikator samarasiga ta'sir ko'rsatadi.

Multiplikator samarasi ikkita rolatga asoslanadi. Birinchidan, iqtisodiyotda bir sub'ekt tamonidan qilingan sarf, boshqasi tomonidan daromad shaklida olinadi. Ikkinchidan, daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'arishda xuddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda yuqoridagi usullardan tashqari balans usulidan va «xarajat va natija» larni taqqoslash usulidan ham foydalaniladi. Balans usulida tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalanilib iqtisodiyotdagi muvozanatlik darajasiga baho beriladi. «Xarajat va natija»larni taqqoslash usulida ishlab chiqarishga qilingan iqtisodiy resurs xarajatlari miqdori olingan mahsulot hajmi bilan taqqoslanib muvozanatlik darajasi tahlil qilinadi.

## **5. Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari.**

Milliy iqtisodiyotdagi muvozanatlik uning turli tomonlari va sohalari o'rtasida mutanosiblik bo'lishini taqozo qiladi.

Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir. Bunda tenglik bo'lishi shart emas. Ular mos keluvshi (2:3, 5:3, 3:1) nisbatlarida bo'lishi mumkin.

Makroiqtisodiy jarayon g'oyat murakkab va ko'p qirrali bo'lishi sababli mutanosiblik turlari ham ko'p va xilma-xil. Ularning barchasini umumlashtirib mutanosiblikning quyidagi guruhlari tarkibiga kiritish mumkin.

Umumiqtisodiy xarakterdagi mutanosibliklar. Bunga milliy daromaddagi tarkibiy qismlar: iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi: iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi: aholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2. Tarmoqlararo mutanosibliklar. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar alohida o'rin tutadi. Mamlakat xalq xo'jaligi juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-biriga taqozo qiladi. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki pirovard mahsulotga aylantirilib o'z iste'molchisini topadi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarning ko'pchilik qismi G'paxta, g'alla, pilla, sut va r.k.G' sanoatning tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard mahsulotga aylantiriladi va iste'molchilik tovarlari bozoriga shiqariladi. O'z navbatida sanoatning ishlab chiqarish vositalari yaratadigan sohalarning mahsulotlari xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari qishloq xo'jaligi, qurilish va h. k.da unumli iste'mol qilinadi. Bu ularning bir-biriga bog'liqlikda rivojlanishini taqozo qiladi. Tarmoqlararo mutanosibliklarga sanoat bilan qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar misol bo'ladi.

3. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar. Tarmoqlararo mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlik tarmoqlar ishida mutanosiblik orqali ta'minlanadi. Tarmoqlar ishida mutanosiblik alohida olingan tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo'jaligining dexqonshilik va shorvashilik sohalari o'rtasidagi mutanosibliklar va r. k. Shu bilan birga ta'kidlab o'tilgan sohalarning ishida tarkibiy bo'linmalar o'rtasida ham bog'liqlik bo'lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, shorvashilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'rtasida va boshqalar

4. Hududiy mutanosibliklar. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlikni ham taqozo qiladi. YUzaki qaraganda hududlar o'rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojida roli to'liq namoyon bo'lmaydi. Lekin alohida hududiy bo'linmalar (viloyat, tuman, shahar va boshqa hududiy birliklar) ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liqligi, ixtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtai-nazaridan qaralsa, bu bog'liqlikning ahamiyati yaqqol ko'rinadi.

5. Davlatlaharo mutanosibliklar. Bu mutanosiblikni ikki rolat taqozo qiladi. Birinchidan, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xalqaro Mehnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog'langan, ikkinchidan, shu bog'liqlik orqali milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliklar tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobiga qondiradi. Bu bog'liqlik qanchalik katta bo'lsa, sof eksport hajmi orqali makroiqtisodiy muvozanatlikka shunchalik kushli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyatning ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish.

To'la bandlilikka erishish, ya'ni Mehnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni xorlaganlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash. Narx-navoning nisbiy barqarorligiga erishish va uni inflyatsiya ta'siridan xoli qilish.

Iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini yetarli darajada investitsiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish. Eksport va importni muvofiqlashtirish asosida tashqi savdo balansining faolligiga erishish. Bu maqsadlar faqatgina ularga intilish bo'lib, bunga erishish muqarhar ekanligini bildirmaydi. Chunki mutloq muvozanatga erishish mumkin emas, u buzilib va qaytadan tiklanib turishi orqali iqtisodiy o'sish notekis boradi.

#### **Nazorat savollari**

1. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalarining ta'rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.
2. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi?
3. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga, aholisining turmush darajasiga va ishlab chiqarishining samaradorligiga baho berishda iqtisodiy o'sishning qanday ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
4. Milliy boylik tushunchasining ta'rifini bering va tarkibiy tuzilishini ko'rsating.
5. Milliy boylik tarkibida moddiy –buyumlashgan boylik qanday o'ringa ega va u qanday tarkibiy qismlarni o'z ishiga oladi?

#### **Mustaqil ishmavzulari va topshiriqlari**

1. Nima uchun yer, suv kabi tabiiy boyliklarni qiymat o'lchovida baholab, milliy boylik tarkibiga kiritish mumkin emas?
2. Iqtisodiy muvozanatlik, xususi va umumiy muvozanatliklarga tavsif bering.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.YAxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
11. [www.uza.u](http://www.uza.u)

## **12-MAVZU. IQTISODIYOTNING SIKLLIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK**

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklliligi, iqtisodiy inqirozlar, tarkibiy inqirozlar, agrar inqirozlar va uning xususiyatlari, iqtisodiy sikl nazariyalari, siklning iqtisodiyotni alohida sohalariga ta'siri borasida tushunchalar hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Iqtisodiy inqiroz, iqtisodiy sikl, turg'unlik(depressiya), jonlanish, yuksalish, tarkibiy inqirozlar, agrar inqirozlar, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.

### **Asosiy savollar**

1. Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklliligi. Iqtisodiy inqirozlar
2. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari
3. Iqtisodiy sikl nazariyalari.
4. Siklning iqtisodiyotni alohida sohalariga ta'siri.

### **1.Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklligi.**

#### **Iqtisodiy inqirozlar.**


Har qanday mamlakat, shu jumladan industrial rivojlangan mamlakatlar ham iqtisodiy o'sishga, hamda to'liq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishga xarakat qiladi, ammo uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari bilan uzulib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan ob'ektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish xarakatida uzilishlar paydo bo'ladi va bu uzilish iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo'lishidir. Iqtisodiy sikl deganda, odatda ishlab chiqarishning bir iqtisodiy holatidan, yoki bir inqirozdan ikkinchisi boshlangunga qadar takrorlanib turadigan to'liqsimon xarakati tuchuniladi. Sikl inqiroz, turg'unlik, jonlanish, yuksalish fazalarini o'z ishiga oladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.

Inqiroz ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi va siklning qayd etuvchi ifodasidir. U bir siklni niroyasiga yetkazib, yana muqahar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz vaziyatda asosiy kapitalning ortiqsha jamg'arilishi uning hamma funksional shakllarida namoyon bo'ladi. Inqirozdan keyin turg'unlik keladiki, uning davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi nihoyasiga yetadi.

Jonlanish fazasining boshlanishi ozmi-ko'pmi darajada barqaror ishlab chiqarishning kengayishiga o'tishni bildiradi.

Ish bilan ta'minlanish darajasining ortishi va foydalarning tez o'sishi jonlanishning yuksalish bosqichiga o'sib-o'tishiga ko'maklashadi. Yangi sikl yuksalishning boshlang'ish nuqtasi hisoblanadi. Yuksalish fazasida ish kuchiga bo'lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning oshishi, o'z navbatida, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turtki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarhar bo'lib qoladi.

Alohida iqtisodiy sikllar bir-biridan davomiyligi va intensivligi bo'yicha keskin farqlanadi. Shu bilan birga ularning hammasi bir xil fazalarga ega bo'ladi va har xil tadqiqotshilar tomonidan turlisha nomlanadi. 6-chizmada ko'pshilik iqtisodshilari tomonidan tan olingan iqtisodiy sikl ko'rsatilgan. Siklning eng yuqori nuqtasida, iqtisodiyotda to'liq bandlilik kuzatiladi va ishlab chiqarish to'liq yoki deyarli to'liq quvvat bilan ishlaydi. Siklning bu fazasida narx darajasi o'sish tamoyiliga ega bo'ladi, iqtisodiy faollikning o'sishi to'xtaydi.



chizma. Iqtisodiy sikl

Tanazzul fazasida ishlab chiqarish va bandlilik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Tanazzulning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik o'zining eng past darajasiga erishishi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi.

Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab qoladi, tovarlar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning tez o'sish davrlari ko'pincha inflyatsiya, ya'ni narx darajasining ko'tarilishi bilan orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo'ladiki, bunda iqtisodiy o'sish bandlilik va ishlab chiqarishning past darajasiga o'rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko'tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o'sadi. qisqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflyatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi — takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish va uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bo'lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan iste'mol, talab va taklif o'rtasidagi vaqti-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga shiqish imkoniyatini saqlaydi. Kapitalizmgaacha bo'lgan davrlarda ishlab chiqarishning keskin qisqarishi, odatda tabiiy ofatlar (qurg'oqshilik, toshqinlar va x.k.) yoki urushlar va ularning keltiradigan vayronagarshiliklari bilan bog'liq bo'lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o'tilgan davrdan keyingi vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga siklik xarakterni kasb etadi.

Ko'pchilik hozirgi zamon iqtisodchilari iqtisodiy sikllarning ob'ektiv xarakterini tan olib, bu hodisani unga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o'rganishni tavsiya qiladi.

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvshi va iqtisodiy rodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy lahzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa YAIMatli resurslar yirik konlarning ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.

Iqtisodiy sikllarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tuchuntiruvshi nazariyani, eksternal nazariya deb atash qabul qilingan. Internal nazariya iqtisodiy sikllarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ishki omillar tug'diradi deb hisoblaydi.

Asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati, ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy siklni tug'diruvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda, mashina -uskunalarga talabning keskin ortishi keltirib chiqaradigan iqtisodiy o'sish boshlansa, to'liq tabiiyki, bu hol mashina va uskunalar to'liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi.

Boshqa ichki omillardan qo'yidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- Shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosatining o'zgarishi;

Iqtisodiy sikllarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish ko'pam to'g'ri emas. Iqtisodiy sikl va umuman iqtisodiy tizimdagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar tashqi va ishki omillar oqibatida kelib chiqishi mumkin emas.

## **2. Tarkibiy inqirozlar. Agrar inqirozlar va uning xususiyatlari.**

Iqtisodiyotdagi inqirozlardan bir ko'rinishi yoki uning bir turi tarkibiy inqirozlardir. Bu inqirozlarni ishlab chiqarishning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidagi chuqur nomutanosibliklar keltirib chiqaradi.

Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faollikning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo'ladi. Masalan, bayhamlar arafasidagi xarid qilish, iste'molchilik tovarlarining faollik sur'atida, asosan chakana savdoda sezilarli har yillik tebranishlarga olib keladi. qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, qurilish ham qandaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo'ladi.

Iqtisodiy faollik iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tamoyillarga, ya'ni uzoq muddatli davr, masalan, 25, 50 yoki 100 yil davomida iqtisodiy faollikni ortishi yoki pasayishiga bog'liq. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ayrim mamlakatlarda (masalan AqSh) uzoq muddatli tamoyil sezilarli iqtisodiy o'sish bilan xarakterlansa, boshqalari uchun iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi xos.

Iqtisodiy faollikning tebranishini tushuntiruvshi ko'plab qarashlar mavjud bo'lishiga qahamasdan ko'pchilik iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlik darajasini bevosita aniqlovchi omil umumiy yoki yalpi sarflar darajasi hisoblanadi, deb tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar agrar inqirozlar deb ataladi. Agrar inqirozlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: 1) qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan juda katta zaxiralarining to'planishi. 2) Narxlarning pasayishi, daromadlar va foydalarning kamayishi. 3) Fermerlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lishi, ularning qarzlarning ortishi. 4) qishloq aholisi o'rtasida ishsizlarning ko'payishi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, agrar inqirozlar o'ziga xos xarakter kasb etadi. Agrar inqirozlar sanoat sikllariga qaraganda odatda ancha uzoqroqqa cho'zilib boradi. Birinchi agrar inqiroz o'tgan asrning 70-yillarida boshlanib, har xil shakllarda 90-yillar o'rtasigacha davom qilgan edi.

Birinchi jahon urushidan keyin, aholining xarid qobiliyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920 - yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanib ketdi va ikkinchi jahon urushining boshlanishiga qadar davom etdi. Uchinchi agrar inqiroz 1948 - yildan boshlanib, 80-yillargacha davom etdi. Agrar inqirozlarning cho'zilib ketishining asosiy sabablari quyidagilar: a) yerga xususiy mulk monopoliyasi sharoitida, u qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rivojlanishida sanoatga nisbatan orqada qolishni taqozo etadi; b) yer rentasining mavjud bo'lishi va uning uzluksiz sur'atda o'sib borishi. yer rentasining, avvalo absolyut rentaning ko'payishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qYAIMatlashtirib yuboradi, buning natijasida uni sotish qiyinlashadi. v) Ko'plab mayda dehqon xo'jaliklarning mavjud



bo'lishi. Mayda ishlab chiqaruvchilar xo'jalikni asosan o'zi va oilasi uchun zarur tirikchilik vositalarini topish maqsadida yuritadi. Inqiroz sharoitida ham ular ishlab chiqarishni qisqartira olmaydilar. Tirikchiliklarini o'tkazish va ijara haqini to'lash uchun ishlab chiqarishni ilgari miqiyoslarda olib boraveradi. Bu hol qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarishni yana ham ko'paytirib yuboradi.

Agrar inqirozlar siklli xarakterga ega bo'lmaydi. qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish absolyut xarakterga emas, balki nisbiy xarakterga ega. Chunki inqiroz ro'y bergan mamlakatlarda million-million kishilar doimiy suratda ochlikda yashaydi.

### **3.Iqtisodiy sikl nazariyalari. Siklning iqtisodiyotning alohida sohalariga ta'siri.**

Hozirgi zamon iqtisodiy fanida iqtisodiy sikl va siklli rivojlanishga mingdan ortiq qarashlar mavjudligi ta'kidlanadi.

Biz ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan asosiylariga tavsif behamiz. Kitchin sikli - zahiralari sikli deb ham nomlanadi. Bunda Kitchin (1926 y.) moliyaviy hisoblar va tovar zahiralari xarakatida sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga o'zining e'tiborini qaratadi.

Juglar sikli - biznes-sikl, sanoat sikli, o'rtacha sikl va katta sikl kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik sikllarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu sikl Fransuz, Angliya va AQShda foiz stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat siklining tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan K.Juglar (1819-1905 yy.) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat sikli 1825 yil, mashinali ishlab chiqarish, metallurgiya va boshqa yetakchi tarmoqlarda hukmron mavqeni egallagan davrda Angliyada kuzatiladi. 1836 yildagi krizis dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQShga ham tarqaladi, 1847-1848 yillarda AQSh va qator Yevropa davlatlarida boshlangan krizis, tub mohiyatiga ko'ra birinchi jahon sanoat krizisi bo'lgan.

Agar XIX asrda sanoat sikli 10-12 yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSh va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat siklini boshdan keshirgan bo'lib, ulardan yettitasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

Kuznes sikli - ko'p xollarda «qurilish sikli» deb nomlanib, 20 yilgacha bo'lgan iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. S.Kuznes o'zining «Milliy daromad» (1946 y.) nomli kitobida, milliy daromad, iste'molchilik sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalari, hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko'rsatkishlarida 20-yillik o'zaro-bog'liq tebranishlar mavjud bo'lishini aniqlaydi. 1955 yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat siklini Kuznes sikli deb nomlashga qaror qilinadi.

Kondratev sikli - «uzun to'lqinlar» sikli deb ham ataladi. Sikllilikning bu nazariyasini ishlab shiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta rissa qo'shadi. Uning tadqiqoti Angliya, Fransiya va AqShning, 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab oladi. Bunda u iqtisodiy o'sishning ko'p omilli tahlilini o'tkazib, ya'ni tovar narxlari kapital uchun foiz, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkishlarning o'rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta sikllarni ajratib ko'rsatadi.

- I-sikl: 1787-1814 yy. - ko'taruvchi to'lqin, 1814-1851 yy. Pasaytiruvshi to'lqin.
- II-sikl: 1844-1851 yy. - ko'taruvchi to'lqin, 1870-1896 yy. - pasayuvshi to'lqin.
- III-sikl: 1896-1920 yy. - ko'taruvchi to'lqin.

Kondratev siklining davomiyligi o'rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishi hisoblanadi.

Kondratev birinchi katta siklning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini - temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini - elektroenergiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to'rtinshisini - avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog'laydi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari beshinchi siklni elektronika, gen injenerligi va mikroprotessorlar rivojlanishi taqoz qilishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy sikl barcha tomonlari bilan namoyon bo‘lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qisimlarning o‘zaro bog‘liqligi sababli uning hech bir sohasiga inflyatsiya to‘lqini yoki turg‘unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e‘tiborga olish zarurki, iqtisodiy sikl alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Odatda iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan iste‘molchilik tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko‘proq yo‘qotishga uchraydi. Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og‘ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo‘jalik buyumlari va shunga o‘xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo‘lgan ishchilar siklning inqiroz fazasida og‘ir oqibatiga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar siklning yuksalish fazasida o‘zining rivojlanish uchun yuqori darajada rag‘bat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshdan kechira boshlaganda, ishlab chiqaruvchilar ko‘pincha zamonaviy uskunalarni sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to‘xtatadi yoki qandaydir muddatga keshiktirishi mumkin. Bunday kon‘yuktura sharoitda investitsion tovarlar zayiralarni ko‘paytirish resh qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to‘laroq foydalanishlari mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay davrlarda ya‘ni siklning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to‘liq eskirganisha almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o‘zining eskirgan uskunalarini ta‘mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqsha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo‘lgan ayrim korxonalar, ratto iste‘mol qilingan asosiy kapitalning o‘rnini qoplashga ham xarakat qilmaydi.

qisqa mudatli foydalaniladigan iste‘molchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari siklining oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste‘molchilar qatlamiga iqtisodiy sikl turlisha ta‘sir ko‘rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad oluvchi iste‘molchilar oila byudjetini qisqartirishga to‘g‘ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishini to‘xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a‘zolari yeb-ishishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-keshaklar, ya‘ni qisqa muddatda foydalanadigan iste‘molchilik tovarlarini xarid qilishni to‘xtatish mumkin emas. Faqat, bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste‘molchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi ko‘pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko‘p bo‘lmagan yirik firmalar ma‘lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini sheklash uchun yetarlisha monopol rukumdorlikka ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli talabning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlilik darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bunga teskari bo‘lgan rolatni qisqa muddatli foydalaniladigan iste‘molchilik tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko‘pchiligi o‘zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarishi markazlashuv darajasining pastligi bilan xarakterlanadi. Shu sababli ular siklning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlariga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko‘proq aks etadi. Demak, kapitalning to‘planishi yuqori darajada bo‘lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish xajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, to‘planish darajasi past bo‘lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

#### **Nazorat savollari**

1. Makroiqtisodiy barqarorlik nima( Unga erishish yo‘llari qanday)?
2. Iqtisodiy siklning ta‘rifini bering va uning har bir fazasining o‘ziga xos belgilarini ko‘rsating.

3. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. Siklli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko'rsating.
4. Agrar inqirozlarning xususiyatlarini bayon qiling.
5. Iqtisodiy sikl asosiy turlariga tavsif bering va ko'rsating.

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Iqtisodiy inqirozlar mohiyati nimada ifodalanadi
2. Iqtisodiy siklning muhim belgilari

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
11. [www.uza.u](http://www.uza.u)
12. [www.seep.uz](http://www.seep.uz)

## 13-MAVZU. MOLIYA, MOLIYA TIZIMINING MOHIYATI VA VAZIFALARI

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda moliyaning mohiyati va vazifalari, moliya tizimi, byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, soliq tizimi va uning vazifalari to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Moliya, moliya tizimi, davlat byudjeti, byudjet taqchilligi, davlat qarzlari, soliqlar, soliq stavkasi, Laffer egri chizig'i.

### **Asosiy savollar**

1. Moliyaning mohiyati va vazifalari.
2. Moliya tizimi.
3. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari.
4. Soliq tizimi va uning vazifalari.

### **1.Moliyaning mohiyati va vazifalari. Moliya tizimi.**

Moliyaviy munosabatlar ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy munosabatlarning muhim sohasini tashkil qiladi. Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag'laridan foydalanish va uning xarakatini tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar tizimi bo'lib, uning vositasida turli darajada pul mablag'lari fondlari vujudga keltiriladi va ular takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida taqsimlanadi.

Moliya iqtisodiyot doirasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator vazifani bajaradi.

1.Moliyaning iqtisodiy jarayonlarni, tadbirlarni moliyaviy ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaradi. 2.Moliyaning taqsimlovchi vazifasi, moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan yalpi milliy mahsulotni, ayniqsa, uning milliy daromadni tashkil qiluvchi qismini davlat va mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, iqtisodiyot tarmoqlari, moddiy ishlab chiqarish sohalari, mamlakat hududlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi. Bundan milliy daromadning bir qismi korxonalar va aholi daromadlaridan turli xil soliqlar olish, renta va bojxona to'lovlari, aksiz yig'inlari kabilar orqali davlat qo'lida to'planadi. O'z qo'lida to'plangan milliy daromadning katta qismini davlat moliya vositasida aholining ijtimoiy madaniy ehtiyojlariga (uy joy qurilishi, tibbiyot xizmati, maorif, nafaqa, stipendiya va shu kabilar to'plashga), daromadlar darajasini ushlab turishga, milliy mudofaaga, atrof muritni muhofaza qilish va shu kabilarga sarflaydi.

3.Moliyaning rag'barlantiruvshilik vazifasi, birinchidan, yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash jarayonida, ikkinchidan, pul fondlarini tashkil qilish va sarflash mexanizmi vositasida amalga oshiriladi. Ikki holda ham moliya ishlab chiqarish samaradorligiga, uning pirovard natijasiga, mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


4.Moliyadan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol ustidan nazorat qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Moliyaviy nazorat korxonalar (firma)larning moliya intizomga rioya qilish uchun moddiy javobgar bo'lish tizimi, turli soliqlar undirib olish va mablag' bilan ta'minlash tizimi orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy munosabatlar va ularga xizmat qiluvchi maxsus muassasalar jamiyatning moliya tizimini tashkil qiladi. Moliya tizimi korxonalar (tarmoqlar) va umumdavlat moliyasini o'z ichiga oladi. Korxonalar va tarmoqlar moliyasi ulardagi takror ishlab chiqarish jarayonida hamda alohida fondlar yaratish yo'li bilan xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Umumdavlat moliyasi davlat byudjetini, ijtimoiy sug'urta fondini hamda davlat mulkiy va shaxsiy sug'urtasi fondini o'z ichiga oladi. Davlat pul mablag'larining asosiy markazlashgan fondi bo'lmish davlat byudjeti moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjeti - bu davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasidir. Davlat daromadlari va xarajatlarining asosiy qismi davlat byudjeti orqali o'tadi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni amal qilish uchun sharoit yaratishdir. O'zbekistonda davlat byudjetining tuzilishi, daromadlari va xarajatlarining tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining  
2005-2010 yillardagi daromadlar tarkibi (% hisobida)<sup>3</sup>**

Daromadlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Jami daromadlar (davlat maqsadli fondlarisiz)	100	100	100	100	100	100
Shu jumladan:						
<b>1. To'g'ri soliqlar</b>	<b>27,7</b>	<b>27,6</b>	<b>23,9</b>	<b>25,3</b>	<b>26,6</b>	<b>26,1</b>
1.1. Yuridik shaxslardan foyda solig'i	6,3	5,4	5,1	5,1	5,2	4,9
1.2. Jismoniy shaxslardan foyda solig'i	14,1	14,9	13,5	12,5	12,3	11,1
1.3. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadiga soliq	2,0	1,8	2,2	2	2,1	2,3
1.4. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yagona solig'i	2,4	2,4	2,0	2,0	2,5	2,6
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq	1,3	1,4	1,1	1,1	1,0	1,1
1.6. Ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish va obodonlashtirish uchun soliq	1,6	1,7	2,2	2,5	3,4	3,5
<b>2. Egri soliqlar</b>	<b>49,2</b>	<b>49,1</b>	<b>48,6</b>	<b>50,2</b>	<b>49,5</b>	<b>53,2</b>
2.1. QQS	22,6	25,2	24,7	28,1	29,7	30,4
2.2. Aksiz solig'i	20,9	18,8	18	16,5	14,4	16,7
2.3. Bojxona bojlari	2,0	2,1	2,3	3,5	3,5	3,7
2.4. Jismoniy shaxslardan yagona boj yig'imi	1,7	1,2	1,4	-	-	-
2.5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1,9	1,9	2,2	2,1	1,9	2,4
<b>3. Mol mulk va resurs to'lovlari</b>	<b>19,0</b>	<b>18,6</b>	<b>18,3</b>	<b>17,1</b>	<b>16,0</b>	<b>15,0</b>
3.1. Mulk solig'i	3,3	3,5	3,8	3,3	3,1	2,7
3.2. yer solig'i	2,6	3,4	3,5	2,9	2,6	2,3
3.3. yer osti boyliklardan foydalanganlik uchun soliq	10,1	11,5	10,4	10,5	9,8	9,6
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,4	0,5	0,6	0,5	0,4	0,4
3.5. Ekologiya solig'i	2,6	-	-	-	-	-
<b>4. Qo'shimcha foyda solig'i</b>			<b>3,2</b>	<b>2,9</b>	<b>2,3</b>	<b>0,2</b>
<b>5. Boshqa soliq va daromadlar</b>	<b>4,1</b>	<b>4,7</b>	<b>3,9</b>	<b>4,5</b>	<b>5,7</b>	<b>5,5</b>

rasm

**O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'larining yo'nalish tarkibi<sup>4</sup>**



## **2.Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari**

Umumdavlat byudjeti bilan birga hokimiyat quyi organlarining (viloyat, tuman va shahar) byudjeti ham mavjud bo‘ladi. Bu mavjud moliyaviy resurslarni ancha to‘laroq jalb qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Hokimiyat quyi organlari byudjetining daromadlari o‘z hududidagi korxonalar daromadidan, aholidan olinadigan soliqlar, mulk soliqlari va shu kabilar orqali shakllanadi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari muvozanatda bo‘lishini taqozo qiladi. Lekin ko‘pchilik hollarda davlat byudjeti xarajatlarining daromadlardan ortiqchaligi kuzatiladi, buning oqibatida byudjet taqchilligi tez sur‘atlar bilan o‘sadi. Bu holning sabablari ko‘p bo‘lib, ularning ichida, davlatning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining uzluksiz o‘sib borishi, uning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining kengayishi alohida o‘rin tutadi.

Byudjet taqchilligining o‘shishi mutloq miqdorda va uning yalpi milliy mahsulot (YAMM)ga nisbatida aniq namoyon bo‘ladi. 2000 yilda Respublikamiz davlat byudjetining taqchilligi YAIMga nisbatan bir foizdan oshmagan.

Byudjet taqchilligining o‘zgarishi xo‘jalik kon‘yukturalaridagi joriy tebranishlar, ishlab chiqarishdagi davriy inqiroz va yuksalishlarni ham aks ettiradi, krizislar davrida davlat byudjet mablag‘lari hisobidan iqtisodiyotning ma‘lum sektorlarini ushlab turishga, umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saqlab turishga majbur bo‘ladi.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirish (qoplash) ning muhim sharoiti davlat krediti bo‘lib chiqadi. Davlat krediti deganda, davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida chiqadigan barcha moliyaviy iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi tuchuniladi.

Moliyaviy resurslarni davlat qarz olishning asosiy shakli – bu davlat zayomlarini chiqarish hisoblanadi. Ularni joylashtirish jarayonida davlat aholi, banklar, savdo va sanoat korporatsiyalarining vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb qiladi.

Davlat o‘z majburiyatlarini nafaqat xususiy sektorda joylashtirishi, balki ularni Markaziy bankda hisobga olishi ham mumkin. Bunda bank muomalaga pulning tovar hajmining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lmagan qo‘shimsha massasini chiqaradi. Mazkur holda, davlat byudjetini moliyalashtirish pul muomalasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri inflyatsion ta‘sir ko‘rsatadi. Pul massasining o‘shishi jamiyat haqiqiy boyligining ko‘payishi bilan birga bormaydi.

Davlat qarzlarning to‘xtovsiz ko‘payib borishi, milliy daromadni foiz to‘lovlari shaklida, tobora ko‘proq qayta taqsimlanishga olib keladi.

Katta byudjet taqchilligi va davlat majburiyatlari bo‘yicha foiz to‘lovlari o‘shish sharoitida, davlat qarzlarni to‘lash vaqtini imkon darajada sho‘zishga xarakat qiladi. Buning uchun turli xil usullardan foydalanish mumkin. Jumladan davlat o‘zining qisqa muddatli majburiyatlarini, o‘rta va uzoq muddatli zayomlarga almashtiradi. U o‘zining qisqa muddatli majburiyatlarini, ancha yuqori foiz bo‘yicha yangi, uzoq muddatli zayomlar chiqarish hisobiga ham sotib olish mumkin. Bunday turdagi tadbirlar qisqa davrli samara berishi va vaqtincha davlatning moliyaviy arvolini yengillatishi mumkin, chunki u odatda kelgusida foiz stavkasining oshishi va qarzlarning umumiy miqdorining o‘shishi bilan bog‘liq.

Xo‘jalik hayoti baynalminallashuv jarayonlarining tez o‘shishi, xalqaro kreditning jadal rivojlanishi natijasida davlat o‘ziga zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun, bo‘sh pul mablag‘larining milliy shegaradan tashqaridagi manbaalaridan faol foydalanadi. Buning natijasida tashqi qarz vujudga keladi.

Shunday qilib, davlat zarur moliyaviy resurslarini ham ssuda kapitallarining milliy bozoridan va ham tashqi bozoridan qarz oladi.

Xalqaro kreditning tez o‘shishi kapitalning mamlakatlalharo migratsiyasi, mamlakat va regionlar iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligining shuqurlashuvining muqarhar natijasi hisoblanadi. Xalqaro kredit moliyaviy resurslarni ham xususiy sektorning ehtiyojlarini qondirish, ham davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun jalb qilish imkoniyatini sezilarli kengaytiradi. Shu

bilan birga tashqi qarzlarning o'sishi bir qator boshqa muammolarni keltirib chiqaradi. Ulardan asosiy, milliy vositalar bilan nazorat qilib bo'lmaydigan ham kreditor va ham debitor mamlakatlar iqtisodiyotining kuchayib boruvchi bog'liqligi hisoblanadi.

### **3.Soliq tizimi va uning vazifalari**

Soliq iqtisodiy kategoriya sifatida, sof daromadning bir qismini byudjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Soliq - bu byudjetga majburiy to'lovlar shakli. Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi.

Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi.

Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

-davlat xarajatlarini moliyalashtirish (fiskal vazifasi);

-ijtimoiy tanglikni yumshatish (ijtimoiy vazifasi);

-iqtisodiyotni tartibga solish (tartibga solish vazifasi).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsa-da, davlat sarflari miqyosining o'sishi o'z navbatida soliqlarning o'sishini taqazo qiladi va uning darajasini belgilab beradi.

Hozirgi davrda umumiy tendensiya bo'lgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining o'sib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi.

1. Aholi sonining o'sishi. Aholi jon boshiga davlat sarflari darajasi o'zgarmay qolgan taqdirda ham, aholining o'sgan qismini ijtimoiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash qo'shimcha mablag'larni zarur qilib qo'yadi.

2. Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya. Kishilar turmush darajasining ortishi ijtimoiy soxa xizmatlari hajmiga va sifatiga talabni oshiradi.

3. Atrof-muhitning ifloslanishi. Aholi sonining o'sishi va urbanizatsiyaning kuchayishi atrof muhitning sifati muammosini keskinlashtiradi. Juda ko'p miqdordagi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish havo, suv va yerning ifloslanishi shaklidagi qo'shimcha xarajatlarning o'sishini keltirib chiqaradi. Atrof-murit muammosini ral qilishda asosiy rol davlat YAIM zimmasiga tushadi.

4. Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish. Bularga xususan ijtimoiy sug'urtani rivojlantirish, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ijtimoiy ta'minot, tekin meditsina yordamlari davlat dasturi, oziq-ovqat mahsulotlariga dotatsiyalar, davlat uy joy qurilishi kiradi.

5. Milliy mudofaa, davlat xavfsizligining ta'minlash xarajatlari hajmining o'sishi.

Hozirgi davrda davlatning soliq siyosatini O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va uning joylardagi (viloyat, shahar, tuman) muassasalari amalga oshiradi.

Respublika hududida amal qiluvchi soliqlar, uning to'lovlari soliq undirishning ob'ektlari, soliq to'lash tartibi, soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar, soliq to'lash bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan munozaralarni ral qilishning umumiy tartibi O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonunlari bilan aniqlanadi.

Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy prinsiplari asosida amalga oshiriladi:

-barcha daromadlardan, ularning manbalariga bog'liq bo'lmagan holda soliq undirishning majburiyligi;

-soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;

-samarali ishlovshi korxonalarda hamda xo'jalik yuritishning progressiv shakllari uchun soliq normalarining rag'batlantiruvshi rolini ta'minlash;

-soliq to'lovi bo'yicha barcha sub'ektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.

Soliq stavkasini belgilash bir qator prinsiplarga asoslanadi.

1. Naflilik prinsipi - har xil kishilardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlisha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

Soliq summasining (R) soliq olinadigan summaga (D) nisbatining foizdagi ifodasi soliq stavkasi (R)' deyiladi yoki,

$$R = \frac{R}{D} * 100\%$$

2. To'lovga layoqatlilik prinsipi - soliq miqdori soliq to'lovshining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqasha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilish zarur.

3. Adolatlilik prinsipi - daromadlari va rukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur.

Soliq bo'yicha imtiyozlar qonunshilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Soliq imtiyozlarining amaliyotda quyidagi turlari keng tarqalgan:

- ob'ektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarni (masalan, urush faxriylarini) ozod qilish;
- soliq darajasi (stavkasi)ni pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan shegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni keshiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish).

Soliqlarni turkumlashga turli xil mezonlar asosida yondashiladi.

Soliq stavkasi va daromadlar o'rtasidagi nisbatga asoslanib, soliqlar odatda progressiv (o'sib boruvchi), proporsional (mutanosib) va regressiv (kamayib boruvchi) soliqlarga bo'linadi.


1. Agar soliqning o'rtacha stavkasi daromadlar ortishi bilan o'sib borsa, progressiv soliq hisoblanadi.

2. Daromadlar o'sib borishi bilan o'rtacha stavkasi pasayib boruvchi soliqlar regressiv soliqlar deyiladi.

3. Proporsional soliq o'rtacha soliq stavkasi daromad hajmiga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarishsiz qolishini taqazo qiladi.

Bunda davlat butun xo'jalik kon'yunkturasiga umumiy ta'sir ko'rsatish maqsadida, soliq mexanizmidan keng foydalaniladi. Davlat iqtisodiyotdagi turg'unlik holatini bartaraf qilish uchun imtiyozli soliqlar yordamida kapital quyilmalarning rag'barlantiradi, hamda shu orqali iste'molchilik va investitsion tovarlarga yalpi talabni kengaytirish uchun ancha kulay sharoit yaratadi. Soliqlarni pasaytirish iqtisodiy yuksalish va davlat daromadlarining o'sishiga olib kelishini birinchi bo'lib amerikalik iqtisodshi A.Loffer asosladi. A.Lofferning mulorazalariga ko'ra, korporatsiyalar daromadiga soliqlar stavkasini haddan tashqari oshirish, ularning kapital qo'yilmalariga bo'lgan rag'batini susaytiradi, fan texnika taraqqiyotini to'xtatadi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi va bular oxiri oqibatda, davlat byudjeti tushumlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat byudjetining daromadlari va soliq stavka (norma)si o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikning grafikda tasvirlanishi "Loffer egri chizig'i" nomini oldi. (7-rasm).



7-chizma. Laffer egri chizig'i.

Grafik tik o'qida soliq stavkasi (R), yotiq o'qida - davlat byudjetiga tushumlar (V) aks etgan. Soliq stavkasining optimal miqdori (R1) davlat byudjetiga eng yuqori tushum (V1)ni



ta'minlaydi. Soliqlar yanada oshirilganda ishlashga va tadbirkorlikka qiziqish susayadi, 100 foizli soliq olishda davlat daromadi nolga teng bo'ladi, chunki rech kim tekinga ishlashni xorlamaydi. Boshqacha aytganda, uzoq muddatli istiqbolda haddan tashqari yuqori o'rnatilgan soliqlarni pasaytirish jamg'armalar, investitsiyalar, bandlilikning ortishi orqali soliq undiriladigan yalpi daromad hajmining o'sishini ta'minlaydi. Natijada soliq tushumlari summasi ko'payadi, davlat daromadlari hajmi o'sadi, taqchilik kamayadi va inflyatsiyaning susayishi ro'y beradi. Lekin o'z-o'zidan tushinarliki, Laffer samarasi faqat erkin bozor mexanizmi me'yorida amal qilgan holdagina namayon bo'ladi.

Laffer nazariyasining haqiqatga yaqinligi shundaki, soliq normasining oshishi yoki tushishi shubrasiz kapital qo'yilmalar o'sish sur'atiga to'siq bo'luvshi yoki aksincha rag'barlantiruvshi ta'sir ko'rsatadi. Ammo, umuman bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga soliq stavkasidan tashqari ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar ishida muxim o'rinni siklning xususiyatlari, u yoki bu korxonaga mahsulotiga talab va taklif nisbati, ular foydasining darajasi egallaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.
2. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
3. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
4. Katta giperinflyatsiya qanday qilib turg'unlikka olib kelishi mumkinligini tushuntiring.
5. Kredit qanday vazifalarni bajaradi?

### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Moliya siyosatining mazmuni.
2. Davlat daromadlarining asosiy manbalari.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va uning joylardagi organlari faoliyati.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.YAxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
10. www.stat.uz
11. www.uza.u
12. www.seep.uz

## 14-MAVZU. PUL VA PUL-KREDIT TIZIMI

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari, pulga bo'lgan talab va pul taklifi, inflyatsiya, uning mohiyati va turlari, kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari, bank tizimi, Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar

Pul muomalasi, pul tizimi, inflyatsiya, kredit, foiz normasi (stavkasi), banklar, bank operatsiyalari, bank foydasi (marja), bank foyda normasi.

### Asosiy savollar

1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari. Pulga bo'lgan talab va pul taklifi
2. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari
3. Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari
4. Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari

### 1. Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari.

#### Pulga bo'lgan talab va pul taklifi.

Pul muomalasi - bu tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to'lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning xarakatidir. Naqd pul muomalasiga bank biletleri va metall tangalar (pul belgilari) xizmat qiladi. Naqd pulsiz hisoblar cheklar, kredit kartochkalari, veksellar, akkreditivlar, to'lov talabnomalari kabilar yordamida amalga oshiriladi. Ularning hammasi pul agregati deb yuritiladi. Muomalada mavjud bo'lgan pul massasi ularni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

I. Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

II. Muomalani ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagilarga bog'liq.

III. Muayyan davrda, aytaylik bir yil davomida sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasiga. Tovarlarni qancha ko'p bo'lsa va narxi baland bo'lsa, ularni sotish va sotib olish uchun shuncha ko'p pul birligi talab qilinadi.

IV. Pul birligining aylanish tezligiga.

V. Pul bir xil bo'lmagan tezlik bilan aylanish qiladi. Bu ko'p omillarga, jumladan ular xizmat qilayotgan tovarlar turiga bog'liq.

VI. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori puldan to'lov vositasi vazifasidan foydalanishga ham bog'liq. Ko'pincha tovarlar qarzga sotiladi va ularning haqi kelishuvga muvofiq keyingi davrlarda to'lanadi. Demak, zarur pul miqdori shunga muvofiq miqdorda kamayadi. Ikkinchi tomondan, bu davrda ilgari kreditga sotilgan tovarlar haqini to'lash vaqti boshlanadi. Bu pulga ehtiyojni ko'paytiradi.

Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$P_m = \frac{T_{\sigma} - X_{\kappa} + X_T}{A_T}; \text{буында,}$$

$P_m$  - muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul birligi miqdori;

$T_b$  - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar narxi summasi;

$X_k$  - haqi sotish davridan boshqa vaqtda to'lanadigan tovarlar narxi summasi;

$X_t$  - haqini to'lash muddati kelgan tovarlar narxi summasi;

$A_t$  - pulning aylanish tezligi.

Muomalada bo'lgan pul birligi miqdorining tovarlar narxi summasidan oshib ketishi va buning natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiyani bildiradi.

Milliy iqtisodiyotda davlatning, tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassalarning majburiyatlari pul sifatida foydalanadi.

Pul operatsiyalarining asosiy ko'pchilik qismi naqd pulsiz, cheklar va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli muomalada

bo'lgan pul miqdorini hisoblash uchun  $M_1 \dots M_n$  pul agregatlari yoki tarkibiy qismi tushunchasidan foydalaniladi.

Bizning respublikamizda umumiy pul miqdori quyidagi (tarkib)lar asosida hisoblanadi:

$M_0$  –naqd pullar;

$M_1$  q  $M_0$  q tegishli hisob varaqalaridagi pul qoldiqlari, mahalliy byudjetlar mablag'lari, byudjet, jamoat va boshqa tashkilot mablag'lari;

$M_2$  q  $M_1$  q xalq (jamg'arma) banklaridagi muddatda omonatlar.

$M_3$  q  $M_2$  q shiqarilayotgan sertifikatlar q aniq maqsadli zayom obligatsiyalari q davlat zayom obligatsiyalari q xazina majburiyatlari.

Barcha pul agregatlari yig'indisi yalpi pul massasi yoki yalpi pul taklifini tashkil qiladi.

Pulning tarkibiy qismlarida naqd pullar – metall va qog'oz pullardan iborat bo'ladi. Naqd pullar bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy pul massasining 5-7 foizni, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mustaqil hamdo'stlik davlatlarida 30–35% ni tashkil qiladi.

Pulga talab – bu bitimlar uchun (Pt) va aktivlar tomonidan pulga talab (Pa) ni o'z ichiga oladi. Aholi o'zlarining hisoblariga navbatdagi pul oqimi kelib tushguncha, kundalik ehtiyojlari uchun qo'llarida yetarli pulga ega bo'lishi zarur. Korxonalariga ish xaqi to'lash, material, yoqilg'i sotib olish va shu kabilar uchun pul kerak bo'ladi. Shu barcha maqsadlar uchun zarur bo'lgan pul bitim uchun pulga talab deyiladi. Bitim uchun zarur bo'lgan pul miqdori nominal yalpi milliy mahsulot (YAMM) hajmi bilan aniqlanadi, ya'ni u nominal YAMM ga mutanosib ravishda o'zgaradi. Aholi va korxonalariga ikki holda bitim uchun ko'proq pul talab qilinadi: narxlar o'sganda va ishlab chiqarish hajmi ko'payganda.

Kishilar o'zlarining moliyaviy aktivlarini har xil shakllarda, masalan, korporatsiya aksiyalari, xususiy yoki davlat obligatsiyalari shaklida ushlab turish mumkin. Demak, aktivlar tomonidan pulga talab ham mavjud bo'ladi. Aktivlar tomonidan pulga talab foiz stavkasiga teskari mutanosiblikda o'zgaradi. Foiz stavkasi past bo'lsa, kishilar ko'proq miqdoridagi naqd pulga egalik qilishni afzal ko'radi. Aksincha, foiz yuqori bo'lganda pulni ushlab turish foydasiz va aktivlar shaklidagi pul miqdori ko'payadi. Shunday qilib, pulga bo'lgan umumiy talab, aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab va bitim uchun pulga bo'lgan talabning miqdori bilan aniqlanadi.

## **2. Inflyatsiya, uning mohiyati va turlari**

Inflyatsiya makroiqtisodiy beqarorlikning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Inflyatsiya tushunchasi birinchi marta g'arbiy Amerikada, (1861-1865 yillardagi fuqarolar urushi davrida) ishlatila boshlagan va qog'oz pul muomalasining ko'payib ketishi jarayonini bildirgan. Iqtisodiy adabiyotlarda inflyatsiya tushunchasi XX asrda, birinchi jahon urushidan keyin keng tarqaldi. Inflyatsiya – bu qog'oz pul birligining qadsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o'sishidir.

Inflyatsiya bozor xo'jaligining har xil sohalarida takror ishlab chiqarish nomutanosibliklari tug'diradigan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.

Qog'oz pul tovarlarga, oltinga va o'z qadrini, barqarorligini saqlab qolgan chet el valyutalariga nisbatan qadsizlanadi.

Inflyatsiya narx indeksi yordamida bazis davrga nisbatan aniqlanadi. Masalan, iste'molchilik tovarlariga narx indeksi 1998 yil 113, 6; 1999 yil - 118,3 ga teng bulsa, inflyatsiya sur'ati quyidagicha bo'ladi.

$$\text{Inflyatsiya sur'ati} = \frac{118,3 - 113,6}{113,6} * 100 = 4,1\%$$

Kelib chiqish sabablari va o'sish sur'atlariga qarab, inflyatsiyaning bir qancha turlarini mavjud.

I. Talab inflyatsiyasi. Narx darajasining an'anaviy o'zgarishi jami talab ortiqchaligi bilan tushuntiriladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi mahsulotning real

hajmini ko'paytirib ortiqcha talabni qondira olmaydi. Chunki barcha mavjud resurslar to'liq foydalanilgan bo'ladi. Shu sababli bu ortiqcha talab narxning oshishiga olib keladi va talab inflyatsiyasini keltirib chiqaradi.

II. Taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya ishlab chiqarish xarajatlari va bozordagi taklifning o'zgarishi natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi keltirib chiqadigan inflyatsiya, mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarning ko'payishi hisobiga narxlarning oshishini bildiradi.

Mahsulot birligiga ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi iqtisodiyotda foydani va mahsulot hajmini qisqartiradi. Natijada tovarlar taklifi ham qisqaradi. Bu o'z navbatida narx darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari nominal ish haqi, xom ashyo va energiya narxlarining o'sishi hisobiga ortib boradi. Inflyatsiyaning a) me'yoridagi; b) o'rmalab boruvchi v) giper inflyatsiya kabi turlari ham mavjud. Inflyatsiyaning birinchi turida baholar yiliga 10 foizgacha, ikkinchisida 20 dan 200 foizgacha, uchinchisida, astronomik miqdorda o'sishi kuzatiladi. Bashorat qilish mumkinligiga qarab kutilayotgan va kutilmagan inflyatsiya farqlanadi. Kutilayotgan inflyatsiya va uning oqibatlarini oldindan bashorat qilish mumkin, kutilmagan inflyatsiyani oldindan aytib bo'lmaydi. Birinchi xolda inflyatsiyaning kutilayotgan salbiy oqibatlariga tayryolanib uni sezilarli darajada yumshatish mumkin. Ikkinchi holda narxlarning kutilmagan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy arvolining sezilarli yomonlashuvi ro'y berishi mumkin.

### **3.Kreditning mohiyati, manbalari va vazifalari.**

Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni takror ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, haq to'lash va qaytarib berish sharti bilan qarzga berish jarayonini ifodalaydi.

Pul shaklidagi kapital ssuda kapitali deyilsa, uning xarakati kreditning mazmunini tashkil qiladi. Kredit munosabatlari ikki sub'ekt o'rtasida, pul egasi, ya'ni qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida yuzaga keladi. Turli xil korxonalar (firma)lar, tashkilotlar, davlat va uning muassasalari hamda aholining keng qatlami kredit munosabatlarining sub'ektlari hisoblanadi. Sanab o'tilgan sub'ektlarning aynan har biri bir vaqtning o'zida ham qarz oluvchi va ham qarz beruvchi o'rnida chiqishi mumkin. Kredit munosabatlarining ob'ekti jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir. Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag'larining doiraviy aylanishi kredit munosabatlarining mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Shu bilan birga doiraviy aylanish jarayonida muqarhar suratda vaqtincha bo'sh turadigan pul mablag'lari va boshqa pul resurslari kredit mablag'larining manbaini tashkil qiladi.

Kredit resurslarining asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- I. Korxonalarining bankdagi hisoblaridagi amortizatsiya ajratmalari.
- II. Mahsulot sotishdan olingan pul tushumlari.
- III. Korxonalarining ishlab chiqarish, fan va texnikani rivojlantirish fondlari, moddiy rag'batlantirish fondlari.
- IV. Korxonalar foydasi. Ular davlat byudjeti va kredit tizimi bilan hisob-kitob qilingunsha, shuningdek uning tegishli qismi korxonalar ehtiyojlari uchun foydalanganunsha bankdagi hisoblarida saqlanadi.
- V. Bankdagi byudjet muassasalari, kasaba uyushmalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning joriy pul resurslari.
- VI. Aholining bo'sh pul mablag'lari.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimsha pul mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Avvalo kredit qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Uning yordamida korxonalar, davlat va aholining bo'sh pul mablag'lari ssuda fondi shaklida to'planib, keyin bu mablag'lar kredit mexanizmi orqali xalq xo'jalik tarmoqlari ehtiyojlarini hisobga olib qayta taqsimlanadi. Shu orqali kredit ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, kredit pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini (veksel, chek, sertifikat va h.k.) yuzaga chiqarib, ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, kredit naqd pullar o'rniga kredit pullar (bankrot va hisob to'lovlari)ni rivojlantirish va pul muomalasini jadallashtirish bilan muomala xarajatlarini tejash vazifasini bajaradi.

To'rtinchidan, kreditning muhim vazifasi kapital to'planishi va markazlashishini jadallashtirish hisoblanadi.

Kredit alohida korxonalarining hissadorlik jamiyatiga aylanishi, yangi firmalarning vujudga kelishi va transmilliy korporatsiyalar (TMK) tashkil topishning muhim omillaridan biri sifatida chiqadi.

Beshinchidan, kredit ssuda fondining xarakati (qarz berish va qarzni undirish) orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasini bajaradi.

Oltinchidan, kredit o'z muassasalari orqali iqtisodiy sub'ektlar faoliyati ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Nihoyat, kreditning o'ziga xos vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish hisoblanadi. Bunda kredit uchun foiz stavkalarini tabaqalashtirish, davlat tomonidan kafolatlar va imtiyozlar berish kabi usullardan foydalaniladi. Kredit birqancha turlarda amalga oshiriladi.

Tarixiy taraqqiyot davomida kreditning ikki shakli pul va tovar shaklidan foydalanib kelgan. Hozirgi vaqtda mamlakat ichki oborotida pul kreditidan kengroq foydalanib, u bank, tijorat, davlat, iste'molchilik va xo'jaliklararo va xalqaro kredit shakllarini oladi.

Bank krediti – kreditning asosiy va yetakchi shakli sifatida chiqadi. U pul egalari – banklar va maxsus kredit muassasalari tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo'jaligi sektori) pul ssudalari shaklida beriladi.

Bank krediti yo'nalishi, muddati va kredit bitimlari summasi bo'yicha cheklanmaydi. Uning foydalanish sohasi ham juda keng, tovar muomalasidan tortib kapital jamg'arilishigacha xizmat qiladi.

Xo'jaliklararo kredit bir korxonalar (muassasa) tomonidan ikkinchisiga beriladi va ularning kapital qurilish, qishloq xo'jalik sohasidagi munosabatlariga, shuningdek, ichki xo'jalik hisobi bo'g'inlari bilan munosabatlariga xizmat qiladi.

Tijorat krediti – bu korxonalar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bir-biriga beradigan kreditlaridir. Tijorat krediti, avvalo, to'lovni kechiktirish yo'li bilan tovar shaklida beriladi. Iste'molchilik krediti – xususiy shaxslarga, hammadan avvalo, uzoq muddat foydalanadigan iste'molchilik tovarlari (mebel, avtomobil, televizor va boshqalar) sotib olish uchun ma'lum muddatga beriladi. U chakana savdo magazinlari orqali tovarlarni haqini kechiktirib to'lash bilan sotish shaklida yoki iste'molchilik maqsadlarida bank ssudalari berish shaklida amalga oshiriladi. Iste'molchilik kreditidan foydalanilganlik uchun ancha yuqori foiz undiriladi. Ipoteka krediti – ko'chmas mulklar (yer, bino) hisobiga uzoq muddatli ssudalar shaklida beriladi. Bunday ssudalar berish vositasi, banklar va korxonalar tomonidan chiqariladigan ipoteka obligatsiyalari hisoblanadi.

Davlat krediti – kredit munosabatlarining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda davlat pul mablag'lari qarz dori, aholi va xususiy biznes esa kreditorlari bo'lib chiqadi. Davlat krediti mablag'lari manbai bo'lib, davlat qarz obligatsiyalari xizmat qiladi. Davlat kreditning bunday shaklida, avvalo, davlat byudjeti kamomadini qoplash uchun foydalanadi.

Xalqaro kredit – ssuda kapitalining xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi xarakatini namoyish qiladi. Xalqaro kredit tovar yoki pul (valyuta) shaklida beriladi. Kreditor va qarz oluvchilar banklar, xususiy firmalar, davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi. Kredit berish bir qator prinsiplarga asoslanadi.

Bular quyidagilar: ssuda berishning maqsadli xarakteri, kreditning rasmiylashtirilgan muddatda qaytarishligi, ssudaning moddiy ta'minlanganligi va to'lovliligi. qarzga berilgan ssudaning albatta qaytarilib berilishi, undan foydalanilganlik uchun olingan foydadan ssuda foizini to'lash zarurati korxonalarini xo'jalik yuritishning eng samarali usullarini izlab topishga undaydi.

Qarzga (ssudaga) berilgan pul hisobiga olinadigan daromad foiz yoki foizli daromad deyiladi. Shu daromad (foiz)ning qarzga berilgan pul summasiga nisbatining foizda ifodalanish foiz stavkasi yoki foiz normasini tashkil qiladi:

Ssuda– qarzga berilgan pul (kapital) summasi. Agar 100 ming so‘m yiliga 20 ming ssuda foizi to‘lash sharti bilan qarzga berilgan bo‘lsa, ssuda foizi normasi 20% ni tashkil qiladi.

#### **4.Bank tizimi. Markaziy va tijorat banklar hamda ularning vazifalari**

Banklar kredit munosabatlariga xizmat qilib, kreditning har xil shakllarini o‘z ichiga olib, kredit muassasalarining asosini tashkil qiladi.

Banklar tizimi odatda ikki bosqishli bo‘lib, o‘z ishiga markaziy (emission) bank va tijorat (depozitli) banklarning tarmoq otgan shaxobshalarni oladi. «Markaziy bank boshchiligida hamda keng tarmoqli mustaqil tijorat va xususiy banklar ikki bosqishli bank tizimini vujudga keltirish...» ustivor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Davlat banki mamlakat pul-kredit tizimini markazlashgan tartibda boshqaradi va davlatning yagona kredit siyosatini amalga oshiradi.

Davlat banki (1), Markaziy bank (2), bankirlar banki va (3) ijtimoiy bank hisoblanadi. Buning mazmuni shundan iboratki, birinchidan, ko‘pchilik mamlakatlarda davlat banki yagona markaziy bankdan iborat bo‘lib, u o‘tkazadigan siyosat tartiblari yuqori davlat organlari tomonidan o‘rnatiladi.

Ikkinchidan, markaziy bank banklar va jamg‘arma muassasalaridan quyilmalarni qabul qilib, ularga kredit beradi. Xususan, shu sababga ko‘ra markaziy bank “bankirlar banki” deyiladi.

Uchinchidan, Markaziy bank faqat foyda olishga intilib faoliyat qilmaydi, davlatning butun iqtisodiyot holatini yaxshilash siyosatini amalga oshiradi va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Markaziy bank ko‘plab xilma-xil vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, boshqa bank muassasalarining majburiy ehtiyotlarini saqlaydi. Bu ehtiyojlar pul taklifini boshqarish uchun ral qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Markaziy bank mamlakatning rasmiy oltin-valyuta ehtiyojlarini saqlash vazifasini ham bajaradi.

Ikkinchidan, sheklarni qayd (inkasatsiya) qilish mexanizmini ta‘minlaydi va banklaharo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, ularga kreditlar beradi.

Uchinchidan, davlatning monetar siyosatini amalga oshiradi.

To‘rtinchidan, barcha banklar faoliyatini uyg‘unlashtiradi va ular ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Beshinchidan, xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyutalarni ayirboshlaydi.

Oltinchidan, pul taklifi ustidan nazorat qilish ma‘suliyatini oladi, muomalaga milliy valyutani chiqaradi.

Iqtisodiyotning ehtiyojlariga mos ravishda pul muomalasini tartibga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida banklar va korxonalar teng huquqli sheriklar sifatida chiqadi. Kredit berishda fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, ishlab chiqarishni rivojlantirishning yangi sifat darajasiga erishishni ta‘minlaydigan tadbirlarga ustunlik beriladi.

Banklar o‘z tasarrufidagi resurslardan foydalanish samaradorligi uchun moddiy jihatdan mas‘ul hisoblanadi va shu sababli kredit-pul operatsiyalari ko‘proq ularning iqtisodiy foydaliligiga va samaradorligiga qarab beriladi.

Tijorat banklari o‘zlarining xo‘jalik mavqeiga ko‘ra aksionerlik tipidagi muassasalar hisoblanadi. Huquqiy mavqeiga ko‘ra, faoliyatning biron bir turiga xizmat ko‘rsatuvchi, ixtisoslashgan yoki milliy bank bo‘lishi mumkin. Tijorat banklar sanoat, savdo va boshqa xil korxonalarni omonat tarzida jalb etilgan pul mablag‘lari hisobidan kreditlaydi, korxonalar o‘rtasida hisob-kitobni amalga oshiradi, shuningdek vositachilik va valyuta operatsiyalari bilan shug‘ullanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati” to‘g‘risidagi qonunida aytilishicha, tijorat banklari va aksiyali pay asosida tashkil topgan xususiy banklar bo‘ladiki, ular “kredit hisob-kitob va o‘zga xil bank xizmatini ko‘rsatadilar”. Tijorat banklar faoliyatining asosiy maqsadi foyda chiqarib olishni ko‘zda tutadi. Tijorat banklari

daromadining manbai mijozlarining bank xizmati uchun to'lovi va aktivlardan-zayom, kredit, qimmatli qog'ozlardan olinadigan foiz hisoblanadi.

Ixtisoslashgan tijorat banklar – iqtisodiyotning turli sohalarida tijorat tamoyillarida kredit-pul operatsiyalarining muayyan turlarini amalga oshiradi. Jumladan bizning respublikada sanoat qurilish banki-sanoat, transport, aloqa va moddiy texnika ta'minoti sohalarida; Zamin, g'alla, paxta banklar – agrosanoat kompleksi tarmoqlari va sohalarida; Tadbirkor banki mayda va o'rta biznes, kooperativ va yakka tartibdagi Mehnat faoliyati sohasida kredit-pul operatsiyalarini amalga oshiradi.

Xalq banki-mamlakatda omonat ishlarini tashkil etishni, naqd pulsiz hisob-kitob qilishni va aholi uchun kassa vazifasini amalga oshirishni, aholiga shaxsiy ehtiyojlarga kredit berishni va shu kabi operatsiyalarni ta'minlaydi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki eksport-import operatsiyalarini bevosita amalga oshiruvchi korxonalar va muassasalarga kredit beradi, qo'shma korxonalarga kredit berishda qatnashadi, yig'ma valyuta rejasining ijrosini, valyuta resurslaridan tejab foydalanishini nazorat qiladi, shuningdek tashqi iqtisodiy operatsiyalarga oid hisob-kitoblarni tashkil qiladi va amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tijorat banklari tizimida tor ixtisoslashishi bo'yicha investitsion va ipoteka banklarni ajratib ko'rsatish lozim. Investitsion banklar-maxsus kredit muassasalari bo'lib, obligatsiya hamda qarz majburiyatlari boshqa turlarini chiqarish yo'li bilan uzoq muddatli ssuda kapitalini jalb qiladi va ularni mijozlar (asosan davlat va tadbirkorlar) ga taqdim qiladi.

Investitsion korporatsiyalar, o'zlarining qimmatli qog'ozlarini chiqarish yo'li bilan huquqiy investorlar pul resurslarini to'playdi va ularni korxonalar (milliy va chet el)lar aksiya va obligatsiyalariga joylashtiradi. Bunday korporatsiyalar to'liq investrlar manfaatini ifodalaydi va ularning asosiy maqsadi qo'yilgan kapital hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Ipoteka banklar – bu ko'chmas mulk (yer va inshoot) hisobiga uzoq muddatli ssuda berishga ixtisoslashgan kredit muassasalar. Ipoteka bankning resurslari o'zlarining ipoteka obligatsiyalari hisobiga shakllanadi. Olingan ssudadan uy-joy va boshqa inshootlar qurish, korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun foydalaniladi. Barcha tijorat banklari ertiyot (rezerv)larining hajmi va tarkibi bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan ma'lum talablarga javob berishi zarur. Bugungi kunda respublika hududida mulkchilikning turli shaklidagi 30 dan ziyod tijorat ixtisoslashgan banklar va ularning 3,7 mingdan ko'proq filiallari faoliyat qilib turibdi. Shulardan uch tasi (tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, xalq banki va "ASAKA" bank) davlat tasarrufidagi bank hisoblanadi. Ulardan 22 bank (73%) aksionerlik jamiyati, 8 tasi (27%) mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidir. Shundan ikkitasi qo'shma bank ("O't-bank" va "Xususiyashtirishbank") mavqeiga ega.

O'zbekistonda tijorat banklarning rivojlanishi dastlab iqtisodiyotning alohida sohalariga xizmat qiladigan ixtisoslashgan banklar tashkil etilishida boshlangan bo'lsa, keyinchalik (1995 yildan) ixtisoslashgan kredit-moliya muassasalarini tashkil etishga kirishildi. Shu asosda "Biznes fond", "Madad" sug'urta va investitsiya korporatsiyalari kabi ixtisoslashgan moliya-kredit muassasalari tashkil etildi.

#### **Nazorat savollari**

1. Pul muomalasining mazmunini tushuntiring.
2. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday omillarga bog'liq?
3. Inflyatsiyaning mazmunini va turlarini tushuntiring.
4. Katta giperinflyatsiya qanday qilib turg'unlikka olib kelishi mumkinligini tushuntiring.
5. Kreditni nima zarur qilib qo'yadi? Kredit tushunchasining mazmunini bayon qiling.

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Kreditning asosiy turlarini sanab ko'rsating va ularning tavsifini bering.
2. Markaziy va tijorat banklarining vazifalarini ko'rsating.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-

- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
  3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
  4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. //‘ Xalq so‘zi, 2009 yil 14 fevral.
  5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
  6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
  7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
  8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
  9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.Yaxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
  10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
  11. [www.uza.u](http://www.uza.u)
  12. [www.seep.uz](http://www.seep.uz)



## **15-MAVZU. BOZOR MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH, DAVLATNING IQTISODIYOTDAGI ROLI**

**Darsning o'quv maqsadi:** talabalarda davlatning milliy iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari, davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari to'g'risida tushuncha hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o'rganish bilan bog'liq tayanch iboralar**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish(IDTS), IDTS maqsadi, davlatning iqtisodiy vazifalari, IDTS usullari, bevosita usullar, bilvosita usullar, aholi daromadlari, ijtimoiy to'lovlar, ijtimoiy siyosat.

### **Asosiy savollar**

1. Davlatning milliy iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli
2. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari
3. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari

### **1.Davlatning milliy iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli**

Milliy iqtisodiyotning samaradorligi ko'p omilli ko'rsatkich bo'lib, bunda samaradorlikning erishilgan darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki ancha yuqori samaradorlikka, birinchidan, bozorning tartibga solish usullari orqali; ikkinchidan, iqtisodiyotni faqatgina yagona markazdan ongli ravishda markazlashgan boshqarish yo'li bilan; uchinchidan, takror ishlab chiqarish jarayonida davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish orqali erilishiladi. Hozirgi davrda Respublikamizning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xarakterli xisoblanadi.

Iqtisodiy tafakkur tarixidan birinchi marta davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi A.Smit tomonidan ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Uning "Xalqlar boyligining tabiati va sababalarini tadqiq qilish haqida" (1776 yil) degan kitobida bozor usullari orqali iqtisodiyotning o'z-o'zini tartibga solishning zarurligi ta'kidlab o'tilgan. A.Smitning fikrishga xususiy tovar ishlab chiqaruvchilar bozori davlat nazoaratidan to'liq ozod bo'lishi zarur. Ana shundagina ishlab chiqaruvchilar iste'molchilar talabiga mos ravishda ishlab shikarishni tashkil qilish imkoniga ega bo'ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashishsiz ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun xarakat kilishga majbur kiladi.

A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlariga har qanday aralashuvi oxir oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb xisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib -qoidalari milliy iste'molchilarga faqat zahar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham importga boj to'lovi (poshlinasi) milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet el sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatini saqlab qolishiga olib keladi. Bunda past sifatli va narxi qYAIMat tovarlarni sotib olishga majbur bo'lgan milliy iste'molchilar yutqazadi.

A.Smitning "Tinch qo'yish" nazariyasi, 1923 - 1933 yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga ushradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kushaytirishni taqazo qildi.

Davlatni iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi Djon M.Keynsning "Ish bilan bandlilik, protsent va pulning umumiy nazariyalari" nomli kitobida o'z aksini topdi (1936). Bu kitobda muallif davlat fiskal va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag'batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta'minlashi zarurligini isbotlaydi. Amalda gap davlatning uzluksiz ravishda krizisga qarshi siyosat o'tkazishi, iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini tugatish va sanoat siklining o'zgarishini yo'qotish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQShda amalga oshirildi.

Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko'rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodi amalda ustun bo'lgan barcha mamlakatlarda foydalaniladi. Shu bilan birga davlatning

iqtisodiyotdagi rolining yanada ko'proq oshib borishi ro'y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishni muhim maqsadi sifatida nafaqat sikliga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlilikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni rag'batlantirish tan olinadi.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvini nima belgilab beradi?- degan savol tug'ilish tabiiy.

Birinchi, davlat o'ziga milliy iqtisodiyotda bozor vositasida o'z - o'zini tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali bajarish mumkin bo'lmagan vazifalarni oladi. Bunga mudofaani ta'minlash, mamlakatda ishki tartibni saqlash va aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy rimoyalash kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchi, bozor iqtisodi sharoitida rususiy ishlab chiqarish va iste'mol bir qator ijobiy va salbiy oqibatlarini tug'diradi.

Bu oqibatlar bevosita uchinchi shaxs manfaatida aks etadi va demak kishilarning alohida guruhi va umuman jamiyat manfaatiga ta'sir qiladi. Masalan, shiqitli texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarda tozalash qurilmalariga xarajatlarni tejash, xususiy ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazaridan (u yoki bu korporatsiya yoki individual ishlab chiqarishga) foydali, atrof muritni ifloslanishiga olib kelishi esa boshqa kishilar uchun qo'shimsha salbiy oqibatga ega.

Davlat yakka tadbirkor yoki istemolshidan farqli, jamiyat manfaatini ifodalab, qo'shimsha ijobiy samarani rag'batlantirishga va aksincha salbiy samara bilan bog'liq faoliyatni tartibga solishi va sheklashga xarakteristik qilishi zarur.

Uchinchi, davlatning iqtisodiy jarayonlariga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual istemolshilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini ob'ektiv baholay olmaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha sog'lik uchun zahar tovarlar iste'molini sheklash vazifasini o'z zYAIMasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari yuqori aksiz (egri) solig'ini o'rnatilib, bir tomondan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomondan shu mahsulotni sotib olish talabini sheklaydi.

To'rtinchi, davlat o'z zYAIMasiga bozorning tabiatidan kelib chiqadigan ayrim rolatlarni qisman yengillashtirish vazifasini oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil talabini qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozorning milliy boylikni ijtimoiy - adolatli taqsimlashni ta'minlashini bildirmaydi. Bunday sharoitda davlat aholining kam ta'minlangan qatlamini turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilishi, pulsiz (yoki imtiyozli ) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zYAIMasiga oladi.

Beshinchi, hozirgi sharoitda iqtisodiy o'sishning barqaror izshilligini rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zYAIMasiga tushadi.

## **2.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, uning maqsadi va vazifalari.**

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunshilik, ijro etish va nazorat qilish xarakteridagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (IDTS) ning ob'ektiv imkoniyati iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish va kapital to'planishi ma'lum darajaga erishganda vujudga keladi. Iqtisodiy rivojlanishda qiyinshiliklar o'sib va ziddiyatlar to'planib borishi bu imkoniyatlarni haqiqatga aylantirishni zarur qilib qo'yadi. Hozirgi sharoitda IDTS takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlilikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy siljishlarni qo'llab -quvvatlash, eksportni rimoya qilish kabilarni kiritish mumkin. IDTS mexanizmi to'g'risidagi to'laroq tasavvurga ega bo'lishi uchun uning maqsadi, vazifalari va tartibga solish usullari hamda vosita yoki dastaklarini to'laroq tavsiflash lozim. IDTSning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mustarkamlash (mamlakat ishida va xalqaro maydonda) va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi. Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy siklni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq

va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof- murit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. IDTS maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va rimoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

Bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

Raqobatni rimoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda davlatning ushta vazifasi alohida ahamiyatga ega:

- Daromad va boylikni qayta taqsimlash;
- Resurslarni qayta taqsimlash;

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali amal qilishining shart - sharoiti hisoblangan huquqiy asosni ta'minlash vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni quyidagi tadbirlar taqozo qiladi: xususiy korxonalar qonuniy mavqei berish; xususiy mulkchilik huquqini aniqlash va shartnomalarga amal qilishini kafolatlash; korxonalar, resurslarni yetkazib beruvshilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonuniy bitimlarni ishlab chiqarish va shu kabilar. O'zbekiston Respublikasining korxonalar, tadbirkorlik va aksionerlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunlari hamda ularga kiritilgan qo'shimsha va tuzatishlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish buyisha tadbirlari bozor iqtisodiyoti uchun zaruriy, huquqiy asosni ta'minlashga qaratilgan. Davlat tomonidan ijtimoiy muritni ta'minlash o'z ishiga ishki tartibni saqlash mahsulot sifati va og'riligini o'lishga standartlar belgilash tovarlar va xizmatlar ayirboshlashini yengillashtirish uchun milliy pul tizimini muammoga kiritish kabilarni oladi. Raqobat bozor iqtisodiyotida asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Bu shunday kushki, u xaridorlar amriga yoki iste'molchilar erkinligiga ishlab chiqaruvchi va resurslarni yetkazib beruvshilarni bo'ysundiradi. Raqobat sharoitida ko'plab xaridorlar tomonidan bildirilgan talab va sotuvshilarning taklifi bozor narxlarini belgilaydi. Bu shuni bildiradiki, ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvshilar faqat bozor orqali hisobga oladigan iste'molchilar xorishiga moslashishi mumkin. Bozor tizimining irodasiga bo'ysunuvshi, raqobatlashuvshi ishlab chiqaruvchilar foyda olishni va o'z mavqeilarining mustarkamlashini kutadi, kim bozor qonunlarini buzsa, zahar ko'radi va oxir oqibatda sinadi. Raqobat sharoitida xaridor - bu xo'jayin, bozor ularning gumashtasi, korxonaga esa ularning xizmatkori hisoblanadi.

Monopoliya raqobatning o'rnini almashtirganda, sotuvshilar bozorga ta'sir ko'rsatishi yoki undagi narxlarni o'z manfaatlarini ko'zlab o'zgartirish mumkin. Monopoliyalar o'zlarining takliflari umumiy hajmini tartibga solish layoqatidan foydalanib, mahsulot hajmini sun'iy sheklash orqali ularga ancha yuqori narx belgilash va shu orqali ancha barqaror foyda olishi mumkin. Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda monopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat o'rnatiladi. Birinchi usulda, texnologiya va iqtisodiy sharoitlar «raqobatli bozor mavjud bo'lish imkoniyatini yo'qqa chiqaradigan tabiiy monopoliyalari deb nomladigan tarmoqlarda davlat narxlarini tartibga soladi va ko'rsatiladigan xizmatlarga standartlarni o'rnatadi. Transport, aloqa, elektr-energiya ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy foydalanishdagi korxonalar ma'lum darajada shunday tartibga solinadi. Ikkinchi usulda, samarali ishlab chiqarish juda ko'pchilik bozorlarda raqobat rivojining juda yuqori darajasida ta'minlanishi sababli davlat raqobatini kushaytirish va rimoya qilish maqsadida monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qiladi.

Bizning Respublikada ham monopol faoliyatni sheklash, tovarlar bozorida raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar va tadbirkorlar manfaatini rimoya qilishga qaratilgan qator

qonunlar qabul qilingan. Bozor tizimi kishilarning tabiiy qobiliyati, orttirgan bilimi va malakasi hamda mulkka egaligini hisobga olib, ularning yuqori daromad olishini ta'minlaydi. Shu bilan birga jamiyatning moddiy-vositalarga ega bo'lmagan, bilim va malaka darajasi past, layoqati ham yuqori bo'lmagan a'zolari, qariyalari, nogironlar, ishsizlar yolg'iz va qahmog'ida bolalari bo'lgan ayollar juda kam daromad oladi yoki bozor tizimi doirasida ishsizlar kabi umuman daromadga ega bo'lmaydi. qisqasi, bozor tizimi pul daromadlarini va milliy mahsulotni jamiyat a'zolari o'rtasida taqsimlashda birmunsha tengsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli davlat o'z zYAIMasiga daromadlar tengsizligini kamaytirish vazifasini oladi. Bu vazifa bir qator tadbir va dasturlarda o'z ifodasini topadi.

Birinchiidan, transfert to'lovlari orqasi murtojlarni, nogironlarni va birovning qahmog'ida bo'lganlarni nafaqalar bilan ishsizlarni ishsizlik nafaqalari bilan ta'minlaydi. Ijtimoiy ta'minot dasturlari orqali pensionerlar va qariyalarga moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

Bu barcha dasturlar davlat byudjeti mablag'larini, jamiyatning kam daromad olgan yoki umuman daromadga ega bo'lmagan a'zolari hisobiga qayta taqsimlaydi.

Ikkinchiidan, davlat bozorni tartibga solish yo'li bilan ya'ni, talab va taklif ta'sirida o'rnatiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan ham daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Me'yordagi oziq-ovqat tovarlariga o'rnatiladigan imtiyozli narxlar va ish haqining eng kam (minimal) darajasi haqidagi qonunshilik davlatning, aholining ma'lum qatlami daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarining yana bir misolidir.

Davlat jamiyat a'zolari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda soliq tizimidan ham keng foydalanadi (soliq imtiyozlari orqali).

5. Bozor mexanizmining resurslarni qayta taqsimlashdagi layoqatsizligi ikki rolatda ko'rinadi, ya'ni raqobatli bozor tizimi, 1) ma'lum tovarlar va xizmatlarning kam miqdorini ishlab chiqaradi; 2) ishlab chiqarishi o'zini oqlagan ayrim tovarlar va xizmatlarga resurslarning har qanday turini ajratish holatida bo'lmaydi.

Resurslarni qayta taqsimlanishi tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish bilan bog'liq foyda yoki zahar, uchinchi tomonga, ya'ni bevosita xaridor yoki sotuvshi hisoblanmaganlar tomonga "joyini o'zgartirsa" vujudga keladi. Bu qo'shimsha samara deb ataladi, chunki u bozor qatnashshisi hisoblanmaganlar xissasiga to'g'ri keluvshi foyda yoki zaharni ifodalaydi. Bunga atrof muritning ifloslanishini misol qilib keltirish mumkin. Kimyo korxonasi o'zlarining sanoat shiqitlarini ko'l yoki daryoga oqizsa bu sho'miluvshilar, baliqshilar va atrofda aholiga - zahar keltiradi.

Ishlab chiqaruvchi esa murofaza inshoot va uskunalari o'rnatmaganligi hisobiga ishlab shikarish xarajatlarining ancha past darajasini ta'minlaydi. Davlat resurslarining nomutanosib taqsimlanish vujudga keltiradigan bu holatlarni tartibga solish uchun qonunchilik tadbirlarini qo'llaydi, yoki maxsus soliq va jarimalardan foydalanadi.

Masalan, atrof - murit va suv ravzalarining ifloslanishini taqiqlovshi yoki cheklovchi qonunlar, ishlab chiqaruvchilarni o'zlarining sanoat chiqitlarini ishlab chiqarish jarayonida ifloslangan suvni tozalovchi qurilmalar sotib olish va o'rnatish bilan yo'qotishga majbur qiladi. Boshqa holda davlat maxsus soliqlarni kiritish yordamida, atrof- muhitni ifloslantiruvni korxonalariga boshqalarga keltirishi mumkin bo'lgan zararni yuklashga xarakat qiladi. Davlat bir qator yo'llar bilan resurslarning nomutanosib taqsimlanishi keltirib chiqaradigan oqibatlarini yumshatishga ham xarakat qiladi.

Birinchiidan, iste'molchilarning aniq tovar va xizmatlarni xarid qilish qobiliyatini oshirish yo'li bilan ularning talabi kengaytirildi. Malasan, bizning Respublikamizda isloratlarning dastlabki davrida oziq-ovqat mahsulotlariga talon tizimi joriy etilishi past daromadli oilalarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini oshiradi va shu orqali resurslarning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf qiladi.

Ikkinchiidan, davlat taklifni oshirish maqsadida ishlab chiqarishni subsidiyalashi mumkin. Subsidiyalar ishlab chiqaruvchilarning zaharlarini qisqartiradi va mahsulotlarni ishlab chiqarishda resurslarning yetishmasligi bartaraf qiladi.

Uchinchidan, davlat ayrim tovarlar va ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchisi sifatida chiqadi. Bunday tarmoqlar davlat mulkchiligiga asoslanadi va davlat tomonidan bevosita boshqariladi yoki ularni moliyalashtirishni davlat o'z zimmasiga oladi.

Bular fan, ta'lim, soliqni saqlash, milliy mudofaa, favqulodda ro'y beradigan tabiiy rodialarga qarshi kurash ishki tartibni saqlash shular jumlasidandir.

Davlat, byudjet mablag'lari hisobiga resurslarni xususiy sohada qo'llanilishdan bo'shatadi, hamda ularni ijtimoiy ne'mat va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirish mumkin. Shunday qilib, davlat mamlakat milliy mahsuloti tarkibida muhim o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida resurslarni qayta taqsimlaydi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiyotning barcha sohalarini resurslar bilan ta'minlash, to'liq bandlilik va narxlarning barqaror darajasiga erishishda yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Iqtisodiyotda to'liq bandlilikni ta'minlash uchun umumiy sarflar, ya'ni xususiy va davlat sarflarining hajmi yetarli bo'lmasa davlat bir tomondan ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarga o'z xarajatlarini ko'paytiradi, boshqa tomondan xususiy sektorning sarflarini rag'batlantirish maqsadida soliqlarni qisqartiradi.

Agar jami sarflar to'liq bandlilik sharoitida taklif hajmidan oshib kesa, bu narxlar darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Jami sarflarning mazkur ortiqsha darajasi inflyatsion xarakter kasb etadi. Bunday holda davlat soliqlarni oshirish orqali xususiy sektor sarflarini qisqartirish va shu yo'l bilan ortiqsha sarflarni tugatishga xarakat qiladi. Iqtisodiyotda ishsizlik mavjud bo'lganda davlat sarflarining ko'payishi jami sarflar, ishlab chiqarish hajmi va bandlilikning o'sishiga olib keladi. O'z navbatida, soliqlarning qiskarishi yoki transfert to'lovlarning ko'payishi daromadlarni ko'paytiradi. Bu daromadlar shaxsiy sarflarni o'sishini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Davlat o'z ishlab chiqarishini moliyalashtirishdan tashqari ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotning bir qator dasturlarini amalga oshiradi, iqtisodiyotning xususiy va kooperativ sektorida daromadlarni qayta taqsimlaydi. Davlat tartibga soluvchi xarakterga ega bo'lgan bir qator vaziyatlarni ham amalga oshiradi. Bularga atrof - muritni rimoya qilish, aholi sog'lig'ini saqlash, bo'sh ishchi o'rinlariga ega bo'lishning teng sharoitini ta'minlash va ma'lum sohalarda narx belgilash amaliyoti ustidan nazorat qilish va shu kabilarni kiritish mumkin.

### **3.Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullari va vositalari.**

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagisha guruxlash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo'lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta'sir qilish usullari ustun bo'lsa, bozor iqtisodiyoti esa birinchi navbatda iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog'langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat xilma - xil shakldagi kapitalga egalik qiladi, kreditlar beradi, korxonalariga mulkdor hisoblanadi. Bu davlatning ijtimoiy kapitalning bir qismiga egalik qilishiga olib keladi.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar davlat xokimiyati kuchiga tayanadi va taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xarakterdagi tadbirlarni o'z ishiga oladi. Tartibga solishning ma'muriy vositalaridan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish ko'zda tutiladi. Ayniqsa ishlab chiqarish tanazzulga ushragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta'sir qilish tadbirlari kam samarali bo'lib, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari - transport, aloqa, atom va elektr - energetika, kommunal xizmat va boshqalarni bevosita boshqarish. Bunda davlat mulk sohibi va tadbirkor sifatida o'ziga qarashli korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirkorligi, ma'lum doirada amal qilib, ko'pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo'lmagan korxonalar doirasi bilan sheklanadi. Davlat tadbirkorligi bir tomondan, ma'lum sharoitlarda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan vaqt o'tishi bilan samarasiz bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holda ular xususiy tadbirkorlik ob'ektiga aylantiriladi.

b) narxlar va ish haqini qotirib qo'yish siyosati:

Bu iqtisodiyotga aralashishning antiinflyatsion tadbirlari hisoblanib, inflyatsiyani yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narxlar va ish haqini oshirish qonun bilan taqiqlandi yoki ma'lum doira bilan sheklanadi. Antiinflyatsion tadbirlar orqali inflyatsiya darajasini pasayishi investitsiyalarga rag'bat beradi.

v) ish bilan bandlilik xizmati faoliyati (Mehnat birjalari) ni tashkil qilish.

Davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ishsizlikni qisqartirish choralari ko'radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta'minlanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi.

g) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvshi qonuniy aktlarni ishlab shiqish va qabul qilish (monopoliyaga qarshi qonunshilik, soribkorlik to'g'risidagi, bank sohalari, qYAIMatli qog'ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko'zda tutuvshi qonunlar).

Shu orqali bozor munosabatlarining rivojlanishi qonun yo'li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta'minlanadi, monopoliyalarga yo'l berilmaydi va erkin raqobatga sharoit yaratiladi. Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul - kredit va byudjet siyosatida o'z ifodasini topadi.

Pul - kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hisob stavkasini tartibga solish;
- moliya kredit muassasalarining markaziy bankdagi ertiyotlari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish;
- davlat muassasalarining qYAIMatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni sotish va to'lash).

Davlat bu dastaklar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutilgan yo'nalishda o'zgartirishga xarakat qiladi. Jumladan, ssudaga beriladigan pul miqdorini o'zgartirish uchun foiz stavkasi vositasidan foydalanadi. Davlat kreditga bo'lgan talab va taklifni markaziy bank orqali quyidagi yo'llar bilan o'zgartiradi.

Birinchidan, davlat markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag'larining qarzga beriladigan va extiyot (rezerv)da turadigan qismlari ulushini o'zgartiradi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o'zgaradi, ya'ni uning taklifi oshsa foiz kamayadi, aksincha u kamaysa foiz oshadi. Foizning kamayishi kredit olishga intilishni kushaytiradi va bu investitsiya faolligi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Ikkinchidan, Markaziy bank boshqa banklarga past foiz stavkasida qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishiga ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, davlat markaziy bank orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o'z obligatsiyalarini sotadi yoki qYAIMatli qog'ozlarini sotib oladi. Natijada taklif etilgan pul miqdori o'zgarib, bu foizga ta'sir etadi. Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifini o'zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi.

Davlat byudjet siyosati uning daromadlar va xarajatlar qismini o'zgartirishga qaratiladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Ulardan xo'jalik sub'ektlari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikka ta'sir ko'rsatishda xam keng foydalaniladi. Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to'lashda berilgan imtiyozlarga bog'liq bo'ladi. Davlat iqtisodiyotni

tartibga solish vositasi sifatida byudjet xarajatlaridan ham foydalanadi. Bunga birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalari va kafolatlari, hamda xususiy sektordan tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar misol bo'ladi.

IDTSda asosiy kapitalga hisoblanadigan jadallashgan amortizatsiya ajratmalari aloxida rol o'ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg'arish va iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirishning asosiy vositasi hamda iqtisodiy sikli va bandlikka ta'sir ko'rsatuvshi muhim dastak hisoblanadi. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qo'yilmalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, bozor kon'yukturasi yomonlashgan, turg'unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo'yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda o'sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o'sishiga qarshi turishga xarakat qiladi. Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarda ham sezilarli o'ringa ega bo'ladi, masalan, davlat xususiy kapitalining oqib kelishi yetarli bo'lmagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat sohalarida yangi ob'ektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bulardan tashqari davlat kapital quyilmalari ilmiy - tadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o'ynaydi. IDTS ning oliy shakli davlat iqtisodiy dasturlari hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalaridan kompleks foydalanishdan iborat. Iqtisodiy dasturlar o'rta muddatli, favqulodli va maqsadli bo'lishi mumkin. O'rta muddatli umum iqtisodiy dasturlar odatda besh yilga tuziladi. Favqulodli dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kushli inflyatsiya sharoitlarida ishlab shiqilib, qisqa muddatli xarakterga ega bo'ladi. Bunday maqsadli dasturlarning ob'ekti tarmoqlar mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

IDTS tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatiladi. Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan - texnika yutuqlari eksportini rag'batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga sheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to'lovlarini o'zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish yoki sheklash bo'yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jalb qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlaharo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

Shunday qilib, IDTSning qarab shikilgan barcha ishki va tashqi iqtisodiy usullari (vosita va dastaklari) birgalikda milliy iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoniga va mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

#### **Nazorat savollari**

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlisha qarashlarini baholang?
2. Davlat asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi? Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
4. IDTSning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.

#### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. IDTSda davlat sektori qanday rol o'ynaydi? Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?
2. Davlatning aholi daromadlarini shakllantirish siyosati deganda nimani tuchunasiz?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-

- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
  3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
  4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
  5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
  6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
  7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
  8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
  9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.YAxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
  10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
  11. [www.uza.u](http://www.uza.u)



## **16-MAVZU. JAHON XO‘JALIGI VA O‘ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA INTEGRATSIYALASHUVI**

**Darsning o‘quv maqsadi:** talabalarda iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari, ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi, integratsiyalashuv, globallashuv, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari, to‘lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari amal qilishi hamda O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga qo‘shilishining shart-sharoitlari to‘g‘risida fikr va tushunchalar hosil qilishdan iborat.

### **Mavzuni o‘rganish bilan bog‘liq tayanch iboralar**

Xalqaro Mehnat taqsimoti, xalqaro iqtisodiy integratsiya, ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi, emigratsiya, YAImigratsiya, erkin savdo zonalari, boj ittifoqi, to‘lov ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqi, eksport, import, reeksport, reimport, xalqaro valyuta tizimi, valyuta kursi, to‘lov balansi.

### **Asosiy savollar**

1. Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi.
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.
3. Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.
4. To‘lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi.
5. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari

### **1.Iqtisodiy rivojlanishning umumjahon tomonlari va ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi**

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim xarakterli xususiyatlaridan biri - turli mamlakatlar va xo‘jalik regionlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklarning o‘sib borishi hisoblanadi.

Jahon xo‘jaligida har bir o‘zgarishlar (jahon bozoridagi narxlar xarakati va alohida mamlakatning eksport imkoniyatidan tortib dunyo iqtisodiyotidagi tarkibiy siljishlar va xalqaro monopoliyalar faoliyatigacha) dunyodagi barcha mamlakatlar manfaatini o‘ziga tortadi. Mamlakatning savdo, ishlab chiqarish, valyuta moliya sohalaridagi jahon tamoyillariga bog‘liqlik ob‘ektiv reallik hisoblanadi. Hozirgi davrda har qanday mamlakatni uning iqtisodi qanday rivojlangan bo‘lishidan qat’iy nazar, jahon xo‘jaligi aloqalariga jalb qilmasdan uning to‘la qonli iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash mumkin emas.

Shu sababli Prezidentimiz I.Karimov «Mamlakatning jahon xo‘jalik aloqalarida, xalqaro Mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etishning asosidir», deb ta’kidlaydi.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlariga bo‘lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi. YAqin vaqtlargacha bizning adabiyotimiz sotsializm dunyosi, kapitalizm dunyosi va uchinchi dunyo mamlakatlari degan tuchunshani singdirib keldi.

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiy asosda yondashib xo‘jalik tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko‘rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotida rivojlanayotgan va bozor iqtisodi mavjud bo‘lmagan mamlakatlar. Rivojlanganlik darajasi bo‘yicha ham o‘z navbatida uchta guruh farqlanadi: kam, o‘rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoliy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YAIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabistoni, quvayt va boshqalar) eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKVI), shu jumladan eng kambag‘al mamlakatlar (Shad, Baengladesh, Efiopiya), har xil regional ittifoqlar va internatsional guruhlariga ajratiladi.

Bu barcha turli-tumanlik bir butun yaxlitlikka o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikning har xil jixatlari orqali tortiladi. Hozirgi xo‘jalik aloqalarining chuqurlashib bohayotganligi

baynalminallashuvining kuchayishi hamda fan-texnika revolyutsiyasining keng qamrovli xarakteri, aloqa va kommunikatsiya vositalarining butunlay yangi roli sharoitida milliy iqtisodiyot o'z-o'zini ta'minlash orqali samarali amal qilish mumkin emas.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining xarakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan o'sib chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro Mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va ob'ektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallashuvini zarur qilib qo'yadi. Milliy xo'jaliklar va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar negizida shakllangan jahon xo'jaligi asosida xalqaro Mehnat taqsimoti yotadi.

Xalqaro Mehnat taqsimoti (XMT) alohida mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ma'lum turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini ifodalaydi. Alohida mamlakatlarning bunday ixtisoslashuvi mahsulotlari ustun darajada eksportga yo'naltirilgan xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlarning shakllanishiga olib keladi.

Daslabki vaqtlarda xalqaro Mehnat taqsimotining rivojlanishi asosan tabiiy sharoitlardagi tafovutlarga asoslangan edi. Binobarin, faqat sanoat to'ntarishidan keyin, ya'ni ishlab chiqaruvchi kuchlar baynalminal xususiyat kasb etib, milliy xo'jaliklar doirasidan tashqariga o'sib shiqa boshlagash, ularning negizidan barqaror Mehnat taqsimoti va jahon bozori tarkib topadi. Hozirgi vaqtda xalqaro Mehnat taqsimoti turli ijtimoiy tizimlarni o'z ishida oluvchi umumjahon xo'jaligi doirasida rivojlanmoqda.

Xalqaro Mehnat taqsimoti va ayirboshlashda qatnashayotgan mamlakatlar bir xil sharoitda emas. Bu rol ularning turli jo'g'rofiy arvoli, tabiiy resurslarining tarkibi va miqdori, rivojlanish ko'lami, darajasi va iqtisodiyotini tuzilishi, ishki bozorning hajmi bilan belgilanadi.

Ana shu farqlar sababli ayrim mamlakatlarda bir xil tovarlarni ishlab chiqarishdagi xarajatlar darajasi ham turlisha bo'ladi. Shuning uchun har bir mamlakat o'zi nisbatan qulayroq, kamroq xarajat bilan ishlab chiqaradigan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotishga va aksincha, jahon bozoridan o'zidan ishlab chiqarish uchun xarajat ko'proq bo'ladigan yoki tabiiy yoxud boshqa sharoitlarga ko'ra umuman ishlab shiqarib bo'lmaydigan tovarlarni sotib olishga intiladi. Tovarlar mamlakatlar o'rtasida jahon narxlari asosida ayirboshlanadi. Ular baynalminal qiymatga asoslanadi. Buning ma'nosi shuki, ijtimoiy zaruhiy baynalminal Mehnat sarflari jahon bozorida e'tirof qilinadi.

Umuman olganda, jahon narxlarining tashkil topishi odatda, sof holidan amalga oshmaydi. Baynalminal qiymatning hosil bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi maxsus omillar jahon narxlariga ta'sir qiladi. Tashqi savdo va valyuta sheklashlari, valyutalar qiymatining o'zgarib turishi, xalqaro monopoliyalar siyosati, birjadagi chayqovchiliklar va hakazolar shular jumlasidandir. Shu sababli ayrim mamlakatlarning jahon bozoridagi raqobatlashuv qobiliyatidagi farqlar, pirovard natijada mehnat unumdorligining milliy darajadagi farqlarini aks ettiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda keyingi o'n yilliklarda yangi texnologik asoslarga o'tish jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi bilan birga bordi. Takror ishlab chiqarish jarayonlarining baynalminallashuvi o'zining har ikkala shaklida: integratsion (milliy xo'jaliklarning yaqinlashuvi, o'zaro moslashuvi orqali) va transmilliy (xalqaro ishlab chiqarish majmuasining tuzilishi orqali) shakllarida kuchayadi. Jumladan, butun dunyoda regional davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning qaror topish tamoyili kuzatiladi. Jumladan, rivojlangan yevropa integratsion hamjamiyati (EI) doirasida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining erkin xarakati amalga oshiriladi. Shimoliy Amerika umumiy iqtisodiy hamkorlik AqSh, Kanada va Meksika iqtisodiyotining integratsiyasini ko'zda tutadi. Davlatlararo integratsiyaning kuchayishi janubiy-sharqiy Osiyo, O'rta Osiyo, arab dunyosi, Afrika va Markaziy Amerika mamlakatlari uchun ham xarakterli bo'lmoqda.

## **2.Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi**

Xalqaro Mehnat taqsimoti xalqaro iqtisodiy munosabatlar, ya'ni turli mamlakatlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari negizida yotadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- tovar va xizmatlar bilan xalqaro savdo;
- kapital va chet el investitsiyalarining xarakati;
- ishchi kuchining migratsiyasi;
- ishlab chiqarishning davlatlararo kooperatsiyasi;
- fan va texnika sohasidagi ayirboshlash;
- valyuta-kredit munosabatlari;

Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishi natijasida jahon bozori tarkib topadi. Jahon bozoriga tovar va xizmatlarning xalqaro xarakati sifatida qarash mumkin. Jahon bozori o'zining rivojlanishida bir qator bosqichlardan o'tadiki, ulardan har biri milliy xo'jalikning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga jalb qilinishing ma'lum darajasi bilan xarakterlanadi.

Kapitalning xalqaro xarakati - bu kapitalning chet elda joylashtirilishi va faoliyat qilishi. U chet elga quyidagi shakllarda shiqariladi:

- xususiy yoki davlat kapitali shaklida. Kapitalning xalqaro tashkilotlar yo'li bilan xarakati ko'pincha mustaqil shakl sifatida ajratiladi.
- pul va tovar shaklida. Jumladan, kapital chiqarish mashina va uskunalar, patentlar, nau-xau hamda tovar kreditlari shaklida bo'lishi mumkin.
- qisqa va uzoq muddatli kreditlar shaklida;
- ssuda va tadbirkorlik kapitali shaklida. Ssuda shaklidagi kapital quyilmalar bo'yicha foiz, tadbirkorlik shaklidagi kapital esa foyda keltiradi. Tadbirkorlik kapitali to'g'ridan-to'g'ri va portfelli investitsiyalardan iborat bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shu kapital hisobiga qurilgan ob'ekt (korxonalar) ustidan nazorat qilish huquqini beradi, portfelli investitsiyalar esa bunday huquqni bermaydi. U odatda aksiya paketlari hamda obligatsiya va boshqa qYAIMatli qog'ozlar shaklida beriladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ancha murakkab jihatlaridan biri ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi hisoblanib, u o'z ifodasini Mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlash maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'shib o'tishida topadi.

Xalqaro migratsiya jarayonini iqtisodiy omillar bilan birga siyosiy, etnik, madaniy, oilaviy va boshqa xarakterdagi omillar ham taqozo qiladi.

Xalqaro migratsiya ikkita asosiy tarkibiy qismni o'z ishiga oladi: emigratsiya va YAIMigratsiya. Emigratsiya-mamlakatlardan doimiy yashash joyiga chiqib ketishni, YAIMigratsiya-mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishni bildiradi.

Fan-texnika yutuqlari bilan xalqaro ayirboshlash bir qator shakllarda amalga oshiriladi. U ilmiy-texnikaviy axborotlar, mutaxassislar, fan sohasi xodimlari bilan ayirboshlashni, tadqiqot va yangiliklarni litsenziya asosida berishni, ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazishni, umumiy fan-texnika va texnologiyani ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma tadbirkorlikni o'z ishiga oladi.

Ilmiy texnikaviy hamkorlikning muhim shakllaridan biri injiniring hisoblanadi. Xalqaro injiniring bir davlat tomonidan boshqasiga sanoat va boshqa ob'ektlarni loyiralashtirish va qurish jarayoniga kerakli hisob-kitob loyiralarini berish hamda injenerlik-qurilish xizmati ko'rsatishdan iborat bo'ladi.

Jahon infratuzilmasi. Tovarlar, ishchi kuchi, moliyaviy vositalarning milliy shegaralar orqali to'xtovsiz o'sib boruvchi xarakati butun jahon infratuzilmasining rivojlanishi va takomillashuvini tezlashtiradi. Juda muhim transtport tizimi (dengiz, daryo, ravo, temir yo'l transporti) bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining rivojlanishida axborot kommunikatsiyalar tarmog'i tobora ko'proq ahamiyat kasb etib boradi. Munosib umumjahon infratuzilmasi bo'lmasa, hozirgi ishlab chiqaruvchi kuchlarning baynalminallashuvini rivojlantirib

bo'lmaydi. Bunday infratuzilmaning ayrim tarkibiy qismlari jahon savdosi vujudga kelayotgan, jahon bozori tashkil topayotgan vaqtda paydo bo'lgan.

Hozirgi davrda birjalar, moliya markazlari, yirik sanoat va savdo birlashmalari misli ko'rilmagan tezlik bilan operativ ma'lumotlar olishga va ularni ishlab shiqishga imkon beruvshi eng yangi texnik vositalar bilan jirozlangan. Rivojlangan mamalakatlarida keng tarmoqli axborot majmuasi tashkil topmoqda, uning ta'siri amalda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga yoyilmoqda.

Hozirgi sharoitda ilmiy va tijorat axborotlar ayniqsa qimmatlidir. Shu sababli turli xalqaro darajalarda maxsus «ma'lumotlar banklari» tashkil topmoqda, bular ilmiy va ishlab chiqarish maqsadlari uchun zarur axborotni qidirib topishni ancha yengillashtiradi. Jahon infratuzilmasi turli ziddiyatlarni bartaraf qilish orqali rivojlanadi.

Xalqaro ayirboshlash tovarlarda materiallashgan shakllardan nomaterial aloqalarga tobora ko'proq o'rin bo'shatadi, ya'ni fan-texnika yutuqlari, ishlab chiqarish va boshqarish tajribasi, xizmatning boshqa turlari bilan ayirboshlash o'sib boradi. Hisob-kitoblarga ko'ra hozirgi kunda xizmatlar jahon yalpi milliy mahsuloti (YAMM)ning 46 foizini tashkil qiladi.

### **3.Xalqaro savdoning mazmuni, tuzilishi va xususiyatlari.**

Hozirgi jahon rivojining xarakterli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo jahon savdosining tez o'sishi hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan jahon savdosi tashqi savdo oboroti, eksport va import kabi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi. Eksport-tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Ko'plab mamlakatlar, sheklangan resurs bazasiga va tor ishki bozorga ega bo'lib, o'zlarining ishki iste'moli uchun zarur bo'lgan barcha tovarlarni yetarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun eksport kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi. Jahon savdosida tovarlarning eksport tarkibi fan-texnika revolyutsiyasi va xalqaro Mehnat taqsimotining shuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda jahon savdosining eksport tarkibida qayta ishlovshi sanoat mahsulotlari yetakchi o'ringa ega bo'lib, uning rissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3G'4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xom-ashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi G'masalan, chet el korporatsiyasi vakillariga poshta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va r.k.

O'zbekistonning tashqi savdosida xorijiy davlatlarning salmog'i quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi. Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalarini aksiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital shiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarni ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi. Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar G'xizmatlarG' sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tovar aylanmasi beradi. qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda reeksport ro'y beradi. Reeksport bilan reimport uzviy bog'liq. Reimport iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.

O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi. Tashqi savdo tarkibida chuqur ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, keyingi yillar mobaynida eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulot salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xomashyo etkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib bohayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. 2008 yilda umumiy eksport hajmida

xomashyo bo'lmagan tovarlarning ulushi 71 foizdan ziyodni tashkil etdi. Ayni vaqtda O'zbekiston uchun an'anaviy eksport xomashyosi bo'lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2003 yildagi 20 foizdan 2008 yilda 9,2 foizga tushdi

## 1-jadval

### O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari rivojlanish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2008	2009	2010
YAIM	mlrd. so'm	36 839,4	48 097,0	61831,2
	mln. AQSh dollari	27 919,8	32 808,8	*
Eksport	mln. AQSh dollari	11 493,3	11 771,3	13044,5
Eksportning YAIMdagi ulushi	%	41,2	35,9	*
Import	mln. AQSh dollari	9 704,0	9 438,3	8797,9
Importning YAIMdagi ulushi	%	34,8	28,8	*
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh dollari	21 197,3	21 209,6	21842,4
Tashqi savdo aylanmasining YAIMdagi ulushi	%	75,9	64,6	*
Saldo (X-M)	mln. AQSh dollari	1 789,3	2 333,0	4246,6
Saldo (X-M) ning YAIMdagi ulushi	%	6,4	7,1	*

Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib bohayotgan saloriyati va imkoniyatlaridan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday rolat eksportimiz-ning xomashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda bunday o'zgarish ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Nega deganda, bugungi kunda eksport asosan xomashyo etkazib berishdan iborat bo'lib, dunyo bozoridagi narx-navo o'yinlariga haddan tashqari bog'lanib qolayotgani ayrim mamlakatlarda valyuta tushumlarini kamaytiradigan, moliyaviy barqarorlikning yomonlashuviga olib keladigan, iqtisodiyotni izdan chiqaradigan jiddiy faktorga aylanmoqda.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning xarakatshanligi mamlakatlar o'rtasida, mamlakat ishidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar mamlakat ishida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlar haqida gapirmaganda ham, YAIMigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq sheklashlar qo'yadi. Soliq qonunshiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy shegara orqali migratsiyasini sheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinshiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga markum bo'lib, bu ishki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan xarakteri va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

qiyosiy xarajatlar nazariyasiga ko'ra erkin savdo tufayli, jahon xo'jaligi resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin. Proteksionizm, ya'ni erkin savdo yo'lidagi to'siqlar xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo'qqa chiqaradi.

Erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar mavjud bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- boj to'lovlari import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki rimoya uchun kiritilishi mumkin.

Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt ohalig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi.

Ta'rifsiz to'siqlar deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo'yish yoki oddiy ma'muriy taqiqlashlar tuchuniladi;

Eksportni ixtiyoriy sheklashlar savdo to‘siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o‘zlarining ma’lum mamlakatga eksportini «ixtiyoriy» sheklaydi.

Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o‘zlarining davlatlaharo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, o‘zlarining resurslari unumdorligini oshirish va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko‘paytirishi mumkin. Alohida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o‘zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo‘lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutish mumkin.

Bu yerda mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi? degan savol tug‘iladi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakatlari o‘rtasida juda notekis taqsimlanadi: mamlakatlar o‘zlarining iqtisodiy resurslar bilan ta’minlanishi keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg‘unlashuvini talab qiladi. Bu ikki rolatning xalqaro savdoga ta’sirini oson tuchuntirish mumkin. Masalan, YAponiya ko‘p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega, malakali Mehnat ortiqsha bo‘lganligi sababli arzon turadi. Shu sababli, YAponiya tayyorlash uchun ko‘p miqdorda malakali Mehnat talab qilinadigan turli-tuman Mehnat sig‘imli tovarlarni samarali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Avsthalija esa aksincha, juda keng maydonlariga ega bo‘lgan holda yetarli bo‘lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega.

qisqacha aytganda, rimoya qilinadigan tarmoqlar savdo to‘siqlarini kiritishdan oladigan foyda, butun iqtisodiyot uchun ancha katta yo‘qotish hisoblanadi.

#### 4.To‘lov balansi, uning tuzilishi va taqchilligi.

To‘lov balansi - mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt ohalig‘ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi. Iqtisodiy bitimlar - qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya’ni tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlari o‘tishi bo‘yicha kelishuvlar. Har qanday bitim ikki tomoniga ega bo‘ladi va shu sababli to‘lov balansida ikki tomonlama yozuv tartibiga rioya qilinadi. Bitta bitim to‘lov balansining debet va kredit qismlarida o‘z ifodasini topadi. Kredit - qiymatning mamlakatdan chiqib ketishi bo‘lib, uning hisobiga mazkur mamlakat rezidentlari chet el valyutalarida qoplovshi to‘lovlar ekvivalentini oladi. Debet - qiymatning mazkur mamlakatga kirib kelishi bo‘lib, uning hisobiga rezidentlar chet el valyutalarning sarflaydi. To‘lov balansida kreditlar umumiy summasi debetlarning umumiy summasiga teng bo‘lishi zarur. To‘lov balansidagi barcha bitimlar o‘z ishiga joriy va kapital bilan operatsiyalarni olishi sababli u uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi:

- joriy operatsiyalar hisobi:
- kapital xarakati hisobi:
- rasmiy ehtiyotlarning o‘zgarishi.

#### To‘lov balansining tuzilishi.

I. Joriy operatsiyalar hisobi	
1. Tovar eksporti	2. Tovar importi
Tashqi savdo balansi qoldig‘i	
Xizmatlar eksporti (chet el turizmidan daromadlar va r.k. - kreditli xizmatlar)	Xizmatlar importi (turizm uchun chet elga to‘lovlar va r.k. - kreditli xizmatlar)
5. Investitsiyalardan sof daromadlar (kreditli xizmatlardan sof daromadlar)	
6. Sof transfertlar	
Joriy operatsiyalar bo‘yicha balans qoldig‘i	
II. Kapital xarakati hisobi	
7. Kapital kirishi	8. Kapital oqib shiqishi
Kapital xarakati balansi qoldig‘i	
Joriy operatsiyalar va kapital xarakati bilansi qoldig‘i	
III. Rasmiy ehtiyotlarning o‘zgarishi.	

Mamlakatning tashqi savdo balansi (to‘lov balansi) mazkur davlatning chet ellik sheriklari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlarning holatini ifodalab, uning kredit-pul,

valyuta, byudjet-soliq, tashqi savdo siyosatini amalga oshirish va davlat qarzlarni tartibga solishi uchun indikator bo'lib xizmat qiladi.

Joriy operatsiyalar hisobi o'z ishiga tovar va xizmatlar eksporti («q» belgisi bilan), import («<» belgisi bilan), investitsiyalardan sof daromad va sof transfertlarni oladi. Tovarlar eksporti va importi o'rtasidagi farq savdo balansini tashkil qiladi.

Tovar eksporti kredit sifatida chiqib, milliy bankda chet el valyutalari zayiralarini vujudga keltiradi. Import esa («debet» grafasida «<» belgisi bilan) mamlakatdagi chet el valyutalari zayirasini qisqartiradi. Investitsiyalardan sof daromadlar (chet eldan sof omilli daromadlar) kreditli xizmatlardan olinadigan sof daromad hisoblanib, u chet ellarga qo'yilgan milliy pul kapitali hisobiga keladi. Agar chet elga qo'yilgan milliy pul kapitali hisobiga vujudga keladi. Agar chet elga qo'yilgan milliy kapital mazkur mamlakatga qo'yilgan chet el kapitaliga qaraganda foiz va deidentlarning ko'proq xajimini keltirsa, bunda investitsiyalardan olinadigan sof daromad ijobiy, aks holda esa salbiy bo'ladi.

Sof transfertlar xususiy va davlat mablag'larning boshqa mamlakatlarga o'tkazilgan summasini bildiradi (pensiya, sovg'a, chet elga pul o'tkazishlar yoki chet mamlakatlarga insonparvarlik yordamlari). Bunday to'lovlar mamlakatda mavjud chet el valyutalari zayirasini kamaytiradi.

Makroiqtisodiy modelda joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i quyidagicha ifodalanadi.

X	-	M	=	Xn	=	U	-	(sq1qG)
eksport		import		sof eksport		YIM		Absorbatsiya

Absorbatsiya - yalpi ishki mahsulotning mazkur mamlakatdagi uy xo'jaliklari, korxonalar va davlatga realizatsiya qilinadigan qismi.

Importga to'lovlar eksportdan olingan daromaddan ortiqsha bo'lsa, bu mamlakatning joriy operatsiyalar bo'yicha balansi taqchilligini bildiradi. Bu taqchillik chet el qarzlari yordamida, yoki aktivlarning bir qismini chet elliklarga sotish yo'li bilan moliyalashtiriladi va bu kapital xarakati hisobida aks etadi.

Eksportdan olinadigan daromad importga sarflardan ortiq bo'lsa joriy operatsiyalar hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

Kapital xarakati hisobida aktivlar bilan amalga oshiriladigan barcha xalqaro bitimlar o'z ifodasini topadi. Bular chet elliklarga aksiyalar, obligatsiyalar, ko'shmas mulk va r.k. sotishdan olinadigan daromadlar hamda chet eldan aktivlar sotib olish natijasida vujudga keladigan sarf xarajatlar.

Kapital xarakati balansi	=	Aktivlar sotishdan tushumlar	-	Chetdan aktivlar sotib olishga sarflar
--------------------------	---	------------------------------	---	--

Chet el aktivlarini sotish chet el valyutalari zayiralarini ko'paytiradi, ularni sotib olish esa kamaytiradi. Kapital xarakati hisobi ham taqchillikka va ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

To'lov balansining taqchilligi Markaziy bank (MB) rasmiy ehtiyojlarini qisqartirish hisobiga moliyalashtirilishi mumkin. Rasmiy ehtiyojlarning asosiylari quyidagilar:

- chet el valyutalari;
- oltin;
- mamlakatning XVFdagi kredit ulushi;
- qarz olishning maxsus huquqi (SDR) va r.k.

Balans taqchilligi rasmiy ehtiyojlar hisobiga moliyalashtirilganda, ishki bozorda chet el valyutalari taklifi ortadi, milliy valyutalar taklifi esa nisbatan kamayadi va uning ayirboshlash kursi nisbatan o'sib milliy iqtisodiyotga inqirozli ta'sir ko'rsatadi.

Aksincha, to'lov balansining aktiv qoldig'i MB rasmiy valyuta ehtiyojlarining o'sishi bilan birga borganda ishki bozorda chet el valyutalari taklifini kamaytiradi, milliy valyuta taklifi esa nisbatan ortadi va uning ayirboshlash kursi pasayib, iqtisodiyotga rag'batlantiruvshi ta'sir ko'rsatadi.

MB tomonidan chet el valyutalarining bunday sotilishi va sotib olinishi rasmiy ehtiyojlar bilan operatsiyalar deyiladi. (Bu MBning oshiq bozordagi operatsiyalari bilan bir

xil emas). Rasmiy ehtiyojlar bilan operatsiyalar natijasida joriy hisobdagi qoldiq summasi, kapital xarakati hisobi va ehtiyojlar miqdorining o'zgarishi «nol»ni tashkil qilishi zarur.

Mamlakat uzoq davr davomida joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikni bartaraf qilishni keshiktirishi va o'zining rasmiy valyuta ehtiyojlarini to'liq sarflashi, natijasida to'lov balansi krizisi kelib chiqadi. Mamlakatda tashqi qarzlarni to'lash holatida bo'lmaganligi sababli, chet eldan kreditlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Iqtisodiyot sub'ektlarining davlat va MB siyosatiga ishonchsizligi to'lov balansi krizisini shuqurlashtiruvshi omil hisoblanadi. Milliy valyuta qadrsizlanishining kutilishi chet el valyutalariga shayqovshilikka qaratilgan talabni rag'batlantiradi. Bu MB ning milliy valyuta qadrsizlanishining oldini olishga qaratilgan xarakatini ancha qiyinlashtiradi, chunki uning rasmiy valyuta ehtiyojlari bir vaqtda to'lov balansining taqchilligini moliyalashtirish va chet el valyutalariga o'sib boruvchi shayqovshilik talabini qondirish uchun yetarli bo'lmay qoladi. Bunday holda valyutalarning, «xufiyona bozori» vujudga kelib, rivojlana boshlaydi.

#### **4.Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.**

Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzarlar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika ayirboshlash, turizm va r.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar-xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning xalqaro to'lov munosabatida amal qilish jarayonida vujudga keladi. Valyuta-bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, funt sterling va r.k.). Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi. Bunda milliy va xalqaro valyuta tizimini farqlash zarur. Milliy valyuta tizimi-valyuta munosabatlarining milliy qonunshilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi. Xalqaro valyuta tizimi-xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlaharo bitimlarda huquqiy jihatdan mustarkamlangan shakli. Uning tarkibiy elementlari qo'yidagilar hisoblanadi: asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari-SDR, yevro), valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi, xalqaro to'lovlarini balanslashtirish tartibi, valyutaning qaytaruvshanlik sharoiti, xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi, valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlaharo muassasalar tizimi. Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida uchta bosqishdan o'tdi va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning o'z tiplari mos keladi. Birinchi bosqish 1879-1934 yillar davrini o'z ishiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi oxiri (1944 y.) dan 1971 yilgacha oltin – devizli (Breton-Vudsk tizimi deb nomlanuvshi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. Hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971 yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim boshqariladigan suzib yuruvchi valyuta tizimi nomini oldi. Chunki davlat ko'pinsha o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi.

Oltin standart tizim qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari shiqargan banknotlarni oltinga almashtirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritish xizmat qilgan. Mamlakat, uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan deb hisoblangan. a) O'z pul birligining ma'lum oltin mazmuni o'rnatadi; b) O'zining oltin zayirasi va pulning ishki taklif o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi; v) Oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin standart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin standart sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi.

Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, valyuta sohasini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga xarakat qilindi. Yangi jahon valyuta tizimi asoslarini ishlab shiqish maqsadida, 1944 yil Bretton-Vudsa (AqSh) ittifoqshi davlatlarning xalqaro konferensiyasi shaqirildi. Bu konferensiyada o'zaro bog'liq valyuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko'pinsha Bretton - Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin - valyuta standart (AqSh dollari) yotadi va bu yerda rezervlar sifatida oltin va dollar chiqadi.



Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valyutaning qayd qilingan kursi, suzib yuruvshi kursiga o'rin bo'shatadi. Xalqaro valyuta tizimidagi bu o'zgarish 1976 yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustarkamlanadi. qog'oz pul tizimiga o'tish bilan, qog'oz pullar oltinga almashirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valyuta kursi ham har qanday boshqa baho kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilanadi.

Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. Valyuta kursi bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishini ko'rsatadi.

Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvshi omillar ishidan quyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darajasi;
- milliy iste'molchilarning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;
- valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvshi to'lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valyutaga jahon bozoridagi ishonsh va r. k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tuchuntirish, xarid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordamida beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun, ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari «savati» narxlarini taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday «savat», aytaylik 25 ming so'm, AqShda esa 100 dol. tursa, 25 mingni yuzga bo'lib, 1 dol. ning bahosini hosil qilamiz, bu 250 so'mga teng.

Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi oqibatida, tovarlar bahosi ikki marta oshsa va barcha sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga ayirboshlash kursi ikki marta oshadi.

### **Nazorat savollari**

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat? Jahon xo'jaligining milliy iqtisodga ta'siri qanday?
2. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash qanday mezonlarga asoslanadi? Ularni turkumlashga hozirgi davrda yondashuvlarga asoslanib davlatlarning asosiy guruhlarini ajratib ko'rsating.
3. Xalqaro Mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi? Unda tabiiy sharoitdagi tafovutlar qanday rol o'ynaydi?
4. Jahon narxlari qanday qiymatga asoslanadi? Jahon narxlariga ta'sir ko'rsatuvshi omillar tavsifini bering.
5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar nima uchun turli shakllarga ega bo'ladi? Ularning asosiy shakllarini sanab ko'rsating.
6. Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering va ularning har birining ahamiyatini ko'rsating.
7. Xalqaro Mehnat taqsimotini mutloq va qiyosiy ustunlik nazariyasidan foydalanib tahlil qiling. qiyosiy ishlab chiqarish xarajatlari nima?
8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni nima zarur qilib qo'yadi?
9. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsating.

### **Mustaqil ish mavzulari va topshiriqlari**

1. Ishki va tashqi savdoning o'xshashliklari nimadan iborat? Ularning farqi-shi? Xalqaro savdo qanday ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi?
2. Nima uchun xalqaro savdoda sun'iy to'siqlar mavjud bo'ladi? Ularning tavsifini bering.
3. Proteksionistik siyosatning ijobiy va salbiy tomonlari qanday? Ularni taqqoslang.
4. Xalqaro savdoda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati qandayligi va unda O'zbekistonning ishtirok etishi imkoniyatlarini aniqlang.

5. Xalqaro valyuta tizimini tushuntiring. Har bir tizim qanday ustunlik va kamshiliklarga ega?
6. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun qanday usullardan foydalanadi? Chet el valyutalariga talab va taklifga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zR Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv./I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston, 2011.- 37- bet.
2. Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavaro,va, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2010, 329 bet.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izshil davom ettirish – davr talabi. G'G' Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
5. Shodmonov Sh., G'afurovU. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «» nashriyoti, 2005
6. Bekmurodov A.Sh., G'afurovU. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. Toshkent. – 2008 y.
7. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Monopolistik faoliyatni belgilash to'g'risida.1996 yil 2 iyul, «Iqtisod va hisobot» 2-son, 1996, 24-25 betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tabiiy monopoliyalar to'g'risida (yangi tarriri). O'zbekistonning yangi qonunlari. T-22., «Adolat», 2000.
9. Sh.Shodmonov, T.Ziyaev, M.YAxshieva “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test va savollar to'plami, -T.: TDIU, 2005.
10. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
11. [www.uza.u](http://www.uza.u)
12. [www.seep.uz](http://www.seep.uz)

# IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI

---

## Kirish

Uslubiy qo'llanma Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti etakchi professor-o'qituvchilarining "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan ta'lim texnologiyasi" nomli uslubiy qollanmasiga tayangan holda yozilgan bo'lib, mazkur qo'llanmadagi ta'lim texnologiyalari, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar to'la inobatga olingan<sup>5</sup>. Shuningdek, qo'llanmani tayyorlashda ma'ruza va seminar mashg'ulotlari texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta'limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda, fanning predmeti va asosiy vazifalari, fanni ToshDSHda o'qitish xususiyatlari e'tiborga olingan, hamda mualliflarning o'quv-pedagogik va ilmiy-uslubiy tajribalaridan foydalanilgan.

"Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'qitish ta'lim texnologiyasi, o'qituvchidan talab qilinadigan puxta ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish va pedagogik-tarbiyaviy malakani kuchaytirib borish mas'uliyatini pasaytirmaydi, balki, talabalarga mavzularning asosiy materiallarini qisqa va tushunarli tilda etkazib berishga, bilim, Ma'lumot va axborotlarni qiyoslash, guruhlash, ta'riflash orqali talabalarning iqtisodiy idrok va tafakkur jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. Albatta, "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini chuqur o'zlashtirish, fanning asosiy masalalarini talabalarga tushuntirish uchun 16-18 ta ma'ruza mashg'uloti etarli hisoblanmaydi, 18 ta seminar mashg'ulotlarida mavzularning ko'p qirralarini qamrab olish qiyin kechadi. Shu munosabat bilan mazkur ta'lim texnologiyalari fan predmetining muhim jihatlari sodda shaklda muammoli tarzda etkazishga yo'nalgan bo'lib, talabalarni iqtisodiy bilimlarni puxta egallashga ragbatlantiradi.

---

<sup>5</sup> Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, G.T.Minavarova, M.Sh.Xalilov. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari» seriyasidan. – T.: TDIU, 2011, 329 bet.

## MUNDARIJA

<b>T r</b>	<b>Kirish</b>	
	«Iqtisodiyot nazariyasi» oquv fani boyicha ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari	
	<b>Ma’ruza va seminar mashgulotlarida O’qitish texnologiyasi</b>	
<b>1-mavzu</b>	<b>Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari</b>	
1.1.	Kirish, vizual ma’ruzani O’qitish texnologiyasi	
1.2.	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish boyicha seminar mashgulotini O’qitish texnologiyasi:	
<b>2-mavzu.</b>	<b>Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari</b>	
2.1.	Axborot-ma’ruza, birgalikda oqish usuli va “B.B.B” jadvali grafik organayzeridan foydalangan holda otiladigan ma’ruza vositasida O’qitish texnologiyasi	
2.2.	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish boyicha muammoli seminar orqali O’qitish texnologiyasi	
<b>3-mavzu.</b>	<b>Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi va bozor munosabatlarining shakllanishi</b>	
3.1.	Vizual ma’ruza, ikki tomonlama tahlilga asoslangan ma’ruzani O’qitish texnologiyasi	
3.2.	Mustaqil ishlash konikmalarini hosil qilishga yonaltirilgan muammoli seminar orqali O’qitish texnologiyasi	
<b>4-mavzu.</b>	<b>Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o’tishning O`zbekistondagi xususiyatlari</b>	
4.1.	Axborot, vizual ma’ruza, “Insert”, “Venna” diagrammasi texnikasini qollagan holda ma’ruzani O’qitish texnologiyasi	
4.2.	Muammoli masalalarni hal etish va bilimlarni chuqurlashtirish konikmalarini rivojlantirishga yonaltirilgan seminar orqali O’qitish texnologiyasi	
<b>5-mavzu.</b>	<b>Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati</b>	
5.1.	Axborot, vizual ma’ruza, aniq holatlarni echishga asoslangan ma’ruza yordamida O’qitish texnologiyasi	
5.2.	Seminar-munozara orqali O’qitish texnologiyasi	
<b>6-mavzu.</b>	<b>Raqobat va monopoliya</b>	
6.1.	Vizual, axborot ma’ruzani O’qitish texnologiyasi	
6.2.	Seminar-munozarani O’qitish texnologiyasi	
<b>7-mavzu.</b>	<b>Agrar munosabatlar va agrosanoat majmuasi</b>	
7.1.	Talabalar bilan hamkorlikda binar ma’ruzani O’qitish texnologiyasi	
7.2.	Muammoli seminarini O’qitish texnologiyasi	
<b>8-mavzu.</b>	<b>Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o`lchamlari.</b>	
8.1.	Axborot ma’ruzasi, “birgalikda organish” usuli va “B.B.B” grafik organayzer jadvalidan foydalangan holda ma’ruzani O’qitish texnologiyasi	
8.2.	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish boyicha muammoli seminarini O’qitish texnologiyasi	
<b>9-mavzu.</b>	<b>Yalpi talab va yalpi taklif</b>	
9.1.	Axborot, vizual ma’ruza, “B.B.B” texnikasidan foydalangan holda ma’ruzani O’qitish texnologiyasi	
9.2.	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish hamda muammoli masalalarni hal etish konikmasini rivojlantirish boyicha seminar-munozarani O’qitish texnologiyasi	

<b>10-mavzu.</b>	<b>Iste'mol, jamgarish va investisiyalar</b>	
10.1.	Muammoli ma'ruzani O'qitish texnologiyasi	
10.2.	Muammoli vazifani echish boyicha bilimni mustahkamlash va kengaytirish seminarini O'qitish texnologiyasi	
<b>11-mavzu.</b>	<b>Iqtisodiy osish, milliy iqtisodiyotning nisbatlari va muvozanati</b>	
11.1.	Birgalikda oqish va muammoli masalalarni echish usullaridan foydalangan holda vizual ma'ruzani O'qitish texnologiyasi	
11.2.	Muammoli seminarni O'qitish texnologiyasi	
<b>12-mavzu.</b>	<b>Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy beqarorlik</b>	
12.1.	Vizual ma'ruzani O'qitish texnologiyasi	
12.2.	Muammoli seminar asosida O'qitish texnologiyasi	
<b>13-mavzu.</b>	<b>Moliya, moliya tizimining mohiyati va vazifalari</b>	
13.1.	Binar ma'ruzani O'qitish texnologiyasi	
13.2.	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish boyicha amaliy mashgulot	
<b>14-mavzu.</b>	<b>Pul va pul-kredit tizimi</b>	
14.1.	Vizual ma'ruzani O'qitish texnologiyasi	
14.2.	Seminar-munozarali O'qitish texnologiyasi	
<b>15-mavzu.</b>	<b>Bozor munosabatlarini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli</b>	
15.1.	Munozara-ma'ruzani O'qitish texnologiyasi	
15.2.	Muammoli seminarni O'qitish texnologiyasi	
15.2.	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish boyicha amaliy mashgulot	
<b>16-mavzu.</b>	<b>Jahon xo'jaligi va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsilashuvi</b>	
16.1.	Insert, mutaxassis bilan otkaziladigan ma'ruzani O'qitish texnologiyasi	
16.2.	YAkuniy seminar-munozarani O'qitish texnologiyasi	
	XULOSA	
	ILOVALAR	

**“IQTISODIYOT NAZARIYASI”  
FANIDAN TA’LIM TEXNOLOGIYASINING  
KONSEPTUAL ASOSLARI**

**1. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining dolzarbligi va ahamiyati**

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida bozor qonuniyatlariga asoslangan milliy xo'jalik qaror topmoqda va uning institusional jihatlari takomillashmoqda. Transformasiya jarayonlarida milliy iqtisodiyot barpo bo'lishi va uning jahon xo'jaligiga qo'shilishi o'ziga xos yangi tendensiyalarni yuzaga chiqaradi va muayyan qonuniyatlar shakllanadi. O'zbekistonda ham boshqa qator davlatlar kabi resurslardan oqilona foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholi turmush darajasini yuksaltirish, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlarida islohotlar olib borilmoqda. Fanning asosiy maqsadi talabalarga iqtisodiy qonuniyatlar, tendensiyalar mohiyatini tushuntirish, iqtisodiy nazariyalar, g'oyalari va yondoshuvlar evolyusiyasini aniq tushunchalar orqali singdirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiqtisodiy nazariya doirasidagi ustuvor yo'nalishlarini o'rgatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda iqtisodiyot nazariyasi predmetini chuqur o'rganish, barcha jamiyatlarga xos bo'lgan nazariyalar, umumiy qonuniyatlardan xabardor bo'lish, nazariy yondoshuvlarning amaliy jihatlari ilg'ab olish, bozor iqtisodiyoti rivojlanishining global va lokal masalalarini tushunish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi va ushbu fanni o'rganishning dolzarbligini ko'rsatadi. "Iqtisodiyot nazariyasi" har qanday jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligi va farovonligi, uning globallashtirish shart-sharoitlaridagi faoliyati, axborotlashuv darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar iqtisodiy tafakkur tarzini kengaytirishda nazariy-ilmiy va uslubiy asos bo'lib xizmat qilaveradi. Ushbu fanning ob'ekti kengayadi, predmeti toraymaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiyot nazariyasi umumiqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarini nazariy jihatdan tadqiq etadi, turli jamiyatlarda namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlaydi, yangi tushunchalar va atamalarining ishlab chiqilishida salmoqli rol o'ynaydi, qolaversa, boshqa iqtisodiy fanlar uchun uslubiy-nazariy ishlanmalarni, yondoshuvlarni, g'oyalarni taqdim etadi. Shuning uchun bu fanni o'rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati ham yuqori hisoblanadi.

**2. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularining soatlar bo'yicha taqsimoti jadvali**

№	Mavzularning nomi	Auditoriya soatlari		Jami
		ma'ruza	seminar	
1	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti, usullari va vazifalari	2	2	4
2	Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari	2	2	4
3	Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi va ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni	2	2	4
4	Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o'tishning O'zbekistondagi xususiyatlari	2	2	4
5	Talab va taklif qonuni	2	2	4
6	Raqobat va bozor narxlarining shakllanishi	2	2	4
7	Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit tizimi	2	2	4
8	Agrar munosabatlar va agrosanoat majmuasi	2	2	4
9	Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.	2	2	4
10	YALpi talab va yalpi taklif	2	2	4
11	Iste'mol, jamgarish va investisiyalar	2	2	4
12	Iqtisodiy o'sish, va milliy boylik	2	2	4
13	Iqtisodiyotning siklligi va makroiqtisodiy barqarorlik	2	2	4
14	Moliya, moliya tizimining mohiyati va vazifalari	2	2	4
15	Banklar va bank tizimi.	2	2	4
16	Bozor munosabatlarini tartibga solish, davlatning iqtisodiy roli	2	2	4
17	Jahon xojaligi va uning rivojlanish xususiyatlari	2	4	6
	<b>Jami</b>	<b>34</b>	<b>36</b>	<b>70</b>

### Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari

№	Ma'ruza shakllari	O'ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1.	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o'rni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2.	Ma'ruza axborot	Ma'ruzaning odatdagi an'anaviy turi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> o'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3.	Sharhlovchi ma'ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarining konseptual asosini tashkil etadi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ochish.
4.	Muammoli ma'ruza	YAngi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o'quvchining o'qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashadi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uni echimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
5.	Vizual ma'ruza	Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6.	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga talabalarni rag'batlantirish.
7.	Ma'ruza konferensiya	Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'ruzalarga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.
8.	Maslahat ma'ruza	Turli ssenariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol-javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha savollarga javob beriladi. 2) «Savol-javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi. <i>Pedagogik vazifasi:</i> yangi o'quv ma'lumotni o'zlashtirishga qaratilgan.

**“IQTISODIYOT NAZARIYASI” FANIDAN  
MA’RUZA VA SEMINAR MASHG’ULOTLARIDA  
O’QITISH TEXNOLOGIYASI**

<b>1-Mavzu. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va vazifalari</b>	
<b>Ma’ruza mashg’ulotining O’qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt: 2 soat</b>	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>Oquv mashg’ulotining shakli</b>	Kirish, vizual ma’ruza
<b>Ma’ruza mashg’ulotining rejasi</b>	1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. 2. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. 3. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning asosiy usullari. 4. Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari va boshqa fanlar bilan ozaro bogliqligi.
<b>Oquv mashg’ulotining asosiy maqsadi:</b> “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining predmeti va bilish usullari, fanning asosiy qonun va kategoriyalari, boshqa fanlar bilan aloqasi togrisida bilimlarni shakllantirish hamda tasavvur hosil qilish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - iqtisodiyot nazariyasi tushunchasi va fanning predmetini tushuntirish; - iqtisodiyotning bosh masalasini tavsiflash; - iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarni guruhlash; - ilmiy bilish usullarini izohlash va boshqa fanlar bilan uzviy bogliqligi boyicha tasavvur hosil qilish.	<b>Oquv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: - fanining predmeti togrisida tushunchaga ega boladi; - iqtisodiy qonunlarning mohiyatini bilib oladi, tushunchalarning ilmiy mazmunini va amaliy ahamiyatini idrok etadi; - iqtisodiyotning bosh masalasini tushunib oladi, unga ta’rif bera oladi; - ilmiy bilishning asosiy usullariga misollar keltira oladi; - fanning boshqa iqtisodiy fanlar tizimidagi ornini aniqlay oladi, ahamiyatini tavsiflaydi.
<b>O’qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma’ruza, blis-sorov, bayon qilish, klaster.
<b>O’qitish vositalari</b>	Ma’ruzalar matni, tarqatma materiallar.
<b>O’qitish shakli</b>	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
<b>O’qitish shart-sharoiti</b>	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O’qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	1.1. Mavzu, uning maqsadi, oquv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
<b>2-bosqich. Asosiy (55 min.)</b>	2.1. Talabalarning akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida olgan iqtisodiy bilimlarini sinash bo’yicha savol-javob otkazadi(1-ilova). Ulardan iqtisodiyotga oid qanday muammolar va masalalar qiziqtirishini so’raydi. 2.2. Vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzaning asosiy qismini bayon etishda davom etadi; asosiy iqtisodiy tushunchalar va kategoriyalar, qonunlar va tendensiyalar to’grisida ilmiy-nazariy ma’lumot beradi(2-3-ilovalar).	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir- birini takrorlamay atamalarni aytadi.O’ylaydi, savollarga javob beradi. 2.2. Asosiy iqtisodiy tushunchalar va kategoriyalar, qonunlar va tendensiyalar mazmuni muhokamasida



	2.3. Fanning boshqa iqtisodiy fanlar bilan bogliqligini batafsil tushuntiradi.	qatnashadi. Ilmiy ta'riflarni yozib oladi, misollar keltiradi. 2.3. Eslab qoladi va yozib oladi.
<b>3-bosqich. YAkuniy (15 min.)</b>	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy xulosalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni alohida ta'kidlaydi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun bir nechta iqtisodiy atama va tushunchalarga klaster tuzishni hamda seminar mashg'uloti rejasiga tayyorlanishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

*1-ilova*

**Iqtisodiy bilimlar asosi bo'yicha olingan bilimlarni takrorlash uchun savollar**

1.	Siz qanday iqtisodiy muammolarni dolzarb deb hisoblaysiz?
2.	Iqtisodchi, hisobchi, menejer, marketolog, moliyachi, soliqchi nima vazifalarni bajaradi?
3.	Siz liseyda(kollejda)olgan iqtisodiy bilimlaringizdan amalda foydalandingizmi?
4.	Uy xojaligini boshqarishda nimalarga asosiy e'tibor qaratish lozim?
5.	Ozingizning mablagingizni taqsimlashda qanday qoidalarga amal qilaysiz?

*2-ilova*

<b>Kategoriyalar</b>		
	Kategoriya lar	ilmiy fikrlash mahsulidir. Ularni kundalik hayotda ushraydigan tushunchalardan farqlash zarur. Masalan, kundalik hayotda bozor deganda, kog'pshilik yigg'ilib savdo qilinadigan joy tuchuniladi. Nazariyada esa bozor deganda joy emas, pul yordamida ayirboshlash, ya'ni kishilar og`rtasida oldi-sotdi munosabatlari anglanadi.
	Iqtisodiy kategoriya lar	bu iqtisodni og`rganishda qog`llanadigan nazariy tuchunshalar bog`lib, ular real iqtisodiy voqelikning ilmiy in'ikosi, ifoda etilishidir
<b>Kategoriyalar turlari</b>		
<b>1</b>	Umum iqtisodiy kategoriya lar	iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqishlariga xos bog`lgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy sistemaga aloqasi bog`lmagan umuminsoniy munosabatlarni ifodalovshi kategoriyalar
<b>2</b>	Formatsion-maxsus kategoriya lar	iqtisodiy taraqqiyotning muayyan tarixiy bosqishiga xos bog`lgan, ijtimoiy-iqtisodiy sistemaning tabiatiga aloqador, og`tkinshi munosabatlarni ifodalovshi maxsus kategoriyalar
<b>3</b>	Davriy-oraliq kategoriya lar	umuminsoniy xarakterdagi, lekin bir nisha iqtisodiy sistemalar sharoitida amal qiluvshi, uzoq tarixiy davrda saqlanuvshi, ammo og`tkinshi mazmundagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovshi kategoriyalar
<b>Qonunlar</b>		
	Iqtisodiy qonunlar	iqtisodiy jarayonlarning turli muhim tomonlari og`rtasidagi muhim takrorlanib va yuzaga kelib turadigan uzviy iqtisodiy zaruratni taqozo etuvshi sabab-oqibat, aloqa bogg`lanishlaridir
<b>Iqtisodiy qonunlarning turlari</b>		
<b>1</b>	Umumiqtisodiy qonunlar	jamiyat taraqqiyotining hamma bosqishlarida, iqtisodiyotning aniq ijtimoiy shaklidan qat'i nazar amal qiluvshi qonunlar.

2	Formatsion-maxsus qonunlar	maxsus iqtisodiy qonunlar, faqat muayyan ijtimoiy – iqtisodiy tizim doirasida amal qiluvshi, shu tizimning og`ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvshi qonunlar
3	Davriy-oraliq qonunlar	bu turli ijtimoiy-iqtisodiy sistemada, ammo ma'lum davrda amal qiluvshi sistemalarning maxsus tuzumiga aloqasi bog`lmagani holda, ularni birlashtirib bogg`lab turuvchi munosabatlarga xos qonunlar

3-ilova

### Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish fazalari


	fazalar	Fazalarning mazmuni
1	Ishlab chiqarish	jamiyatning hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur moddiy ne'matlar va xizmatlarni yaratish jarayoni
2	Taqsimot	ishlab chiqarilgan mahsulotdagi har bir xojalik yurituvchi sub'ektning ishtiroki, ulushi (miqdori, proporsiyasi) ni aniqlash jarayoni
3	Ayirboshlash	moddiy ne'mat va xizmatlarning bir sub'ektdan boshqasiga tomon harakati jarayoni
4	Iste'mol	ehtiyojlarni qondirish uchun moddiy ne'matlar va xizmatlardan foydalanish

### Iqtisodiyotning asosiy uch muammosi:

<i>Nima ishlab chiqarish</i> – aynan qanday tovarlarni va qancha miqdorda ishlab chiqarish lozim; qaysi ehtiyojlarni eng muhim hisoblash hamda turli-tuman tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda kamyob resurslarni qanday taqsimlash.
<i>Qanday ishlab chiqarish</i> – tovarlar qaysi resurslar yordamida ishlab chiqariladi. Birinchi masala hal etilgach, ishlab chiqarish texnologiyasini tanlash – ishlab chiqarish omillaridan qanday birlikda foydalanilishini aniqlash.
<i>Kim uchun ishlab chiqarish (natijalarga kim ega boladi)</i> – bu tovarlarni taqsimlash tizimi qanday tuzilgani, kim tovarlarni iste'mol qilishi masalasi.

4-ilova

### Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar klasteri



<b>1-Mavzu. «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmeti va vazifalari</b>	
<b>Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt:</b> 2 soat	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>Oquv mashg'ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish boyicha seminar mashg'uloti
<b>Seminar mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dastlabki iqtisodiy qarashlar.</li> <li>2. Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar, ularning tarkibi va turlari. Ehtiyojlarni qondirish yollari, muammolari.</li> <li>3. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti.</li> <li>4. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar tizimi, ularning amal qilishi.</li> <li>5. Fanni bilishning amaliy ahamiyati.</li> </ol>
<b>Seminar mashg'ulotining asosiy maqsadi:</b> Talabalarning "Iqtisodiyot nazariyasi" fani predmeti va bilish usullari, fanning asosiy qonun va kategoriyalari, boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida shakllangan bilimlarini aniqlash, ularda bu borada mustaqil tafakkur konikmalarini shakllantirish. Ozaro fikrlashish, bahslashish, munozara qilishga ragbatlantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va vazifalari to'g'risida tushunchalarni mustahkamlash; - iqtisodiyotning asosiy muammolari to'g'risida tasavvurni chuqurlashtirish; - iqtisodiy qonunlar va kategoriyalarning bilishdagi ahamiyatini tushuntirish; - ilmiy bilish usullarini qollash konikmalarini shakllantirish.	<b>Oquv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: - fanning predmeti to'g'risida toliq tushunchaga ega boladi; - iqtisodiy qonunlarning mohiyatini va namoyon bolish xususiyatlarini bilib oladi, kategoriya va tushunchalarning ilmiy bilishdagi ahamiyatini bilib oladi; - iqtisodiyotning bosh masalasini tushunib oladi, unga ta'rif bera oladi; O'zbekiston sharoitida aniq misollarda tasavvur hosil boladi; - ilmiy bilishning asosiy usullarini qollash boyicha dastlabki konikmalari shakllanadi; - fanning boshqa iqtisodiy fanlar tizimidagi orni boyicha mustaqil fikri shakllanadi.
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Blis-sorov, birgalikda oqiymiz, iqtisodiy esse, "iqtisodiyot", "ehtiyot" sozlariga klaster, munozara.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruzalar matni, oquv qollanmasi, marker, doska
<b>O'qitish shakli</b>	individual va guruh boyicha O'qitish.
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan auditoriya.

### **Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.1. Ma'ruza mashg'ulotidagi asosiy jihatlariga qisqa sharh beradi, mustaqil ish topshiriqlarini eslatadi, seminar mashg'uloti otkazish tartibini tushuntiradi.</li> <li>1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda, masalan, kategoriya nima, iqtisodiy qonunlar qanday amal qiladi, milliy iqtisodiyot amaliyotida iqtisodiy qonunlarga misollar keltira olasizmi, kabi savollar orqali auditoriyaning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini aniqlaydi.</li> </ol>	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga tayyorgarlik ko'radi.

	1.3. Baholash mezonlarini tushuntiradi. 1.4. Mashgulot davomida oquv materiallari (ma'ruza matni, oquv qollanmalari)dan foydalanish mumkinligini eslatadi.	
<b>2-bosqich. Asosiy (55 min.)</b>	2.1. Talabalarning tayyorlaridan seminar mashguloti savollari ketma-ketligida javoblarini eshitadi. Dastlabki iqtisodiy qarashlar paydo bolish shart-sharoitlarini soraydi(1-ilova boyicha). Javoblarni toldiruvchilar bolsa, ularga navbat beradi. Faol talabalarning qoshimcha ravishda ragbatlantirilishini ma'lum qiladi. Jurnalga tegishli qaydlarni yozadi. 2.2. Har bir akademik guruhdan qoshimcha ravishda 2-3 talabani savolga tutadi, javoblarini eshitadi, ularning javoblarini baholaydi(2-3 ilova). Bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar tarqatadi(4- ilova). 2.3. Vaqti-vaqti bilan talabalar javobini sharhlaydi, umumlashtiradi, oz munosabatini bildiradi, aniqlik kiritadi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradi. 2.3. Javoblarni To'ldiradi. Muhokamada ishtirok etadi.
<b>3-bosqich. YAkuniy (15 min.)</b>	3.1. Mashgulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni ragbatlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Talabalar iqtisodiy tafakkur tarzi rivojlanishida iqtisodiyot nazariyasining ahamiyati", "Tanlangan kasb egasi bolishda iqtisodiy bilimlarning roli" mavzusida "esse" yozishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2 Topshiriqni oladilar.

**1-ilova**

<b>Dastlabki asosiy iqtisodiy qarashlar</b>		
<b>Merkantilizm</b>	<b>Fiziokratlar</b>	<b>Klassik siyosiy iqtisod</b>
jamiyatning boyligi puldan, oltindan iborat bolib, u savdoda, asosan tashqi savdoda paydo boladi va kopayadi, deb tushuntiradi. Merkantilizm – italyanacha "mercante" sozidan olingan bolib, "savdogar" degan ma'noni anglatadi. Bu oqimning namoyondalari: V.Staffod, T.Man, A.Monkreten, Jon Lou, G.Skaruffi va boshqalar.	jamiyatning boyligi qishloq xojaligida vujudga keladi degan goyani ilgari suradilar. Bu ta'limotning asoschisi F.Kene (1694-1774y.) hisoblanadi.	boylikning faqat qishloq xojaligida emas, balki sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarda ham yaratilishini isbotlab berdi. U.Petti (1623-1686 y.) boylikning manbai er va mehnat ekanligini e'tirof etgan. Mehnat boylikning otasi, er uning onasi, degan ibora unga tegishlidir. A.Smit "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari togrisida tadqiqot" (1776 y.) asarida talab va taklif asosida shakllanadigan erkin narxlar asosida bozor oz-ozini tartibga solishi ("korinmas qol") goyasini ilgari suradi. Insonni faollashtiradigan asosiy ragbat shaxsiy manfaatdir deb korsatadi. D.Rikardo qiymatning turli sinflar daromadlari va foydaning yagona manbai mehnat ekanligini korsatadi.

## «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining predmetiga berilgan asosiy ta'riflar

mualliflar	ta'rif	asarlari
M.N.Chepurin, Kiseleva E.A.	Iqtisodiyot nazariyasi kishilarning iqtisodiy xatti-harakatini, ya'ni ularning moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bilan bogliq harakatlarini organadi	Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik G' Pod obh. red. prof. Chepurina M.N., prof. Kiselevoy E.A. – 6-ispravlennoe, dopolnennoe i pererabotannoe izdanie.– Kirov: «ASA», 2007, s.28.
S.S.Nosova	Ishlab chiqaruvchi kuchlarning erishilgan darajasi asosida moddiy ne'mat va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish bo'yicha kishilar ortasida vujudga keluvchi ishlab chiqarish munosabatlarining yigindisi	Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya. Elementarno'y kurs: uchebnoe posobie G' S.S.Nosova. – M.: KNORUS, 2008, s.16.
G.P.Juravleva, V.I. Vidyapin	Umumiy iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bolib, u cheklangan resurslar sharoitida ehtiyojlarni qondirish maqsadida moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida kishilar va guruhlarining xatti-harakatini organadi	Ekonomicheskaya teoriya (politekonomiya): Uchebnik G' Pod obh. red. akad. V.I.Vidyapina, akad. G.P.Juravlevoy. – 4-e izd. - M.: INFRA-M, 2004, s.31.
E.F.Borisov	Ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishda tarkib topuvchi kishilar ortasidagi munosabatlarni organadi	Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya: voprosy – otveto': Ucheb. posobie. – 2-e izd., pererab. i dop. M.: INFRA-M, 2008, s.16.

## 3-ilova

## Ushbu tushunchalarning mazmunini yoriting.

Iqtisod, iqtisodiyot, ehtiyojlar, iqtisodiy resurslar, iqtisodiyot nazariyasi. Iqtisodiyotning doimiy va bosh muammosi – ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligidir. Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy iqtisodiy oqimlar, ularning ta'limotlari.
---

## 4-ilova

## “B.B.B.” usuli asosida bilimlarni aniqlash bo'yicha tushuncha va atamalar

		Bilaman Q”, Bilmayman “-”.	Bildim “Q”, Bila olmadim “-”.
1	Iqtisodiyot va uning bosh masalasi		
2	Iqtisodiy resurslar		
3	Ehtiyojlarning cheksizligi		
4	Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi		
5	Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida qaror topishi		
6	Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar		
7	Ehtiyojlarning turlari		
8	Ehtiyojlarni qondirish muammolari		
9	Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti		
10	Iqtisodiy qonunlar		
11	Iqtisodiy kategoriyalar		

<b>2-Mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari</b>	
<b>Ma'ruza mashg'ulotining O'qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt:</b> 2 soat	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>Oquv mashg'ulotining shakli</b>	Axborot ma'ruza, "B.B.B" jadvali grafik organayzeridan foydalangan holda birgalikda oqish usuli
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasini</b>	1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari. 2. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar. 3. Mulchilik munosabatlarining iqtisodiy mohiyati. 4. Mulchilik shakllari. Mulch ob'ektlari va sub'ektlari. 5. O'zbekistonda mulchilik munosabatlarining qaror topishi va rivojlanish xususiyatlari.
<b>Oquv mashg'ulotining asosiy maqsadi:</b> Talabalarga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari, iqtisodiy tizimlar, mulchilik munosabatlari, mulch shakllari, O'zbekistonda mulchilik munosabatlari qaror topish xususiyatlari togrisida talabalarda tushuncha va tasavvur hosil qilish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlariga formasion, texnologik, madaniylashgan yondashuv togrisida ma'lumot berish; - ijtimoiy-iqtisodiy tizim mohiyatini ochib berish; - mulch, mulchilik munosabatlariga ta'rif berish; - mulch shakllarini tavsiflash; - O'zbekistonda mulchilik munosabatlari qaror topishi xususiyatlarini ochib berish.	<b>Oquv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: - formasion, texnologik va madaniylashgan yondashuvlardan kelib chiqib ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari mohiyatini tushuntirib beradi; - tizim, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, uning turlarini tavsiflab bera oladi; - mulch, mulch shakllari, mulch ob'ekti, sub'ekti, mulchilik munosabatlari tushunchalariga ta'rif beradi; - O'zbekistonda mulchilik munosabatlari qaror topishi boyicha tahliliy ma'lumotga ega boladi.
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Axborot ma'ruzasi, Insert, blis-sorov, prezentasiya, grafik organayzer texnikalari, "B.B.B." jadvali
<b>O'qitish vositalari</b>	ma'ruza, individual, guruh bilan ishlash
<b>O'qitish shakli</b>	Ma'ruza matni, proektor, qogoz, marker, KTG'OTV, doska, bor
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (15 min.)</b>	1.1. Dastlab dolzarb iqtisodiy voqealar, ozgarishlar, xabarlar togrisida ma'lumot beradi. Iloji bolsa, mavzuga aloqador joylarini topib, shunga urgu beradi. 1.2. Oquv mashg'ulotining mavzu va rejasini ma'lum qiladi. 1.3. Mazkur mashg'ulotning ayrim savollari muammoli tarzda muhokama qilinishini e'lon qiladi. Talabalarni faol bolishga chaqiradi.	1.1. Eshitadi, asosiy joylarini yozib oladi. 1.2. Rejani yozib oladi. 1.3. O'qituvchiga savollar beradi.
	2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va asosiy kategoriyalar va tushunchalarga qaratadi. Mulch, mulch shakllari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellari boyicha blis-sorov otkazadi. 2.2. Asosiy tushunchalardan kamida 12-15 tasi boyicha	2.1. Talabalar javob beradilar, daftarlariga jadval chizadilar,

<p><b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(50 min.)</b></p>	<p>auditoriyadagi talabalar bilimlari darajasini aniqlash maqsadida “B.B.B.” (“bilaman”, “bilishni xohlayman”, “bildim”) jadvalini daftarga chizishni taklif etadi(2-ilova). Doskaga faol talabalardan birini chiqaradi.</p> <p>2.3. Mavzuga talabalar e’tiborini jalb qilish maqsadida muammoli savollarni ortaga tashlaydi va ularni birgalikda oqishga chorlaydi(3-ilova). YUqoridagi savollarga javoblar mavzuning asosiy tushuncha va kategoriyalari mazmunini ochib berish jarayonida berib boriladi.</p> <p>2.4. <b>Talabalarga bir narsa doimiy ravishda singdirib, uqdirib boriladi:</b> “Chet tilini yaxshi ozlashtirish uchun talabalarda lugat boyligi kopaytirib borilgani singari, iqtisodiyot ilmini egallash uchun ham iqtisodiy tushuncha, atama va kategoriyalar mohiyatini chuqur bilib olish zarur. Har bir talabaning oz iqtisodiy atamalar izohli lugati shakllanishi shart”.</p> <p>2.5. Bilimlarni sinash uchun test materiallar tarqatadi (4-ilova).</p>	<p>jadvalning 1 va 2 ustunlarini toldiradilar.</p> <p>2.2. Muammoli savollarga e’tiborni qaratadilar va yozib oladilar.</p> <p>2.3. Muammoli savollar yuzasidan oz javoblarini taklif qiladilar. Munozara qiladilar.</p> <p>2.4. Mavzu savollari boyicha optimal javoblar yuzasidan takliflar beradi. Shuningdek, “B.B.B.” jadvalining 5-ustunini toldiradilar.</p>
<p><b>3-bosqich.</b> <b>YAkuniy</b> <b>(15 min.)</b></p>	<p>3.1. Mavzu savollari boyicha umumiy xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mashgulotda faol ishtirok etganlarni ragbatlantiradi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: “Siz qanday mulkka ustuvor ahamiyat berishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaysiz, nima uchun?” savoliga kengroq, sharhlari bilan javob yozib kelishni topshiradi. Seminar mashgulotlari savollarini yozdiradi.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</p>

*1-ilova*

### **Asosiy tushunchalar mazmuni**

<p><b>Iqtisodiy tizim</b> - bu har bir davr va makonda amal qilinadigan iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xojalik yuritish mexanizmi va iqtisodiy muassasalarning ozaro uzviy bogliqlik asosida tarkib topgan yaxlit iqtisodiy tuzilmasidir.</p> <p><b>Ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizim</b> – resurs va daromadlarning ishlab chiqarilishi, taqsimoti davlat tomonidan hal etiladi, hamma moddiy resurslar va ishlab chiqarish mahsulotlari davlatga tegishli ekani bilan tavsiflanadi.</p> <p><b>Bozor iqtisodiyoti tizimi</b> – xususiy mulkka asoslangan har bir ishlab chiqaruvchining shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy muammolarni hal etish.</p> <p><b>Aralash iqtisodiy tizim</b> – bozor davlat nazorati yordamida toldiriladi.</p> <p><b>Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish</b> – bu davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarini vujudga keltirishdir.</p> <p><b>Xususiylashtirish</b> – bu davlat mulkiga egalik huquqining davlatdan alohida shaxslarga otishidir.</p>
---

**“B.B.B.” usuli asosida bilimlarni aniqlash boyicha tushuncha va atamalar**

<b>№</b>		<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bildim</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
1	Tizim			
2	Iqtisodiy tizim			
3	Ishlab chiqarish usuli			
4	Ishlab chiqaruvchi kuchlar			
5	An'anaviy iqtisodiyot			
6	Bozor iqtisodiyoti			
7	Ma'muriy -buyruqbozlik			
8	Mulk			
9	Mulkchilik			

3-ilova

**Munozaraga undovchi savollar:**

- a) Qaysi mulk shakllarida iqtisodiy faoliyat natijalari samaraliroq boladi, nima uchun?  
 b) O'zbekistonda yangi mulkchilik munosabatlari qaror topishining asosiy xususiyatlarini korsating.  
 v) Nima uchun mulkiy munosabatlar jamiyatning asosiy iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi?

4-ilova

**Test****1. Iqtisodiyotning bosh masalasi va doimiy muammosi:**

- a) nima, qanday, qancha va kim uchun ishlab chiqarish;  
 b) ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qancha ishchi kuchi sarflash kerak;  
 v) davlatning milliy daromadini qanday oshirish mumkin;  
 g) mahsulotni yangi texnologiya orqali ishlab chiqarish kerak.

**2. Iqtisodiyot nazariyasi fani qanday hodisalarni organadi va ularni ommaga etkazadi?**

- a) hayotiy; b) jamiyat; v) statistik; g) iqtisodiy.

**3. Iqtisodiy nazariyaning qaysi oqimida savdo-sotiq va asosan tashqi savdo barcha boyliklarning manbai, deb hisoblanadi?**

- a) merkantilizm;  
 b) fiziokratlar;  
 v) klassik burjua iqtisodiy maktabi;  
 g) marksistik nazariya.

**4. Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasining qaysi oqimida iqtisodiy osishni ta'minlashning va tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi?**

- a) keynschilar; b) monetarizm; v) institusionalizm; g) liberalizm.

**5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?**

- a) ijtimoiy munosabatlarni organish;  
 b) siyosiy munosabatlarni organish;  
 v) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xojaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun-qoidalarini organish;  
 g) huquqiy munosabatlarni organish.



<b>2-Mavzu. Ijtimoiy - iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari</b>	
<b>Seminar mashg'ulotining O'qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt:</b> 2 soat	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>Oquv mashg'ulotining shakli</b>	Ma'ruzada olingan bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, hamda mustaqil topshiriq natijalari bo'yicha muammoli seminar
<b>Seminar mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari, ularning asosiy belgilari.</li> <li>2. Industrial va postindustrial taraqqiyot bosqichlari xususiyatlari.</li> <li>3. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar shakllanish shart-sharoitlari.</li> <li>4. Mulchilik munosabatlarining mohiyati (egallik qilish, tasarruf etish, foydalanish va ozlashtirish).</li> <li>5. Mulk shakllarining xilma-xilligi va ularning turlari.</li> <li>6. O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonining bosqichlari, vazifalari va natijalari. Inqiroz sharoitida xususiylashtirish va milliylashtirish masalalari.</li> </ol>
<b>Oquv mashg'ulotining asosiy maqsadi:</b>	
ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari, iqtisodiy tizimlar, mulchilik munosabatlari, mulk shakllari, O'zbekistonda mulchilik munosabatlari qaror topish xususiyatlari to'g'risida talabalardagi tushuncha va bilimlarni mustahkamlash.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b>
<p>Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlari va bosqichlari to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar bo'yicha tafsilotli ma'lumotlarga ega bolish;</li> <li>- mulk, mulchilik munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tola tushuntirish;</li> <li>- mustaqillik davrida O'zbekistonda mulchilik munosabatlari qaror topishi va rivojlanishi yonalishlari bo'yicha umumiy bilimlarni mustahkamlash.</li> </ul>	<p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- formasion, texnologik va madaniylashtirish yondashuvlardan kelib chiqib ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari mohiyatiga etib boradi;</li> <li>- tizim tushunchasining mohiyatini bilib oladi;</li> <li>ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarini qiyosiy tavsiflay oladi;</li> <li>- mulk, mulk shakllari, mulk ob'ekti va sub'ekti, mulchilik munosabatlari tushunchalarining ahamiyatini bilib oladi;</li> <li>- O'zbekistonda mulchilik munosabatlari rivojlanishining asosiy yonalishlari to'g'risida tasavvurga ega boladi, ushbu jarayonlar bo'yicha mustaqil fikrlar shakllanadi.</li> </ul>
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Muammoli usul, aqliy hujum, blis-sorov, prezentasiya, "B.B.B." jadvali.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matni, proektor, qogoz, marker, KTG'OTV, doska, bor.
<b>O'qitish shakli</b>	Frontal, kollektiv, guruhlarda
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

#### **Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	<p>1.1. Ma'ruza mashg'ulotidagi kabi, dastlab dolzarb voqealar, yangiliklar, xabarlar qisqacha, ya'ni 2-3 daqiqa toxtaladi, ularning iqtisodiy taraqqiyot nuqtai nazaridan ahamiyati yoritiladi.</p> <p>1.2. Seminar mashg'ulotining mavzusi, reja va maqsadi yana bir marta eslatiladi.</p>	1.1. Eshitadi va yozadilar.

<p><b>2-bosqich.</b> <b>Bilimlarni faollashtirish</b> <b>(10 min.)</b></p>	<p>2.1. Asosiy tushunchalar boyicha blis-sorov otkazadi(1-ilova). Bir necha javoblarni eshitadi va faoliyat kichik guruhlarda davom etishini aytadi. 2.2. Asosiy tushunchalar va kategoriyalarni qaytaradi, tasnifini tayyorlashni aytadi.</p>	<p>2.1. Eshitadilar, savollar beradilar. 2.2. Javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(45 min.)</b></p>	<p>3.1. Guruh katta bolganligi sababli talabalarni joylashuviga qarab shartli 4 guruhga boladi va tayyorlanish uchun har bir guruhga topshiriq beradi(2-ilova). 3.3. Guruhlar ishni boshlashi lozimligini e'lon qiladi. Guruhlar ishlariga maslahat beradi. Javoblarni umumlashtirish va taqdimot etish zarurligini eslatadi. 3.4. Taqdimot jarayonini va jamoa bolib muhokama qilishni tashkil qiladi.</p>	<p>3.1. Guruhlarda ishlaydilar: -ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning asosiy belgilarini tizimlashtiradi; - ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari mohiyatini qiyosiy tushuntiradi; - mulk, mulkchilik munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini dolzarbligidan kelib chiqib yoritib beradi; - mustaqillik davrida O`zbekistonda mulkchilik munosabatlari qaror topishi va rivojlanishi xususiyatlarini sanab otadi. 3.2. Taqdimotni namoyish etadi, savollarga javob beradi.</p>
<p><b>4-bosqich.</b> <b>YAkuniy</b> <b>(15 min.)</b></p>	<p>4.1. Mavzuni yakunlaydi, ishtirokchilarni baholay-di va ragbatlantiradi. 4.2. Keyingi ma'ruza mashguloti savollarini eslatadi, ahamiyat berish kerak jihatlarni aytadi.</p>	<p>Eshitadilar va topshiriq-ni yozib oladilar.</p>

**1-ilova**

**Asosiy tushunchalar boyicha blis-sorovnoma**

<p>1.Iqtisodiy tizim nima? 2.An'anaviy iqtisodiy tizimga tarif bering. 3.Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizimning afzalligi bormi? 4.Bozor iqtisodiyotiga otish shartmi? 5.Aralash iqtisodiy tizimda hamma narsa aralashib ketmaydimi? 6.Qanday shart-sharoitlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga olib keldi? 7.Xususiylashtirish samarasi nimalarda korinadi?</p>
--

**2-ilova**

**Guruhlarga savollar:**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Formasion, texnologik va madaniylashgan yondashuvlardan kelib chiqib ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlari mohiyatini tushuntirib bering;
3. Mulk, mulkchilik munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati qanday?
4. Mustaqillik davrida O`zbekistonda mulkchilik munosabatlari qaror topishi va rivojlanishi boyicha nimalar bilasiz.

**Mavzu boyicha nazorat savollari**

1. Taraqqiyot bosqichlarini bilishda qanday yondashuvlar mavjud?
2. Ishlab chiqarish usuli nima va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
3. Ishlab chiqarish usullarining eng muhim oziga xos belgilarini korsating.
4. Ishlab chiqarish texnologik usullarining bosqichlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?
5. Iqtisodiy tizimlarni farqlantiradigan asosiy belgilarini sanab korsating.
6. Mulkchilikning mohiyatiga ta'rif bering va uning turli shakllarining iqtisodiy mazmunini tushuntiring.
7. Bozor iqtisodiyotiga otish nima uchun mulkchilikning turli shakllarini taqozo qiladi?

**4-ilova**

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy qonun-qoidalari:				
davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vaqtida mulkni pulli va pulsiz topshirishni qo'shib olib borish;	pulsiz va pulli xususiylashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolar tengligi;	davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida barcha fuqarolarning ijtimoiy rimoya qilinishini ta'minlash;	davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo'lga qo'yish;	monopoliya ga qarshi qonunlar talablariga rioya etish.

Mulkiy jihatdan qaraganda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni ikki toifaga ajratish mumkin.	
<p><b>Monostruktuhali</b> (bir tarkibli) tizimlar. Bu tizimlarning asosiy belgisi bir mulk shaklining hukumron bo'lishidir. Bu yerdagi mulkiy monopoliya xususiy mulk yoki davlat mulkining hukumronligi bilan ajhalib turadi. YAKka mulkka tayangan iqtisod monotizim yoki monoiqtisodiyot bo'ladi.</p>	<p>Turli-tuman mulk shakllariga tayangan, ayrim mulk shaklining ustivorligini inkor etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar. Ularni politizm, ularga xos iqtisodni poliqtisodiyot deyish mumkin. Bunday tizimda mulkiy muvozanat hosil bo'ladi, hamma mulk shakllari rivojlanish sharoiti bir xil bo'ladi. U har qanday monopoliyani inkor etadi. Poliiqtisodiyot mazmunan aralash iqtisodiyotdir. Monoiqtisodiy tizim tarixan muqarhar bo'lganidek, uning o'rniga poliiqtisodiy tizimning kelishi ham zaruratdir.</p>

<b>3-Mavzu. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi va bozor munosabatlarning shakllanishi</b>	
<b>Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi</b>	
<i>Vaqt: 2 soat</i>	Talabalar soni: 45-50 nafar
<i>Oquv mashg'ulotining shakli</i>	Vizual ma'ruza, savol-javob
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</i>	1. Tovar ishlab chiqarishga otish jarayoni shart-sharoitlari. 2. Tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari. 3. Qiymatning mehnat nazariyasi. Uning ahamiyati. 4. Pulning kelib chiqishi, mohiyati va funksiyalari. 5. Bozor islohotlari sharoitida O`zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish jarayoni.
<i>O'quv mashg'ulotining asosiy maqsadi:</i> Tovar ishlab chiqarishga otish shart-sharoitlari va ob'ektiv sabablari, tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari, pulning mohiyati va asosiy funksiyalari hamda O`zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish xususiyatlarini tushuntirish va talabalarda ilmiy tushunchalar hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - tovar ishlab chiqarishga otish jarayonining ob'ektiv zarurat ekanligini asoslaydi; - tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlarini korsatib beradi; - qiymatning mehnat nazariyasi mohiyatini ochib beradi; - pulning kelib chiqish sabablarini tushuntiradi, iqtisodiy mazmuni va asosiy funksiyalarini korsatadi; - O`zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish jarayonining oziga xosligini yoritadi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - tovar ishlab chiqarishga otish jarayonining ob'ektiv zaruratligini bilib oladi; - tovar, uning xossalari va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari togrisida bilimga ega boladi; - qiymatning mehnat nazariyasi mohiyatini tushunadi; - pulning kelib chiqish sabablarini, uning iqtisodiy mazmuni va asosiy funksiyalarini bilib oladi; - O`zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish jarayonining oziga xos jihatlarini bilib oladi.
<i>O'qitish uslubi va texnikasi</i>	Ma'ruza, axborot, tovar namunalari, pul banknotalari
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, proektor, OTVG`KT grafik organayzer
<i>O'qitish shakli</i>	Guruhiy, kollektiv
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Jihozlangan auditoriya

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<i>1-bosqich. Kirish (15 min.)</i>	1.1. Dastlab O`zbekistondagi bozor va iqtisodiy islohotlar, hamda dolzarb iqtisodiy yangiliklari, xabarlarini boyicha qisqa ma'lumot beriladi. Fan predmetidan kelib chiqib bu jarayonlarning ahamiyati tushuntiriladi. 1.2. Ma'ruza mavzusi va rejasi e'lon qilinadi. Avvalgi mavzuga bogliq jihatlari korsatiladi.	1.1. Eshitadilar, yozadilar va fikr bildiradilar.
	2.1. Mavzu savollarining ozaro mantiqiy bogliqligi tushuntiriladi. 2.2. Dars boshlanishida "bilaman-bildim" jadvalini toldirish uchun tushunchalar, atamalar va	2.1. Muammoli savol-larga e'tibor

<p><b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(50 min.)</b></p>	<p>kategoriyalar jadvali tarqatiladi(1-6 ilovalar). 2.3. Quyidagilar darsning asosiy savollari sifatida tushuntiriladi: - tovar ishlab chiqarishga otish jarayonining ob'ektiv zarurat ekanligi; - tovar va tovar ishlab chiqarishning xususiyatlari; - qiymatning mehnat nazariyasi; - pulning kelib chiqish sabablarini tushunish, iqtisodiy mazmuni va asosiy funksiyalarini aniqlash; - O`zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish jarayonining oziga xos ekanligi. 2.4. Xulosada tovar-pul munosabatlari bozor munosabatlariga chambarchas bogliqligi asoslanadi. 2.5. "Tovar-pul munosabatlari" klasterini shakllantirish boyicha tavsiyalar beriladi.</p>	<p>beradilar: «bilaman-bildim» jadvalining 1 va 2-ustunini toldi-radilar. 2.2. Eshitadilar, yozadilar. 2.3. "Tovar-pul munosabatlari" klas-teri boyicha tavsiya-larni yozib oladi.</p>
<p><b>3-bosqich.</b> <b>YAkuniy</b> <b>(15 min.)</b></p>	<p>3.1. Mavzu boyicha 2-3 ta xulosa chiqaradi. Faol talabalar nomlarini aytadi va baholaydi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beradi: "O`zbekistonda bozor islohotlarigacha qanday iqtisodiy munosabatlar hukmron edi", "YAngi tizimga otishning tovar-pul munosabatlariga aloqadorligi nimada?" mazmunidagi savollar mustaqil ishlash uchun beriladi.</p>	<p>3.1. Eshitadilar, savollarini beradi va yozib oladilar. 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.</p>

*1-ilova*

**"B.B.B." jadvali asosida asosiy tushuncha va atamalar**

		<b>Bilaman "Q", Bilmayman "-".</b>	<b>Bildim "Q", Bilaolmadim "-".</b>
1	Natural ishlab chiqarish		
2	Tovar ishlab chiqarish		
3	Tovar		
4	Tovar qiymati		
5	Almashuv qiymati		
6	Mehnat unumdorligi		
7	Mehnat intensivligi		
8	Qiymatning mehnat nazariyasi		
9	Oddiy mehnat		
10	Murakkab va malakaviy mehnat		
11	Qiymat qonuni		
12	Pul vazifalari		
13	Oltining qiymati		
14	Naqd pullar		
15	Kredit pullar		

**Ijtimoiy xojalikni tashkil etishning umumiy iqtisodiy shakllari**

Natural ishlab chiqarish		Tovar ishlab chiqarish
Mahsulotlarni ishlab chiqaruvchining oz ehtiyojlarini qondirishi uchun, xojalik ichki ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilishi		Tovar yoki xizmatlarning ishlab chiqaruvchining oz iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish uchun yaratilishi

**Natural va tovar xojaliklarining bir-biridan farqlanishi**

Asosiy jihatlar	Natural xojalik	Tovar xojaligi
Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish maqsadi	Shaxsiy ehtiyojlarni qondirishda foydalanish	Boshqa tovarlarga ayirboshlash, bozorda oldi-sotdi qilish
Ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibining aniqlanishi	Ehtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda oldindan aniqlanadi	Bozordagi muayyan talab va ishlab chiqaruvchining xususiy manfaati asosida aniqlanadi
Iste'molchini o'ziga jalb etish uchun kurash	Bunday kurash mavjud emas	Bunday kurash mavjud va tovar xojaligining rivojlanishi bilan kuchayib boradi
Ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilinishi darajasi	Barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar talagicha iste'mol qilinadi	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar ayrim turlari va qismlarining sotilmay qolishi, ya'ni iste'mol kilinmasligi
Ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining ishtirok etish tamoyillari	Ishlab chiqarish jarayonida faqat ozi va oila a'zolarining mehnatidan foydalaniladi	Ishlab chiqarish jarayonida yollanma ishchi kuchidan ham foydalanish mumkin

**Tovar xojaligining vujudga kelishi va amal qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari**

1. Ijtimoiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv	2. Xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi	3. Ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy jihatdan bir-biridan alohidalashuvi
---	---	--

**Mehnat unumdorligi oshishiga ta'sir korsatuvchi omillar**


ehnat quollarining rivojlanishi darajasi va samaradorligi	Fan va texnika taraqqiyoti darajasi	Ishchining malaka darajasi	Fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish darajasi
---	-------------------------------------	----------------------------	--

**Pul va uning vazifalari**

**Pul** – tovarlarni ayirboshlashda umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi maxsus tovar.

**Tolaqonli pullar** – haqiqiy pullar bolib, unda qiymatga ega pulli tovar ishtirok etadi.

**Toliqsiz pullar** – tolaqonli pullarning orinbosari bolib, qiymati muhim bolmagan va shunga muvofiq nominaliga togrri kelmaydigan pul belgilari



<b>3-Mavzu. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi va bozor munosabatlarning shakllanishi</b>	
<b>Seminar mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt: 2 soat</b>	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Mustaqil ishlash konikmalarini shakllantirish bo'yicha muammoli seminar.
<b>Seminar mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelish va bozor munosabatlarning paydo bolishi.</li> <li>2. Tovar va uning xususiyatlari. Tovarning nafiligi va ayirboshlanish nisbati (qiymati).</li> <li>3. Tovar qiymati va qiymat qonuni.</li> <li>4. Pulning kelib chiqishi, iqtisodiy mazmuni va vazifalari.</li> <li>5. Tovar-pul munosabatlarning rivojlanish bosqichlari.</li> <li>6. O'zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish shart-sharoitlari.</li> </ol>
<b>Oquv mashg'ulotining asosiy maqsadi:</b> tovar-pul munosabatlari rivojlanishining bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilinishidagi roli va ahamiyatini tushunib olish, asosiy iqtisodiy kategoriyalarning mohiyatini bilib olish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishining bozor munosabatlari paydo bolishiga bogliqligini tushuntirish; - tovarning xususiyatlari, nafiligi va ayirboshlanish nisbati togrisida tasavvur hosil qilish; - qiymat qonunining amal qilishi togrisida tushuncha hosil qilish; - pulning kelib chiqishi va tovar-pul munosabatlarning rivojlanish bosqichlarini korsatish; - O'zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish shart-sharoitlarini korsatish.	<b>Oquv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: – tovar, qiymat, iste'mol qiymati, almashuv qiymati, pul kategoriyalariga ta'rif bera oladi; – tovarning asosiy xususiyatlarini tavsiflay oladi; – qiymat qonunining mazmunini tushuntirib bera oladi; – O'zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish shart-sharoitlari va xususiyatlarini bilib oladi.
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Muammoli usul, blis-sorov.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matni, proektor, marker, konspektlar
<b>O'qitish shakli</b>	Frontal, jamoa va guruhlarda ishlash.
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Guruhlarda ishlash uchun moljallangan auditoriya

#### **Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	1.1. Mavzu, reja va maqsad, seminar mashg'ulotining rejasi ma'lum qilinadi.	<i>Eshitadilar va mavzuni yozadilar</i>
<b>2-bosqich. Asosiy (45 min.)</b>	2.1. Muammoli masalalarni oqib beradi, muammoni shakllantiradi va muammoli dars qoidasini eslatib otadi (1-ilova). 2.2. Bilimlarni faollashtirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida blis sorov va test otkazadi (2 va 3-ilova).	2.1. Eshitadilar, eslaydilar. Savollarga javob beradilar. 2.2. Guruhlarda ishlaydilar



	<p>2.3. Talabalarni guruhlarga boladi va guruhlar e'tiboriga vazifani havola qiladi. Vazifa sifatida berilgan muammoli savollarning javoblarini guruhlarda ozaro muhokama qiladi va taqdimotga tayyorlaydi.</p> <p>2.4. Guruh sardorlari muhokamani, oz prezentasiya-larini taqdimotlarini namoyish qilishiga taklif etadi.</p> <p>2.5. Noaniq jihatlarni aniqlashtiradi, savollarga javob beradi. Bajarilgan ishlarni, guruhlar faoliyatini baholaydi. O'zlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat savollari beradi.</p> <p>Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari xususiyatlarini tushuntiradi (4--ilova).</p>	<p>taqdimotga tayyorlanadilar.</p> <p>2.3. Raqib guruhga savollar beradi. Munozarada ishtirok etadi. Eshitadilar, yozib oladilar.</p> <p>2.4. Savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich.</b> <b>YAkuniy</b> <b>(15 min.)</b></p>	<p>3.1. Mavzuni yakunlaydi, umumiy xulosa chiqaradi, ishtirokchilarni baholaydi, ragbatlantiradi.</p>	<p>3.1.Eshitadi, aniqlashtiradi va topshiriqni yozib oladilar.</p>

*1-ilova*

**Munozara uchun savollar:**

1. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelish va bozor munosabatlarining paydo bolishi ortasida qanday bogliqlik mavjud?
2. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga nimalar sabab bolgan?.
3. O'zbekistonda tovar-pul munosabatlari qaror topish shart-sharoitlarini tushuntiring.

*2-ilova*

**Blis-sorov uchun savollar**

1. Tovarning xususiyatlaridan qaysi biri asosiy hisoblanadi?
2. Tovar qiymatining miqdoriga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
3. Pul sotiladimi, sotilsa qiymati nimaga teng boladi?
4. Tovarning nafililigi va aniq mehnat ortasida qanday bogliqlik bor?
5. Tovarning almashuv qiymati va abstrakt mehnat ortasida qanday bogliqlik bor?
6. Tovar qiymatining asosini nimalar tashkil etadi?

*3-ilova*

**Testlar**

**1. Tovar xojaligining vujudga kelishi va rivojlanish shart-sharoitlari nimadan iborat?**

- a) ijtimoiy mehnat taqsimoti;
- b) mulk egalarining alohidalashuvi;
- v) mahsulotning ayirboshlash uchun ishlab chiqarilishi;
- g) bozorlarning vujudga kelishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**2. Tovar qiymati qanday mehnat sarflarini ifodalaydi?**

- a) individual;
- b) zaruriy;
- v) qoshimcha;
- g) ijtimoiy-zaruriy;
- d) umumiy.

**3. Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bogliq?**

- a) muomala vositasi;
- b) tolov vositasi;
- v) qiymat olchovi;
- g) jamgarma vositasi;
- d) jahon puli.

**4. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?**

- a) mahsulot miqdorini uni ishlab chiqarishga ketgan ish vaqtiga nisbati bilan;
- b) mahsulot miqdorini qilingan sarf-xarajatlarga nisbati bilan;
- v) mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yoli bilan;
- g) mahsulot miqdorini aylanma kapitalga taqqoslash yoli bilan;
- d) yuqoridagi barcha usullarda.

**5. Mehnat intensivligi nima?**

- a) mehnatning aniq turining mahsuldorligi;

- b) mehnatning sarflanish tezligi va jadalligi;
- v) qollaniladigan mehnat hajmining ortishi;
- g) qollaniladigan mehnat hajmining qisqarishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**6. Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bogliq?**

- a) muomala vositasi; b) tolov vositasi; v) qiymat olchovi;
- g) jamgarma vositasi; d) jahon puli.

**7. Pulning vazifasi nimadan iborat?**

- a) pul iste'moli bilan ijtimoiy talabga bolgan investisiya omili;
- b) ijtimoiy taklif va almashuv uchun zarur bolgan miqdorni belgilaydigan kapital qoyilmalar omili;
- v) daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimi;
- g) yagona hisob-kitob yurgizish, almashuv, jamgarma, muomala, tolov vositasi vazifasini bajaradi;
- d) iqtisodiy faoliyatni ragbatlantiradi.

**8. Pulning kutilmagan qadrsizlanishidan aholining qaysi qismi koproq jabr koradi?**

- a) obligasiya egalari; b) ishlab chiqaruvchilar;
- v) qarz oluvchilar; g) dehqon (fermer) xojaligi;
- d) doimiy daromad oluvchilar.

**9. Pulning aylanish tezligi nimaga ta'sir qiladi?**

- a) tovar bahosiga; b) muomala uchun zarur pul miqdoriga;
- v) ayirboshlash kurslariga; g) foiz stavkasiga;
- d) sof eksport hajmiga.

**10. Pulning vazifalaridan qaysi biri uning muomaladan chiqarilishini taqozo qiladi?**

- a) muomala vositasi; b) qiymat olchov vositasi;
- v) jahon puli; g) tolov vositasi;
- d) boylik toplash vositasi.

**4-ilova**

**Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari**

<b>Mezonlar</b>	<b>Ijtimoiy yo`naltirilgan bozor</b>	<b>Aralash iqtisodiyot</b>	<b>Korporativ iqtisodiyot</b>
<i>Davlat dasturlarining maqsadga yo`naltirilganligi</i>	Fuqarolar manfaatlarini himoya qilish	Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha shart-sharoitlar yaratish	Yirik ishlab chiqarish manfaatlarini himoya qilish
<i>Iqtisodiyotni tartibga solish tamoyillari</i>	Uzoq muddatli dasturlarning ishlab chiqilishi	Taktik usullardan ustun ravish-da foydalanish	Asosiy ustuvorliklarni belgilab olish
<i>Davlat sektorining iqtisodiyotdagi ulushi</i>	30%	10% atrofida	Ahamiyatsiz darajada
<i>Ko`rsatilgan mezonlarga muvofiq keluvchi davlatlar</i>	Germaniya	AQSh	YAponiya, Shvesiya

<b>4-Mavzu. Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o`tishning O`zbekistondagi xususiyatlari</b>	
<b>Ma`ruza mashg`ulotining o`qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt:</b> 2 soat	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>O`quv mashg`ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish boyicha seminar mashg`uloti
<b>Ma`ruza mashg`ulotining rejasi</b>	1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari. 2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari. 3. Bozor turlari va tuzilishi. 4. Bozor iqtisodiyotiga otish yollari, ularning farqlari va umumiy tomonlari. 5. O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga otishning asosiy xususiyatlari.
<b>Ma`ruza mashg`ulotining asosiy maqsadi:</b> talabalarga bozor iqtisodiyotining amal qilishi va rivojlanishi hamda O`zbekistonda bozor munosabatlari shakllanishining asosiy xususiyatlari togrisida bilim berish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - bozor iqtisodiyotining mazmunini ochib berish va uning asosiy belgilarini korsatish; - bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlarini tahlil qilish; - bozor turlari va tuzilishini korsatish; - bozor iqtisodiyotiga otish modellari togrisida tushuncha berish; - O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga otishning asosiy xususiyatlarini ochib berish; - O`zbekistonda bozor islohotlarning asosiy va muhim natijalarini tushuntirish.	<b>O`quv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: - bozor iqtisodiyotining mohiyati va asosiy belgilarini bilib oladi; - bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlarini idrok eta oladi; - bozor turlari va tuzilishi togrisida tasavvurga ega boladi; - bozor iqtisodiyotiga otish yollarining oziga xos jihatlarni bilib oladi; - O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga otish xususiyatlari va bozor islohotlarning asosiy natijalarini tahlil qila oladi.
<b>O`qitish uslubi va texnikasi</b>	Ma`ruza, birgalikda oqiyimiz, munozara.
<b>O`qitish vositalari</b>	Ma`ruzalar matni, oquv qollanmasi, marker, doska
<b>O`qitish shakli</b>	individual va guruh boyicha O`qitish.
<b>O`qitish shart-sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta`minlangan auditoriya.

#### Ma`ruza mashg`ulotining texnologik kartasi

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O`qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	1.1. Darsning avvalida talabalarga blis-savollarni tarqatadi (1-ilova) va javoblarni eshitadi.	1.1. Eshitadilar va savollarga javob tayyorlashadi. 2.1. Topshiriqlarni bajaradi, muammolarni juftlikda muhokama qiladi, savollarga javob beradi.
	2.1. Mavzuga doir asosiy tushunchalarni "Insert" jadvalida tarqatadi. Mazkur tushunchalar to`g`risida mulohaza yuritishni taklif etadi (2-ilova).	2.1. Eshitadilar. "Insert" jadvalini to`ldiradilar. 2.2. Eshitadilar, muhim jihatlarni yozib oladilar.

<p><b>2-bosqich.</b> <b>Asosiy</b> <b>(55 min.)</b></p>	<p>2.2. Bozor iqtisodiyotining muhim belgilarini amaliy misollar orqali tushuntiradi (3-ilova). 2.3. Bozor tushunchasiga ta'rif berishni, uning turlarini sanab berishni taklif etadi. Bozorning asosiy vazifalarini sharhlab beradi. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari xususiyatlarini tushuntiradi (4--ilova). 2.4. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish xususiyatlarini ochib beradi, asosiy tamoyillarini sharhlaydi.</p>	<p>2.3. Bozor tushunchasiga ta'rif beradilar, munozarada qatnashadilar. 2.4. YOzadilar, misollar keltiradilar.</p>
<p><b>3-bosqich.</b> <b>YAkuniy</b> <b>(15 min.)</b></p>	<p>3.1. "Insert" jadvalidagi "?" belgisi qo'yilgan noaniq qolgan savollarga javob beradi. 3.2. Mavzuga xulosa qiladi va faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.3. Seminar mashhulotiga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriq beradi(6-ilova).</p>	<p>Eshitadilar. YOzib oladilar.</p>

*1-ilova*

### **Blis-so'rov uchun savollar**

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurati nimalar bilan izohlanadi?
2. Bozor iqtisodiyoti boshqariladimi yoki o'z-o'zidan amal qiladimi?
3. Qaysi davlatlar bozor iqtisodiyoti amal qilishi bo'yicha namuna bo'la oladi?
4. O'zbekistonda bozor islohotlari nimadan boshlandi?
5. Davlat bozor islohotlarining ijrochisimi yoki tashabbuskorimi, nima uchun?
6. Bozor iqtisodiyotisiz xo'jalik yuritib bo'lmaydimi?

*2-ilova*

### **"Insert usuli"**

**Insert** – samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; Q; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### **Insert jadvali**

<b>Tushunchalar</b>	<b>V</b> (men bilgan narsani tasdiqlaydi)	<b>Q</b> (yangi ma'lumot).	<b>-</b> (men bilgan narsaga zid)	<b>?</b> (meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur).
Bozor				
Bozor iqtisodiyoti				
Klassik bozor iqtisodiyoti				
Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari				
Bozor turlari				
Bozorga o'tish yo'llari				
Bozor strategiyasi				
Rivojlangan bozor iqtisodiyoti				
Erkin iqtisodiyot				
YOpiq iqtisodiyot				

**Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari**

Turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo`lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi	tadbirkorlik va tanlov erkinligi	raqobat kurashining mavjudligi	davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi	korxonalar va firmalarning ichki hamda tashqi shart-sharoitlar o`zgarishlariga moslashuvchanligi
--	----------------------------------	--------------------------------	--	--

4-ilova

**Bozorning vazifalari**

Ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni iste'molchilarga etkazish	Ishlab chiqarishning uzluksiz takrorlanib turishini ta'minlash	Iqtisodiyotni tartibga solib turish	Resurslarning erkin harakatini ta'minlash va ularni tarmoqlar o`rtasida taqsimlash
--	--	-------------------------------------	--

5-ilova

**Seminarga tayyorgarlik ko`rish uchun topshiriqlar**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning bozor iqtisodiyoti, bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi fikrlari, qarashlari.
2. Islom Karimov islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni erkinlashtirish to`g`risida.
3. Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari" nomli asari mazmunini gapirib bering.

**4-mavzu. Bozor iqtisodiyoti mazmuni va unga o`tishning O`zbekistondagi xususiyatlari**

**Seminar mashg'ulotining o`qitish texnologiyasi**

<b>Vaqt:</b> 2 soat	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>O`quv mashg'ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti
<b>Seminar mashg'ulotining rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning asosiy belgilari.</li> <li>2. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari.</li> <li>3. Bozor iqtisodiyotiga otish modellari, ularning farqlari va umumiy tomonlari.</li> <li>4. Otish davrida O`zbekistonda bozor islohotlarning konsepsiyasi va strategiyasi.</li> </ol>
<b>Seminar mashg'ulotining asosiy maqsadi:</b> Talabalarning "Iqtisodiyot nazariyasi" fani predmeti va bilish usullari, fanning asosiy qonun va kategoriyalari, boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida shakllangan bilimlarini aniqlash, ularda bu borada mustaqil tafakkur konikmalarini shakllantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> - bozor iqtisodiyotining mazmuni bo'yicha bilimlarni kengaytirish; - bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilish; - bozor iqtisodiyotiga otish modellarining shakllanish shart-sharoitlarini	<b>O`quv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: - bozor iqtisodiyotining mazmuni bo'yicha bilimlari chuqurlashadi; - bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini bilib oladi; - bozor iqtisodiyotiga otish modellarining

tushuntirish; - o`lish davrida O`zbekistonda bozor islohotlarning konsepsiyasi va strategiyasini amalga oshirish bosqichlarini va natijalarini ko`rsatish.	shakllanish shart-sharoitlarini tushunib oladi; - o`lish davrida O`zbekistonda bozor islohotlarning konsepsiyasi va strategiyasini amalga oshirish bosqichlarini, muvaffaqiyatlarini va asosiy natijalarini bilib oladi.
<b>O`qitish uslubi va texnikasi</b>	Blis-sorov, birgalikda oqiymiz, iqtisodiy esse, "bozor iqtisodiyoti", "o`lish davri" sozlariga klaster, munozara.
<b>O`qitish vositalari</b>	Ma`ruzalar matni, oquv qollanmasi, marker, doska
<b>O`qitish shakli</b>	individual va guruh boyicha O`qitish.
<b>O`qitish shart-sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta`minlangan auditoriya.

### Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	talaba
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	1.1. Seminar mashg`ulotining tartibi bilan tanishtiradi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda, masalan, bozorga o`lish shartmi, bozorsiz yashab bo`lmaydimi, rejali iqtisodiyotning afzalliklari ham bor-ku, kabi savollar bilan auditoriyaning mashg'ulotga tayyorgarlik darajasini oshiradi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javoblar tayyorlaydi.
<b>2-bosqich. Asosiy (55 min.)</b>	2.1. Dars mashg`uloti guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e`lon qiladi. Guruhda ishlash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va reglamentni aniqlashtiradi (1,2-ilova). 2.2. Talabalarni 3-6 nafardan qilib guruhlariga ajratadi. Nazorat va natijalarni baholash uchun ekspertlar guruhini shakllantiradi. Guruhlarga o`quv topshiriqlarini topshiradi (3-ilova). Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari (4-ilova) bilan, qanday qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi bilan (darslik, ma`ruzalar matni, Prezident I.A.Karimov asarlari) tanishtiradi. Guruhlarda ishlash boshlanganligini e`lon qiladi. 2.3. Taqdimot va natijalarni baholashni tashkil etadi. Izohlaydi, javoblarni tartibga keltiradi, asosan ishlarni bajarish jarayonida shakllangan xulosalarni umumlashtiradi.	2.1. Eshitadi, mavzuni yozadi. 2.2. O`quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taqsimlaydi, umumiy ma`ruzani shakllantiradi. 2.3. Natijalarni prezentasiya qiladi, nazorat savollariga javob beradi. Qolgan ishtirokchilar taqdimotni to`ldiradi va savollar beradi. Ekspertlar baholaydi.
<b>3-bosqich. YAKuniy (15 min.)</b>	3.1. O`quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. Muammoni hal qilish jarayonida g`olib bo`lgan guruhni aniqlaydi va baholaydi. 3.2. Mustqil ish uchun vazifa beradi.	3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar.

### Seminarda ishlash tartibi va reglament

1. Guruhda ishlash va prezentasiyani yozish – 20 min.
2. Ishning natijalarini taqdimot etish – 5 min.
3. Jamoa bo`lib muhokama qilish va guruhni baholash – 5 min.

### Guruh bilan ishlash qoidalari

Guruhning har bir a'zosi:

- o`z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo`yicha faol, hamkorlikda va mas`uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o`zlariga yordam kerak bo`lganda so`rashlari mumkin;
- yordam so`rganlarga ko`mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

### Guruhlarga topshiriqlar

#### 1-guruh.

##### *1-topshiriq. Test.*

Bozor iqtisodiyotiga o`tishning qanday modellari mavjud?

- a) Osiyocha model;
- b) sobiq socialistik mamlakatlar modeli;
- v) Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlari modeli;
- g) barcha javoblar to`g`ri.

**2-topshiriq.** O`tish davri tushunchasining zamonaviy jihatlari va uni jahonda namoyon bo`lish xususiyatlarini tavsiflang.

*Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".*

##### **3-topshiriq.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

I.A.Karimov iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakatdagi siyosiy o`zgarishlar va davlat qurilishi to`g`risida.

##### **4-topshiriq.** Qisqacha xulosa qiling.

Ma`muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o`tishning xususiyatlari nimadan iborat?

#### 2-guruh.

##### *1-topshiriq. Test.*

Bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o`tishning qanday yo`llari mavjud?

- a) induktiv va deduktiv;
- b) evolyusion va inqilobiy;
- v) «karaxt qilib davolash»;
- g) barcha javoblar to`g`ri.

**2-topshiriq.** O`zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o`tish modeli, uning tamoyil va xususiyatlarini tavsiflang.

*Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".*

##### **3-topshiriq.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

I.A.Karimov o`tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish to`g`risida.

##### **4-topshiriq.** Qisqacha xulosa qiling.

O`zbekistonda iqtisodiy islohotlar konsepsiyasi va strategiyasini roli nimada?

#### 3-guruh.

##### *1-topshiriq. Test.*

O`zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o`tish qaysi yo`l bilan boryapti?

- a) Turkiya modeli asosida;
- b) «karaxt kilib davolash», yo`li bilan;

g) evolyusion yo`l bilan;

d) barcha javoblar to`g`ri.

**2-topshiriq.** Bozor iqtisodiyotiga o`tishda isloxotlar bosqichi va masalalarni tavsiflang.

Javob berishda grafik organayzerdan foydalaning: "Mantiqiy-tarkibiy sxema".

**3-topshiriq.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan ilovalar keltiring.

I.A.Karimov mulk egalarining shakllanishi va bozor islohotlari to`g`risida.

**4-topshiriq.** Qisqacha xulosa qiling.

Nima uchun bozor iqtisodiyotiga o`tishda turli yo`nalishlar va murakkabliklar mavjud bo`ladi?

**4-ilova**

**Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari (ball)**

Baholash ko`rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Guruhlar		
	1	2	3
1-topshiriq (0,3)			
2-topshiriq: - mavzuga mos kelishi, ko`rgazmalilik (0,8); - mantiqiylik, aniqlik (0,5);			
3-topshiriq (0,5)			
4-topshiriq: - xulosalarni aniq shakllantirilganligi (0,5);			
Reglament (0,2)			
Nazorat savollariga to`g`ri javob uchun (0,1)			
Boshqalar tomonidan to`ldirilganligi uchun (0,1)			
Jami (3,0)			

**5-Mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati.**

**Ma`ruza mashg`ulotining o`qitish texnologiyasi**

<b>Vahti: 2 soat</b>	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>O`quv mashg`ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish boyicha seminar mashg`uloti
<b>Ma`ruza mashg`ulotining rejasi</b>	1.Talab tushunchasi, talab qonuni. Talabning hajmiga va miqdoriga ta'sir etuvchi omillar. 2.Talab elastikligi. 3.Taklif tushunchasi, taklif qonuni. Taklifning hajmiga ta'sir etuvchi omillar. 4.Taklif elastikligi. 5. Bozor muvozanati.
<b>Ma`ruza o`quv mashg`ulotining maqsadi:</b> talab va taklif, bozor muvozanati bo`yicha umumiy bilimlarni shakllantirish, bozor iqtisodiyoti rivojlanishi va bozor muvozanatiga erishishida talab va taklif qonunlarining ahamiyatini ochib berish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> -talab tushunchasi, talab egri chizig`i va talab qonuni to`g`risida tushuncha berish; -taklif tushunchasi, uning egri chizig`i va taklif qonuni to`g`risida tushuncha berish; - talab va taklif hajmiga ta'sir etuvchi omillar bo`yicha tasavvur hosil qilish; - bozor muvozanati shart-sharoitlarini tushuntirish,	<b>O`quv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: -talab tushunchasi, talab egri chizig`i va talab qonuni to`g`risida umumiy tushunchaga ega bo`ladi; -taklif tushunchasi, uning egri chizig`i va taklif qonuni to`g`risida umumiy tushunchaga ega bo`ladi; - talab va taklif hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ahamiyatiga ko`ra ajrata oladi; - bozor muvozanati shart-sharoitlarini, uning



	amaliy ahamiyatini bilib oladi.
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Ma'ruza, birgalikda oqiyimiz, munozara.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruzalar matni, oquv qollanmasi, marker, doska
<b>O'qitish shakli</b>	individual va guruh boyicha O'qitish.
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan auditoriya.

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi**

<b>Bosqichlar, vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>talaba</b>
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, maqsadi va rejasini ma'lum qiladi, mashg'ulotdan kutilayotgan o'quv natijalari bilan tanishtiradi. 1.2. Mashg'ulot davomida aniq holatlarni tahlil qilishga e'tibor qilishni eslatadi (talabalarqo'llarida o'tgan dars oxirida tarqatilgan ma'ruza matnlari mavjud).	1.1. Tinglaydi va yozadilar.
<b>2-bosqich. Asosiy (55 min.)</b>	2.1. Avvalgi mavzuni esga solish va ma'ruza matni o'qish natijasida nimalarni o'rganganligini aniqlash maqsadida blis-so'rov o'tkazadi. Vizual meteriallar asosida ma'ruza o'qiydi(1-4-ilovalar): -bozor mexanizmini harakatga keltiruvchi kuchlar qaysilar degan savol bilan murojaat qiladi; -ulardan biri bo'lgan talab kategoriyasi nima va uning miqdoriga nimalar ta'sir qilishini jadval va chizma, grafik yordamida tushuntiradi; -talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillarni tavsiflaydi. 2.2. Taklif, uning miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida axborot beradi. Taklif kategoriyasini ifodalovchi chizmani doskaga chizib ko'rsatadi va aniq misol va masalalar yordamida grafik o'zgarishini tushuntiradi. 2.3. Iste'molchi hatti-harakati nazariyasini tushuntirishda: -naflilik funksiyasi; -so'nggi qo'shilgan naflilik; -yalpi (umumiy) naflilik; -naflilikni maksimallashtirish qoidasi; -iste'molchining muvozanatli holati; -befarqlik egri chizig'i; -iste'molchining optimal tanlovi tushunchalarini yoritib beradi.	2.1. Eslaydi, savollarga javob beradi. YOzib boradi. Talab hamda taklif kategoriyasiga klaster tuzadilar. 2.2. Grafikni chizadilar, misollar keltiradilar.
<b>3-bosqich. YAKuniy (15 min.)</b>	3.1. Mavzuga yakun yasaydi, umumiy xulosalarni shakllantiradi, faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Olingan bilimlarni ahamiyatini ochib beradi. 3.2. Faollik ko'rsatmagan talabalarga qo'shimcha vazifa beradi. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa: test savollari tuzib kelishni topshiradi (5-ilova namuna sifatida beriladi).	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. Topshiriqlarni yozib oladilar.

## O`quv – vizual materiallari

**1-ilova**

<p><b>Talab</b> – xaridor ma'lum narxda, u rasional yoki muhit ta'siri ostida amal qilishidan qat'iy nazar mazkur bozordan sotib oladigan tovar va xizmatlari miqdori.</p>
<p><b>Talab hajmi</b> – xaridorlar ma'lum vaqt va ma'lum joyda mazkur narx bo'yicha xarid qilishga tayyor bo'lgan tovar (xizmat)lar miqdori.</p>
<p><b>Talab qonuni</b> - har qanday bozorda, istalgan vaqtda boshqa teng sharoitlarda tovar narxi va unga talab hajmi orasida teskari bog'liqlik mavjud.</p>
<p>Talab egri chizig'i – Qd va P ning teskari bog'liqligini namoyon etuvchi grafik ko'rinish. U salbiy og'ish burchagiga ega va DD bilan belgilanadi. D (demand) – talab, P (price) – narx, Q – talabdagi tovar miqdori Talab miqdorining o'zgarishi tovar narxi o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi. Bunda talabning o'zi o'zgarmaydi.</p>

**2-ilova**

### Talabning narxga bog'liq bo'lmagan omillari:

- iste'molchilarning ta'bi o'zgarishi
- xaridorlar soni o'zgarishi
- iste'molchilar daromadi o'zgarishi
- o'rinbosar tovarlar narxi o'zgarishi
- iste'molchilar istaklaridagi o'zgarishlar

**3-ilova**

### Talabning turkumlanishi

<i>Ta'sir qilish omillariga ko'ra</i>	<i>Qondirilish darajasiga ko'ra</i>	<i>Ob'ektiga ko'ra</i>
1. Ishlab chiqarish omillariga talab 2. Iste'mol buyumlariga talab	1. Haqiqiy talab 2. Qondirilgan talab 3. Qondirilmagan talab	1. Ekzogen (tashqi omillar ta'siridagi) talab 2. Endogen (ichki omillar ta'siridagi) talab

**4-ilova**

### Test

**1. Talab- bu.....**

- a) ehtiyoj;
- b) pul bilan ta'minlangan ehtiyoj;
- v) bozorga sotishga chiqarilgan mahsulotlar miqdori;
- g) tovar qiymatining puldagi ifodasi;
- d) hammasi to'g'ri.

**2. Bozor talabi- bu.....**

- a) individual talab;
- b) o'zgarmas bozor talabi;
- v) individual talablarning yig'indisi;
- g) bozorda sotishga chiqarilgan tovar va xizmatlarning miqdori;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

**3. Talabga quyidagi omillar ta'sir etadi:**

- a) tovarlarning narxi va miqdori, iste'molchilar soni va daromadi;
- b) birjadagi tovarlar va xizmatlar narxi va aksiyalar kursi;
- v) ishchilarni yollash va ularga haq to'lash;
- g) sotuvchi va xaridorlarning miqdori;
- d) resurslar narxi va ishlab chiqarish texnologiyasi.

**4. Talab qonuni- bu.....**

- a) narx oshgan sari talab xam oshadi va aksincha;
- b) narx oshgan sari talab kamayadi va aksincha;
- v) narxning pasayishi bilan talab kamayadi;
- g) narxning o'zgarishi talabga ta'sir etmaydi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

**5. Talabning o'zgaruvchanligi- bu.....**

- a) talabning ustuvorligidir;
- b) hamma omillar doimiy bo'lgan holda talabning o'zgarishi;
- v) talabning omillarga bog'liq holda tebranishi;
- g) talab bilan taklifning mos kelishi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

**6. Talab o'zgarimas bo'lgan holda narxning o'sishi:**

- a) iste'molchilar xarajatlarining oshishiga olib keladi;
- b) iste'molchilarga hech qanday ta'sir etmaydi;
- v) iste'molchilar daromadining oshishiga olib keladi;
- g) iste'molchilar xarajatlarining kamayishiga olib keladi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

**7. «Narx» bilan «talab» o'rtasida:**

- a) to'g'ri bog'lanish mavjud;
- b) teskari bog'lanish mavjud;
- v) bog'lanish mavjud emas;
- g) korrelyasion bog'lanish mavjud;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**8. Talab > taklif bo'lsa:**

- a) pul taqchil bo'ladi;
- b) bozorda tovarlar o'tmay yig'ilib qoladi; v) bozor muvozanatiga erishiladi;
- g) bozorda takchillik hukm suradi; d) noto'g'ri javob yo'q.

<b>5-Mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati.</b>	
<b>Seminar mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi.</b>	
<b>Vaqt: 2 soat</b>	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish boyicha seminar mashg'uloti
<b>Seminar mashg'ulotining rejasi</b>	1. Talab tushunchasi, uning egri chizig'i va qonuni. Talab hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. 2. Taklif tushunchasi, uning egri chizig'i va qonuni. Taklif hajmiga ta'sir qiluvchi omillar. 3. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari. 4. Talab va taklifning mos kelishi. Bozor muvozanati va uning turlari. 5. Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi. Keyingi tovar nafliligining kamayib borish qoidasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> talab va taklif to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish, o'quv qo'llanmasi bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; - bilimlarni taqqoslashni,	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - talab va taklif tushunchalariga ta'rif beradi; - talab va taklifga ta'sir qiluvchi omillarni

umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko`nikmasini hosil qilish; - o`z fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; - kommunikatsiya, guruhda ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish.	tushunib oladi; - talab va taklif qonunining mazmunini bilib oladi; - iste`molchi hatti-harakati nazariyasi va uning amaliy ahamiyatini tavsiflaydi. - bozor muvozanatining yuzaga kelish shart-sharoitlarini idrok etadi.
<b>O`qitish uslubi va texnikasi</b>	Blis-sorov, birgalikda oqiyimiz, munozara.
<b>O`qitish vositalari</b>	Ma`ruzalar matni, oquv qollanmasi, marker, doska
<b>O`qitish shakli</b>	individual va guruh bo'yicha O`qitish.
<b>O`qitish shart-sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta`minlangan auditoriya.

### Seminar mashg`ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	talaba
<b>1-bosqich. Kirish (10 min.)</b>	1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o`tkazish rejasini aytadi. 1.2. Mashg`ulot munozara tarzida o`tishini ma`lum qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar
<b>2-bosqich. Asosiy (55 min.)</b>	2.1. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarga ta`rif berishni taklif qiladi va shu asosida blis-so`rov o`tkazadi (1-ilova) 2.2. Ish guruhlarda juftliklarda o`quv vazifani bajarilgandan so`ng "Muammoli seminar" sifatida davom ettirilishini e`lon qiladi. "Muammoli seminar" qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova). Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi. 2.3. Talabalarni 4 ta guruhlariga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatadi (3-ilova). Vazifani bajarishda qo`shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini ta`kidlaydi. 2.4. Guruhlarni o`zaro baholashni tashkil etadi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi (4-ilova). 2.5. Guruhlarda ish boshlaganligini e`lon qiladi, maslahatlar beradi. 2.6. Prezentasiyalarni taqdim etishlarini taklif qiladi va munozarani shakllantiradi. Munozara savol-javoblariga aniqlik kiritadi. Munozara bo`yicha xulosalar qiladi.	2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar. 2.2. O`quv vazifasi oladilar va tanishib chiqadilar. 2.3. Vazifani bajaradilar, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradi. 2.4. Boshqa guruhlar uchun savollar tayyorlaydi. Munozarada ishtirok etadi. YOzib oladi.
<b>3-bosqich. YAKuniy (15 min.)</b>	3.1. Ishga yakun yasaydi umumiy xulosalar qiladi, talabalarni baholaydi. 3.2. Kelgusi mavzuni Insert usulida o`qib kelishni mustaqil ish uchun vazifa qilib beradi.	3.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

**1-ilova**

### Blis-so`rov savollari

1. Talab nima?
2. Taklif nima?
3. Talab qonunini qisqa izohlang.
4. Taklif qonunini qisqa izohlang.
5. Muvozanat va bozor muvozanati tushunchalariga ta`rif bering.
6. Iste`molchi didi nimani belgilaydi?

## O`quv materiallar Talab va taklif tushunchalari

Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir. Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u «xohish», istak» bo`lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo`ladi, chunki narx zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o`zgaradi. Shu bog`liqlikdan kelib chiqib, talabga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'lum vaqt oralig`ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo`lgan ehtiyoji **talab** deyiladi. Boshqacha qilib aytganda talab – pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.

Talablar turlicha bo`lib, odatda bir xil tovar yoki xizmatlarga bo`lgan talabning ikki turi farq qilinadi: yakka talab va bozor talabi. Har bir iste'molchining, ya'ni alohida shaxs, oila, korxonalar, firmaning tovarning shu turiga bo`lgan talabi **yakka talab** deyiladi. Bir qancha (ko`pchilik) iste'molchilarning shu turdagi tovar yoki xizmatga bo`lgan talablari yig`indisi **bozor talabi** deyiladi. Hozirda iqtisodiy adabiyotlarda talabning turli ko`rinishlari ajratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, **ishlab chiqarish omillariga talab** (ishlab chiqarish talabi) va **iste'mol buyumlariga talab** (aholi talabi) farqlanadi. Shuningdek, **haqiqiy** (tovar va xizmatlarga haqiqatda namoyon bo`luvchi), **qondirilgan** (haqiqiy talabning bozorda tovar va xizmat sotib olish orqali qondirilgan qismi) va **qondirilmagan** (haqiqiy talabning bozorda zarur tovarlarning yo`qligi yoki ular assortimenti va sifatining xaridor talabiga javob bermasligi sababli qondirilmagan qismi) talablar farqlanadi.

Qondirilmagan talab turli shakllarda namoyon bo`lishi mumkin: **yashirin, joriy, harakatchan, to`plangan talab**. Tovarga bo`lgan talab ko`plab omillar, masalan, reklamadan foydalanish, moda va didlar, afzal ko`rish, atrof-muhit, tovarlarni qo`lga kiritish imkoniyati, daromad miqdori, nafillik, o`zaro o`rinbosar tovarlar narxi, aholi 0 TD-0.01soni, kelgusidagi narxlarning o`zgarishi va boshqalarning ta'sirida o`zgarishi mumkin. Shunga ko`ra, ekzogen va endogen talab farqlanadi.

### Talab egri chizig`i

Grafikdagi DD chiziq narx va talab hajmi o`rtasidagi teskari bog`liqlikni tasviriy aks ettiradi. Grafikdagi har bir nuqta tovarning aniq narxi va iste'molchi shu narxda sotib olishi mumkin bo`lgan tovar miqdorini ko`rsatadi. Narx va talab hajmining o`zgarishi o`rtasidagi teskari bog`liqlikni ko`rsatuvchi bu chiziq **talab egri chizig`i** deyiladi.

Agar talab egri chizig`i o`zining oldingi holatida qolsa va bunda u yoki bu tovarni sotib olishdagi har qanday miqdoriy o`zgarish talab miqdorining o`zgaruvchanligini bildiradi. Talab qonunining amal qilishi quyidagi sabablar orqali izohlanadi: 1) har qanday narx iste'molchi uchun to`siq vazifasini o`taydi. Iste'molchilar ma'lum bir tovarni uning narxi past bo`lsa, ko`proq sotib ola boshlaydi. Iste'molchi uchun narx sotib olishga xalaqit qiluvchi to`siq sifatida namoyon bo`ladi. Bu to`siq qancha yuqori bo`lsa, u shuncha kam tovar sotib oladi. Boshqacha aytganda, yuqori narx iste'molchining xarid qilish istagini so`ndiradi, past narx esa bu istakni kuchaytiradi. Real iqtisodiy hayotda ba'zan bu qoidaga zid bo`lgan, ya'ni ayrim tovar narxining o`sishi bilan unga bo`lgan talab miqdorining yanada ortishi holati ham uchraydi. Bu holat **Giffen samarasi** deb (ingliz iqtisodchisi R.Giffen nomi bilan) ataladi. Giffen kambag`al ishchi oilalari kartoshka qimmatlashishiga qaramasdan uni iste'mol qilish kengayishini kuzatib, bu samarani tasvirlab ko`rsatgan.

Ma'lum vaqt oralig`idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdagi tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori taklif deyiladi. Narx o`zgarishi bilan sotishga chiqariladigan mahsulot miqdori ham o`zgarishi sababli talab kabi taklifning ham bir qator muqobil variantlari mavjud bo`ladi. Alohida ishlab chiqaruvchi hamda bozor taklifini ifodalovchi misol jadvalda ko`rsatilgan. Taklif narxlarning turli darajasida qancha miqdordagi mahsulotning sotishga chiqarilishini ko`rsatadi. Narxning o`zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to`g`ri bog`liqlikdagi o`zgarishi **taklif qonuni** deyiladi.

### Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig`indisi emas, balki muammo echimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko`p gapirmasdan boshqalarning so`zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo`lida xissiyotlarinni jilovlab, batafsil o`ylagan holda so`zla.
4. Raqiblarning vaziyatini o`rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va istehzoli yondash.
6. Munozara predmeti bo`yicha chetga chiqmagan holda to`g`ri yondashib gapir.

### Muammoli seminarining boshqaruv dastaklari

**Boshlovchi** barcha vazifalarni o`ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to`g`riligini tasdiqlash, qo`llangan termin va tushunchalarning aniqlash, munosabatlarni to`g`ri qo`llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to`g`ri boshqarish.

**Taqrizchi** – tomonlarning ma`ruzalarini yo`nalishlar bo`yicha belgilash va to`liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyliigi va masalalarning aniq qo`yilganligi, xulosalarning aniq ko`rsatilishi.

**Raqib** – qabul qilingan tadqiqot o`rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma`ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki xato tomonlarini topish hamda o`zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

**Ekspert** – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning maxsuldorligini baholaydi.

### Munozara reglamentini o`tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma`ruza mavzusi va ma`ruzachilarning taqdimotlarini e`lon qiladi.
2. Ma`ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma`ruza mavzusi bo`yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

### Muhokama va xulosalar chiqarish uchun savollar

1. Talab qonunini tushuntiring. Talabga qanday omillar ta`sir qiladi? Bu omillardan har biri o`zgarsa, talab egri chizig`ida qanday o`zgarish ro`y beradi?
2. Taklif qonunini tushuntiring. Taklifga qanday omillar ta`sir qiladi? Bu omillardan har biri o`zgarsa, talab egri chizig`ida qanday o`zgarish ro`y beradi?
3. Engel qonunining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Iste`molchi xatti-harakati nazariyasining asosida nimalar yotadi? Bu nazariyaning asosiy qonun-qoidalarini izohlang.
5. Iste`molchining afzal ko`rishi nima? U iste`molchi tanloviga qanday ta`sir ko`rsatadi?
6. YAlpi (umumiy) naflilik va so`nggi qo`shilgan naflilik tushunchalari o`rtasida qanday bog`liqlik mavjud?
7. Befarqlik egri chizig`i nimani ifodalaydi? Befarqlik kartasi-chi? Ularning iste`molchi xatti-harakatini tushuntirishdagi ahamiyatini izohlang.
8. Iste`molchi byudjeti chizig`iga narx va daromaddagi o`zgarishlar qanday ta`sir ko`rsatadi?

<b>Taklif hajmi</b> - muayyan vaqt oralig`ida ma'lum narxda sotishga taklif etilgan tovarlar miqdori.
<b>Taklif qonuni</b> - har qanday bozorda, istalgan vaqtda boshqa teng sharoitlarda tovar narxi va unga taklif hajmi orasida to`g`ridan-to`g`ri bog`liqlik.
<b>Taklif egri chizig`i</b> – Qs ning P ga to`g`ridan-to`g`ri bog`liqligining grafik ko`rinishi. U ijobiy og`ish burchagiga ega va SS bilan belgilanadi. Taklif egri chizig`i ishlab chiqaruvchilarning joriy vaqtda turli narxlarda qancha miqdorda mahsulot sotishga tayyor ekanliklarini ko`rsatadi.

**Taklifga ta'sir etadi:**

- resurslar narxi o`zgarishi
- texnologiyalar o`zgarishi
- soliq va subsidiyalar o`zgarishi
- o`rinbosar tovarlar narxi o`zgarishi
- ishlab chiqaruvchilar soni o`zgarishi

<b>6-Mavzu. Raqobat va monopoliya</b>	
<b>Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi</b>	
<b>Vaqt: 2 soat</b>	Talabalar soni: 45-50 nafar
<b>O'quv mashg'ulotining shakli</b>	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti
<b>Ma'ruza mashg'ulotining rejasi</b>	1. Raqobatning mohiyati, ob'ektiv asoslari va rivojlanish bosqichlari. 2. Raqobatning shakllari va usullari. 3. Monopoliyalarning iqtisodiy asosi va ularning turlari. 4. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy oqibatlarini. 5. O`zbekistonda raqobatchilik muhitining vujudga kelishi va monopoliyaga qarshi qonunchilik.
<b>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</b> raqobat bozor iqtisodiyotining takomillashib borishidagi ahamiyatini ochib berish va uning qo'llanishi mumkin bo'lgan usullarini ilgari surish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> raqobat to`g`risida dastlabki tushuncha berish; - raqobatning usullari va 2 turini yoritish orqali ular bilimni chuqurlashtirish; - monopoliyalar paydo bo`lishi va rivojlanishining iqtisodiy asoslarini o`rganish; - monopoliyaga qarshi qonunlar to`g`risida tushuncha berish.	<b>O'quv faoliyatining natijalari:</b> Talaba: - guruh namoyondalari har bir raqobat usulini sharhlaydi va o`z misolini keltiradi; - monopoliyalar faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlarini asoslaydilar; - monopoliyaga qarshi qonunlarning amaliy ahamiyatini tahlil qiladilar.
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Axborot- ma'ruza, insert, hamkorlikda o'qitish texnikasi, sinkveyn
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruza matni, proektor, grafik organayzerlar, O`TVG`KT
<b>O'qitish shakli</b>	Frontal, guruhlarda
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan auditoriya.

### Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	talaba
